

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA‘LIMI VAZIRLIGI

**NIZOMIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

MARHABO SOBIROVA, BAXTIYOR ABSATTOROV

MILLIY G‘OYA TARIXI VA NAZARIYASI

Pedagogika oliy ta‘lim muassasalarining “Milli g‘oya, ma‘naviyat asoslari
va huquq ta‘limi” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi
2-bosqich talabalari uchun o‘quv qo‘llanma

Toshkent- 2022

Mualliflar:

Sobirova Marhabo Abdugʻaniyevna
Absattorov Baxtiyor Mamarasulovich

Taqrizchilar:

Matluba Qahhorova – OʻXIA professori, f.f.d.
Oynisa Muxammadiyeva – OʻzMU dotsenti, f.f.n.

Mazkur oʻquv qoʻllanma Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2022 yil 17-martdagi 106-sonli buyrugʻiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Ma'lumki, har qanday nazariya yoki ta'limot bir tizimga solingan g'oyalar majmuidan iborat bo'ladi. Dunyoqarashning negizini va muayyan ishonch-e'tiqodning asosini ham shu xalqchil g'oya tashkil etadi. Odamlar, ijtimoiy sinf va qatlamlarning, millat va davlatlarning manfaatlari va maqsadlari ham milliy g'oyada o'z ifodasini topadi. Shu ma'noda aytish mumkinki, mamlakatimizda aynan mustaqillik yillarida o'ziga xos tarzda shakllanib, rivojlanib kelayotgan milliy g'oya – xalqimizning o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadiga asoslangan va ko'p millatli fuqarolarimizni birlashtiradigan, safarbarlikka undaydigan, Yangi O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot strategiyasini, o'zbek xalqining Uchinchi Renessansni bunyod etish borasidagi maqsad-muddaolarini yoshlar qalbi va ongiga singdirishning muayyan tizimidir.

Jamiyat, mamlakat, millat taraqqiyotida muhim omil bo'lgan milliy g'oya zimmasiga bugun quyidagi vazifalar yuklatilmoqda:

birinchidan, milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tish jarayonida iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi ustuvor vazifalarni o'zida mujassamlashtirish;

ikkinchidan, mamlakat fuqarolari, ayniqsa, mamlakat aholisining 60 foizdan ko'prog'ini tashkil etuvchi yoshlar qalbida el-yurt, Vatan, millat taqdiri uchun daxldorlik hisssini tarbiyalash;

uchinchidan, shu davlat, shu mamlakat taraqqiyoti uchun o'zini daxldor deb bilgan barcha fuqarolarni, turli millat, elat, sinflar va ijtimoiy guruhlar vakillarini bir g'oya va maqsad atrofida birlashtirish;

to'rtinchidan, davlat olib boradigan ichki va tashqi siyosatning mazmun-mohiyatini fuqarolar, keng jamoatchilikka tushuntirish;

beshinchidan, davlatning umidi va ishonchi bo'lgan yosh avlodning yaratuvchilik, bunyodkorlik, ijodkorlik salohiyatlarini rivojlantirish va ularni jamiyat maqsadlariga yo'naltirish;

oltinchidan, xalqning orzu-umidlarini o'zida ifoda ettirib, jamiyatda mavjud bo'lgan muammolarni hal qilish uchun butun jamiyat va fuqarolarni harakatga keltirish;

yettinchidan, jamiyatda ma'lum siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy qarashlarni shakllantirish va hk.

Yana shuningdek, milliy g'oya xalqimizda, o'zining qudrati va himoyasiga suyangan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon

hamjamiyatidagi mutaraqqiy davlatlar orasida teng huquqli o‘laroq munosib o‘rin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiyalamog‘i kerak¹.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabr kuni Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida “...milliy o‘zligimizni anglash, vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, uni turli mafkuraviy qarashlardan xoli baholash, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish oldimizga qo‘ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo‘ladigan milliy g‘oyani rivojlantirishimiz zarur”²ligi alohida ta’kidlanganida ayni shu vazifalar nazarda tutilgan edi.

“Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” fani ana shu vazifalardan kelib chiqqan holda shakllantirilgan bo‘lib, bu fanni o‘rganishning o‘ziga xos zarurat va sabablari mavjud.

Birinchidan, bugun dunyoda demokratiya, demokratik jamiyat to‘g‘risida muayan mo‘tadillashgan ilmiy konsepsiyalar ishlab chiqilgan. Ularda demokratik jamiyatning qiyofasi asoslari yashash va rivojlanishining umume’tirof etilgan qonuniyatlari hamda uning har bir davlat va xalqning milliy – ma’naviy xususiyatlari bilan bog‘liq jihatlari tobora keng miqyosda o‘z ifodasini topmoqda.

Bugungi kunga kelib dunyoning 160 dan ortiq davlatlarida demokratik tuzumlar umumbashariy va milliy qadriyat sifatida qaror topgani e’tirof etilmoqda. Aynan hozirgi davrga kelib demokratiya insoniyat hayot tarzining eng maqbul rivojlanish yo‘li ekanini deyarli barcha e’tirof etayotganligi va uning jahoniy ko‘lam kasb etayotganligi milliy g‘oya, uning tarixi va nazariyasi bilan bog‘liq masalalarni fan sifatida o‘rganishni taqozo etayotgan sabablardan biridir.

Ikkinchidan, bugun Yangi O‘zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyat strategiyasining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash, uning milliy g‘oya bilan bog‘liqligini o‘rganish zaruriyati ham shu qonuniyat bilan bog‘liqdir.

Uchinchidan, bu fanni yana shuning uchun ham o‘rganish zarurki, bu zarurat mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilab berilayotgan umumstrategik vazifalarni amalga oshirish bilan bog‘liq.

¹ Қаранг: //Туркистон газетаси, 1999 йил, 2 февраль.

²Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга йўллаган murojaatnomasi.//Халқ сўзи, 2018 йил, 29 декабрь

I-bob. “MILLIY G‘OYA TARIXI VA NAZARIYASI” FANINING MAQSADI, VAZIFALARI VA NAZARIY ASOSLARI

1-§. “MILLIY G‘OYA TARIXI VA NAZARIYASI” FANINING OBEKTI, PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev asarlarida yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash masalalari. Muayyan bir davlatda milliy g‘oya va ma’naviyat masalasiga e’tibor berish avvalo mazkur davlat fuqarolarini teran idrokli, ilmi, zukko, chuqur mushohadali, o‘z tarixi durdonalaridan, ma’naviy boyliklaridan faxrlanuvchi, Vatanidan g‘ururlanuvchi, fidoyi, Vatan himoyasiga mudom tayyor turuvchi, o‘z mustaqilligini asrovchi inson sifatida tarbiyalash uchun ham zarurdir. Jamiyat va davlat taraqqiyotining hozirgi holati yosh avlodning g‘oyaviy va ma’naviy salohiyatini har tomonlama oshirishni talab etmoqda. Biz barpo etayotgan yangi jamiyatda shakllanayotgan milliy g‘oyaning asosiy maqsadi ham har tomonlama yetuk, barkamol insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdir. Zotan, O‘zbekistonning hozirgi davri, bundan keyingi taraqqiyoti va istiqboli hamda mustaqilligining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy-ma’rifiy-ma’naviy zaminlarini yaratish va mustahkamlash uchun birinchi navbatda yoshlar tarbiyasiga e’tibor qaratish suv va havodek zarur.

Milliy g‘oya taraqqiyotida asrlar mobaynida dunyoqarash va tushunchalar, turmush tarzi va an’analar hamda millatning shakllanish jarayonlari, bosqichlari, xususan, evolyusiyasi inobatga olinmog‘i zarur. Rivojlanish bosqichlari esa inson tafakkuri dinamikasini o‘zida mujassam etdi. Bu ikki unsur jamiyatning yangilanish jarayonida o‘zaro bog‘liq, uyg‘un holda vujudga keladi. Aks holda g‘oya zamindan uzilgan, hayot haqiqatini o‘zida ifoda etolmagan “muallaq” holda qolaveradi.

Shu o‘rinda xuddi shu zaruratni teran anglagan holda O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab har bir chiqishlari, ma’ruza va nutqlarida, shuningdek, har bir asarlarida yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash masalalariga jiddiy e’tibor qaratilayotganligini alohida qayd etib o‘tish zarur.

Dastlab mamlakat Prezidentining 2016-yil 30-dekabr kuni mamlakatimizning yetakchi ilm-fan namoyondalari bilan uchrashuvda bildirgan fikr mulohazalarida, o‘tgan yillar mobaynidagi qator ma’ruza va chiqishlarida, dunyoning nufuzli minbarlari, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72, 75-sessiyalarida so‘zlagan nutqida,

2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni asosida qabul qilingan “2017 – 2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi” da va shu kabi bir qator meyoriy-huquqiy hujjatlarda O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” tamoyiliga asoslangan milliy g‘oyani rivojlantirishning konseptual asoslari o‘z ifodasini topdi.

Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti sifatida birinchi imzolagan qonun hujjati – 2016 yil 14 sentabrdagi “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun ekanida ham ramziy mazmun-mohiyat mujassam. Bu aholisining yarmidan ko‘prog‘i yoshlardan iborat bo‘lgan mamlakatda yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol, intellektual salohiyatli, o‘z qat‘iy pozitsiyasiga ega, yurtda amalga oshirilayotgan islohotlarga befarq bo‘lmagan, yurtning ertangi munosib kelajagi uchun daxldorlikka tayyor, maqsadga intiluvchan, serg‘ayrat, vatanparvar, sadoqatli, komil shaxslar sifatida tarbiyalash O‘zbekistonni dunyoning eng rivojlangan davlatlari safidan o‘rin olishining muhim omili bo‘lishini mamlakat rahbari to‘g‘ri anglab yetganligining amaliy isbotidir.

2017 yildan O‘zbekiston taraqqiyotining yangi davri boshlandi. Mamlakatimiz taraqqiyotini yangi, yuksak bosqichga ko‘tarish, islohotlarni amalga oshirish obyektiv zarurat va eng muhim strategik vazifa sifatida belgilandi.

Shu sababdan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019 yilning o‘zida ushbu yo‘nalishda ikkita muhim hujjat – 8 aprel kuni “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyish hamda 3 may kuni “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorga imzo chekdi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari raisligida 2019 yil 14 avgust kuni mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha 2019 yilning birinchi yarmida amalga oshirilgan ishlarni muhokama qilish hamda 9 oy va yil yakuni bo‘yicha belgilangan prognoz parametrlariga erishishni ta‘minlaydigan ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan kengaytirilgan yig‘ilishda ham mazkur masalalar tahliliga alohida urg‘u berildi.

2020-yil 31-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 29 yilligi munosabati bilan Prezident Shavkat Mirziyoyevning tantanali tabrik

nutqida taraqqiyotimizning maqsadi Uchinchi Renessans bo'lishi lozimligi alohida ta'kidlandi. Nihoyatda jozibali mazkur strategik g'oya o'zining ulug'vorligi, milliy yuksalish barcha jabhalarda qanday umumiy maqsadni ko'zlamog'i zarurligini ko'rsatadi. Amalda davlat rahbari taraqqiyotning hozirgi bosqichida O'zbekiston milliy g'oyasining yangi va aniqlashtirilgan mazmunini ifodaladi. Uchinchi Renessans g'oyasini, avvalo, jamiyatimiz chuqur anglab olmog'i kerak. Har jabhada, sohada qiladigan ishlarimiz, rejayu istiqbol dasturlarimiz, ta'lim-tarbiya va kadrlar siyosati, investitsion siyosat – barchasi unga sharoit va muhit yaratishga qaratilmog'i lozim.

2021-yilning dastlabki oyida O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida o'tkazilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida jahon tarixida har bir xalqning avvalo ma'naviy birlashuvi, milliy g'oyasi bilan yuksalganini ko'rish mumkin. Bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo'lidan borayotgan O'zbekistonda ham milliy g'oya masalasi juda muhim ahamiyatga ega.

Davlat rahbarining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli Farmoni asosida qabul qilingan yettita ustuvor yo'nalishni o'z ichiga olgan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" da yangi beshinchi ustuvor yo'nalish sifatida "Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish" yo'nalishi belgilandi. Ushbu yo'nalishda "Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan "Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari" g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish", "Aholiga axborot-kutubxona xizmatini ko'rsatishni yanada rivojlantirish, kitobxonlikni keng ommalashtirish hamda "Kitobsevar millat" umummilliy g'oyasini ro'yobga chiqarish", "Buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy merosini chuqur o'rganish va keng targ'ib etish", "Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlash", "Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish"³ kabi ustuvor maqsadlar belgilandiki, ushbu maqsadlarning amalga oshirilishi jamiyatda milliy g'oyani keng targ'ib qilish bilan bir qatorda o'sib kelayotgan yosh avlodni milliy g'oya ruhida tarbiyalashda muhim va dadil qadamlardan biri bo'lib xizmat qilmoqda.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони.2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида// Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон, 18.03.2022 й., 06/22/89/0227-сон, 21.04.2022 й., 06/22/113/0330-сон.

“Erkin Va Farovon Demokratik O‘zbekiston Davlatini Birgalikda Barpo Etamiz”(2016), “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz”(2017), “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib yangi bosqichga ko‘taramiz”(2017), “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir”(2018), 3-jild esa “Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi”(2019), “Milliy tilanishdan milliy yuksalish sari”(2020), “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”(2021) kabi asarlarida o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida milliy g‘oya yetakchi omil bo‘lib xizmat qilishi, milliy g‘oyaning mazmun-mohiyatini bugun har birimiz chuqur anglashimiz barobarida, yuksak e‘tiqod bilan amaliy faoliyatimizdagi ifodasini ta‘minlab bera olishimiz zarurligi, har bir millat, davlat, jamiyat va insonning o‘zligini anglashi va taraqqiyotga erishishi milliy g‘oyaning hayotiyliigi hamda amaliyotda to‘laligicha aks etishiga bog‘liqligi asoslab berilgan.

“Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” fanining shakllanishi, ob’ekti va predmeti. Ma’lumki, o‘tgan XX asrning so‘nggi yilligi dunyo xaritasida yangi mustaqil davlatlarning paydo bo‘lganligi bilan xarakterlanadi. O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida qayd etilganidek, “Ular hozirgi til bilan aytganda, sotsialistik o‘tmishga ega bo‘lgan, o‘z siyosiy mustaqilligini tinch yo‘l bilan qo‘lga kiritgan davlatlardir. Bu davlatlar mustaqil rivojlanish va ijtimoiy munosabatlarni yangilash yo‘liga qadam qo‘ydi”⁴. Ana shunday mustaqil taraqqiyot yo‘liga qadam qo‘ygan davlatlar turli mintaqalarda joylashgan bo‘lib, ular YUNISEFning 2003-yilgi Ijtimoiy monitoringida qayd etib o‘tilganidek, Markaziy Yevropaning (5 ta), Boltiqbo‘yi davlatlarining (3 ta), Bolgariya va Ruminiya, Farbiy-Sharqiy Yevropa mamlakatlarining (5 ta), mustaqil hamjamiyatdagi davlatlarning g‘arbiy qismida (4 ta), Kavkazorti davlatlarida (3 ta) va Markaziy Osiyoning (5 ta) davlatlarini o‘z ichiga oladi⁵. Ana shu mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlagan va dunyodagi boshqa mamlakatlar orasida o‘z mavqeini mustahkamlashga intilayotgan, tenglar orasida teng bo‘lishga, jahon maydonida o‘ziga xos nufuzli o‘ringa ega bo‘lishga harakat qilayotgan davlatlardan biri O‘zbekiston Respublikasidir.

⁴ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997 йил, 3-бет.

⁵ Qarang: ЮНИСЕФ. Ижтимоий мониторинг. 2003 йил, 2-бет

Xuddi shu davlat 1991-yil 31-avgust kuni o'z mustaqilligini e'lon qildi. Xuddi shu kuni Vatanimiz va xalqimiz o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini qo'lga kiritdi. O'tgan yillar mobaynida dunyo xaritasidan O'zbekiston Respublikasi degan yangi mustaqil davlat munosib o'rin egalladi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik tuzum barpo qilishga kirishildi. Buning uchun siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan tub islohotlar amalga oshirildi. Mamlakat va xalq oldiga rivojlangan davlatlar safidan munosib o'rin olish vazifasi qo'yildi. Ana shu tarixan qisqa bir davrda juda katta va murakkab, shu bilan birga, sharaflı yo'l bosib o'tildi. Mustaqillik Vatanimiz tarixida mutlaqo yangi sahifa ochdi.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston xalqi o'zini milliy-ma'naviy yangilanishda milliy istiqlol g'oyasiga tayanishga alohida e'tibor berdi. Sobiq sho'rolar davrida amal qilinib kelingan, xalqimizning milliy ma'naviy ruhiyatiga tamomila zid bo'lgan "kommunistik g'oya" dan voz kechildi.

Ammo insoniyatning tarixiy taraqqiyoti va tajribasidan ayonki, biron-bir jamiyat ezgu g'oyalar va mafkurasiz rivojlana olmaydi. Shu boisdan ham mamlakatimizda xalqimizni g'oyaviy qurollantirish, ular ongi va qalbiga milliy mafkuraning bosh va asosiy g'oyalarni singdirish, fuqarolar, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida mafkuraviy immunitetni shakllantirishdan va mustaqillikni g'oyaviy mustahkamlashga xizmat qiladigan milliy g'oyani shakllantirish va rivojlantirish ehtiyoji tug'ildi.

G'oyalarning jamiyatga ta'sir yo'nalishlari va xarakterini belgilash uchun, ularni maxsus bilish obykti sifatida olib qarashning ahamiyati juda katta. Xususan, g'oyalarning mohiyatini o'rganishda, nazariy bilimlar va amaliy faoliyatlar samaradorligini oshirish - birinchidan, umuminsoniy va milliy ma'naviy madaniyatning mushtaraklashgan ifodasi bo'lgan g'oyalarni strukturaviy-funksional o'rganuvchi maxsus fan - ideologiyani rivojlantirish; ikkinchidan, g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlarni tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishda ijtimoiy-siyosiy ideologiyalarning ilmiy usullari hamda vositalari uyg'unlashuvini ta'minlash; uchinchidan, g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlarning turli tarixiy shakllarini va muqobil yo'nalishlarini, ilmiy-nazariy bilish asosida muvofiqlashtirishga bog'liq bo'ladi.

G'oya va mafkuralar mazmunini nazariy bilish-ijtimoiy munosabatlarning turli darajalarda: kundalik amaliy urf-odatlar, an'analar, yoki murakkab ijtimoiy-siyosiy madaniyatga asoslangan tizimlar tarzida

namoyon bo'lishini ilmiy izohlashdan iborat. Bu esa, o'z navbatida, insonning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy munosabatlarini ilmiy ideologiya asosida tashkil qilish uchun: birinchidan, milliy doiradagi moddiy va ma'naviy, nazariy va amaliy faoliyat yo'nalishlarining umuminsoniy manfaatlar asosida bog'lanishni; ikkinchidan, ularning o'zaro munosabatlarini tashkil qilish va boshqarishda umuminsoniy g'oyalar majmuasining milliy doiradagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'sir rolini ko'rsatishni; uchinchidan, milliy g'oya rivojlanishiga differentsiallashtirilgan tarzda yondoshgan holda, alohida ta'sir ko'rsatadigan: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'muriy omillarning ahamiyatini belgilashni; to'rtinchidan, ijtimoiy g'oyalarning milliy va umuminsoniy xususiyatlarini jamiyatning aniq rivojlanish darajalari bilan bog'lab ifodalash lozim.

Milliy g'oya va mafkuralarning rivojlanish darajasi ijtimoiy munosabatlarni, muayyan manfaatlar doirasida, uyg'unlashtirishdan iborat mafkuraviy faoliyatni (nazariy hamda amaliy jihatlardan) tashkil etish xarakteriga mos keladi. Zero, uning pirovard natijasida, jamiyat ijtimoiy-siyosiy munosabatlarining barqaror rivojlanishiga olib keladigan yangi progressiv g'oyalarga asos bo'lib, ularni amalga oshirishning muayyan shart-sharoitlarini, uslub va vositalarini ta'minlaydigan mafkurani taqozo qiladi. Shu nuqtai nazardan, ideologiyani jamiyatning g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlarini o'rganuvchi fan sifatida-insonning muayyan ehtiyojlarini (umuminsoniyat manfaatlariga mos kelishidan qat'iy nazar) qondirish, maqsadlariga erishish yo'li, deyish mumkin. Ana shu omillar "Milliy g'oya tarixi va nazariyasi"ning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

"Milliy g'oya tarixi va nazariyasi" fani "Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" bakalavriat ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan mutaxassislik fanlaridan biri bo'lib, ushbu fan ezgu g'oyalardan va sog'lom mafkuradan mahrum bo'lgan biron bir millat va jamiyat uzoqqa bora olmasligini o'rgatadi, har qanday xalq va davlat o'z taraqqiyotining g'oyaviy-mafkuraviy tamoyillarini belgilab olishi zarurligini uqtiradi, yoshlarning qalbi va ongiga Vatanga muhabbat, milliy g'oyaga sadoqat ruhini singdiradi. Bu esa, kelajagimizni yaqqol tasavvur etish, jamiyatimizning ijtimoiy-ma'naviy poydevorini mustahkamlash, yot g'oyalar tajovuziga qarshi tura olish, g'oyaviy bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, va nihoyat, yurtimizning yuksak taraqqiyotini ta'minlash uchun milliy g'oyaning mazmun-mohiyatini chuqur o'rganish imkonini beradi.

Har bir bir fanning o‘rganadigan bosh mavzusi, obykti bo‘lgani kabi “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” fani ham o‘z obyektiga ega. Xalqimizning tarixiy, milliy –ma’naviy merosi, qadriyatlari, maqsad va mo‘ljallari, demokratik printsiplarini namoyon bo‘lishining umumiy va milliy xususiyatlarini o‘rganish – “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” fanining **obyektidir.**

Ushbu fanning **predmetini** milliy g‘oya va mafkuraning tarixiy ildizlari, xalqimizning ma’naviy merosi va qadriyatlarining shakllanishi, umuminsoniy demokratik printsiplar, milliy mafkuraning bosh va asosiy g‘oyalarining o‘zaro munosabati, uni taqozo etuvchi umumiy va o‘ziga xos xususiyatlari tashkil etadi.

“Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” fanini o‘rganishning ahamiyati, uning maqsad va vazifalari. “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” fanini o‘rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Fan talabalarni mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik jamiyat qurishning maqsadlari, uning shakllanishi va rivojlanishi strategiyasi, bu strategiyaning milliy g‘oya bilan bog‘liqligi to‘g‘risidagi g‘oyalar, qarashlar bilan tanishtiradi. Mazkur g‘oyalarning talabalar ongi va tafakkuriga singdirilishida, ishonch va e‘tiqodlariga ko‘chishida muhim o‘rin tutadi. Demokratik jamiyat qurishning qonuniyatlarini bilishda, uning jahonda e‘tirof etilgan tamoyillarini har bir mamlakat va xalqning milliy, ma’naviy xususiyatlari bilan bog‘liq holda amalga oshirish zarurligini his etish va unga amal qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Xaqiqiy demokratiya bilan soxta demokratiyaning farqini ko‘rishda, uni baholab, munosabat bildirishda, fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

“Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” fanini o‘rganish orqali erkin, demokratik, fuqarolik jamiyati qurilishining nazariy asoslarini dunyoda demokratik jamiyat qurish bilan bog‘liq umumiy qonuniyatlarni bilish bilan birga, demokratiyaning o‘ziga xos milliy ko‘rinishlari, “milliy modellari”ning ma’no-mazmunini to‘g‘ri tushunib olishga muvaffaq bo‘lish mumkin.

Yoshlarni milliy g‘oya ruhida tarbiyalash, ularning ongi va qalbiga ezgu fazilatlarni, bunyodkorlik g‘oyalarini singdirish orqali milliy va umumbashariy qadriyatlarga sodiqlik, vatanparvarlik fazilatlarni mustahkamlashning muhim vazifalari hal etiladi.

Milliy g'oyalar va mafkuraviy qarashlar har bir davlatning mavjudlik belgisi hisoblanadi. Ayni paytda, ushbu qadriyatlar o'sha davlat va xalqning ijtimoiy mo'ljali hamdir. Yana shu narsaga e'tibor berish lozimki, davlatlarning ijtimoiy-siyosiy tuzumlari o'zgargan paytlarda g'oyaviy-mafkuraviy qarashlar ham o'zgaradi. Umuman, g'oyaviy-mafkuraviy qarashlar, ular tomonidan himoya qilinadigan qadriyatlar har bir davlat va xalqning ijtimoiy taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etadi.

Shu ma'noda aytish mumkinki, milliy g'oyani, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasini, o'zbek xalqining Uchinchi Renessansni bunyod etish borasidagi maqsad-muddaolarini hisobga olgan holda, yoshlar qalbi va ongiga singdirishning muayyan tizimi va ustuvor yo'nalishlari mavjud. Bunda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanishni taqozo etiladi.

O'zbekiston hayotidagi o'zgarishlar insonlar ongida ham katta o'zgarishlar qilishni talab etadi. O'tish davrini boshidan kechirayotgan har qanday davlat yangi zamon kishisini tarbiyalash haqida jiddiy qayg'urishi, tabiiy. Demak, O'zbekistonda ham, "komil inson" g'oyasida e'tirof etilgan shaxs mos sifatlarini fuqarolarda qaror toptirish vazifasi ko'ndalang turibdi. "Fuqarolik axloqi"ni bunday tarbiyalash mafkuraviy siyosatning negizini tashkil etadi.

Milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishda har bir ota-ona o'z farzandining maktabgacha tarbiyasi, uning keyingi taraqqiyot davrida qanchalik ahamiyat kasb etishi, bu davr uzluksiz ta'lim va tarbiyaning muhim bosqichi ekanini anglab yetishi nihoyatda muhim. Bunda oilaning ta'lim muassasalari tizimiga izchil uyg'unlashuviga erishish zarur. Bu davrdagi barcha bevosita ta'lim beruvchi muassasalar (maktablar, litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlari) mafkuraviy tarbiyaning asosiy o'choqlaridir. Ularning barchasida amalga oshiriladigan mafkuraviy ta'lim jarayonida, barcha o'quv qo'llanmalari va darsliklar, qo'shimcha adabiyotlarda quyidagi omillar ustuvor ahamiyat kasb etishi lozim:

- vatan tuyg'usini shakllantirish;
- ona tilimizga muhabbat uyg'otish;
- milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish;
- ezigulik timsoli bo'lgan ayolni ulug'lash;
- oilaning vatanparvarlik hissini tarbiyalashdagi rolini ko'rsatish;

- mahallaning demokratiya darsxonasi va o‘z-o‘zini boshqarish maktabi ekanini tushuntirish va hokazo.

Jamiyatimizda ta’lim-tarbiya, qolaversa, targ‘ibot-tashviqot ishlariga yo‘naltirilgan barcha institusional tizimlar orqali shakllantirilayotgan, targ‘ib qilinayotgan milliy g‘oya:

Birinchidan – milliy g‘oya va milliy mafkura o‘zligimizni, muqaddas an’analarimizni va xalqimizning ko‘p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini jamiyatimiz oldida turgan bugungi oliy maqsad va vazifalarini qamrab olishi shart;

Ikkinchidan – mamlakatimizdagi insonlarning barchasini yagona milliy bayroq ostida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning dahlsizligini ifodalaydigan, el-yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan yagona g‘oya-mafkura bo‘lishi keraq

Uchinchidan – milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga o‘xshash unsurlardan boshqa elat va millatlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutloqo xoli bo‘lib, qo‘shni davlat va xalqlar umuman jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda o‘zimizga munosib hurmat izzat qozonishda poydevor va rahnamo bo‘lishi darkor;

To‘rtinchidan – milliy g‘oya va mafkura birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek olijanob ishlarimizda madadkor bo‘lishi zarur.

Beshinchidan – Vatanimizning shonli o‘tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog‘lab turishga, shu bilan birga jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo‘l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da’vat qiladigan g‘oya bo‘lishi kerak⁶.

Aslida jamiyatning o‘z ertasi va kelajagiga ishonchi o‘z-o‘zidan hosil bo‘lmaydi. Buning zamirida millat baxt saodati yo‘lida, demak har bir fuqaro manfaatidan kelib chiquvchi maxsus faoliyat – mafkuraviy tarbiya yotadi.

Mafkuraviy tarbiya jarayonida fuqarolarga, xususan, o‘sib kelayotgan yosh avlodga g‘oyaga qarshi - g‘oya, jaholatga qarshi - ma’rifat tamoyilining mazmun va mohiyatini tushuntirib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizning birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 1998 yili “Tafakkur” jurnali bosh muharririning bergan savollariga javoblarida hamda

⁶ Қаранг: Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси-халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000, 17-бет.

tarixchi olimlar bilan bo'lgan uchrashuvda ilk bor bu masalaga diqqat bilan e'tibor qaratilib, "g'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin" degan shior o'rtaga tashlangan edi. Bu masala g'oya va mafkura tushunchasida ham muhim o'rinda turadi.

Milliy ma'naviyatimizni va ma'naviy o'zligimizni tahdidlardan himoya qilishda milliy g'oyaning juda muhim funksiyasi, ya'ni milliy va ma'naviy o'zlikni himoyalash kabi muhim funksiyasi namoyon bo'ladi. Milliy g'oya ana shu funksiyani bajarishi uchun esa yoshlar va aholi ongida faqat bilim, tasavvur sifatida emas, ishonch va e'tiqod sifatida shakllanishi lozim.

Milliy g'oyaning shakllantirilishi va uning o'quvchilar, tinglovchilar, keng aholi tomonidan o'rganishga kirishilishi mamlakatimiz ma'naviy taraqqiyotida alohida bosqichni tashkil qiladi. Aslida milliy istiqlol g'oyasining negizlari chuqur. U xalqimizning milliy madaniy merosidan, ezgu g'oyalardan oziqlanadi. Lekin, bu g'oyani yoshlar va aholi ongiga singdirish uchun muayyan poydevor kerak edi. Ya'ni, avvalo milliy qadriyatlarni, milliy ma'naviyatni tiklash, milliy g'ururni uyg'otish, bir so'z bilan aytganda, milliy istiqlol g'oyasi tomir otishi va gurkirab rivojlanishi uchun zamin tayyorlash lozim edi.

Mustaqillik qo'lga kiritilgandan buyon o'tgan davr ichida ma'naviyat sohasida ulkan nazariy, ma'rifiy va amaliy ishlar bajarildi. Ma'naviyat va ma'rifat kengashlari tuzildi, yuzlab maqola va risolalar nashr etildi, tadqiqotlar o'tkazildi, ta'lim to'g'risida milliy dastur qabul qilindi. Bir so'z bilan aytganda, milliy g'oyani keng targ'ib qilish uchun zamin yaratildi.

Milliy g'oya jamiyatni jipslashtiruvchi, uni ijtimoiy taraqqiyot ko'ndalang qo'yayotgan masalalarni hal qilishga, chetdan bo'layotgan g'oyaviy, ma'naviy tahdidlardan himoyalashga qaratilgan kuchdir. Jahondagi globallasuv jarayonlari ana shu g'oyaga bo'lgan ehtiyojni keskin kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, yot g'oyaga qarshi biz o'z olijanob g'oyamizdan maktablarimizda, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarda, oliy o'quv yurtlarida, jamiyatimizning barcha qatlamlarida bizga mutlaqo begona bo'lgan nosog'lom qarashlarga, huruj va harakatlarga qarshi chiqishimiz lozim. Bunda eng muhim masalalardan biri odamlarda o'z fikrini aytish, erkin fikrlash ko'nikmasi va fikrga qarshi fikr shakllanishi zarur. Uchinchi

masala –yoshlarda jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurasha olish fazilatini shakllantirish masalasidir.

Shulardan kelib chiqqan holda “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” fanining **maqsadini** quyidagicha ifodalash mumkin: Mazkur **fanni o‘qitishdan maqsad** – talabalarga milliy g‘oyaning shakllanishi, uning tarixiy ildizlari va negizlarining xalqimiz hayotida tutgan o‘rni va rolini o‘rgatish, O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlashda milliy g‘oya va mafkuraning ahamiyatini ochib berish.

Fanning asosiy vazifalari

- milliy g‘oyaning insoniyat hayotida tutgan o‘rnini, vazifalarini yoritib berish;

- yoshlarning ijtimoiy faoliyatida muqobil g‘oya va mafkuralarga oqilona munosabatni;

- xalq orasida milliy g‘oyani targ‘ib-tashviq qilish malakasini tarbiyalash;

- yoshlarni ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash.

- yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g‘oya omilidan foydalanish va shu kabilar.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

G‘oya, milliy g‘oya, milliy g‘oya tarixi va nazariyasi Yangi O‘zbekiston, Uchinchi Renessans, strategiya, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, milliy tiklanish, milliy yuksalish, milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasi, ma’naviy taraqqiyot, ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Qachondan boshlab O‘zbekiston taraqqiyotining yangi davri boshlandi?
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2019 yilda imzolangan ikkita muhim hujjatni sanab o‘ting...
3. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning qaysi asarlarida milliy g‘oyani rivojlantirish zarurati va yosh avlod tarbiyasida milliy g‘oyaning o‘rni ilmiy jihatdan asoslab berildi?
4. “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” fanini o‘rganishning zaruratini izohlang...
5. “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” fanining obekti va predmeti nima?
6. “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” fanining yuzaga kelishi sabablarini izohlang...

7. G'oya va mafkura tushunchalari nimalarni o'zida mujassam etadi?
8. "Milliy g'oya tarixi va nazariyasi" fanining maqsad va vazifalarini sanab o'ting...

2-§.MILLIY G'OYANING SHAKLLANISH TARIXI, UNING NAMOYON BO'LISH XUSUSIYATLARI

Inson, millat va jamiyat hayotida g'oya va mafkuraga bo'lgan talab-ehtiyojlar. Har qaysi davrda inson, millat va jamiyat hayotida g'oya va mafkuraga bo'lgan talab-ehtiyojlar kuchli bo'lgan. Zero, Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyoqarashi va mentalitetiga asoslangan, ayni vaqtda shu xalq, shu millatning kelajagini ko'zlagan va uning dunyodagi o'rnini aniq-ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan, kechagi va ertangi kun o'rtasida o'ziga xos ko'pri bo'lishga qodir g'oya jamiyat mafkurasidir. (Islom Karimov. "Jamiyatimiz mafkurasi xalqni -xalq, millatni – millat qilishga xizmat etsin" asaridan).

G'oya va mafkura tushunchalari, umuman ijtimoiy-siyosiy fanlar, xususan falsafada muhim o'rin tutadi, ammo ularning mazmuni maxsus tadqiqot obekti sifatida hali yetarli darajada ilmiy tadqiqot qilinmagan, aksariyat hollarda mazkur tushunchalarga sinfiylik, partiyaviylik nuqtai nazaridan yondoshib kelingan. Shuning uchun ham hozirgi falsafiy, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarda g'oya va mafkura to'g'risida bir-biridan farq qiluvchi turli-tuman ta'riflarni, tavsiflarni, izoh va talqinlarni uchratish mumkin.

G'oya – inson tafakkuri mahsulidir, milliy g'oya esa millat tafakkurining mahsulidir. Oddiy fikr ham inson tafakkuri mahsulidir. Biroq har qanday fikr ham g'oya bo'la olmaydi. G'oya ham fikr ifodasi yoki fikrlar majmuasidir, ammo o'zining ijtimoiy xarakteri bilan oddiy fikrlardan farqlanadi.

G'oya deb, inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy kuchga ega bo'lgan, ruhiyatga kuchli ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga keltiradigan, ularni maqsad - muddao sari yetaklaydigan fikrga aytiladi.

Har qanday tushuncha, fikr va qarash ham milliy g'oya bo'la olmaydi. Chunki **shaxsiy fikr** - o'ziga xos bir qarashdir, **ijtimoiy fikr** esa - voqelikka nisbatan o'zgarish yoki harakatni taqozo etadigan faol munosabatni

ifodalaydi. G'oya ana shu munosabatni harakatga, jarayonga, zarurat tug'ilganda esa, butun bir davr tarixiga aylantiradi.

Mazmuni-mohiyatiga va namoyon bo'lish shakliga ko'ra g'oyalarning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

- bunyodkor g'oyalar;
- buzg'unchi g'oyalar;
- ijtimoiy-siyosiy g'oyalar;
- ilmiy g'oyalar;
- diniy g'oyalar;
- falsafiy g'oyalar;
- badiiy g'oyalar;
- milliy g'oyalar;
- umuminsoniy g'oyalar va hokazo.

G'oya va mafkuralar obektining dinamik o'zgarishi, plyuralizm va tolerantlik tamoyillari tobora ko'proq e'tirof etib kelinayotgan hozirgi davrda bu jarayonga "tabiiy hol" sifatida qarash taqozo etiladi. Zero, shu jarayonda g'oya va mafkura, milliy g'oya va milliy mafkura tushunchalarining turli-tuman qirralari har xil nuqtai nazarlardan tahlil qilinmoqda.

Ma'lumki, an'anaviy tarzda, aksariyat hollarda "g'oya" va "ideya" atamaları sinonimik tushunchalar sifatida qo'llanilib kelinadi. Xususan, Platon falsafasi haqida so'z yuritilganda odatda "ideyalar dunyosi" atamasi emas, balki "g'oyalar dunyosi" atamasi qo'llanilib kelinadi. Darhaqiqat, keng ma'noda ideya yoki g'oya deganda muayyan narsa-hodisalarning muhim belgilari majmuasi, asosiy mazmunini ifodalovchi asosiy fikr nazarda tutiladi.

Umuman, xalqlar, millatlar va davlatlar mavjud ekan, ularning borligini anglatib turuvchi g'oyalarning amal qilishi tabiiydir. Insoniyatning taraqqiyoti, uning kelajagi mavjud mintaqaviy, irqiy va diniy manfaatlarni o'zida aks ettiruchi g'oyalarning mutanosibligini ta'minlashga bog'liq. Bunday mutanosiblikning buzilishi esa dunyoda ko'plab muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Gnoseologik jihatdan g'oya va mafkura ruhiy olam, subektiv reallik, ong hodisalari sifatida, birinchidan, mavjud obektiv reallik in'ikosi va ayni paytda kelajakning rejasidir; ikkinchidan, o'z-o'zining in'ikosi va rejasidir. Ontologik jihatdan g'oya va mafkura subektiv reallik hodisalari sifatida

muayyan narsa-hodisa, jarayon-voqelikning bizning ongimizdan tashqarida mavjud ekanligini ifodalovchi mazmunga ega. Ammo, ayni paytda, g'oya va mafkura inson ichki dunyosining ham realligidirki, bu reallik inson uchun undan tashqaridagi moddiy narsalarga nisbatan muhimroq ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. Binobarin, g'oya va mafkura tushunchalari obektiv va subektiv reallikning in'ikosini va kelajak rejasini ifodalovchi belgilarni ham, obektiv va subektiv reallikning mavjudligi va rivojlanishini ifodalovchi belgilarni ham o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, bir tomondan, muayyan g'oya va mafkura tushunchalarining mazmuni muayyan voqelikning in'ikosidir (gnoseologik jihat), ammo ular o'z-o'zini emas, balki mazkur voqelikni ifodalaydi (ontologik jihat), ikkinchi tomondan, bu muayyan mazmun, ayni vaqtda, subektiv reallik sifatida mavjud (ontologik jihat) va mazkur subektiv reallikning mazmuni sifatida in'ikos etadi (gnoseologik jihat).

Har qanday g'oya eng avvalo individual ongda paydo bo'ladi. Individual ong esa, ijtimoiy ongga nisbatan faoldir. Ba'zan ijtimoiy ongning mavqei mutlaqlashtiriladi va natijada jamiyat ma'naviy hayotida shaxsning roli kamsitiladi. Bunday hollarda g'oyalarning, umuman madaniy qadriyatlarning birdan-bir yagona ijodkori, aql va tafakkurning, vijdon va ijodiy ruhning yagona sohibi, mas'uliyat his qiluvchi jonli konkret inson g'oyib bo'ladi, uning qobiliyat va vakolati u yoki bu mavhum umumiy kuchlar foydasiga begonalashtiriladi. Vaholanki, ijtimoiy ongda sodir bo'ladigan har qanday yangiliklarning birdan-bir yagona manbai individual ongdir. Ijtimoiy ong tarkibidan avval boshda individual g'oya bo'lmagan biron-bir g'oyani topib bo'lmaydi. Ijtimoiy mavqe kasb etgan barcha g'oyalar individlar tomonidan yaratiladi, rivojlantiriladi va boyitiladi. Biz keng aholi ommasiga, butun insoniyatga aloqador muammolarni tahlil qilgan paytlarimizda aksariyat hollarda davr voqeliklarining mualliflari o'zimiz ekanligimizni yetarli darajada anglay olmaymiz.

G'oya va mafkura tushunchalari ham obektiv reallik in'ikosini, ham muayyan maqsad-muddao va ideallarni o'zida mujassam etadi. Bu ikki tomon bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, g'oya va mafkura tushunchalarining o'ziga xos xususiyatlarini va ularning inson ongi harakatidagi o'rnini belgilaydi. G'oya va mafkura tushunchalari voqelik rivojlanishida, insonning amaliy faoliyati jarayonida yangi, hali mavjud bo'lmagan reallik shaklini yaratuvchi faol, vositachi zvenodir. Boshqacha aytganda, g'oya va mafkura

tushunchalari praktsiologik xarakterga egadir. Bu hol - kelajak loyihasi, maqsadga erishishga intilish, hohish-iroda va ijobiy yaratuvchanlik omillarini ifodalaydiki, psixologiyada bu omillar yoki xislatlar “xohish”, “intilish”, “maqsad qo‘yish”, “irodaviy kuch”, “aqliy harakat” kabi atamalarda ifodalanadi.

Insoniyat tarixi - g‘oyalar tarixidir, deyishadi. Darhaqiqat, insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomidagi barcha yirik voqea-hodisalarning tag-zamirida u yoki bu g‘oya yotadi. Eng buyuk kashfiyotlar yoki tub sotsial o‘zgarishlar avvalo ular haqidagi orzu-niyatlardan, intilishlardan boshlangan. Muayyan ijtimoiy guruh, qatlam, millat, xalq, davlat yoki jamiyatning ehtiyojlarini, maqsad-mudaolarni, orzu-intilishlarin o‘zida mujassam etuvchi g‘oyalar tizimi sifatida namoyon bo‘ladigan mafkura - istiqbolning yaratuvchisidir. Kecha orzu-niyat bo‘lgan milliy davlatimizning bugun biz uchun sha’n va iftixorga aylanganligi buning yaqqol misolidir.

Milliy g‘oyalar va mafkuraviy qarashlar har bir davlatning mavjudlik belgisi hisoblanadi. Ayni paytda, ushbu qadriyatlar o‘sha davlat va xalqning ijtimoiy mo‘ljali hamdir. Yana shu narsaga e’tibor berish lozimki, davlatlarning ijtimoiy-siyosiy tuzumlari o‘zgargan paytlarda g‘oyaviy-mafkuraviy qarashlar ham o‘zgaradi. Umuman, g‘oyaviy-mafkuraviy qarashlar, ular tomonidan himoya qilinadigan qadriyatlar har bir davlat va xalqning ijtimoiy taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etadi.

Ayni paytda, bir ijtimoiy-siyosiy tuzum davridagi g‘oyaviy-mafkuraviy qarashlar boshqa tuzum sharoitida tamomila yangicha mohiyat kasb etsada, ammo, ularning ayrim jihatlari vorislik ahamiyatiga ega bo‘ladi. Davlatlarning ijtimoiy-siyosiy tuzumidan qat’iy nazar bu holning mohiyati o‘zgarmasdan qolishi mumkin.

Milliy g‘oyaning tarixiy negizlaridagi asosiy manbalar va undagi ilg‘or g‘oyalar. G‘oya va mafkuralar tarixini davlatlashtirishda umumiylik mavjud. Hozirgi kunda tarixni sinfiylik, partiyaviylik kabi tamoyillar asosida o‘rganish va davrlashtirish inkor etilgani kabi, ularni sivilizatsion yondashuv asosida o‘rganish ham aniq bo‘lib qoldi. Sivilizatsion hodisalarni kopleks-tizimli yondashuv asosida o‘rganish bizga g‘oya va mafkuralarning rivojlanish tarixini davrlashtirishda to‘g‘ri yo‘l tanlashga imkon bermoqda.

Agar masalaga shu asosda yondashadigan bo‘lsak, unda O‘zbekistonda g‘oya va mafkuralar rivojlanishini quyidagi sivilizatsion yondashuv asosida o‘rganish mumkin:

1. Ibtidoiy jamiyat ;
2. O‘rta asrlar davri;
3. Xonliklar davri;
4. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davri;
5. Sovet mustabid tizimi davri;
6. Milliy mustaqillik davri.

Ta’kidlash lozimki, har bir davrning o‘ziga xos ijtimoiy taraqqiyotining o‘sha bosqichini o‘zida mujassam etgan g‘oyalari mavjud bo‘lgan. Masalan, ibtidoiy jamiyatda inson yovvoyilikdan madaniylashishga o‘ta boshladi, tabiat sirlarini o‘rganib o‘zining inson ekanligini his etish bilan bog‘liq g‘oyalar yuzaga kela boshladi.

G‘oya yoki ideya fenomeni maxsus tadqiqot obekti sifatida G‘arb falsafasi tarixida ilk bor Suqrot va Platon tomonidan qo‘yilgan va o‘ziga xos “yechimini topgan” edi. Xususan, Aflotun fikricha, ideya bu - haqiqiy borliq bo‘lib, moddiy narsalarning namunasi, andozasi tarzida real, obektiv mavjud bo‘lgan g‘oyalar dunyosining umumiy tavsifidir; har bir g‘oya yagona va o‘z-o‘ziga ayniy bo‘lgani holda, ayni vaqtda hamma narsalarda mavjud bo‘la oladi. Aflotun mushohadasiga ko‘ra, ideal borliq moddiy borliqni, faqatgina belgilabgina qolmay, ayni paytda u o‘zida mutlaq umumiylik va qiymatlilik mohiyatlarini ham mujassam etadi.

G‘arb falsafasi tarixida “ideal borliq” atamasi ilk bor Aflotunning ontologik ta’limoti doirasida shakllangan va uning falsafasida “g‘oyalar dunyosi”, “g‘oya” tushunchalari bilan chegaralangan. Aflotun mushohadasiga ko‘ra, g‘oyalar - konkret narsa-hodisalardan tashqaridagi haqiqiy obektiv reallik hisoblangan jisimsiz, ideal mohiyatlardir. Aflotun g‘oya tushunchasining ma’no-mohiyatini tahlil qilishda ideal (ideal borliq) kategoriyasiga asoslangan. Shunga ko‘ra, muayyan ma’noda, Aflotun falsafasini “g‘oyalar falsafasi”, deyish mumkin. G‘arb falsafasining qadimgi davrida Demokrit ideya yoki g‘oya deganda bo‘linmas atomlarni nazarda tutadi.

Milliy g‘oyaning tarixiy ildizlari xalqimizning uzoq o‘tmishiga borib taqaladi. Zero, milliy g‘oya tarixi o‘zbek xalqi tarixi bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbekistonda hozir shakllanib, rivojlanayotgan milliy g‘oya asosida

yurtimizda ming yillar davomida paydo bo'lgan sivilizatsiya (lotincha - fuqaroviy, ijtimoiy) muhim ahamiyat kasb etadi. "Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz, - deb yozadi O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov, - nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda"⁷.

Shu bois yoshlarimizga o'zbek xalqining rivojlanish tarixini o'rganish jarayonida o'zbek xalqining qadim-qadimdan Turon, Turkiston deb atab kelingan ko'hna zaminning minglab yillar davomida yashab kelayotgan va o'z tarixiy takomilida o'nlab saltanatlar qurgan haqiqiy egalari ekanligini, bu Turon-Turkiston O'zbekiston qadim madaniyat beshiklaridan biri ekanligini, hozirgi zamonaviy fan va texnikaning poydevori shu yerda yaratilganligini anglamog'imiz va yoshlarga ham anglatmog'imiz zarur. "Biz kim, mulki Turon, amiri Turkistonmiz, biz kim millatlarning eng qadimi va ulug'i - turkning bosh bo'g'inimiz" - Sohibqiron Amir Temurning buyukligi zamirida ana shunday milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira yotgan bo'lsa ajab emas. Zero, milliy his-tuyg'u va mustahkam e'tiqod - insoniy va milliy kamolotning ikki qanotidir. To'maris momomiz va Alp Erto'nga bobomizdan to Abdulla Qodiriy va Ozod Sharafiddinogacha yengilmas kuch-qudrat ato etgan narsa milliy his-tuyg'u va e'tiqodiy ruhdur, desak xato qilmasmiz.

Darhaqiqat, insoniyat ibtidosi, binobarin, g'oya va mafkuralar ibtidosi ham, Qadimgi Sharqdan boshlanadi. "Sharq" va "G'arb" atamaları odatda jug'rofiy atamalar sifatida idrok etilsa-da, aslida ikki xil madaniy-ma'naviy an'analarni ham ifodalaydi. Qadimgi yunonlar Osiyo qit'asining g'arbiy yarim orolini o'zlarining afsonaviy qahramoni nomi bilan Yevropa deb ataganlarida ana shu madaniy-ma'naviy o'ziga xoslik omiliga asoslangan edilar. Asl Qadimgi Sharq - bu Qadimgi Turon, Qadimgi Hindiston va Qadimgi Xitoy mamalakatlardir. Qadimgi Misr, Qadimgi Vavilon kabi mamlakatlar nafaqat jug'rofiy jihatdan, balki madaniy-ma'naviy jihatdan ham Sharqqa nisbatan G'arbgaga yaqindir, yevropaliklar bu mintaqani "Yaqin Sharq" deb ataganlarida tamomila haqdirlar; zero, G'arb madaniyatining poydevori sanalgan qadimgi yunon madaniyati asosan misrliklar va vavilonliklar madaniyati asosida shakllangandir.

Qadimgi Sharq tarixida, binobarin, umuman insoniyat tarixida, Qadimgi Turon shunday bir muhim o'rin tutadiki, iqtidorli tarixchi

⁷ Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан қураимиз. Т.7. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999 йил, 132-бет.

tadqiqotchilarning e'tirof etishicha, uning moddiy va ma'naviy madaniyatini o'rganmasdan turib, uning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasini jiddiy tadqiq qilmasdan turib, insoniyatning madaniy-ma'naviy tarixi haqida haqqoniy tasavvurlarga ega bo'lish va uning taraqqiyot qonunlarini to'g'ri aniqlash mumkin emas. Qadimgi Turon hali ilmu-fanda ochilmagan sirli va mo'jizaviy bir xazinaki, uning o'rganilishi - insoniyatning yangi bir madaniy-ma'naviy dunyosini kashf etishdir. Turon-Turkiston-O'zbekiston - bu ham diniy, ham dunyoviy ma'noda haqiqatdan ham muqaddas zamindir. Bu zaminlardan topilgan tosh qurolning yoshi 1,8 - 3,2 million yilni, ibtidoiy manzilgohlar yoshi taxminan 1 million yilni, ilk ma'naviy udum-e'tiqodlar tarixi 100 ming yilni tashkil etadi. Oddiy ovqatga tuz solishdan to to'rt unsur haqidagi falsafiy ta'limotlarga qadar ko'plab g'oya va kashfiyotlar, insoniyat tarixidagi ilk vahiy e'tiqod sanalgan zardo'shtiylik vatani ana shu muqaddas zamindir. Fransuz va ingliz zardo'shtiyshunos olimlar fikricha zardo'shtiylik miloddan oldingi 3-2 ming yilliklar chegarasida vujudga kelgan. London universitetining professori, zardo'shtiyshunos olimi Meri Boys fikricha, Zardo'sht miloddan oldingi 1500-1700 yillar oralig'ida yashab o'tgan. Zardo'shtiylik – yuksak fazilatli, ezgu niyatli e'tiqoddir. Uning ko'pgina g'oyalari noyob, betakror va ulug'vordir. O'zining insoniyatga bevosita yoki bilvosita ta'siri borasida dunyodagi biron-bir e'tiqod zardo'shtiylikka tenglasha olmaydi. Zardo'shtiylik g'oyalari iudaizm, buddizm, xristianlik, islom dinlari tomonidan, qator diniy yo'nalishlar va falsafiy maktablar tomonidan o'zlashtirilgan. Zardo'sht tomonidan targ'ib qilingan ko'pgina g'oya va ta'limotlar hozirgi kunda ham jahon xalqlari tomonidan mamnuniyat va xayrihohlik bilan e'tirof etib kelinadi. Zardo'shtiylik tarixini o'rganish - insoniyatning minglab yillar davomidagi ma'naviy-axloqiy taraqqiyoti tarixini, g'oya va mafkuralar tarixini o'rganish demakdir. Ezgu g'oyalar majmuasi sifatida zardo'shtiylik mafkurasi umumiy tartib-intizomni mustahkamlashga, tashqi ta'sirlarga nisbatan yaxlitlik va mustaqillikni saqlashga, umumiy his-tuyg'u va birlikni tarbiyalashga xizmat qilgan. Zardo'shtiylik qomusiy e'tiqod bo'lgan, Zardo'sht o'z hayot yo'li bilan, maqsad va intilishlari bilan insoniyatni ezgulikka, adolatga, haqiqatga undaydi. Bu e'tiqodning Hindiston va Afg'onistondan Yunonistongacha, Armaniston va Ozarbayjondan Bobilgacha bo'lgan ulkan hududlarda 2000-yil atrofida hukmron e'tiqod sifatida e'tirof etilishi bejiz emas edi, albatta. Zardo'shtiylikning muqaddas uchlikka asoslangan dunyoning yaratilishi,

hozirgi holati va kelajagi haqidagi, “Ezgu niyat, ezgu so‘z va ezgu amal” haqidagi, insonning tabiatga va bir-birlariga munosabatlari haqidagi, ezgulik va yovuzlik haqidagi, inson hayotining ma’no-mazmuni va maqsadi haqidagi g‘oyalar tizimi insonga yangi mavqe, vakolat, yuksaklik, ulug‘vorlik, qadr-qiyamat va mamnunlik baxsh etadi.

O‘g‘uznoma”, “Kultigin bitiklari”, “To‘nyuquq bitigi”, “Bilga xoqon bitigi” singari yirik tarixiy-badiiy asarlar o‘sha davr ajdodlarimiz tafakkur tarzi, orzu-armonlari, ma’naviy kamolot darajasini aks ettiradi. Bizning nazarimizda, ushbu tosh bitiklardagi eng muhim mavzu Vatan va millat, mustaqil davlatchilik g‘oyalaridir. Ular bitik mualliflari Yo‘llig‘ tigin, To‘nyuquq va boshqalar qalbida yuksak ehtirolarni tug‘dirgan va bu tug‘yon ularni o‘qigan bugungi kitobxon diliga ham bundan XII asr burun qanday bo‘lsa, xuddi shunday ta’sir ko‘rsata oladi. Budunning (ya’ni, o‘sha davr tilida - xalqning) butunligi, yurtboshining oqilligi va tadbirkorligi, bahodirlar shiddati va shijoati bugungi kunimiz uchun ham ibrat va namunadir. Ushbu bitiklar mazmunidan turkiy elat islomdan oldinoq yaxlit bir xalq sifatida o‘zligini tanib olganini oydin his qilamiz va islom davridagi turkiy sulolalar yuksalishining ma’naviy omillar va asoslarga ega ekanligi ayon bo‘ladi. Bu paytda turkiy xalqlar yagona Tangriga e’tiqod qilishgan.

716-720-yillar orasida yozilgan “Kultigin bitigi” shunday shiddat bilan boshlanadi: “Falakday xudodan bo‘lgan turk dono xoqoni bu taxtga o‘turdim. So‘zimni tugal eshitgin, keyinimdagi ini, jiyanim, o‘g‘illarim, qon-qardoshim, xalqim, o‘ngdagi shadapit beklar, chapdagi tarxonlar, buyruq beklar, o‘ttiz to‘qqiz o‘g‘uz beklari, xalqi, bu so‘zlarimni yaxshilab eshit, diqqat qilib tingla”⁸. Bu satrlarni 716 yilda taxtga o‘tirgan Bilga xoqon nomidan uning jiyani, buyuk sarkarda Kul Tiginning nabirasi ulug‘ shoir Yo‘llug‘ tigin (tigin – turkiyda “shahzoda” ma’nosini bildiradi) yozgan. Bu Vatan va millat fidoyisi o‘z ajdodlari, bobosi va amakisining shonli kurashlariga bag‘ishlab yozgan yirik marsiya-dostonlarida millat va xalq boshini qovushtirish uchun o‘z hayotini tikkan bahodir va tadbirkor yurt ulug‘larini madh etdi, ulusning bosh manfaati, milliy davlatning yetakchi g‘oyasi nima ekanligini yorqin satrlarda ifodalab berdi.

Vatan ozodligi yo‘lidagi kurashlarda erkinlik, ozodlik, hamjihatlik, vatanparvarlik bilan bog‘liq turli g‘oyalarning namoyon

⁸ Ўзбек адабиёти бўстони. Қадимги ҳикматлар(Тузувчи:Н. Раҳмонов). – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти,1987 йил, 23-бет.

bo'lishi. Milliy g'oyaning asosiy tayanch nuqtasi hisoblangan milliy o'zlikni anglashni, tarixiy xotiramizni islom dinisiz tasavvur qilish qiyin. Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, islom dini - bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham imyon, ham axloq, ham diyonat, ham ma'rifatdir. Markaziy Osiyoda islom dinining ruhan o'ziga xosligi shundan iboratki, unda ajdodlarimizning qadimiy qadriyatlari mujassamlashgan, milliy va diniy qadriyatlar birlashgan. Islom - bu faqat dingina emas. Milliy falsafamiz, uning barcha yo'nalishlari inson baxt-saodati ideali atrofida rivojlana borgan. Bu ideal dindan kengroq ko'lamli bo'lgan. Unda diniy va ijtimoiy mulkiy tengsizliklarni, qarama-qarshilik va ziddiyatlarni yo'qotish, ular o'rnini o'zaro yordam va hamkorlik egallagan ijtimoiy turmush orzu qilingan. Xususan, daho mutafakkir bobomiz Abu Nasr Forobiyning falsafiy mushohadasiga ko'ra, koinotdagi har bir vujud-mavjudot o'ziga xos martaba – eng yuksak kamolatga erishish uchun dunyoga kelgan. Inson uchun xos bo'lgan bu kamolotning nomini eng yetuk baxt-saodat deb ataydilar.

Ulug' bobomiz Imom Buxoriyning "Jome' as-sahih" kitoblari islom dunyosi ulamolari tomonidan yakdillik bilan Qur'oni Karimdan keyingi ikkinchi muqaddas kitob deb e'tirof etilishi va umuman, Qur'oni Karimdan keyingi islom dinimizning asosini tashkil etgan oltita hadis to'plamidan to'rtasining ona-Vatanimiz Turkiston zaminida yaratilganligi ajdodlarimiz an'analariining naqadar ulug' va samarali bo'lganligi dalolatidir.

Xalqimiz tarixidagi Vatan ozodligi yo'lidagi kurashlarda erkinlik, ozodlik, hamjihatlik, vatanparvarlik bilan bog'liq turli g'oyalar namoyon bo'lgan. Chunonchi, Eron axmoniylariga qarshi Shiroqning, Iskandar Zulqarnaynga qarshi Spetamenning, arab fotihlariga qarshi Abu Muslim va Muqannalarning, mo'g'ul istilosiga qarshi Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Mahmud Torobiy va boshqalarning, ayniqsa adolatparvar, ma'rifatparvar xukmdor Amir Temurning sa'i-harakatlari, shuningdek, Po'latxon, Dukchi Eshon qo'zg'olonlari - bularning bari hech qanday "sinfy kurash"ga aloqasi yo'q edi. Bunday harakatlarni yuzaga keltirgan, unga kuch bag'ishlagan asosiy omil milliy g'oya bo'lib, uning mohiyatini yurt ozodligi, tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi tashkil etardi.

XIX-asrning ikkinchi yarmida Turkistonda ma'rifatparvarlik rivoj topdi. Ular Turkiston xalqlarini qaramlik zulmidan ozod qilish, taraqqiy etgan xalqlar qatoridan o'rin olishining birdan-bir to'g'ri yo'li xalqni

savodxon qilish, ularni zamonaviy ilm-ma'rifat nuridan bahramand qilishda deb bildilar. Bu davrda ma'rifatparvarlik g'oyalari rivojida Ahmad Donish, Komil Xorazmiy, Sattorxon va Isoqxonlar, Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar va Zavqiylar o'zlarining ijtimoiy-ma'rifiy faoliyatlari bilan katta hissa qo'shdilar.

XIX-asrning oxiri va XX asrning boshlariga kelganda Markaziy Osiyo, xususan, Turkiston xalqlari ilg'or vakillari Rossiyaning mustamlakachilik zulmidan qutilish, o'z milliy davlatchiligini qurish, o'z milliy - iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotiga yo'l ochish maqsadida jadidchilik ma'rifatparvarlik harakati shakllandi. Turkistonda jadidchilik harakati ma'rifatparvarlik asosida O'rta va Yaqin Sharqdagi, Qrim, Qozon, Ufa va Ozarbayjonda yuzaga kelgan diniy islohotchilik va ma'rifatparvarlik g'oyalari hamda jadidchilik harakati ta'sirida vujudga keladi. Bu jadidchilik Turkistonda vujudga kelgan sharqona ma'rifatparvarlikni butun xalqning demokratik va milliy Uyg'onishiga yo'naltirilgan umummilliy mafkurasi darajasiga ko'tardi.

19- va 20-asrda Rossiya imperiyasi, so'ng sobiq SSSR ham mamlakatimizda mustamlakachilik siyosatini olib bordi. 1991-yil SSSR parchalanib uning o'rnida mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan 15 mamlakat tashkil topdi. O'zbekiston mustamlakachilikdan xalos bo'lib, mustaqillikka erishgani ana shu olamshumul jarayon tarkibida yuz berdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida: g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlar. O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyat hususida, uning g'oyaviy-mafkuraviy asoslari to'g'risida fikrlashdan avval mustaqillikkacha bo'lgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy tuzum haqida ayrim xulosalarni bildirish maqsadga muvofiqdir. Masalaga bunday yondashishning sababi shundaki, sovet mustabid tuzimi davrida O'zbekiston xalqaro hamjamiyatga qo'shilish, ijtimoiy taraqqiyotda umumjahon e'tirof etgan umumbashariy qadriyatlarga amal qilish imkoniyatidan mahrum bo'ldi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida milliy mafkurani shakllantirish to'g'risida ko'plab fikrlar bildirildi. Biroq, bu - O'zbekistonda milliy mafkura ilgari mavjud emasdi, degan ma'noni anglatmaydi. Chunki o'zbek xalqining uzoq tarixiy - madaniy rivojlanishi davrida milliy mafkuraning muayyan jihatlari shakllangan edi. Masalan, "Avesto", turkiy bitiklarda, IX-XII asrlardagi Sharq O'yg'onish davrida, shuningdek, Amir Temur va temuriylar

hamda jadidlar davridagi ma'naviy-mafkuraviy jarayonlarda milliy mafkuraning ustuvor ko'rinishlari namoyon bo'lgan edi.

Ammo, sovet mustabid tuzumi davrida bu mafkura siyosiy aqidalar iskanjasiga olindi va rasmiy hokimiyat tomonidan rad etildi, uning go'yo reaksiyon ekanligini "isbotlash"ga harakat qilindi. Mustabid tuzum davrida milliy mafkura siyosiy tazyiqlar ostida bo'lsada yashab qoldi, u yo'qolmadi. Boshqacha aytganda, bu davrda ikki mafkuraviy muhit yuzaga keldi. Birinchisi, rasmiy mafkura bo'lib, u kommunistik dunyoqarashni aks ettirar, ikkinchisi esa, rasmiy hokimiyatning cheklashlariga qaramasdan mavjud edi va norasmiy ravishda o'zbek xalqining milliy qarashlarni tashkil etardi.

Sovet mustabid tuzumining o'ziga xos g'oyaviy-mafkuraviy asosi mavjud bo'lib, uning mazmun va mohiyatini kommunistik mafkura tashkil etardi. Bunday mafkura ham ijtimoiy-siyosiy, ham ma'naviy-mafkuraviy, ham iqtisodiy jihatdan jiddiy cheklangan edi. Unda demokratiya, inson manfaatlarini hurmat qilish, fuqaro huquqlarini himoya etish, hurfikrlikning rivojlanishi kabi umumbashariy qadriyatlarga asoslangan g'oyalar soxtalashtirilgan edi.

Inson manfaatlariga mutlaqo zid bo'lgan bunday mafkura bir necha o'n yillar mobaynida dunyoning ko'plab mamlakatlarida noinsoniy tajribalar o'tkazdi. O'sha davrda "sovet madaniyatini yaratish", "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik, ruhan baynalminal madaniyat barpo etish", "kishilarning yangi tarixiy birligi - sovet kishisini tarbiyalash", "sotsializm rivojlanib borgani sari sinfiy kurashning kuchayib borishi" to'g'risidagi g'ayriilmiy xulosalar sovet turmush tarzining g'oyaviy- mafkuraviy asoslari edi.

Jamiyatda sodir bo'layotgan har bir ijtimoiy hodisa, voqeaga sinfiylik va partiyaviylik nuqtai nazaridan munosabatda bo'lish tufayli sobiq SSSRdagi barcha respublikalar qatori O'zbekiston ham jahon hamjamiyatidan ajralib qoldi. Natijada mamlakatda kommunistik mafkuraning yakka hokimlik tizimi yuzaga keldi. Fikriy rivojlanishda g'oyaviy-mafkuraviy boqimandalik avj oldi, hurfikrlikka "siyosiy savodsizlik", "g'oyaviy kambag'allik", "millatchilik" singari yorliqlar bilan zarba berildi.

Ma'lumki, 1989-yilning o'rtalarida KPSS Markaziy Komiteti, sovet xukumati tomonidan O'zbekistonga nisbatan qatag'on siyosati yangi bosqichda davom ettirilib, "paxta ishi", "O'zbeklar ishi" deb nom olgan

siyosiy kampaniyalar avj olgan edi. Kommunistik partiyaning bosh nashri bo'lgan "Pravda" gazetasining "Oltin xazinasi ustidagi ilon" deb nom olgan maqolasida, boshqa yetakchi markaziy nashrlarda xalqimiz boshiga tinimsiz tuxmat va bo'xtonlar yog'dirilmoqda edi. Sobiq Markazdan yuborilgan, el-yurtimiz o'rtasida "desantchilar" deb nom olgan guruxlar tomonidan qancha-qancha begunox insonlar, butun-butun oilalar tazyiq va ta'qiblarga uchraganini jamoatchiligimiz yaxshi eslaydi.

Mamlakatimizni jar yoqasiga olib kelib qo'ygan og'ir ijtimoiy-iqtisodiy axvolni o'nglash, xalq dardiga darmon bo'lish, yillar davomida yechilmasdan kelgan muammolarni xalq etish maqsadida axoliga uy-joy qurish uchun uchastka maydonlari va tomorqa yerlari ajratish, paxta yakkaxokimligiga barxam berish borasida davlatimiz raxbari tomonidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ana shunday chora-tadbirlar tufayli respublika bo'yicha 700 mingta oilaga yer berilgani, muallif ta'biri bilan aytganda, kichikroq bir davlatning axolisiga teng bo'lgan 1,5 million yangi oila paydo bo'lgani, qurilish materiallari ishlab chiqarish, odamlarga kredit berish, o'z xo'jaligini yuritish uchun urug'lik, chorva mollari va parranda ajratishga qaratilgan ulkan ishlar amalga oshirildi.

Bugungi kunda dunyoda "O'zbek modeli", "Harakatlar strategiyasi", "Taraqqiyot strategiyasi" deb nom olgan amaliy dasturlarning dastlabki kurtaklari sokin kabinetlarda emas, aksincha, o'sha yillarda keskin siyosiy kurashlar, baxs va tortishuvlar jarayonida tug'ilib, 90-yillarga kelib yaxlit ta'limotga aylandi.

Mustaqillik g'oyalari keng qanot yoza boshlagan, xalqimiz ozodlik va erkinlikka intilgan bir paytda Yurtimizning dadil qadamlarini ko'rolmaydigan g'arazli kuchlar sobiq Markazda xam, o'zimizda xam topiladi. Bunday siyosiy o'yin va fitnalarga bir misol sifatida 1991 yil 17-19 avgust kunlari – Islom Karimov Xindiston Respublikasida rasmiy safarda bo'lgan paytda yuz bergan voqealarni keltirish mumkin. Mamlakat raxbarining O'zbekistonda emasligidan foydalanib, yurtimizdagi ayrim raxbarlar GKCHPning noqonuniy qarorlarini qo'llab-quvvatlaydi, shu tariqa o'zining siyosiy va ma'naviy qiyofasini ko'rsatadi. Faqatgina yurtboshimizning mustaxkam irodasi, oqilona va vazmin siyosati tufayli GKCHP tarafdori bo'lgan siyosiy avantyuristlar o'z qabix niyatiga yetolmadi.

Afsuski, bugun vaqt o'tishi bilan ana shu voqealarni ko'rgan-bilgan, ularga bevosita guvox bo'lgan odamlarning soni tobora kamayib bormoqda. Yaqin tariximizning mash'um bir davrida sodir bo'lgan bu voqealarni bilmasdan, ularning moxiyatini chuqur anglamasdan turib el-Yurtimizning istiqbolga erishish yo'lidagi kurashlar tarixini barcha murakkabliklari bilan to'liq tasavvur etib bo'lmaydi.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston jamiyati oldida turgan eng katta vazifa - barpo etilishi lozim bo'lgan davlatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy qiyofasini hamda O'zbekiston jamiyati rivojlanishining g'oyaviy konseptual asosini aniqlab olish edi. Chunki, O'zbekistonda qurilayotgan yangi jamiyat o'zining g'oyaviy konseptual asoslariga suyangandagina pirovard maqsadga erishish mumkin. Qayd etish lozimki, o'zbek xalqining ming yilliklar davomida yaratgan o'ziga xos g'oyalari - tinchlik, ozodlik, hurlik, mustaqillik, ezgulik, barqarorlik, ma'naviy barkamollik, shaxsni ulug'lash, uning manfaatlarini hurmatlash - bularning bari yangi shakllanayotgan jamiyatimizning g'oyaviy poydevori hamda konseptual asoslari hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston strategiyasining tarixiy tayanchlari. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy-ma'naviy sohalarda taraqqiyot va yangilanishning o'ziga xos hamda o'ziga mos yo'lini tanladi. Mamlakatimiz o'tgan qisqa vaqt mobaynida ulkan yutuqlarga erishdi. Vatanimizda sog'lom, osoyishta ijtimoiy muhit, siyosiy barqarorlik vujudga kelib, fuqarolarga o'z qobiliyat va iste'dodlarini namoyon qilish, yaratish, bunyodkorlik bilan shug'ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Bosib o'tilgan yo'l va orttirilgan tajribani xolisona baholashdan, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni tahlil qilishdan hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda, oldimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifasi turgan edi.

Mazkur vazifani amalga oshirish yo'lida aholining keng qatlamlari, jamoatchilik va ishbilarmon doiralar vakillari, davlat organlarining rahbarlari va mutaxassislari bilan amaliy suhbat hamda muhokamalar olib borildi, shuningdek amaldagi qonun hujjatlari, milliy va xalqaro tashkilotlarning axborot-tahliliy materiallari, ma'ruzalari, tavsiyalari va sharhlari o'rganildi, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi.

Kelib tushgan takliflarni jamlash, chuqur o'rganish hamda umumlashtirish asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni loyihasi ishlab chiqilib, u bilan:

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi;

Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi tasdiqlandi.

Harakatlar strategiyasidagi har bir vazifa inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan islohotlarni yanada jadallashtirish, odamlarning orzu-intilishlarini yuzaga chiqarishga yaqindan ko'maklashish, davlat va jamiyat hayotining barcha jabhalarida tub ijobiy o'zgarishlarga erishishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan ishlab chiqilgan va 2017-yil 7-fevralda tasdiqlangan 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi 1992-yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining normalari doirasidagi demokratik yangilanish hamda modernizatsiya jarayonlarining mantiqiy va qonuniy, izchil va uzviy davomidir. Harakatlar strategiyasi davlatimiz va jamiyatimiz taraqqiyotining mutlaqo yangi bosqichini boshlab berdi. Unda quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilandi:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Jumladan, Harakatlar strategiyasining beshinchi ustuvor yo'nalishi Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritishga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnicilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash masalalariga qaratilganligi ham fikrimizning yana bir yorqin

dalilidir. Aslida ushbu beshinchi ustuvor yoʻnalishning belgilanishida xalqimiz milliy urf-odatlarini, anʼana va qadriyatlariga tayanilgan. Zero, xalqimizda asrlar davomida sayqallanib kelayotgan “qoʻshning tinch-sen tinch”, “gilam sotsang qoʻshningga sot, bir chekkasida oʻzing oʻtirasan”, “Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qoʻshning afzal” kabi maqollari bejizga aytilmagan. Zero, gʻarb mamlakatlaridan farqli oʻlaroq sharqda qarindosh-urugʻchilik va qoʻni-qoʻshnichilik kabi qadriyatlar alohida ahamiyatga egadir. Shariatimiz ham biz moʻmin-musulmonlarni bir-birlarimizga yaxshilik qilishga, qoʻni-qoʻshni, qarindosh-urugʻlar bilan ahilchilikda yashashga undaydi. Aksincha, musulmonlar oʻrtasidagi munosabatlarning uzilishi va bir-biridan yuz oʻgirish kabi salbiy illatlarni qoralaydi.

2022-yilning 28-yanvarida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60 son Farmoni asosida “2022-2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi” qabul qilindi.

Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyili ilgari surilgan va quyidagi ustuvor yoʻnalishlar belgilangan:

inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish;

mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillarini taraqqiyotning eng asosiy va zarur shartiga aylantirish;

milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori oʻsish surʼatlarini taʼminlash;

adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish;

maʼnaviy taraqqiyotni taʼminlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish;

milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda umumbashariy muammolarga yondashish;

mamlakatimiz xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish.

Binobarin, Harakatlar strategiyasidagi har bir yoʻnalishni taraqqiyotning yangi bosqichida mantiqiy, keng koʻlamli va izchil asosda rivojlantirish hamda yangi ustuvor yoʻnalishlarda muhim natijalarga erishish koʻzda tutilmoqda.

Harakatlar strategiyasida 5 ta ustuvor yoʻnalish belgilab olingan boʻlsa, taraqqiyot oʻzgarishlarining yangi tarixiy bosqichda davom ettirilishi koʻzda

tutilgan holda, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2 ta yangi ustuvor yo‘nalish bilan takomillashtirilib, unda inson qadrini ta‘minlashning amaliy timsoli sifatida yetti ustuvor yo‘nalish belgilandi.

Bu – bejiz emas. Zero, davlatimiz rahbari ta‘kidlaganidek, “ajdodlarimiz yetti raqamini baxt-saodat va omad keltiradigan, ezgu niyatni ro‘yobga chiqaradigan xosiyatldi timsol, deb bilganlar”.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi endi Yangi O‘zbekistonning poydevorini tiklash va binosini qurishga qaratilgan. Bu buyuk bunyodkorlik jarayoni 2026 yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi va yilma-yil amalga oshirib boriladi.

Taraqqiyot strategiyasida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar va eng muhim vazifalarning atroflicha tahlili shundan dalolat beradiki, yangi O‘zbekistonda mutlaqo yangi milliy huquqiy tizim shakllanmoqda. YA’ni “inson, uning sha’ni, qadr-qimmat, huquq va erkinliklari – eng oliy qadriyat” degan tamoyil e’tirof etilmoqda.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida yillar davomida amal qilib kelgan “davlat – jamiyat – inson” tamoyili “inson – jamiyat – davlat” tamoyiliga o‘zgartirilmoqda. Yanada sodda qilib aytganda, O‘zbekistonda har bir fuqaroning qadrini yuksaltirish va farovonligini oshirish zarurligiga urg‘u berilmoqda.

Eng asosiysi, Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasidagi 7 ta ustuvor yo‘nalishning bosh g‘oyasi – inson qadrini ta‘minlash. Chunki - Prezidentimizning saylovoldi dasturidagi asosiy g‘oya ham “Inson qadri uchun” tamoyili edi.

Shuningdek, taraqqiyot strategiyasida ko‘zda tutilgan maqsadlarda Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasida yaqin qardoshlikni qadrlash, qo‘shni mamlakatlar bilan manfaatli hamkorlikni kuchaytirish, mintaqaviy xavfsizlik va barqaror taraqqiyotga erishish bo‘yicha muhim vazifalarga alohida e’tibor qaratilgan.

Taraqqiyot strategiyasida BMT organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatni kuchaytirish, xususan, iqlim, ekologiya, terrorizm, korrupsiya, migratsiya,

kambag'allik kabi global muammolarni hal etish borasida xalqaro hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish haqida so'z borgan. Bu say-yu harakatlarning mazmun-mohiyatini xalqimiz, ayniqsa yoshlarga keng tushuntirishda, targ'ib qilishda milliy g'oya yetakchi kuch bo'lishi shubhasiz.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

Tarixiy taraqqiyot, tarixiy taraqqiyot mezonlari, tarixiy jarayon, sivilizatsion yondoshuv, g'oyaviy-mafkuraviy mezon, jadidchilik, g'oya va mafkuralarning rivojlanish tarixi, tarixiy merosga mafkuraviy yondoshuv, gumanizm, Taraqqiyot strategiyasi, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Tarixiy taraqqiyotni harakatlantiruvchi motivlari nimalardan iborat?
2. Tarixiy taraqqiyot mezonlariga determenistik yondoshuvlarning xususiyatlarini ko'rsating...
3. Tarixiy taraqqiyotda obektiv va subektiv omillar birligini izohlang...
4. Tarixiy taraqqiyotni davrlashtirish tamoyillarini tavsiflang...
5. Konkret tarixiy taraqqiyot bosqichiga g'oyaviy-mafkuraviy ta'sirning imkoniyatlari qanday?
6. Temuriylar davridagi jamiyat taraqqiyoti haqidagi qarashlarning xususiyatlarini ko'rsatib bering...
7. Jamiyat taraqqiyotiga doir jadidchilik g'oyalarining mazmuni va ahamiyati nimada?
8. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining qabul qilinishi, uning asosiy yo'nalishlarini yoritib bering...

3-§. MUSTAQILLIK VA MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLAR KONSEPSIYASINING ISHLAB CHIQLISHI

Mustaqillikning ilk yillarida O'zbekistonda jamiyat g'oyaviy-mafkuraviy asoslarining o'zgarishi. Mustaqillikning ilk yillarida

O‘zbekistonda jamiyat g‘oyaviy-mafkuraviy asoslarining o‘zgardi. Kommunistik g‘oyadan butkul voz kechildi. Chunki, O‘zbekistonda qurilayotgan yangi jamiyat o‘zining g‘oyaviy-mafkuraviy asoslariga suyangandagina pirovard maqsadga erishish mumkin. Qayd etish lozimki, o‘zbek xalqining ming yilliklar davomida yaratgan o‘ziga xos g‘oyalari - tinchlik, ozodlik, hurlik, mustaqillik, ezgulik, barqarorlik, ma’naviy barkamollik, shaxsni ulug‘lash, uning manfaatlarini hurmatlash - bularning bari yangi shakllanayotgan jamiyatimizning g‘oyaviy poydevori hisoblanadi.

Ko‘hna qadriyatlarimiz, olimu ulamolarning asarlari jamiyatning g‘oyaviy-mafkuraviy asosini yaratishda juda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Yurtimiz xalqlarining tarixi, madaniyati o‘z ildizlari bilan asrlar qa’riga borib taqalishi va uzoq ming yillarni o‘z ichiga olishini qadimgi fors yozuvchilarining, xitoy, arman va suriyalik geograf va tarixchilarning yozib qoldirgan ma’lumotlari, Nosiriddin Burhonuddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy”, Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam”, Firdavsiyning “Shohnoma” asarlaridan, zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”dan, shuningdek, Bexistun, Bundaxishn, qadimgi turkiy bitiklar, jumladan O‘rxun-Yenisey yodgorliklaridan aniq va ravshan bilib olishimiz mumkin. Milliy g‘oya va mafkuramizning ildizlari o‘ta qadimiy ekanligiga yunonistonlik olimlar - Arrian, Kursiy, Plutarx, Geradot, Straban, shuningdek, Abu Rayxon Beruniy, Narshaxiy va boshqa mutafakkirlarning asarlari ham guvohlik beradi.

Qayd etish lozimki, O‘zbekistonda milliy tiklanish, bir tomondan milliy o‘zlikni anglash, boshqa tomondan, jamiyatning g‘oyaviy-mafkuraviy asoslarini yaratish, uchinchi tomondan esa bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tish asnosida yuz berdi. “Ayni vaqtda biz jamiyatni va jamiyat tafakkurini yangilashning inqilobiy usullariga, bu jarayonni sun’iy ravishda chetdan turib, zo‘ravonlik yo‘li bilan tezlashtirishga qaratilgan har qanday urinishlarga mutlaqo qarshimiz. Biz barcha sohalarda, jumladan, ma’naviy sohada ham tadrijiy-evolyusion islohotlar yo‘li tarafdorimiz va bunga qat’iy amal qilamiz. Ya’ni, sodda qilib aytganda, odamlarning dunyoqarashi, e’tiqod va tafakkurida demokratik tamoyillar vademokratik qarashlarning kengayishi va mustahkam o‘rin topishi avvalambor hayotning tabiiy yurishi bilan, ularning moddiy turmush darajasi va madaniy saviyasi tobora

rivojlanishi va yuksalishi bilan chambarchas bog‘liq ekanini hayotning o‘zi taqozo etadi”⁹.

Ma‘lumki, sotsialistik ishlab chiqarish usulidan bozor munosabatlariga o‘tish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Buning uchun kishilardagi eskicha tafakkur tarzini o‘zgartirish, iqtisodiyotda erkinlashtirish jarayonini avj oldirish, islohotlarni chuqurlashtirish kerak edi. Bu borada ayniqsa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mustaqilligini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, uning huquqiy bazasini mustahkamlash lozim bo‘ldi.

Mustaqillik yillari bu borada ulkan ishlar bajarildi. Biroq, hali bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalar ko‘p. “Bu - bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, barqaror va o‘zaro mutanosib, mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti bo‘lgan erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishdan iborat

Bu yo‘nalish yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishda yetakchi o‘rinni egallaydigan, fuqarolarning muhim daromad manbai va mulkdorlar sinfini shakllantirishning asosi bo‘lgan xususiy sektorning mavqeini yanada oshirish, kichik va o‘rta biznes hamda tadbirkorlikni jadal rivojlantirishni taqozo etadi”¹⁰.

Mamlakatimizda jamiyat ijtimoiy hayotining asoslariga yangicha qarash, uning huquqiy asoslari. Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish eng avvalo uning g‘oyaviy-mafkuraviy asoslarini mustahkamlashni talab etadi. Agar har bir sohadagi, jumladan, iqtisodiy jabhadagi islohotlar g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan ta‘minlanmas ekan, jiddiy milliy tiklanish to‘g‘risida fikr yuritish mushkuldir.

Xo‘sh, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda uning qaysi g‘oyaviy-mafkuraviy asoslariga suyanish lozim? Avvalo, iqtisodiy hayot erkinlashishi lozim. Shuningdek, ko‘p ukladli iqtisodiyotni yaratish, mulkdorlar sinfining shakllanishi o‘ta muhimdir. Biroq, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi eng muhim g‘oyaviy asos - fuqarolarda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o‘zgartirish, har bir kishiga o‘z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkoniyatini yaratib berishdir.

⁹ Каримов И. А. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008 йил,101-бет.

¹⁰ Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. –Тошкент: Ўзбекистон, 2003 йил,21-бет.

Mamlakat iqtisodiy hayotini barqarorlashtirish, milliy g'oya konsepsiyasida ijtimoiy hamkorlik va evolyusion taraqqiyot kabi g'oyalarning o'ri kattadir.

Ijtimoiy hamkorlik davlat va millat taraqqiyotida har bir soha uchun muhimdir. Siyosat, ijtimoiy soha, iqtisodiyot, madaniy jabhadagi hamkorlik milliy tiklanish uchun kuchli poydevor hisoblanadi. Ayniqsa shu narsani yodda tutish lozimki, davlatning bosh islohotchilik roli jamiyatdagi ijtimoiy hamkorlikni ta'minlaydigan iqtisodiy asoslarni, siyosiy vazifani, madaniy muhitni, qonuniy-huquqiy munosabatlarni takomillashtirish, boshqarish va nazorat qilish faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi.

O'zbekistonning hozirgi ijtimoiy taraqqiyotidagi muhim jihatlardan yana biri - bu yangi jamiyat barpo etish va milliy tiklanish jarayonida evolyusion rivojlanishning ustuvor ahamiyatga ega ekanligidir. Ma'lumki, bosqichma-bosqich, tadrijiy rivojlanish yo'li nafaqat bozor iqtisodiyotiga o'tishda, shuningdek, barcha sohalarda muhim o'rin egallaydi. O'zbek xalqining mentalitetiga xos bunday tadrijiy taraqqiyot pirovard natijada O'zbekistonda demokratik, insonparvar huquqiy davlat qurishning kafolati hisoblanadi.

Shu bois mustaqillik yillarida mamlakatimizda jamiyat ijtimoiy hayotining asoslariga yangicha qarash shakllanib, uning huquqiy asoslari yaratildi. O'zbekistonda jamiyat ijtimoiy hayot sohasining siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma xilligiga asoslanmoqda. Hech bir mafkuraning davlat mafkurasi sifatida o'rnalitishi mumkin emasligi konstitusiyaviy asoslar bilan mustahkamlab qo'yildi.

Bularning barchasi milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasini ishlab chiqish ehtiyojini keltirib chiqardi.

Prezident Islom Karimov asarlarida milliy istiqlol g'oyasining nazariy va amaliy jihatdan asoslab berildi.

Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasini ishlab chiqishga ehtiyoj. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasining ishlab chiqilishi, uning mazmun va mohiyati. O'zbekistonda milliy g'oya konsepsiyasi milliy mafkuraning bosh g'oyasi bilan uyg'undir. Haqiqatdan ham "O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Bu g'oya xalqimizning azaliy ezgu intilishlari, bunyodkorlik faoliyatining ma'no-mazmunini belgilaydi. Har bir

inson, uchun muqaddas bo'lgan yuksak gumanistik qadriyatlarni o'zida mujassam etadi"¹¹.

Mamlakatimizda milliy tiklanish g'oyasini amalga oshirish millat va jamiyat oldida turgan vazifalarni aniqlashtirib olishni talab qiladi. Umuman, bu vazifalar milliy mafkuraning bosh g'oyasidan kelib chiqadi. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik - bular milliy tiklanish g'oyasini amalga oshirishdagi muhim nuqtalardir.

Yuqorida ta'kidlanganidek, davlat va jamiyatning bundan keyingi rivojlanishi ijtimoiy-siyosiy hayotni erkinlashtirish va demokratiyalash bilan bevosita bog'liqdir. Boshqacha aytganda, ijtimoiy-siyosiy sohada demokratiya amalga oshirilmas ekan - milliy tiklanish to'g'risida fikr yuritish befovdadir.

Umuman, fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim sharti davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirishdir. O'zbekistonda bu jarayon "Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari" degan tamoyil asosida olib borilmoqda. "Hammamizga ayonki, - deb qayd etadi I.Karimov, - bu yo'nalish ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq ko'p masalalarni hal qilishda davlat tuzilmalarining rolini jamoat tashkilotlariga o'tkaza borishni taqazo etadi"¹².

Darhaqiqat, O'zbekistonning hozirgi ijtimoiy-siyosiy hayotini erkinlashtirishda markaziy va yuqori davlat boshqaruv idoralari vazifalarini davlat hokimiyatining quyi tuzilmalariga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkaza borishni ta'minlash o'ta muhimdir.

"Kuchli davlatdan - kuchli jamiyat sari" kontsepsiyasi o'zining g'oyaviy-mafkuraviy asoslariga ega bo'lib, ular O'zbekistonda mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlar, shakllangan qadriyatlar darajasi va ko'lami bilan belgilanadi. Kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish vazifasi birdaniga hal bo'lmaydi. Uning uchun ma'lum shart-sharoitlar yetilgan bo'lishi lozim. Bular quyidagilardan iborat:

- jamiyat fuqarolarida eski tafakkur tarzini yo'qotish, g'oyaviy-ma'naviy boqimandalik hissini bartaraf etish;

- kishilarda jamiyat hayotida sodir bo'layotgan voqea va hodisalarga befarqlikni, jamiyatdan begonalashuv kayfiyatini bartaraf etish;

¹¹ Milliy istiqloq fojasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. -Toshkent:Ўзбекистон, 2000 йил, 50-51-бетлар.

¹² Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари./Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. –Тошкент: Ўзбекистон, 2003 йил, 27-бет.

- insonning siyosiy ongi va madaniyatini oshirish, ularning ijtimoiy faolligini ko‘tarish, jamiyatda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga dahldorlik hissini shakllantirish;

- odamlarda o‘z-o‘zini boshqaruv organlarida, jamoat tashkilotlari, nodavlat muassasalarida erkin faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmasini paydo qilish;

- mamlakat siyosiy hayotini erkinlashtirish orqali demokratik jamiyat qurish mexanizmining huquqiy-qonuniy asoslarini yaratish;

- davlat tuzilmalarining jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotiga ko‘r-ko‘rona aralashuv mexanizmini yo‘q qilish;

- qonunlar ijrosini ta‘minlash, mamlakatda qabul qilingan va amalda bo‘lgan meyoriy hujjatlarni hayotga joriy qilishda davlat hokimiyat organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish.

Albatta, bular kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o‘tishning barcha jihatlarini qamrab ololmaydi. Ammo, kuchli jamiyat yuqoridagi kabi holatlarning amaldagi ijrosiz ham paydo bo‘lishi mumkin emas.

Siyosiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, hech shubhasiz, jamiyatni bosqichma-bosqich demokratlashtirish bilan bog‘liqdir. Ta‘kidlash lozimki, O‘zbekistonda yangi demokratik jamiyat qurilishining umumjahon e‘tirof etgan o‘ziga xoya konsepsiyasi ishlab chiqilgan bo‘lib, unda ijtimoiy hayotning muhim hodisalaridan bo‘lgan demokratiyani yangicha talqin etish va tushunishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Umuman, demokratiyani tushunish va anglash, unga amal qilish shaxsdan maxsus tayyorgarlikni talab etadi. Siyosiy ongi va tafakkuri shakllanmagan insonning demokratiya talablariga javob berishi mumkin emas. Bundan tashqari, demokratiyaning o‘ziga xos xususiyatlari, uning har bir davlat va millat hayotida amal qilish tamoyillari ham mavjud.

Shu o‘rinda Sharqona demokratiya to‘g‘risida ayrim fikrlarni aytish muhimdir, zero bunday demokratiya aslida demokratiya tushunchasining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu demokratiya Sharq mamlakatlari, asosan aholisining ko‘p qismi musulmon ma‘naviyatidan bahra olgan hududlarga xos bo‘lgan demokratik qoidalar majmuining o‘ziga xos shakl va mazmunda namoyon bo‘lishidir. Sharqona demokratiya milliy bosqlik, andisha, yoshi ulug‘larga hurmat, o‘zaro maslahat, har qanday keskin masalada ham tomonlarning kelishuvlariga asoslanadigan faoliyatdir. Ana shu xususiyatlari bilan ushbu ijtimoiy tushuncha G‘arb demokratiyasidan farq qiladi.

Ayni paytda sharqona demokratiya, siyosiy tartibsizliklar, bosh-boshdoqlik va mitingbozlikni milliy manfaatlarga zid deb qaraydi hamda jamiyat va davlatning ichki masalalari har qanday fundamentalistik va qurolli kuchlarga asoslangan harakatlarni qoralagan holda, o‘z faoliyatini o‘ziga xos madaniyat tamoyillari asosida yo‘lga qo‘yadi.

Mamlakatimizda ma’naviyatni rivojlantirish o‘zining g‘oyaviy-mafkuraviy, ma’naviy-axloqiy negizlariga ega bo‘lishi alohida ta’kidlandi. Bular mamlakat Prezidenti tomonidan quyidagicha belgilandi:

- umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik;
- xalqimizning ma’naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish;
- insonning o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi;
- insonparvarlik va vatanparvarlik.

O‘zbekiston hukumati asosiy e’tiborni milliy ma’naviyatni rivojlantirishga, uning huquqiy-qonuniy bazasini yaratishga qaratdi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 42-moddasida “Har kimga ilmiy va texnikaviy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g‘amxo‘rlik qiladi”, deyiladi.

Islom Karimovning asarlari, nutqlarida milliy tiklanish masalasiga konseptual-nazariy jihatdan tamomila yangicha tarzda munosabatda bo‘lindi. Ta’kidlash lozimki, Prezidentning bu boradagi konsepsiyasi sobiq sovet mustabid tizimi va uning mafkurasining siyosiy-g‘oyaviy jihatdan cheklanganlik mohiyatini ochib berishdan boshlandi.

Ayniqsa, I.Karimovning sovet mustabid tizimi davridagi hukmron mafkura va ta’lim tizimi to‘g‘risida fikrlarini anglab yetish o‘sha davrning mohiyatini bilish uchun juda kerak edi. “Bizga meros bo‘lib qolgan ta’lim-tarbiya tizimining ma’lum bir ma’qul jihatlari bilan bir qatorda uning eng nomaqbul tomoni shundan iborat ediki, - deydi I.Karimov, - o‘quv jarayonida o‘quvchi va talabalarni mustaqil va erkin fikrlashga yo‘l qo‘ymaslik, har qaysi o‘quv yurtini bitiruvchilarning bilimiga qarab emas, avvalo, ularning sobiq sovet tuzumiga va soxta g‘oyalarga sadoqatini hisobga olib baholash va hayotga yo‘llash tamoyili asosiy o‘rinni egallar edi. Ko‘p joylarda sifat o‘rniga son ketidan quvish ustunlik qilardi. Ko‘pchilik haqiqiy bilim yoki malaka orttirish maqsadida emas, amal-taqal qilib diplomli bo‘lib olish ilinjida texnikum yoki institutlarga kirar edi. Bu tuzumdan bizga qolgan

meroslar ichidagi shunga o'xshagan salbiy asoratlarni, afsuski, hozir ham sezib turibmiz"¹³.

Darhaqiqat, sovet mafkurasi manfaati uchun mustaqil fikrlaydigan, siyosiy ongi va madaniyati kuchli shaxsning keragi yo'q edi.

Birinchidan, bunday shaxs g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan boqimandalika mahkum etilgan bo'lib, uni boshqarish oson bo'lardi. I.Karimov tomonidan sovet mustabid tizimi mafkurasi mazmun-mohiyatining ochib berilishi shu nuqtai nazardan g'oyat muhimdir.

Ikkinchidan, I.Karimov ishlab chiqqan milliy g'oya konsepsiyasida milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlarni tiklash yangicha tarzda hal etildi. Prezidentning "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q", degan shiorida juda katta ma'no bor. Gap shundaki, ma'naviy, g'oyaviy-mafkuraviy jihatdan sovet mustabid tizimi davrida "shikastlangan" fuqarolarni sog'lomlashtirish lozim edi. Bu esa faqat tarixni o'rganish, "moziyga qarab ish ko'rish" bilangina hal bo'lishi mumkin.

I.Karimovning bu masalalarga doir nazariyasining ikki jihati bor: 1. Tarixni bilmasdan yuksak ma'naviyatga erishish mumkin emas. 2. Ma'naviy jihatdan sust odamda tarixni o'rganishga ehtiyoj bo'lmaydi. Bundan tashqari, insondagi barcha yaxshi sifatlar, ayniqsa uning irodasi tarix orqaligina shakllanishi mumkinligiga keng e'tibor berildi. Shuningdek, tarix insonni tarbiyalaydi, uni hushyorlikka chaqiradi, "jamiyatning har bir a'zosi o'z o'tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo'ldan urish, har xil aqidalar ta'siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi"¹⁴.

Uchinchidan, Islom Karimovning milliy g'oya konsepsiyasida jamiyat ijtimoiy taraqqiyotiga tahdid solayotgan g'oyalar, mafkuralar, ularga qarshi kurashish zarurligi ko'rsatib berilgan. 80-yillarning oxirida O'zbekistonga kirib kela boshlagan va mamlakatimizga o'zini "do'st", "dindosh", "millatdosh" sifatida ko'rsatganlarning haqiqiy g'oyaviy-mafkuraviy qiyofasini ko'rsatib, ularga qarshi jiddiy kurashish lozimligini alohida ta'kidlagan.

Shunday qilib, I.Karimov O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotiga XX asrning 90-yillarida jadal kirib kelgan diniy fundamentalizm, ekstremizm va

¹³ Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни - халқ, миллатни- миллат қилишга хизмат этсин./Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т.7. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999 йил, 94-бет.

¹⁴ Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. /Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т.7. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999 йил, 137-бет.

xalqaro terrorizmning mazmun-mohiyatini ochib berdi. Ayni paytda ushbu konsepsiyada mazkur masalaning ikki tomoniga e'tibor berildi. Birinchisi, diniy fundamentalizm, aqidaparastlik va xalqaro terrorizm faqat islom diniga taalluqli emas. Bunday salbiy holatlar boshqa dinlarga ham tegishli ekanligi qayd etildi. Bu bilan islom dinining sofligi saqlandi. Ikkinchi tomondan, bunday salbiy holatlarga qarshi kurashishning yagona yo'li - fuqarolarda g'oyaviy immunitetni shakllantirish va u orqali odamlarni g'oyaviy, ma'naviy-ruhiy tarbiyalash, ularni milliy g'oyaga ishontirish, uyushtirish va safarbar etish zaruriyati hamda yo'l-yo'riqlari ko'rsatildi.

I.Karimovning bu boradagi nazariy qarashlarida diniy ekstremizm, fundamentalizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurashishda kishilarning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, mustaqil fikrga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash, milliy-madaniy merosni asrash va amaliy faoliyatda unga suyanish kabilar o'z aksini topdi.

To'rtinchidan, I.Karimovning milliy g'oya konsepsiyasida milliy va umuminsoniy manfaatlar uyg'unligini qaror toptirishga alohida ahamiyat berildi. Darhaqiqat, ijtimoiy rivojlanishning asosi milliy va umuminsoniy manfaatlar uyg'unligidadir. Xoh ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy, xoh ma'naviy-ma'rifiy sohada bo'lsin, I.Karimov mazkur manfaatlar nisbatini to'g'ri olishga harakat qilgan.

Masalan, hozirgi kunda O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qilayotgan bo'lsa, 100 dan ortiq milliy madaniy markazlar faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekistonda mustaqillik yillarida qo'lga kiritilgan eng katta yutuq ham jamiyatda millatlararo munosabatlarda barqarorlikni ta'minlash bo'ldi. Barcha millat va elat vakillarining teng haq-huquq va imtiyozlarga ega bo'lishi, ular manfaatlarining Konstitusion asosda muhofaza etilishi mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekiston strategiyasining mintaqaviy va umumbashariy omillari. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomidir. Taraqqiyot o'zgarishlarining yangi tarixiy bosqichda davom ettirilishi ko'zda tutilgan holda, Taraqqiyot strategiyasiga 2 ta yangi ustuvor yo'nalish qo'shildi. Bulardan biri – ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi – O'zbekistonning dunyoda yuz berayotgan global muammolarga munosabati negizida belgilangan yangi ustuvor yo'nalishdir.

Taraqqiyot strategiyasida asosiy e'tibor, bir tomondan, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga doir qonunlar, kodekslar, konsepsiya va dasturlar qabul qilinishiga qaratilgan. Ikkinchi tomondan, unda qonun ustuvorligini taminlash, konstitutsiyaviy islohotni hayotga izchil tatbiq etish, milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, ma'naviyatni rivojlantirish, shuningdek, global muammolarga O'zbekistonning munosabati, xavfsizlik va tashqi siyosat borasidagi muhim vazifalar qamrab olingan. Ayni paytda bu kabi vazifalarning qo'yilishi Yangi O'zbekiston strategiyasida mamlakat taqdiri, buguni va ertasiga daxldor bo'lgan masalalar bilan bir qatorda mintaqaviy va umumbashariy muammolar ham nazardan chetda qolmaganligini ko'rsatadi.

Umuman, dastlab Harakatlar strategiyasida, so'ng Taraqqiyot strategiyasida O'zbekiston bajarishni o'z zimmasiga olgan BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlarini mamlakatimiz hayotiga tatbiq etishning aniq taktika va strategiyalari belgilab berildi.

Boshqacha aytganda, O'zbekiston tashqi xalqaro munosabatning teng huquqli a'zosi sifatida BMT Barqaror taraqqiyot maqsadlari bilan hamohang holda rivojlanish yo'liga tushib olib, bu borada o'ziga xos o'рни va ahamiyatini, yanada muhimi, ibratli tajribasini butun dunyoga ko'rsata oldi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi ushbu muhim taraqqiyparvar jarayon uzluksiz davom etayotganidan dalolatdir.

Yangi O'zbekistonda mutlaqo yangi milliy huquqiy tizim shakllanmoqda. Bu davrda "inson, uning huquqlari, erkinliklari, ayniqsa, qadri – eng muhim qadriyat" degan tamoyil e'tirof etilmoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida ilgari surilayotgan keng ko'lamli vazifalar, xususan, adolatli va xalqparvar davlatni barpo etish, inson huquq va manfaatlari, qadr-qimmatini yanada samarali ta'minlash kabi ulug'vor maqsadlar bu borada zarur huquqiy asosni ta'minlovchi konstitutsiyaviy makonni yanada takomillashtirish ehtiyojini kun tartibiga qo'ydi.

Shu asosda Konstitutsiyaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflarni shakllantirish va tashkiliy chora-tadbirlarni amalga

oshirish yuzasidan Konstitutsiyaviy komissiya tashkil etilib, uning tarkibi va vazifalari belgilandi. Konstitutsiyaviy komissiya bugungi kunda faol ishlamoqda.

Dunyodagi hech bir mamlakatda so‘nggi yillarda O‘zbekistondagi kabi keng ko‘lamli islohot amalga oshirilmagan. Toshkentning yaxshi qo‘shnichilik siyosati tufayli Markaziy Osiyo davlatlari ilk bor bugungi kunda dolzarb mintaqaviy masalalarni ochiq va samimiy muhokama qila boshladi.

O‘zbekiston jahon minbarlaridan ilgari surgan xalqaro, mintaqaviy va milliy tashabbuslar inson huquqi, erkinligi va qonuniy manfaatini har tomonlama ta‘minlashga, bir so‘z bilan aytganda, “Inson qadri uchun” degan ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarishga qaratilgani xalqaro hamjamiyat e‘tirofiga sazovor bo‘lmoqda.

2017 yil sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O‘zbekiston Prezidenti ilgari surgan tashabbuslar asosida keyingi 5 yilda BMT Bosh Assambleyasining quyidagi 6 ta rezolyutsiyasi qabul qilingani fikrimizni yaqqol isbotlaydi:

– BMT Bosh Assambleyasining 2018 yil 22 iyundagi yalpi majlisida qabul qilingan “Markaziy Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlik va izchil taraqqiyotni ta‘minlash bo‘yicha mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash” rezolyutsiyasi;

– BMT BA 72-sessiyasidagi nutqida ilgari surilgan g‘oya asosida 2018 yil 12 dekabrda Bosh Assambleyaning yalpi sessiyasida qabul qilingan “Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyutsiyasi;

– 2018 yil 27 noyabrda Orolbo‘yi mintaqasi uchun Inson xavfsizligi bo‘yicha ko‘p sheriklik Trast jamg‘armasiga asos solinishiga xizmat qilgan rezolyutsiya;

– O‘zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan va 2019 yil 19 dekabr kuni BMT Bosh Assambleyasi yalpi majlisida qabul qilingan “Markaziy Osiyoda barqaror turizm va barqaror rivojlanish” maxsus rezolyutsiyasi;

– 2021 yil 18 may kuni BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasi yalpi majlisida davlatimiz rahbari taklifiga binoan qabul qilingan “Orolbo‘yi

mintaqasini ekologik innovatsiya va texnologiyalar hududi deb e'lon qilish to'g'risida"gi rezolyutsiya;

– 2022 yil 11 iyul kuni BMT Bosh Assambleyasi 76-sessiyasida qabul qilingan “Markaziy va Janubiy Osiyoda o‘zaro bog‘liqlikni mustahkamlash” nomli rezolyutsiya.

BMTning 76 yillik butun tarixi davomida muayyan bir shaxsning tashabbusi bilan shuncha rezolyutsiya qabul qilinishi tajribasi kuzatilmagan.

Bundan tashqari, BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Prezidentimiz BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etdi. bugungi kunda BMTning Yoshlar huquqlari bo'yicha konvensiyasi loyihasini tayyorlash ishlari izchil olib borilmoqda.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bugungi kunda O‘zbekistonning jahonda nufuzi o‘sib borayotgani – bu nafaqat davlatning har tomonlama puxta o‘yangan, qat’iy va mustaqil tashqi siyosati natijasi, balki mamlakatda demokratik va bozor islohotlarini amalga oshirishda erishilayotgan yutuqlarning xalqaro hamjamiyat tomonidan e’tirof etilishi hamdir.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

Milliy tiklanish, ma’naviy yuksalish, g‘oyaviy bo‘shliq, kommunizm g‘oyasi, milliy istiqlol g‘oyasini shakllantirish, g‘oyaviy-mafkuraviy masala, mafkuraviy siyosat, kommunistik mafkurani bartaraf etish, milliy tiklanishning g‘oyaviy asoslari.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. O‘zbekistondagi ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning mohiyati nimadan iborat?
2. Milliy tiklanishning g‘oyaviy-mafkuraviy asoslarini nima tashkil qiladi?
3. O‘zbekistonda yangi jamiyat barpo etishning g‘oyaviy-mafkuraviy asoslari qanday shakllandi?
4. Sharqona demokratiyaning mohiyatini izohlang...
5. Milliy tiklanishning g‘oyaviy-mafkuraviy asoslarida tarixiy meros qanday o‘rin tutadi?

6. Milliy tiklanishning tarixiy-mantiqiylik tamoyilini tavsiflang.
7. Hozirgi davrda milliy tiklanishga turli g'oya va mafkuralar ta'sirini tushuntiring...
8. O'zbekiston Prezidenti ilgari surgan tashabbuslar asosida keyingi 5 yilda BMT Bosh Assambleyasining nechta rezolyutsiya qabul qilindi, ular qaysilar?

4-§. MILLIY G'OYA TIPOLOGIYASI

G'oyalar tipologiyasi, milliy g'oya tipologiyasi, ularning mazmun - mohiyati. G'oya va mafkuralar turli tarixiy davrlarda turli nuqtai nazariyalardan turkumlashtirib kelingan. Xususan, ilk davrlarda g'oya va mafkuralar ezgu va yovuz, ilohiy va dunyoviy turkumlarga ajratilgan.

G'oya va mafkura xususidagi keyingi yillarda chop etilgan adabiyotlarda g'oyalarning mazmun va namoyon bo'lish shakllari tamoyili asosida ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy va umuminsoniy g'oyalarga turkumlashtirilgan. Darhaqiqat, g'oyalarni shakliy, mazmuniy, sotsial-etnik, ko'lamiy va boshqa tamoyillar asosida quyidagicha turkumlashtirish mumkin:

- fan g'oyalari (tabiiy-ilmiy yoki ijtimoiy-gumanitar, asoslangan yoki gipotetik, haqiqiy yoki yanglish, nisbiy yoki mutlaq va hokazo);

- diniy g'oyalar (vahiy yoki vahiy bo'lmagan, politeistik yoki monoteistik kabi);

- falsafiy g'oyalar (idealistik yoki materialistik, teistik yoki ateistik, monistik yoki dualistik, plyuralistik kabi);

- badiiy-nafosat g'oyalari (go'zallik yoki xunuklik, ulug'vorlik yoki tubanlik, fojaviylik yoki kulgililik kabi);

- axloqiy g'oyalar (ezgulik yoki yovuzlik, yaxshilik yoki yomonlik kabi);

- huquqiy g'oyalar (haqlik yoki nohaqlik, tenglik yoki tengsizlik kabi);

- sotsial-siyosiy g'oyalar (guruhiy, tabaqaviy, sinfiy, partiyaviy, milliy, umuminsoniy kabi);

- mahalliy, mintaqaviy, umumbashariy va boshqa g'oyalar.

Adabiyotlarda g'oyalarni ularning inson va jamiyatga ta'sir qilish xususiyatlari tamoyiliga ko'ra, ularning namoyon bo'lish shakllari ikki turkumga - bunyodkor va vayronkor g'oyalarga ajratiladi. Xususan, taraqqiyotga xizmat qiluvchi, jamiyat va insonni ezgulikka undovchi g'oyalar sifatida ozodlik va mustaqillik, tinchlik va adolat, tenglik va hamkorlik,

do'stlik va birdamlik, hurfikrlilik va ma'rifatparvarlik, bag'rikenglik va xalqparvarlik, vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari qayd etiladi. Jamiyat, xalq va davlatlarning tanazzuliga sabab bo'luvchi, g'ayriinsoniy maqsadlarga xizmat qiluvchi vayronkor g'oyalar sifatida esa - mustabidlik va bosqinchilik, terrorchilik va aqidaparastlik, jaholatparastlik va irqchilik, millatchilik va mahalliychilik, vatansizlik va yovuzlik g'oyalari sanab o'tiladi. Shuningdek, mafkuralar ham ijobiy natija beruvchi bunyodkor mafkuralarga va salbiy natija beruvchi vayronkor mafkuralarga turkumlashtirilgan. Progressiv, liberal, tadrijiy va real (amaliy) mafkuralar ijobiy natija beruvchi bunyodkor mafkuralar sifatida, regressiv, mustabid, inqilobiy va utopik (hayoliy) mafkuralar esa - salbiy natija beruvchi vayronkor mafkuralar sifatida tasniflanadi¹⁵.

Umuman g'oya va mafkuralarning yuqorida qayd etilgan tasniflarini to'liq e'tirof etish mumkin. Ammo real, (amaliy) mafkuraning ijobiy natija beruvchi bunyodkor mafkura sifatida, utopik (hayoliy) mafkuraning salbiy natija beruvchi vayronkor mafkura sifatida tavsiflanishi biroz bahslidir. Zero, har qanday bunyodkor yoki vayronkor mafkura ham real (amaliy) bo'lishi va, shuningdek, hali amalga oshmagan, hozirgi kunda utopik (hayoliy) sanalgan, mafkuralar ham bunyodkorlik yoki vayronkorlik mohiyatiga, yo'nalishiga ega bo'lishi mumkin.

Ayrim hollarda g'oya va milliy g'oya, mafkura va milliy mafkura tushunchalarining farqlariga yetarli darajada e'tibor berilmaydi. Xususan, g'oya milliy g'oya ma'nosida, mafkura esa - milliy mafkura sifatida talqin etiladi. Agar g'oya tushunchasi asosan aqliy faoliyat bilan bog'liq bo'lsa, milliy g'oya tushunchasi milliy his-tuyg'u, millat mentaliteti bilan uzviy bog'liqdir. Milliy g'oya - halqning qalbidan chiquvchi, uning orzu-umidlarini o'zida ifoda etuvchi, xalqning haq-huquqini himoya qiluvchi, uning qadr-qiyamatini yuksaltirishga undovchi haqqoniy fikrdir. Milliy g'oya xalqning o'zligini anglatuvchi, milliy tuyg'ularini uyg'otuvchi, milliy g'urur va oriyatini qo'zg'atuvchi fikrdir. Milliy g'oya xalqni uyushtiruvchi, uning qadr-qiyamatini tiklovchi, o'zligini anglatuvchi, ijodkorlik va yaratuvchanligini ro'yobga chiqaruvchi, jamiyat taraqqiyotini insonparvarlik yo'nalishiga yetaklovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Milliy g'oya vatanparvarlikka, xalqning tarixiy xotirasiga, o'zligini anglashiga asoslanadi. Bizning milliy g'oyamiz millatning, davlatning, yurtning qadr-qiyamatini yuksaltiradi,

¹⁵ Qarang: Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Изоҳли кўргазмали воситалар тўплами. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2001 йил, 12-17-бетлар.

iqtisodiy, sotsial, siyosiy va ma'naviy salohiyatini yuzaga chiqaradi, oriyat va g'ururini asraydi, istiqbolini belgilaydi, kelgusi taraqqiyot uchun yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi. Milliy g'oya o'zbek millatining o'ziga xosligi nimada ekanligini asoslab beruvchi ilmiy-nazariy va falsafiy qarashlar sistemasidir.¹⁶

Milliy g'oyaning fikrlar, g'oyalar xilma-xilligi, erkin fikr, shaxs erkinligiga erishish tamoyiliga amal qilishi mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada demokratiyalashtirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, erkinlashtirishga jamiyatni demokratlashtirishning boshlang'ich bosqichi sifatida qaralib, jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirish vazifalari amalga oshirilmoqda.

Bugun mamlakatimizda shakllanish bosqichiga kirib ulgurgan milliy g'oyaning bunyodkor g'oya sifatida namoyon bo'lib, uning jamiyatni jamiyat, millatni millat, xalqni xalq qilishdagi o'rni va ahamiyati.

Milliy g'oyaning bosh maqsadi va asosiy g'oyalari. Milliy g'oyaning umuminsoniy mazmuni: insonparvarligi, tinchliksevarligi va taraqqiyotga yetaklashi. Milliy g'oya Vatanimizning shonli o'tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog'lab turishga, o'zimizni ulug' ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo'l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da'vat qiladigan g'oyadir.

Demak, milliy g'oya, milliy iftixor kundalik mashaqqatli ishlarimizda va bunyodkorlik faoliyatimizda kuchimizga kuch, g'ayratimizga g'ayrat qo'shib, haqiqatan ham kelajagi buyuk davlat qurayotganimizga mustahkam ishonch bag'ishlaydi.

Mustaqil O'zbekiston uchun, uning taraqqiyoti va buyuk kelajagi uchun endilikda bir qancha muhim vazifa va muammolarni hal etish asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Ana shunday vazifalardan biri milliy istiqbol mafkurasiga ishonch va e'tiqodni mustahkamlashdan iboratdir.

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq va obod Vatan erkin va farovon hayot barpo etish – O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh maqsadiga aylandi. Har bir inson uchun muqaddas bo'lgan Mustaqillik, Ozodlik, Vatan obodligi, shaxsning erkinligi va farovon hayot tushunchalari, yuksak qadriyatlarni o'zida mujassam etadi. Bu maqsadda ozodlik so'zining ustuvor va yetakchi o'rinda turishi mustaqillik barcha orzu-intilishlarimiz, amaliy faoliyatimiz va yorug' kelajagimizning asosi ekanligidan dalolat

¹⁶ Qarang: Tўраев Б., Раматов Ж. Миллий истиқлол ғояси: асосий хусусиятлари, фалсафий ва тарихий илдиэлари. –Тошкент: Ижод дунёси, 2002 йил.

beradi. Ayni paytda mamlakatimizda yashayotgan har bir insonning tub hayotiy maqsadlarini, yashash va kelajak sari intilish yoʻlidagi say-harakatlarini ifoda etadi. Zero, bu dunyoda yashayotgan har bir inson yoʻqki, hech kimga qaram, mute boʻlmay, ozod va obod yashashni, erkin va farovon hayot kechirishni orzu qiladi, chin yurakdan istaydi va ana shu maqsadlarni diliga tugib umrguzaronlik qiladi. Bu maqsad mamlakatimizda qonun ustuvorligi, fikrlar xilma xilligi, eʼtiqod erkinligi taʼminlanishi taqozo etadi. Ana shunday huquq va erkinliklar qaror topgandagina erkin va farovon hayot kechirish sari yoʻl ochiladi.

Asosiy gʻoyalar xalqning mustaqil taraqqiyot yoʻlidagi bosh gʻoyasidan kelib chiqadi va oʻzining maʼno-mohiyati, falsafasi, jozibasi bilan bosh maqsadni millat qalbi va ongiga chuqurroq singdirishga xizmat qiladi. Bular quyidagilardir: Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bagʻrikenglik.

Vatan ravnaqi gʻoyasi har bir insonga oʻzi tugʻilib oʻsgan, kindik qoni toʻkilgan muqaddas zaminini asrab avaylash, uni koʻz qorachigʻidek asrash, vatan uchun fidoyi inson boʻlish masʼuliyatini yuklaydi. Vatan ravnaqiga xizmat qilmaydigan gʻoya hech qachon milliy gʻoya boʻla olmaydi. Jamiyatda tadbirkorlik, erkin iqtisodiy faoliyat keng rivojlanayotgani, davlat iqtisodiy qudrati ortayotgani, xalq maʼnaviyati boyib, ilm-ziyo salohiyati yuksalayotgani Vatan ravnaqining asosi boʻladi. Vatan ravnaqi avvalo, uning farzandlari kamoliga bogʻliq. Shoir aytganidek:

Men Vatandan paydo boʻldim,
Demak men ham Vatanman.
Oxir Vatan tuprogʻiga,
Qoʻshiluvchi bir jonman.

Yurt tinchligi gʻoyasi esa har bir inson uchun ulugʻ neʼmat, ulugʻ saodat boʻlgan tinchlikni saqlash, atrofidagi voqea hodisalarga sergaklik bilan qarash, ogoh boʻlish, tinchlikni qadrlashga daʼvat etadi. Zero, tinchlik eng oliy neʼmat. Bu neʼmatni asray bilish har birimiz uchun ham qarz ham farz. Hech kim urushni xohlamaydi. Birgina ikkinchi jahon urushining oʻzida 50 milliondan ortiq kishi halok boʻldi. Ana shularning ichida 263005 nafar Oʻzbekistonliklar bor. 132670 ta vatandoshimiz nom-nishonsiz yoʻqoldi. 60452 kishi nogironlar safidan joy oldi. Bu oʻtmishda edi. 199 yilgi Toshkentdagi Fevral voqealarini, 2001 yildagi Surxondaryoning Uzun va Sariosiyo tumanlaridagi xunrezliklarni, yoki 2005 yildagi Andijon voqealarini oling. Xalqimizning asl, zabardast oʻgʻlonlari hayotdan erta koʻz

yumib, bevaqt xazon bo'ldilar. Ular tinchligimizni asrash uchun o'z jonlarini qurbon qildilar. Shu bois bugun tinchlikni asrashni har birimiz o'z muqaddas burchimiz deb bilmog'imiz lozim.

Xalq farovonligi g'oyasi quyidagi qoidaga asoslanadi: har qaysi inson va oila badavlat bo'lsa, jamiyat va davlat ham kuchli va qudratli bo'ladi. Farovonlik tushunchasi aslini olganda bir qadriyat hisoblanadi. Chunki har bir yuksalishning zamirida farovonlik tushunchasi yotadi. YA'ni, biror bir davlat chinakkam ma'noda rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi, iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy jihatdan baquvvat bo'lishi uchun avvalo mazkur davlat fuqarolarining turmush darajasi ko'tarilib, to'kis va farovon yashashlari ta'min etilgan bo'lishi kerak. Insonning baxt saodatga erishuvida ham farovonlik eng muhim omillardan hisoblanadi.

O'zbek xalqida «avval iqtisod, keyin siyosat» degan naql bor. Agar odamzotning qorni och bo'lsa, shubhasiz unga hech narsa yoqmaydi. Qorinni to'yg'azish uchun esa avvalambor uning o'zi harakat qilishi, so'nggina unga davlat yordam berishi kerak. Albatta bu o'rinda ishbilarmonlik, tadbirkorlik, har bir ishga sidqidildan, vijdonan yondashish, izlanuvchanlik, aql va tafakkurga tayanib ish yuritish kabi fazilatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, farovonlikning manbai – aql, tafakkur, bilim, malakadir. Buning uchun esa dehqon o'z dalasida, cho'pon o'z otarida, chorvador o'z fermasida, ishchi o'zining ishlab chiqarish korxonasida, tadbirkor o'zi tanlagan sohasida fidokorona mehnat qilishi kerak. Kezi kelsa, olim ham o'z ilmiy izlanishlarini fidokorlik bilan, sidqidildan olib borishi lozim. Har bir kasb sohibi oqilona mehnat qilsa, avvalo o'z farovonligini, so'ng oilasining to'kisligini ta'min etadi, albatta bu bilan el-yurt farovonligiga ham ulush qo'shgan bo'ladi.

Komil inson g'oyasi – odamzotga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy mukammallikni o'zida mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan oliyjanob umuminsoniy g'oyadir.

Komil inson insoniyatning asriy orzusi, idealidir. Mashhur faylasuf Abu Nasr al Forobiy komil inson haqida ajoyib ta'rif-tavsiflar keltiradi. Komil inson bo'lishi uchun odamga ko'p sifat va fazilatlar zarur ekanligini uqtiradi. Ayni paytda komil inson haqida so'z yurita turib, Alisher Navoiyning mana bu ta'rifini, to'g'rirog'i maqsadini keltirib o'tish lozim: «...dunyoga kelibmizki, kamolot kasb etmoq vazifamizdir».

Ijtimoiy hamkorlik g'oyasi xilma xil fikr va qarashlarga ega bo'lgan, turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruhlarining umumiy maqsad

yoʻlidagi hamjihatligini taʼminlashga xizmat qiladi. Ijtimoiy hamkorlik murosa falsafasi boʻlib, xilma xil fikr va qarashlarga ega boʻlgan., turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruhlarning umumiy maqsad yoʻlidagi hamjihatliklarini, jamiyatda tinchlik, totuvlik, barqaror taraqqiyotni taʼminlaydi va quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

Birinchidan, jamiyatning eng ustuvor maqsad va manfaatlarini oʻzida mujassam etadigan ilgʻor gʻoyalar milliy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi kuchga aylanadi.

Ikkinchidan, jamiyatdagi har bir ijtimoiy toifa va guruh oʻzining dasturiy maqsadlari va amaliy faoliyatini ana shu gʻoyalar bilan uygʻunlashtirishi milliy taraqqiyotning zaruriyatiga aylanadi.

Uchinchidan, har bir shaxs ijtimoiy mavqei, dunyoqarashi va eʼtiqodidan qatʼiy nazar jamiyatning ustuvor maqsad va manfaatlarini aks ettiradigan milliy gʻoyalarni amalga oshirish uchun oʻzini masʼul deb bilishi lozim.

Millatlararo totuvlik gʻoyasi esa mamlakatimizda yashayotgan har bir millatning bir-birini kamsitmagan holda oʻz milliy anʼanalariga sodiq qolishini, bir-biri bilan doʻstona munosabatda boʻlishini koʻzlaydi. Millatlararo totuvlik gʻoyasi – umumbashariy qadriyat hamdir. Hozirda mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Koʻp yoki oz sonlaridan qatʼiy nazar mamlakatimizda barcha millatlar uchun teng sharoitlar yaratilgan. Ana shu millatlarning barchasi mustaqil yurt ravnaqi, el-yurt farovonligi va tinchligi uchun oʻz hissalarini qoʻshmoqdalar. Qozoq, qirgʻiz, tojik, rus, yahudiy, uygʻur, qoraqalpoq, turkman, tatar, ukrain va boshqa millat vakillari ham ЎOʻzbekiston oʻz vatanimЎ deb faxr bilan yashayotganligi mamlakatimiz ravnaqi uchun zamindir.

Dinlararo bagʻrikenglik gʻoyasi barcha dinga eʼtiqod qiluvchilarga keng yoʻl ochilgan holda, bir-birlari bilan samimiy munosabatda boʻlishlarini taqozo etadi. Aslida din ijtimoiy hayotni, voqelikni, uning hodisalarini oʻziga xos tarzda inʼikos ettiruvchi ijtimoiy ong shakllaridan biridir. U dastlab inson hayotining ibtidoiy davrida vujudga kelgan va oʻsha zamonda yashagan insonlarning dunyoqarashini ham aks ettirgan. Din dunyo, inson va boshqa mavjudotlarning yaralishi va kelib chiqishini, hayotning maʼno-mazmuni, insonning yashashdan koʻzlagan maqsadi kabi masalalarga ilohiy nuqtai nazardan javob beruvchi dunyoqarash shaklidir. U bugungi kunda ham shu vazifani ado etib kelmoqda. Din diniy dunyoqarashni, diniy marosimlarni, shuningdek, diniy tuygʻuni oʻz ichiga oladi. Oʻrta asrlarda din

madaniyatning barcha turlarini (ilm-fan, falsafa, huquq, axloq kabi) o'zida mujassamlantirgan va ularga o'z ta'sirini o'tkazgan, qadim-qadimdan aksariyat ma'naviy qadriyatlarni o'zida mujassam etib kelgan. Milliy qadriyatlarning asrlar osha bezavol yashab kelayotgani ham dinning sharofatidandir. Prezident Islom Karimovning so'zlari bilan ifodalaganda: "... din bizning qon-qonimizga, ongi-shuurimizga shu qadar teran singib ketganki, uni hech qanday kuch, hech qanday tashviqot bilan chiqarib bo'lmaydi".¹⁷

Diniy e'tiqodlarning mohiyati umumiy ekaniga qaramasdan, dinlarning ko'rinishi xilma-xildir. Dunyoda juda sodda, qadimiy dinlar bilan bir qatorda, umumjahon ahamiyatiga molik., murakkab, jahon dinlari ham mavjud. Ular tarixiy zaruratga qarab, turli davrlarda vujudga kelgan.

Chunki, dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi va yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi xususiyatlarga tayanadi. Odamlarni halollik va poklik, mehr va shafqat, birodarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi.

Jahondagi barcha yirik dinlar bu dunyoni foniy, o'tkinchi hisoblaydi. Ular insonning yashashdan asosiy maqsadi bu dunyoda xayrli, savobli ishlar qilib, boqiy dunyo sinovlariga tayyorgarlik ko'rish, jannat saodatiga sazovor bo'lish, degan g'oyani targ'ib etadi. Barcha dinlarda inson hayotining mohiyati, mazmuni, kishilar o'rtasidagi siyosiy-huquqiy, axloqiy munosabatlarni tenglik va adolat mezonlari asosida o'rnatish masalasi ozmi, ko'pmi o'z aksini topgan. Shu boisdan ham har bir vatandoshimiz, ayniqsa yoshlar avvalo, dinlar tarixini, ularning asl mohiyatini chuqur bilishi lozim. Shundagina ularni g'arazli maqsadlarni ko'zlab yurgan kuchlar to'xtatolmaydilar.

Diniy tamoyillarni, diniy bilimlarni har bir millat, har bir din vakiliga, ularning farzandlariga yanada to'liqroq o'rgatish, millatlar o'rtasida tinchlik va totuvlikni yo'lga qo'yish, din vakillari orasida turli nizolar kelib chiqmasligini ta'minlash, dinlararo o'zaro do'stona munosabatlarni shakllantirish maqsadida diniy bag'rikenglik yoki tolerantlik g'oyasi ilgari surilmoqda. Bu g'oya O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 31-moddasi bilan qaysidir darajada uyg'un.

¹⁷ Каримов И.А. Оллоҳ қалбимизда, юрагимизда. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999 йил, 18-бет.

Masalan, Konstitusiyaning mazkur moddasida shunday belgilab qo'yilgan: "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson hohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi". Aslida ham vijdon erkinligi- odamzot azal-azaldan intilib kelgan, xilma-xil daraja va ko'rinishlarda amalga oshirgan umuminsoniy tamoyillardan biridir. "Vijdon erkinligi" "e'tiqod erkinligi" tushunchasidan anchagina kengroq. Chunki, "e'tiqod erkinligi" insonning biron-bir dinga e'tiqod qo'yishda o'z ixtiyori bilan ish tutishini ifodalaydi. "Vijdon erkinligi" esa muayyan kishining biror dinga, g'oyaga e'tiqod qilishi yoki umuman e'tiqod qilmasligini ham anglatadi. Inson dindor, dinsiz dahriy yoki xudojo'y bo'lishi, but va sanamlarga sig'inishi, butunlay xudosiz bo'lishi ham mumkin. U dunyoviy yoki diniy bilimlar tarafdori sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Ammo – bu - ana shu kishini ayblash uchun asos bo'lmaydi, balki, kimning qanday e'tiqodga ega bo'lishi yoki bo'lmasligi uning vijdoniga havola deyilganidir. Ammo bu tamoyil vijdon va burch, jamiyatdagi boshqa umuminsoniy talablarni tan olmaslik, turli aqidalarni mutlaqlashtirish, boshqalar uchun qadriyat bo'lgan narsalarni mensimaslik, boshqalarning diniga past nazar bilan qarash, dinlar o'rtasiga nifoq solish, dindorlarni kamsitish degani emas. Balki, kishining ishonchi, e'tiqodi sohasidagi anglab olingan erkinligi, jamiyat qonunlariga mos hayot kechirishi demakdir.

Diniy bag'rikenglik g'oyasi har bir millat vakillarining farzandlarida o'z milliy tuyg'usi, diniy qadriyatlarini puxta egallash imkonini beradi. Xuddi shu imkoniyatdan kelib chiqqan holda bugungi kunda biz yoshlarimizga bu borada chuqur va puxta bilimni berib borishimiz kerak. Zero, Prezidentimiz ta'kidlab o'tganidek, "... O'z xalqiga, uning an'alariga, tili va madaniyatiga muhabbat va hurmatni tarbiyalamasdan turib, o'z xalqini millatlarning butun jahon hamjamiyatida tenglardan biri sifatida idrok qiluvchi haqiqiy insonni, o'z Vatanining jonkuyarini tarbiyalash mumkin emas".

Mustaqillik sharoitida jamiyat g'oyaviy-mafkuraviy asoslari o'zgarishining mamlakat taraqqiyotini ta'minlashdagi ahamiyati. Mustaqillik sharoitida jamiyat g'oyaviy-mafkuraviy asoslari o'zgarishining mamlakat taraqqiyotini ta'minlashdagi ahamiyati yuksak.

Dunyodagi barcha xalqlarning milliy g'oyalari, o'z navbatida, umuminsoniy mazmunga ega bo'ladi. Ya'ni, milliy xususiyatlar umuminsoniy g'oyalar bilan yaxlit, mantiqiy bog'langan shaklda amal qiladi.

“Asrlar, davomida, – deb ta’kidlaydi Islom Karimov, – xalqimiz umumbashariy, umuminsoniy qadriyatlar takomiliga ulkan hissa qo‘shgan. Turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag‘rikenglik, dunyoviy bilimlarga intilish, o‘zga xalqlarning ilg‘or tajribalari va madaniyatini o‘rganish kabi xususiyatlar ham xalqimizda azaldan mujassam”¹⁸.

Darhaqiqat, hech bir umuminsoniy g‘oya yoki qadriyat alohida olingan bir millat tomonidan yaratilmaydi. Umuminsoniy g‘oyalar – bashariyat intellektual salohiyatining ijodiy mevasi, insoniyat taraqqiyoti, evolyusion o‘zgarishlarning mahsuli hisoblanadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi bosqichida demokratiya, gumanizm, tinchlik, barqarorlik, mustaqillik, ozodlik, qonun ustuvorligi va inson erkinliklari kabi g‘oya va qadriyatlar umuminsoniy ahamiyatga ega. Ayni paytda, yaxshilik, adolat, millatlarning teng huquqliligi, vijdon erkinligi, tabiatni asrash va shu kabilar umuminsoniy g‘oyalarga misol bo‘la oladi. Jamiyat rivojida ular xilma-xil tarzda, turli-tuman shakllarda namoyon bo‘lib, inson hayotining ma’naviy mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

Umuminsoniy g‘oyalarning har bir xalq mafkurasida ustuvor bo‘lishi shu xalqning jahon hamjamiyatiga teng huquqli a‘zo sifatida barcha bilan tinchlik va hamkorlik aloqalarini o‘rnatishi, erkin va farovon hayot barpo etishining muhim shartidir. Qayd etish lozimki, mamlakatimizdagi milliy mafkura umuminsoniy g‘oyalarga suyanadi, undan oziq oladi¹⁹.

XIX-asrning ikkinchi yarmidan jahondagi g‘oyaviy- mafkuraviy jarayonlarda demokratik tamoyillarning shakllanib, rivojlanishi yuz bera boshladi. Demokratlashtirish, erkinlashtirish, iqtisodiyotning ochiqligi, havfsizlik muammolariga munosabatlarning bir-biriga yaqinlashuvi bugun jahondagi ko‘pchilik davlatlarning ichki va tashqi siyosatlarini belgilab bermoqda. 200 yil muqaddam jahonning hamma davlatlari avtoritar davlatlar edi. XIX-asrning oxirida jahonda 13 tagina demokratik davlat bor edi. XX asrning birinchi yarmida ularning soni ikki marta ortdi, 1992-yilga kelganda esa jahondagi 183 davlatning 91 tasi demokratik davlat bo‘ldi, yana 35 tasi esa avtoritarizmdan demokratiyaga o‘tish davrida turardi. Shu asosda

¹⁸ Каримов И. А. Миллий истиклол мафкураси - халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. /Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. Т.8. – Тошкент :Ўзбекистон, 2000 йил, 503-бет.

¹⁹ Миллий истиклол ғояси: асосий тушунчалар, тамойиллар ва атамалар (қисқа изоҳли тажрибавий луғат) – Тошкент: 2002 йил, 149-бет.

umumsayyora ko‘lamida axloqiy-ma’naviy masalalar va qiziqishning kuchayishi ravshanroq ayon bo‘lmoqda²⁰.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston jamiyati oldida turgan eng katta vazifa - barpo etilishi lozim bo‘lgan davlatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy qiyofasini aniqlash edi. Pirovard natijada bunday qiyofaning chizgilari yuzaga keldi. “Bizning bosh strategik maqsadimiz - bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir. Yurtimizda yashaydigan barcha insonlar uchun, millati, tili va dinidan qat’i nazar, munosib hayot sharoiti yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlardagi kabi kafolatlangan turmush darajasi va erkinliklarini ta’minlash davlatimiz siyosatining mazmun-mohiyatini ifodalaydi. Bu - xalqimizning asriy an’analariga, muqaddas dinimizning insonparvarlik mohiyatiga, milliy qadriyatlarimizga sodiq qolgan holda, rivojlangan davlatlarning tajribalaridan ko‘r-ko‘rona nusxa ko‘chirmasdan, o‘zimizga xos va o‘zimizga mos rivojlanish yo‘lini izchil davom ettirish demakdir”²¹.

O‘zbekistonda qurilayotgan yangi jamiyat o‘zining g‘oyaviy-mafkuraviy asoslariga suyangandagina pirovard maqsadga erishish mumkin. Qayd etish lozimki, o‘zbek xalqining ming yilliklar davomida yaratgan o‘ziga xos g‘oyalari - tinchlik, ozodlik, hurlik, mustaqillik, ezgulik, barqarorlik, ma’naviy barkamollik, shaxsni ulug‘lash, uning manfaatlarini hurmatlash - bularning bari yangi shakllanayotgan jamiyatimizning g‘oyaviy poydevori hisoblanadi.

Ko‘hna qadriyatlarimiz, olimu ulamolarning asarlari jamiyatning g‘oyaviy-mafkuraviy asosini yaratishda juda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Yurtimiz xalqlarining tarixi, madaniyati o‘z ildizlari bilan asrlar qa’riga borib taqalishi va uzoq ming yillarni o‘z ichiga olishini qadimgi fors yozuvchilarining, xitoy, arman va suriyalik geograf va tarixchilarning yozib qoldirgan ma’lumotlari, Nosiriddin Burhonuddin Rabg‘uziyning “Qissasi Rabg‘uziy”, Alisher Navoiyning “Tarixi muluki Ajam”, Firdavsiyning “Shohnoma” asarlaridan, zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”dan, shuningdek, Bexistun, Bundaxishn, qadimgi turkiy bitiklar, jumladan O‘rxun-Yenisey yodgorliklaridan aniq va ravshan bilib olishimiz mumkin. Milliy g‘oya va mafkuramizning ildizlari o‘ta qadimiy ekanligiga yunonistonlik olimlar - Arrian, Kursiy, Plutarx, Geradot, Straban,

²⁰ //Жаҳон адабиёти, 2003 йил, ноябр.

²¹ Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. –Тошкент:Ўзбекистон, 2000 йил, 28-29-бетлар.

shuningdek, Abu Rayxon Beruniy, Narshaxiy va boshqa mutafakkirlarning asarlari ham guvohlik beradi.

Qayd etish lozimki, O‘zbekistonda milliy tiklanish, bir tomondan milliy o‘zlikni anglash, boshqa tomondan, jamiyatning g‘oyaviy-mafkuraviy asoslarini yaratish, uchinchi tomondan esa bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tish asnosida yuz berdi. “Ayni vaqtda biz jamiyatni va jamiyat tafakkurini yangilashning inqilobiy usullariga, bu jarayonni sun’iy ravishda chetdan turib, zo‘ravonlik yo‘li bilan tezlashtirishga qaratilgan har qanday urinishlarga mutlaqo qarshimiz. Biz barcha sohalarda, jumladan, ma’naviy sohada ham tadrijiy-evolyusion islohotlar yo‘li tarafdorimiz va bunga qat’iy amal qilamiz. YA’ni, sodda qilib aytganda, odamlarning dunyoqarashi, e’tiqod va tafakkurida demokratik tamoyillar vademokratik qarashlarning kengayishi va mustahkam o‘rin topishi avvalambor hayotning tabiiy yurishi bilan, ularning moddiy turmush darajasi va madaniy saviyasi tobora rivojlanishi va yuksalishi bilan chambarchas bog‘liq ekanini hayotning o‘zi taqozo etadi”.²²

Mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish eng avvalo uning g‘oyaviy-mafkuraviy asoslarini mustahkamlashni talab etadi. Agar har bir sohadagi, jumladan, iqtisodiy jabhadagi islohotlar g‘oyaviy-mafkuraviy jihatdan ta’minlanmas ekan, jiddiy milliy tiklanish to‘g‘risida fikr yuritish mushkuldir.

Xo‘sh, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda uning qaysi g‘oyaviy-mafkuraviy asoslariga suyanish lozim? Avvalo, iqtisodiy hayot erkinlashishi lozim. Shuningdek, ko‘p ukladli iqtisodiyotni yaratish, mulkdorlar sinfining shakllanishi o‘ta muhimdir. Biroq, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi eng muhim g‘oyaviy asos - fuqarolarda yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o‘zgartirish, har bir kishiga o‘z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkoniyatini yaratib berishdir.

Mamlakat iqtisodiy hayotini barqarorlashtirish, milliy g‘oya konsepsiyasida ijtimoiy hamkorlik va evolyusion taraqqiyot kabi g‘oyalarning o‘rni kattadir.

Ijtimoiy hamkorlik davlat va millat taraqqiyotida har bir soha uchun muhimdir. Siyosat, ijtimoiy soha, iqtisodiyot, madaniy jabhadagi hamkorlik milliy tiklanish uchun kuchli poydevor hisoblanadi. Ayniqsa shu narsani

²² Каримов И. А. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008 йил,101-бет.

yodda tutish lozimki, davlatning bosh islohotchilik roli jamiyatdagi ijtimoiy hamkorlikni ta'minlaydigan iqtisodiy asoslarni, siyosiy vazifani, madaniy muhitni, qonuniy-huquqiy munosabatlarni takomillashtirish, boshqarish va nazorat qilish faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

Tarixiy taraqqiyot, tarixiy taraqqiyot mezonlari, tarixiy jarayon, sivilizatsion yondoshuv, g'oyaviy-mafkuraviy mezon, jadidchilik, g'oya va mafkuralarning rivojlanish tarixi, tarixiy merosga mafkuraviy yondoshuv, gumanizm.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Tarixiy taraqqiyotni harakatlantiruvchi motivlari nimalardan iborat?
2. Tarixiy taraqqiyot mezonlariga deterministik yondoshuvlarning xususiyatlarini ko'rsating...
3. Tarixiy taraqqiyotda obyektiv va subyektiv omillar birligini izohlang...
4. Tarixiy taraqqiyotni davrlashtirish tamoyillarini tavsiflang...
5. Konkret tarixiy taraqqiyot bosqichiga g'oyaviy-mafkuraviy ta'sirning imkoniyatlari qanday?
6. Temuriylar davridagi jamiyat taraqqiyoti haqidagi qarashlarning xususiyatlarini ko'rsatib bering...
7. Jamiyat taraqqiyotiga doir jadidchilik g'oyalarining mazmuni va ahamiyati nimada?
8. Hozirgi davrda jamiyat taraqqiyoti haqidagi muqobil g'oyaviy-mafkuraviy qarashlarning yo'nalishlarini yoritib bering...

II-bob. MILLIY G'OYANING JAMIYAT HAYOTIDAGI TUTGAN O'RNI

5-§. O'ZBEKISTON MUSTAQIL DEMOKRATIK TARAQQIYOTINING MILLIY G'OYA KONTSEPSIYASI BILAN BOG'LIQLIGI

Mustaqillik, mustaqil demokratik taraqqiyot, va milliy g'oya tushunchalarining o'zaro munosabati, mazmun mohiyati. Jamiyatni demokratlashtirishda har bir davlat va millatning o'ziga xos xususiyatlari

e'tiborga olingandagina uni amalga oshirish darajasi reallashadi. Shuningdek, u yoki bu davlatdagi demokratiyaning yashovchanligi uning qanday g'oyaviy-mafkuraviy zaminlarga suyanishiga ham bog'liqdir. O'zbekiston jamiyatini demokratlashtirishda aholining ma'naviy-ma'rifiy darajasi, uning siyosiy ongi va madaniyati, milliy mentaliteti, o'ziga xos tafakkur tarzi bunday g'oyaviy-mafkuraviy zaminni tashkil etadi.

O'zbekistonda demokratik huquqiy jamiyatni barpo etish shaxs erkinligi hamda uning g'oyaviy-mafkuraviy asoslari bilan bevosita bog'liqdir. Shaxs erkinligi avvalo ijtimoiy tushuncha hisoblanadi. Jamiyatda erkinlashtirish jarayonini amalga oshirmasdan shaxs erkinligi to'g'risida fikr yuritish mumkin emas. Shaxs erkinligi fuqaroning imkoniyatlari, ijodiy qobiliyatlariga yo'l ochadi. Pirovard natijada shaxs ijtimoiy faol individga aylanadi.

Shaxs erkinligi to'g'risida gapirganda uning dunyoqarashi, siyosiy bilimlar darajasi, jamiyatda o'zini tutish madaniyati, turli ekstremal vaziyatlarda to'g'ri xulosa chiqarish imkoniyati, o'zining ozod shaxs ekanligini qay darajada anglashi, o'zining va jamiyat manfaatlarining mutanosiblik holatini aniqlashi sifatlariga ko'proq e'tibor berish lozim.

U insonlar o'rtasidagi o'zaro ijtimoiy munosabatlarda ro'yobga chiqadi. Shuning uchun jamiyatdan tashqarida erkinlik bo'lmaydi. Jamiyatda erkinlikni tushunish va amalga oshirish mamlakatda ustuvor bo'lgan milliy madaniy, tarixiy, diniy va boshqa tartibotlar, qonun-qoidalar hamda qadriyatlarga, ularning xarakteri, mazmuniga bog'liq bo'ladi. Erkinlikni anglash va uni ifoda etishda G'arb va Sharqning o'ziga xos jihatlari bor. G'arbda erkinlik to'g'risida fikr yuritilganda, asosan, alohida olingan shaxs erkinligi va huquqlaridan kelib chiqqan holda yondashiladi, erkinlikka shu mezondan kelib chiqib baho beriladi.

Sharqda ham shaxs erkinligi va huquqlari hisobga olinadi. Lekin shaxs hatti-harakati, xulq-atvori, jamiyatdagi o'rni, ma'suliyatini idrok etish holatlariga baho berilganda, muayyan guruh, etnos, xalq, millat, jamiyatning manfaatlariga alohida qadriyatlar, an'analaridan kelib chiqqan holda yondoshiladi.

Shaxsning xohish-irodasi, istagi, maqsad va manfaatlari uning faoliyatida namoyon bo'ladi. Erkinlik va jamiyat hayotini erkinlashtirish muammosi muayyan g'oyalar tizimi bilan ham bog'liq. G'oya erkinlik, jamiyat hayotini erkinlashtirishga xizmat qilishi yoki, aksincha, erkinlikni, erkinlashtirish jarayonlarini bo'g'ishi, ya'ni unga imkoniyat bermasligi ham mumkin. Chunki, jamiyat hayoti siyosiy tizim sifatida, muayyan g'oyalar orqali muayyan tartibotlar, urf-odat, an'analar, qadriyatlar bilan shakllanadi. Ular esa jamiyatning turli sohalarida faoliyat ko'rsatadigan insonlar dunyoqarashi, ongi va tafakkuri orqali o'z ifodasini topadi. G'oyaga mos ravishda erkinlik va erkinlashtirish jarayonlari sodir bo'ladi. Mamlakatda yagona g'oya tan olinib, faqat unga amal qilinsa, shunga mos faoliyat qaror topadi. Masalan, kommunizm g'oyasi yakka hukmronlikka asoslangan bo'lib, natijada inson erkinligi, umuman, jamiyatni erkinlashtirishga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Inson fikri, uning jamiyat iqtisodiy, siyosiy hayotidagi o'rni ham sinfiylashgan mafkuraga yoki proletar manfaatlariga bo'ysundirildi. Inson ongi va dunyoqarashida uning dunyoni idrok etishi bilan bog'liq qarashlari, tasavvurlari emas, aksincha, dunyoqarashni «sinfiy»lik tamoyiliga moslashtirish va undan kelib chiqqan holda fikrni ifodalash, munosabat bildirish hodisasi ro'y berdi. Bu dunyoqarash majburiy tarzda shakllantirildi.

Mustaqil demokratik taraqqiyotni ta'minlashning milliy-ma'naviy va umuminsoniy demokratik tamoyillari. Milliy g'oyaning amal qilish tamoyillari fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish, hayotning barcha jabhalarida olib borilayotgan faol mehnat bilan mustaqillikni mustahkamlashga qaratilgandir. Hozirgi davrda xilma-xil mulkchilik shakllari va mulk egasining qaror topishi, Vatan va mustaqillik, jamiyat va millat munosabatlarining yaxlitligi, mamlakatimizning xalqaro nufuzi va tichliksevar aloqalarining o'sib borishi, osoyishtalik, milliy totuvlik, hamjihatlikka xizmat qiluvchi g'oyalar ham ana shu tamoyillarning to'la namoyon qilishga xizmat qiladi. Ularning hayotiyligi xalq irodasiga, ruhiyatiga, milliy tuyg'ulari, orzu-intilishlariga mosligi bilan belgilanadi. Shuningdek, barpo etilajak yangi jamiyat va unga borishning iqtisodiy,

siyosiy, huquqiy, ma'rifiy yo'l-yo'riqlari milliy g'oyaning tamoyillariga tayanish orqali samarali amalga oshish imkoniga ega bo'ladi.

Milliy g'oyaning amaliyoti jamiyat va Vatan manfaatlari, yurt tinchligi, xalq farovonligi tamoyillaridan ajralgan holda zohir bo'lmaydi. Bu jarayon mamlakatimizda kechayotgan islohotlar jarayoni, insonparvar huquqiy demokratik davlat yaratish, zamonaviy ulkan qurilishlar, yurtimiz xalqaro nufuzining o'sib borishi, ma'naviy–ma'rifiy sohada yuz berayotgan yangilanishlar, umuman, davlatimizning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy hayotidagi ijobiy o'zgarishlar to'g'risida halqimizda tasavvur va tushunchalarni hosil qilib borish lozimligini ko'rsatadi. Fuqarolarni milliy g'oya tamoyillari asosida yashash va faoliyat yuritishga o'rgatishda turli jamoat, ijodiy, ilmiy, tashkilotlar, institutlar, siyosiy partiya va harakatlar, jamg'armalarning o'рни va ahamiyati katta. Bu borada davlat organlari, ommaviy axborot vositalarining tashabbuskorligi ham alohida ahamiyatga molikdir.

Bunda ushbu tamoyillarning xalqimiz xohish irodasi, milliy manfaatlariga muvofiqligi, har bir kishida Vatanga sodiqlik va milliy g'urur tuyg'usini o'stirishga yo'naltirilganligi, har bir fuqaroning amaliy faoliyati, turmush tarzi, tabiatidan kelib chiqish juda katta ahamiyat kasb etadi. Mazkur sohadagi birinchi navbatdagi vazifa odamlar ruhiyatida, tafakkurida poklanish, yangilanish uchun shart–sharoitlar yaratish bilan birga O'zbekiston jamiyatining ozod va obod Vatan barpo etish bilan bog'liq maqsad va g'oyalarini amalga oshirish yo'lida xizmat qilishdir. Bu maqsad va g'oyalar butun xalqimizning umumiy manfaatlarini aks ettiradi.

Ayni paytda, milliy g'oyaning amal qilish tamoyillari jamiyatdagi barcha qatlam va ijtimoiy kuchlarning faoliyati, maqsad va intilishlariga ma'naviy yo'nalish beradi. Shu tarzda milliy g'oya jamiyatdagi turli ijtimoiy qatlamlarning manfaatlari va ehtiyojlariga xizmat qiladi, ularni amalga oshirish imkonini yaratadi.

Milliy g'oyaning amal qilish tamoyillari shaxsning erkinligi, siyosiy va huquqiy imtiyozlarini qo'llab-quvvatlashi, jamiyat uchun foydali ishlarda insonning faolligini oshirishi, umuminsoniy meyorlarning boyitilishi,

kishilarda yangicha munosabatlar qaror topishi uchun kurash olib borishini ham anglatadi. Bundan kuzatilgan asosiy maqsad demokratik o'zgarishlar hayotimizning muhim yo'nalishiga aylangan hozirgi davrda erkin fikrlovchi, o'z faoliyatida bunga amal qiluvchi komil insonlarni voyaga yetkazishdan iborat.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, istiqlol ma'naviyati sog'lom, barkamol avlodni voyaga yetkazish haqidagi orzular ro'yobga chiqishi uchun shart-sharoit yaratdi. Zero, haqiqiy farovon jamiyatning a'zolari ham yetuk ma'naviyat sohibi bo'lishi shart. Chunki o'zligini anglagan inson, o'zgarlar hamda millat, jamiyat, Vatan oldidagi burch va ma'suliyatini ham anglaydi. Uning qalbi, tafakkuri va ruhiyatida bunday ulug'vor fazilatlar oson va samarali kamol topadi. Ma'naviy yetuk, ruhi sog'lom insonning jismoniy mehnati, turmush tarzi, orzu-intilishlari ezgulikka tomon yo'nalgan bo'ladi.

Mustaqillik yillarida odamlarni g'oyaviy tarbiyalash va jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi. Fuqarolarimizning o'zligini anglash, qadr-qimmat, imon e'tiqod, ona-Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat, milliy qadriyatlarga hurmat e'tibor tuyg'ularni o'stirib borish yo'lidagi harakatlar o'zining samarasini bera boshladi. Odamlarning ruhiyati, dunyoqarashi ijtimoiy hayotga munosabati, amaliy faoliyatida tub o'zgarishlar yuz bermoqda, ularning tafakkuri uyg'onmoqda.

Bugungi kunda milliy g'oyani har bir inson, ayniqsa yosh avlod qalbi va ongiga singdirish hayot taqozosiga aylandi. Shu bilan birga, mafkura sohasida yanada samarali va izchil ish olib borish, mafkuraviy targ'ibotni takomillashtirish, ushbu soha xodimlari malakasini oshirish, mavjud muammolarini hal qilish uchun amaliy seminarlar, anjumanlar, muloqotlar tashkil etish zaruriyati ortib bormoqda. Bu o'rinda qabul qilinayotgan Farmonlar, qonunlar va boshqa hujjatlarning asl mohiyatini, ularda bayon qilingan g'oyalarni keng xalq ommasi ongiga yetkazishning benihoya dolzarbligini ta'kidlash lozim. Chunki, huquqiy jamiyat va yuksak ma'rifatli, ezgu g'oyali inson tushunchalari biri-biridan ajralmasdir. Madaniy bozorni ham, ma'naviy sog'lom jamiyatni ham ana shunday kishilargina yarata

oladilar. Ularni voyaga yetkazmay turib milliy g'oya tamoyillarining amalga oshganligi to'g'risida fikr yuritish qiyin.

Milliy g'oyaning amal qilish tamoyillari mamlakatimizda yashaydigan kishilarning tinch–totuvligi, ijtimoiy–siyosiy va iqtisodiy baraqarorlikning qadriga yetishi, jamiyatimiz hayot tarziga xavf solishi mumkin bo'lgan tahdidlarga qarshi siyosiy, huquqiy hushyorligi bilan uzviy bog'liq. Chunki, hozirgi davrda tarbiyalanayotgan va kelajakda mamlakatimiz uchun mas'ul bo'lgan kishilar ana shunday jarayonlarning mevasi ekanligiga aslo shubha yo'q.

I.Karimovning milliy g'oya konsepsiyasida, bir tomondan milliy, boshqa tomondan umuminsoniy manfaatlarni himoya qilishga e'tiborning ko'pligi O'zbekistonning buyuk kelajagiga ishoradir. Umuman, mazkur konsepsiya iqtisodiyotda bozor islohotlarini chuqurlashtirish, siyosiy sohada inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, fuqarolik jamiyatini shakllantirish, ijtimoiy sohada inson omilini kuchaytirish, pirovard maqsadda mustaqillikni avaylab-asrashning yo'l-yo'riqlarini ilmiy jihatdan asoslab berganligi uchun ham qadrlidir.

O'zbekiston Respublikasi ko'p millatli davlat bo'lib, aholining to'rtidan uch qismi o'zbeklar va qolgan qismi turli millat va elatlarga mansub fuqarolar hisoblanadi. Mamlakatga o'z nomini bergan millatning boshqa etnik birliklarga bo'lgan munosabatlariga qarab milliy munosabatlar shakllanadi. O'zbeklar qadim-qadimdan boshqa xalqlarga nisbatan bag'rikenglik ko'rsatib dunyoga tanilgan xalqdir. Chunki Buyuk ipak yo'lida joylashgan Vatanimiz hududida azal-azaldan ko'plab etnik guruhlar yonmayon yoki aralash yashab kelganlar. Shuning uchun ham diniy va milliy bag'rikenglik (tolerantlik) hech mubolag'asiz millatimizning muhim belgilaridan bo'lib qolgan.

Har qanday tarixiy davrda, har bir mamlakatda: yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq faravonligi g'oyasi jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy rivojlanish darajasini belgilashda mushtaraklashgan universal mezon hisoblanib, millat, elat va xalqlarning tarixiy shakllangan mentalitetiga, manfaatlariga mos keladi. Shu nuqtai nazardan, yurt tinchligi,

Vatan ravnaqi, xalq faravonligi g'oyasi bilan bevosita bog'liq va uning mazmunini ifodalaydigan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy hodisalar rivojlanishining obyektiv shart-sharoitlarini, subyektiv omillarini, chuqur o'rganish hamda nazariy-konseptual asoslarini ishlab chiqish g'oyat dolzarb ilmiy muammodir.

Mustaqil demokratik taraqqiyotning milliy g'oya konsepsiyasi bilan mushtarakligi. Strategik maqsadlarni amalga oshirishning g'oyaviy-mafkuraviy asoslari. Yurtimizda shakllanib, rivojlanayotgan milliy g'oya barcha millatlarning manfaatlariga mos. Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik O'zbekistondagi barcha millat va elat vakillarining g'oyasi bo'lib qolmoqda.

Umuman insoniyat tarixiy taraqqiyoti tajribasi, xususan mustaqil O'zbekiston rivojlanishining "o'zbek modeli" teran ilmiy-falsafiy tafakkur natijasidir. Darhaqiqat, ijtimoiy-siyosiy fikrlar tarixida qiyosi bo'lmagan "besh tamoyil"ning ishlab chiqilishi va izchil amalga oshirilishi umuminsoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotini muhim nazariy xulosalar va amaliy tajribalar bilan boyitishga olib keldi.

Biz bu tamoyillarning yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g'oyasi bilan bog'liqlik jihatlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ularning mavjudligi va rivojlanishidagi obyektiv-subyektiv omillar hamda shart-sharoitlari birligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Avvalo iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi tamoyili, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq faravonligini ta'minlaydigan ijtimoiy-siyosiy omillar tarkibidagi iqtisodiy determinizm g'oyalaridan tubdan farq qiladi. Zero, mustaqillikka erishgandan keyin mamlakat oldida turgan vazifalar tizimi va ularni hal qilish ketma-ketligi nuqtai nazaridan iqtisodiyotni rivojlantirish, birinchi navbatda kun tartibiga qo'yildi. Chunki, iqtisodiyotni mustabid tuzumdan meros qolgan totalitarizm, volyuntarizm, subyektivizmga asoslangan hukmron kommunistik g'oya va mafkuraning, siyosiy tizimning iskanjasidan xalos qilmasdan, Vatan ravnaqini, yurt tinchligini, xalq

farovonligini ta'minlaydigan demokratik islohotlarni amalga oshirish mumkin emas edi.

Islohotlarning birinchi bosqichida O'zbekistonning milliy tarixiy taraqqiyot xususiyatlarini, demografik-etnografik, madaniy sturukturasini, ishlab chiqarishning mustabid tuzum sharoitida shakllangan tarkibiy tuzilishini hap tomonlama e'tiborga olib, iqtisodiyotni erkinlashtirishdan iborat islohotlar – ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni jamiyatning obyektiv qonuniyatlari asosida tashkil qilishi, unda inson omilining rolini oshirish - barqaror rivojlanishning zaruriy sharti edi. Bunda “eng muhim ustuvor masala - bu kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu asosda aholi bandligini va farovonligini oshirish muammolarini hal etishdan ibortdir”²³.

Iqtisodiy islohotlarning jamiyat siyosiy tizimini o'zgartirishga nisbatan ustuvorligini ta'minlash, mafkura yakka hokimligidan holi qilish natijasida, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq faravonligi g'oyasini amalga oshirishning quyidagi imkoniyatlari vujudga keldi. Ya'ni:

1) jamiyatni boshqarayotgan mavjud siyosiy tizimning parokanda bo'lishi natijasida, muqarrar tarzda, kelib chiqishi mumkin bo'lgan hokimiyat talashish, siyosiy boshboshdoqlik, anarxiya hodisasining oldi olindi, jamiyat ijtimoiy-siyosiy “iqlimining” mo'tadilligi, mamlakatda tinchlik va barqarorlik ta'minlandi;

2) iqtisodiyotni siyosatdan bosqichma-bosqich erkinlashtirish natijasida muqobil mulkchilik shakllarining vujudga kelishi iqtisodiy ishlab chiqarish cohasining tarkibiy o'zgarishlariga asos bo'ldi;

3) siyosiy tizimi shaklidan qat'iy nazar turli mamlakatlar bilan iqtisodiy munosabatlar o'rnatish, “ochiq eshik” siyosati chet el investitsiyasi kirib kelishiga imkoniyat yaratdi;

4) kishilar ongidagi mustabid tuzumdan qolgan boqimandalik kayfiyati barham topib, tashabbuskorlik, tadbirkorlik sifatlari qaror topdi.

²³ Каримов И. А. Демократик ҳуқуқий давлат, эркин иқтисодиёт талабларини тўлиқ жорий этиш , фуқаролик жамияти асосларини қуриш-фаровон ҳаётимиз гаровидир. Жаиятимизни эркинлаштириш, ислохотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т.15. –Тошкент: Ўзбекистон, 2007 йил,199-бет.

Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligini ta'minlash, uni "erkinlashtirishdagi bosh vazifa – eng avvalo, davlatning nazoratchilik va boshqaruvchilik vazifalari-funksiyalarini qisqartirish, uning korxonalar xo'jalik faoliyatiga aralashuvini cheklashdan iborat bo'ldi.

Qolaversa, jamiyatning har qanday tarixiy rivojlanish bosqichlarida, davlat siyosiy ustqurmaning mushtaraklashgan asosiy elementi sifatida, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi. "Ayniqsa, o'tish davrida davlatning bosh islohotchi sifatidagi rolini islohotlarni joriy etishning asosiy shartlaridan biri tariqasida qat'iy belgilab olganimiz iqtisodiyotning universal talab va mezonlarini milliy ma'naviyatimiz xususiyatlari bilan uyg'unlashtirishda goyat muhim ahamiyat kasb etdi".²⁴

Insoniyat taraqqiyotining tarixiy tajribalari demokratik tamoyillarga asoslangan davlatgina bosh islohotchilik rolini bajarishi mumkinligini nazariy va amaliy jihatlardan isbotlab bergan. Darhaqiqat, jamiyat siyosiy institutlari ichida davlatning bosh islohotchilik rolini belgilaydigan kuch-qudrati, avvalo, demokratik institutlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoit yaratish, fuqarolar va jamiyatning barcha siyosiy, ijtimoiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, tadbirkorlik va iqtisodiy tashabbuslar erkinligi uchun zarur imkoniyatlarni tashkil etib berish qobiliyati bilan o'lchanadi.

O'zbekistonda milliy mustaqillikni mustahkamlash va yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq faravonligi g'oyasini amalga oshirishda davlatning bosh islohotchilik roli quyidagi xususiyatlarida namoyon bo'ladi:

1) davlat - siyosiy hokimiyatning uzviy mushtaraklashgan institutlari tizimiga ega bo'lib, milliy g'oyani amalga oshiradigan, strategik maqsadlarga yo'naltirilgan ichki va tashqi funksiyalarini bajarishning mukammal mexanizmlariga, vositalariga ega;

2) davlatning demokratik konstitusionalizmga asoslangan qonuniy-huquqiy tamoyillari va ularning yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq faravonligi

²⁴ Каримов И. А. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008 йил,108-бет.

manfaatlariga mos kelishi bosh islohotchilik roli samaradorligini belgilaydigan mezon hisoblanadi;

3) davlatning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish jaryonida islohotchilik rolini takomillashtirib borishi yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq faravonligini ta'minlash darajasi bilan o'lchanadi;

4) Milliy taraqqiyotning yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g'oyalarini amalga oshirilishi davlatning islohotchilik roli natijasi bo'lib qolmasdan, shu bilan birgalikda, uning mavjudligi sharti va rivojlanishini ta'minlaydigan omillaridir.

Shuningdek, insoniyat jamiyatining har qanday bosqichida, umuman ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni, xususan g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlarni tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilish muayyan qonunlarni taqozo qilgan. Bu qonunlarni yaratish "texnologiyasi", ularga qat'iy amal qilish mexanizmlari mukammalligi jamiyat, shaxs va boshqa ijtimoiy-siyosiy institutlar tomonidan ustuvorligini ta'minlash darajasiga bog'liq bo'ladi.

Zero, umumdemokratik tamoyillarga asoslangan qonunlar ustuvorligi milliy taraqqiyotning asosiy g'oyalarini amalga oshirish yo'nalishlarini belgilaydigan mezonlar tizimida alohida ahamiyatga ega. Chunki, bu g'oyalarni inson ongiga singdirish, amaliy hayotiga joriy etish:

1) jamiyat rivojlanishini tashkillashtiruvchi, boshqaruvchi va nazorat qiluvchi qonunlar ustuvorligini hammaning birdek e'tirof etishi hamda istisnosiz bajarishiga;

2) qonunlarni yaratuvchi va qabul qiluvchi demokratik institutlar faoliyati, ularni amalga oshirish usullari va vositalaridagi milliy xususiyatlarining umuminsoniy andazalarga mosligiga;

3) jamiyatning dinamik o'zgarishiga mos mavjud qonunlar tizimi o'zgarishini taqozo qiladigan obyektiv zaruriyat va ehtiyojni o'z vaqtida anglash asosida qonunlarni tahrir qilishga;

4) aholi turli qatlamlarining huquqiy ongi va madaniyatini rivojlantirish hamda ularni yurt tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi uchun xizmat qilishga yo‘naltirishga bog‘liq bo‘ladi.

Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, aksariyat holatlarda qonun ustuvorligi haqida gapirilganda, huquqiy qonunlar nazarda tutiladi, Vaholangki, tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanish qonunlari obyektiv xarakterga ega bo‘lib, inson ularni bilish asosida o‘z amaliy va nazariy faoliyatini oqilona tashkil qilishi mumkin.

Insonning tirik organizm sifatida, biologik-fiziologik tuzilishi – tabiat qonunlariga moslashuvini, ijtimoiy mavjudot sifatida esa – jamiyat qonunlariga bo‘ysunishini taqozo etadi. Agar, inson bu qonunlarning obyektivligini suiste‘mol qilsa, muqarrar ravishda, jazosini tortadi. Shuning uchun qonun ustuvorligi deganda, birinchi navbatda, tabiat qonunlarining ustuvorligini ham e‘tirof etish kerak. Chunki, insonning tabiat qonunlarini ilmiy bilishi asosida, uni o‘z borayotgan ehtiyojlariga ko‘ra, oqilona o‘zgartirishi va o‘zlashtirishi, umuman jamiyat taraqqiyotining darajasini belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, insonlarning tabiat qonunlariga asoslanib yashash madaniyatini shakllantirmasdan, ijtimoiy hayot qonunlariga ko‘ra yashash madaniyatini rivojlantirib bo‘lmaydi. Undan tashqarida esa, milliy g‘oyaning amaliy faoliyat doirasini tasavvur qilish mumkin emas.

Bundan tashqari, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g‘oyasining asosiy maqsadi –bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o‘tish davrida, aholini ijtimoiy muhofaza qilish bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki, O‘zbekistonning demografik strukturasi, iqtisodiy ishlab chiqarishning, mustabid tuzumdan meros bo‘lib qolgan, tarkibiy tuzilishi aholining moddiy jihatdan kam ta‘minlangan, nochor qatlamini davlat tomonidan ijtimoiy himoya qilishni kun tartibiga qo‘ygan edi.

Bu vazifaga mamlakatimizda davlat ijtimoiy siyosati darajasida, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligini ta‘minlashning zaruriy sharti va gumanistik tamoyili sifatida qaralmoqda.

Davlatning ijtimoiy muhofaza siyosati mamlakatimizda yashayotgan aholining iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, madaniy, ruhiy hayot sharoitlarini mentalitetiga yot g'oya va mafkuralarning tajovuzidan muhofaza qilishni ham o'z ichiga oladi. Zero, millat ruhiga, hayot tarziga yot bo'lgan g'oyalarning mamlakatimizga kirib kelishiga qarshi kurash, fuqarolarning g'oyaviy-mafkuraviy immunitetini shakllantirish ham ijtimoiy muhofaza siyosatining muhim yo'nalishi bo'lib, milliy taraqqiyotni rag'batlantiruvchi zaruriy omildir.

Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g'oyasi va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tamoyili o'rtasidagi bog'lanish, ularning biri ikkinchisini taqozo qilishida namoyon bo'ladi. Xususan:

1) Vatan ravnaqi g'oyasi aholining barcha qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish mexanizmlari, usullari va vositalari samaradorligini ta'minlagan vaziyatda, o'z mazmuniga ega bo'ladi;

2) aholining ijtimoiy himoyalani darajasi yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g'oyasining gumanistik mazmun va mohiyatini ifodalaydigan asosiy mezondir;

3) jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalardagi izchil rivojlanish xususiyatlari yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g'oyasini faol amalga oshirish jarayonida namoyon bo'ladi; 4) yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi g'oyasi dinamik xarakterga ega bo'lsa ham, har qanday tarixiy davrlarda aholini ijtimoiy muhofaza qilishning umumiy maqsad va vazfalarini ifodalaydi.

O'zbekistonning milliy taraqqiyot xususiyatlarini hisobga olgan holda, bozor iqtisodiyoti munosabatlariga tadrijiy, evolyusion yo'l bilan bosqichma-bosqich o'tish tamoyili, hozirgacha jamiyatni rivojlantirishga doir mavjud bo'lgan ijtimoiy fikr tarixidagi nazariyalar va g'oyalarning mazmunini, umuminsoniy tamoyillarini rivojlantirishning konkretlashgan yo'nalishidir. Zero, jamiyat taraqqiyotining tarixiy tajribalari ijtimoiy hayotni inqilobiy yo'l bilan keskin o'zgartirishlar, uning ravnaqini emas, balki g'oyat xavfli: iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy inqirozlarining asosi, boshlanishi bo'lganligini qayta-qayta isbotlab bergan. Bu haqda N.Berdyayev "Intelligensiyaning

ma'naviy inqirozi" degan asarida: "Har qanday revolyusiya reaksiyaga qarshi reaksiyadir, undan keyin esa revolyusiyaga qarshi reaksiya boshlanadi"²⁵, deb yozgan edi. Shu nuqtai nazardan, jamiyatimiz rivojlanishidagi vorislik munosabatlari, tadrijiylik, "yangisini qurmasdan, eskisini buzmaslik" tamoyili yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligining zaruriy sharti bo'lib qolmoqda.

Qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash yangi O'zbekiston strategiyasining muhim sharti. Yangi O'zbekiston taraqqiyotining eng muhim shartlaridan biri – qonun va adolat ustuvorligini ta'minlash hisoblanadi.

Jumladan, qonun ustuvorligi jamiyatda demokratiya va qonunchilik ta'minlanishiga xizmat qiluvchi tamoyil hisoblanadi. Qonun ustuvorligi ta'minlangan jamiyatda barcha davlat hokimiyati organlari faoliyatida konstitutsiya, qonunlar oliy yuridik kuchga ega bo'lib, ularning hokimiyat chiqaradigan boshqa hamma me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalardan ustun turadi. Bu tamoyil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida mustahkamlangan: "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar".

Qonun ustuvorligi tamoyili:

birinchidan, jamiyat hayotining barcha jab-halarida qonunlarning qat'iy hukmronligini bildirib, yuqorida ta'kidlanganidek, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning konstitutsiya va qonunlarga so'zsiz itoat etishida;

ikkinchidan, ijtimoiy munosabatlarning jamiyat, fuqaro va davlat manfaatlariga mos tarzda tartibga solinganini anglatib, mamlakat miqyosida barqarorlik, batartiblik va qonuniy tartibot muhiti o'rnatilganida;

uchinchidan, huquq buzilishi hollarining oldini olish, shuningdek, huquqiy munosabat ishtirokchilari qonunni buzgan taqdirda qonunda

²⁵ Бердяев Н. Духовный кризис интеллигенции. – Москва: Канон, 1998, С.92.

belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun qonunlarning huquqiy asos vazifasini bajarishida namoyon bo‘ladi.

Mamlakatda hokimiyatlar bo‘linishi printsiplining real joriy etilganligi O‘zbekistonda konstitutsiya va qonunlar ustunligini ta‘minlashning muhim kafolatidir. Unga ko‘ra, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati bo‘g‘inlari o‘zlarining konstitutsiyada, qonunda belgilangan vakolatlari doirasida faoliyat yuritadilar. Ular o‘rtasidagi munosabatlarni uyg‘unlashtirishda eng oliy hakam qonundir.

O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, mamlakat prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir (93-modda). Prezidentning bu boradagi faoliyati muhim siyosiyuridik ahamiyatga ega. U o‘z farmonlari, qarorlari bilan konstitutsiyaviy tamoyillarning, qonunlarda mustahkamlangan qoidalarining hayotga to‘la joriy etilishi uchun yo‘l ochadi, tegishli huquqiy mexanizmlarni yaratadi.

Qonunlar ijrosi, huquqni qo‘llash amaliyotining samaradorligi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan tayyorlanadigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining sifati bilan bevosita bog‘liq. Bunda har bir tashkilotning yuridik xizmati zimmasiga katta mas‘uliyat yuklanadi.

Qayd etilganidek, Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini ta‘minlashda qonun va adolat ustuvorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa jamiyatda adolatni qaror toptirish juda muhim hisoblanadi.

Adolat – ijtimoiy-falsafiy, axloqiy va huquqiy tushuncha bo‘lib, kishilar ijtimoiy-siyosiy ongida katta rol o‘ynaydi. Muayyan ijtimoiy guruhlar va ayrim shaxslarning tushunchalarini o‘zida aks ettiradi. Siyosiy xatti-harakatlar, huquq va burch me‘yorlari, axloqiy munosabatlar, mehnat va taqdirlanish, jinoyat va jazo, xizmat va uni tan olish, qadr-qimmatni e‘tirof qilish va hokazolarga mazkur tushuncha orqali baho beriladi.

Aslida adolat – bu jamiyat va davlat asos bo‘lishi kerak bo‘lgan muhim qadriyatlar to‘plamidir. Ushbu qadriyatlar tizimiga shaxs qadr-qimmatini, hurmat, tenglik, ekinlik va hk.lar kiradi.

Adolat tushunchasi muayyan tarixiy shart-sharoit va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan belgilanadi. Adolatning ijtimoiy-falsafiy jihati jamiyat a'zolarining xilma-xil munosabatlaridagi o'zaro tengligini nazarda tutadi. Axloqiy jihati insonlararo muomalada bir xil munosabatda bo'lishni, bir-birining izzat-nafsigaga tegmaslikni, axloq-odob qoidalariga amal qilishni bildiradi. Adolatning huquqiy tomoni qonunlarga rioya etishni, siyosiy tomoni esa davlatni adolat qoidalari asosida boshqarishni, fuqarolar g'amini yeyishni anglatadi.

Adolat to'g'risidagi g'oyalar qadimgi davrlardan boshlab mavjud bo'lib kelgan. Vaqt o'tishi, zamonlar o'zgarishi, bir tuzumning ikkinchisiga almashinuvi bilan adolat va tenglik to'g'risidagi tasavvurlar ham o'zgarib borgan. Turli davrlardagi ijtimoiy taraqqiyot adolat tushunchasining mohiyat-mazmuniga ham katta ta'sir o'tkazgan.

Davlat va jamiyat, jamiyat va shaxs munosabatlarida muhim o'rin tutuvchi adolat muammosi Sharq falsafasida o'ziga xos aks etgan. Odil hukmdor, adolatli rahbar g'oyasi Forobiydan tortib Alisher Navoiy va yana boshqa ko'plab mutafakkirlarimizning ulug' ma'naviy ideali bo'lib kelgan. Adolat keng qamrovli tushuncha sifatida davlat boshqaruvi faoliyati, mamlakatning huquqiy tizimi, insoniy mohiyatining negizini tashkil etuvchi ma'naviyatda katta o'ringa ega. Bu o'z navbatida adolatning siyosiy, huquqiy, ma'naviy tomonlari bir-biriga chambarchas bog'liq ekanligini namoyon etadi. Shu o'rinda ma'naviyat zaminida axloq yotishini yoddan chiqarmaslik lozim.

Ta'kidlash joizki, qadimgi va o'rta asrlar mutafakkirlari ko'p hollarda adolatning siyosiy, huquqiy va axloqiy jihatlarini umumlashtirgan tarzda talqin qilishgan.

Qadimgi dunyo faylasuf-mutafakkirlari nazarida adolat boshqa aziz fazilatlar bilan birga ilohiy ibtidoga ega. Zotan Misrda Maat, Mesopotamiyada Nanshe, Yunonistonda Femida, Rimda Yustitsiya adolat xudolari bo'lishgan. Ular o'z mavqelari bo'yicha boshqa ma'budlardan kam bo'lishmagan. Yunon ilohasi Femida ehtirosga berilmaslik belgisi sifatida ko'zi bog'langan, bir qo'lida qilich va ikkinchisida tarozi ushlab turgan holda

tasvirlangan. Uning ma'nosi shuki, dunyoda adolat ustun bo'lishi uchun gunohkorlarni ma'bud yoki inson ekanligiga qaramay odilona jazolash zarur.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bu davrda adolat ijtimoiy hayotning barcha jabhalari uchun axloqiy ehtiyojga aylangan ma'naviy hodisa ekanligini manbalarda bildirilgan qarashlar orqali anglash mumkin. Chunki adolat din, davlat, siyosat, savdo, tarbiya, ma'rifat masalalarida ham asosiy mezoniga aylandi. Bu borada Burxoniddin Marg'inoniyning "Hidoya" asarida savdo, soliq, ushr (to'lov) ga oid masalalarni xal etishda adolat asosiy mezon ekanligi, ayniqsa, har bir odamdan ushr (to'lov) olinayotganda asosiy e'tibor, uning musulmon yoki g'ayridin bo'lishidan qat'iy nazar, adolat mezoniga rioya qilinishini uqtiradi.

Markaziy Osiyodagi falsafiy qarashlarda inson mohiyati to'g'risida so'z borganda, uning odob-axloqi, xulq-atvoriga alohida urg'u beriladi. "Avesto"da insonning axloqiy komilligi, ma'naviy yetukligi, jismoniy va ruhiy sog'lomligi tarannum etiladi. Yaxshilik, go'zallik, adolat, ezgulik yorug'likning himoyachisi, "Yaxshi fikr, yaxshi so'z, yaxshi ishga shonshavkat baxsh etgan" Axuramazda zulm, nohaqlik, yovuzlik timsoli bo'lgan Axrimanga qarshi murosasiz kurash olib boradi, g'alaba qiladi. "Avesto"ning ikkinchi qayta yig'ilgan manti – "Denkard" 348 bobni o'ziga oluvchi 21 kitobdan iborat bo'lib, uning 13-kitobida har bir ishda adolat, o'zgalar haqqidan qo'rqish, tosh-tarozi o'lchovida so'z yuritilgan". Yana "Avesto"da adolat to'g'risida shunday qarashlar ham ilgari surilgan: "Haq so'zdan o'zga hech narsa to'g'risida o'ylama, haq so'zdan o'zga hech narsa to'g'risida suhbatlashma, haqqoniy amaldan o'zga hech narsa bilan shug'ullanma".

Islom dinida adolatning axloqiy jihatlari xususida juda ko'p fikrlar mavjud. "Yer yuzida barcha insonlarning Oллоh oldida tengligi, ularni kamsitish, xo'rlash, nafsoniyatiga tegish mumkin emasligi, boy va kambag'al degan tushunchalarga ajratmaslik kabi xususiyatlar islom bag'rikengligining namunasi". Islom falsafasida adolatning axloqiy mohiyati ko'proq diniy talablar bilan mujassamlashib ketganini ko'ramiz. Xususan, "G'ofir" surasida "Kimki biror yomonlik qilsa, unga (oxiratda o'sha yomonligi) barobaridagina

jazo berilur. Erkakmi, ayolmi – kimki mo‘minlik hoida biror yaxshilik qilsa, aynan o‘shalar jannatga doxil bo‘lurlar. U joyda ularga behisob rizq berilur”, – deb aytiladi.

Shuningdek, XI asrda yashab ijod etgan atoqli davlat arbobi, ilk turkiy dostonnavis shoir Yusuf Xos Hojib shunday deydi:

Adolat uchun hamma oyoqqa turar,
Qarorli uchun yerda o‘t, yem unar.
Tetik bo‘lsin, ey beg va qilsin toqat,
Adolatli bo‘l, xalqqa qil marhamat.

Adolat haqidagi g‘oyalar Abu Ali Hasan ibn Ali Tusiy – Nizomulmulk siyosiy-huquqiy qarashlarida, xususan uning “Siyosatnoma” asarida ham keng aks etgan.

Nizomulmulk saljuqiylar shohi Alparslon saroyida vazirlik mansabida ishlab (1063-1072 yillar), barcha davlat ishlarini odilona boshqargani uchun ana shu davrda “Nizomulmulk”, ya’ni mulkning nizomi, tartibi nomi bilan shuhrat qozongan. U olimlarga, mashhur kishilarga homiylik qilib, yordam ko‘rsatgan. Ulug‘ olim va shoir Umar Xayyom ham Nizomulmulkning oqilona siyosatidan bahramand bo‘lgan.

Davlat arbobi, buyuk sohibqiron Amir Temur mamlakatni boshqarishda, avvalo, yurtning osoyishtiligi, raiyatning ijtimoiy ahvoli, qolaversa, saltanatning sobitligi va, nihoyat, podshohning kelajagi vazirning donoligiga bog‘liqligiga katta e’tibor qaratgan.

Amir Temur davlat ishlarini yuritishda ulamolar, ilm-fan ahli, umuman o‘n ikki ijtimoiy tabaqaga tayangan, ularning ijtimoiy ahvoriga qarab munosabatda bo‘lgan, iqtidori loyiq mansabga tayinlagan, ilm-ma’rifat taraqqiyot asosini belgilab beradigan hayotiy omillardan biri ekanini chuqur anglagan holda o‘z davrining eng kuchli olimu ulamolari, fozil zotlarini Samarqandga to‘plagan, ularga shart-sharoit yaratib bergan.

Chunonchi, sohibqiron: “Mening maqsadim mamlakatda adolat o‘rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishda menga o‘z maslahatlaringiz bilan

ko‘maklashishlaringiz kerak. Mamlakatning ahvoli, devonning suiiste‘mol qilinganligi va qilinayotganligi, oddiy odamlarning joylardagi hokimlar tomonidan qiynab qo‘yilishi kabi holatlar hammadan ko‘ra sizlarga ayondir. Shular haqida ma‘lumot bersangizlar, bu kabi adolatsiz ishlarni bartaraf etuvchi hamda shariat va qonunlarga muvofiq chora-tadbirlarni aytsangizlar yaxshi bo‘lur edi”, – deb olimu ulamolarga murojaat qiladi.

Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy ham shoir, ham davlat arbobi sifatida adolatni yoqladi, butun umri davomida uni tarannum etdi. Navoiyning adolat to‘g‘risidagi siyosiy qarashlari uning o‘lmas asarlarida, xususan, “Saddi Iskandariy”da o‘z aksini topdi. Ulug‘ shoir bu dostonda adolatli shoh obrazini yaratish bilan adolatli davlatga, tartibga erishishni orzu qiladi.

Qomusiy faylasuflar, mutafakkirlarning ushbu siyosiy-huquqiy ta‘limotlarida ilgari surilgan adolat tamoyilini bugungi kunda o‘rganish, yosh avlodga yetkazish barchamizning burchimizdir.

Buyuk Alisher Navoiyning zamondoshi, “Iskandar oynasi”, “Anvari Suhayliy”, “Axloqi Muxsiniiy”, “Kalila va Dimna”, “Maxzai-ul-insho” kabi ko‘plab dunyoga mashhur kitoblarining muallifi Husayn Voiz Koshifiyning adolat haqiqat haqidagi dono fikrlari har qanday kishini hayratga soladi. Jumladan u shunday deydi: “Agar adolat himoya qilinmasa, zaif va kuchli odamlar yo‘qolib ketadi. Madomiki, zaiflar qirilib ketar ekan, kuchlilar ham omon qolmaydi. Chunki kishilarning turmushi bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq. Xullasi kalom, xalqning axvoli adolatsiz yaxshilanmaydi”. Yuqoridagulardan xulosa shuki, rivojlangan jamiyatda adolat kishilarning demokratik qonunlar asosida ish yuritishini taqozo etadi, unda har bir odam o‘z mehnati, tadbirkorligi, aql-zakovati tufayli topgan mol-mulki hisobiga yashaydi. Davlat o‘z faoliyatida fuqarolar tomonidan adolat qoidalari va qonunlarga amal qilinishini nazorat qiladi, jamiyat a‘zolarining mol-mulki daxlsizligi va qonun oldida tengligini ta‘minlaydi.

Bosh qomusimizning 14-moddasida barcha amaliy ishlar “ijtimoiy adolat va qonuniylik printsiplari asosida amalga oshiriladi” deya mustahkamlangan. Umuman, ijtimoiy adolatga intilish kabi ustuvor g‘oya

Konstitusiyamizning muqaddimasidayoq belgilangan. Bu asosiy qonunning barcha normalari adolat tamoyillari asosida shakllanganini ko'rsatadi. Qaysi joydagi inson xuquqlari himoya qilinsa, vijdon erkinligi to'la ta'minlansa shu yurt yuksaladi va yangidan-yangi islohotlar sari dadil odimlab boraveradi.

Konstitusiyamizdagi mezonlar asrlar davomida ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan, dunyoning hech yerida takrorlanmas ajoyib, o'ziga xos milliy munosabatlarimiz va u bilan uyg'un ravishdagi go'zal diniy qadriyatlarimiz bilan bevosita bog'liq, hamda ularning hayotiy asosidir.

Har bir yurtning o'ziga yarasha milliy qadriyatlari, ma'naviyati, urf-odatlar mavjud bo'ladi. Qachonki mana shu davlatdagi Konstitusiya shu yurtdagi milliy qadriyat va ma'naviyatidan kelib chiqqan xolda tuzilgan bo'lsagina fuqarolarni to'la himoya qila oladi, qonun va fuqaro o'rtasida uzviy aloqa barpo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

Strategiya, milliy taraqqiyot strategiyasi, strategik imkoniyat, strategik vazifalar, taktika, istiqbol strategiyasi, jahon hamjamiyati, integratsiya, globallashuv, qonun, sud-huquq tizimi, adolat, siyosat.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. O'zbekistonda demokratik huquqiy jamiyatni barpo etish nimalar bilan bevosita bog'liq?
2. Erkinlik nima? G'arb va Sharqning erkinlikni anglash va uni ifoda etishdagi o'ziga xos jihatlarini izohlang...
3. Fuqarolarni milliy g'oya tamoyillari asosida yashash va faoliyat yuritishga o'rgatishda qaysi ijtimoiy institutlarning o'rni va ahamiyati katta?
4. O'zbekistonda milliy mustaqillikni mustahkamlashda davlatning bosh islohotchilik roli qaysi xususiyatlarda namoyon bo'ladi?
5. Davlatning ijtimoiy muhofaza siyosati nimalarni o'z ichiga oladi?
6. Qonun ustuvorligi tamoyilining mohiyatini izohlang...
7. Adolat o'zi qanday tushuncha? U nimalar bilan belgilanadi?

8. Ajdodlarimiz merosida ilgari surilgan adolat to'g'risidagi g'oyalarga misollar keltiring...

6-§. MILLIY G'OYANING JAMIYAT HAYOTI SOHALARI BILAN BOG'LIQLIGI

Jamiyat hayoti sohalari tushunchalari, ma'no-mazmuni. Milliy g'oyaning jamiyat hayoti sohalarida aks etishi. Milliy g'oya jamiyat hayotining barcha sohalarida, jumladan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy sohalarda aks etadi. Har qanday g'oyaning asosida, uning mazmuni va maqsadini tashkil qilgan bilimlar yotadi. Shunga ko'ra, milliy g'oyada biz barpo etayotgan davlat va jamiyatning shakllanib, rivojlanish qonuniyatlari, undagi barcha ijtimoiy munosabatlar xarakteri, bugungi va istiqboldagi taraqqiyotimiz mohiyati to'g'risidagi bilimlar mujassamlashgan. Binobarin, g'oyaviy-mafkuraviy muammolarga oid ilmiy tadqiqot, ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlarida ayni shu masalalar keng yoritilishi, odamlarda xalqimiz, mamlakatimiz oldida turgan eng muhim maqsad va vazifalar to'g'risida aniq-ravshan bilim-tasavvurlar hosil qilinishi zarur. "Chunki jamiyatimiz, mamlakatimiz o'z oldiga qo'ygan ezgu muddao va vazifalarni aniq-ravshan belgilab olmasdan turib, millatimizning asriy an'ana va urf-odatlarini, o'zligimizning asosiy xususiyatlarini mujassam etadigan milliy mafkurani shakllantirish mumkin emas.

Buning uchun, avvalo, biz qanday davlat, qanday jamiyat, qanday tuzum barpo etmoqdamiz, uning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy asoslari nimalardan iborat, degan savolga javob topishimiz kerak",²⁶ degandi Prezident I.A.Karimov. Binobarin, milliy g'oya va mafkurani tushuntirishda ularning davlatimiz va jamiyatimiz qurilishiga doir nazariy-metodologik mazmunini yoritish muhim ahamiyatga ega.

Ma'lumki, fikr asosida - g'oya, g'oya asosida esa mafkura shakllanadi. Ya'ni, inson(lar) fikran biror zarur ishni mo'ljallab, uni amalga oshirishga qat'iy ahd qilsa, bu g'oya bo'ladi. G'oya konkret inson, guruh, millat yoki jamiyatning hayotiy manfaat va maqsadlarini ifodalab, ularning ishonch-e'tiqodlari va faoliyatiga asos bo'lsa, mafkuraga aylanadi.

²⁶ Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси – халқэътиқоди ва буюк келажакка ишончдир/Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. Т. 8. –Тошкент:Ўзбекистон, 2000 йил, 495-бет.

Milliy g'oya bosh maqsadini amalga oshirishda jamiyat hayoti sohalarini rivojlantirishning o'rni. Bugungi kunda biz barpo etayotgan jamiyatning oliy maqsadlaridan biri insonlarning farovon hayotini ta'minlashdir. Jamiyatni boshqarishda odamlarni farog'atda yashashga imkon beruvchi, birdamlikka yetaklovchi, intizomni shakllantiruvchi qonunlarni yaratish ayni biz ko'zlagan maqsadga xizmat qiladi. Shunga bog'liq tarzda aytib o'tish joizki, XX-asr boshlarida ozod yurt qayg'usida yashagan Abdulla Avloniy bu haqda shunday degan edi: "Intizom deb, qiladurgan ibodatlarimizni, ishlarimizni har birini o'z vaqtida tartibi ila qilmakni aytilur. Agar yer yuzida intizom bo'lmasa edi. Insonlar bir daqiqa yasholmas edilar... Alhosil, har bir millatning taraqqiy va taoliysi ishlarini vaqtida nizomdan chiqarmay tartib ila yuritmakga bog'liqdur... Ishlarini tartib uzra yuritgan kishilarning ishlari yerida, o'zlari tinch va rohatda umr o'tkarurlar"².

O'z yurtlarini ozod va obod ko'rishni orzu qilgan jadid ziyolilari ham tarbiya masalasiga alohida e'tibor qilganlari bejiz emas edi. Yana bir bor Avloniyning Forobiy fikrlariga hamohang mulohazalariga e'tibor beraylik. "Har bir millatning saodati, davlatlarning tinchi va rohati, deb ta'kidlaydi Avloniy, – yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdur". Ko'rinib turibdiki, Forobiy va Avloniy turli davrda yashaganliklariga qaramay, odamlarni erkin va farovon jamiyatga tarbiya orqali yetaklashga da'vat qilganlar.

Forobiy g'oyasiga ko'ra, fozil jamiyat faqatgina odamlar jamoasi borligi uchungina fozil deb atalmaydi, balki adolatli qonunlarga va boshqaruv qoidalariga rioya qilgani, dono rahbarga ega bo'lishga, odamlarning tahsinga loyiq odatlari va axloqini ro'yobga chiqarishga sharoit yaratgan jamiyat bo'lgani uchun ham fozildir.

Mamlakatdagi tuzumning go'zal va yaxshi bo'lishi xukmdorning bilimdonligi va o'zga tuzumlardagi farovonlik va boshqa ijobiy jihatlardan xabardorlik bilan borliq degan fikr ham Forobiyni zamonaviy demokratiya nazariyotchilari qatoriga qo'yishimizga imkon beradi. Buning ustiga, fuqarolik jamiyati haqidagi hozirda ko'plab bildirilayotgan fikr mulohazalar ham mutafakkirning nazaridan chetda qolmagan. Forobiy mamlakat aholisi xushxulqqa ega bo'lmagan taqdirda kuchli hokimiyatga ehtiyoj tug'iladi deb ta'kidlaydi. "...Hokimiyat ixtiyoriy qabul qilinganda ko'proq ma'qul va har tomonlama qulay hisoblanadi... johil odamlar ustidan hukmronlik va ularni hokimiyatga bo'ysundirish haqiqatan to'g'ri ish bo'lishi bilan birga, erkin va mehr shafqatli larni bo'ysundirish o'ta bema'nilikdir". Darhaqiqat, komil

inson ustidan hukmronlikka ehtiyoj yo‘q. Komillikka intiluvchi insonlar faoliyati fozil jamiyatni shakllantiruvchi omillardan biridir.

Mutafakkir fozillar shahrining ziddi bo‘lgan shaharlar (jamiyat) haqida ham fikrlar bildiradiki, bu holat hozirgi zamon jamiyatining ayrim jihatlariga tanqidiy munosabatda bo‘lishni talab qiladi. Forobiyning ogohlantirishi shundaki, johil jamiyat aholisi baxt saodatga intilmaydi, baxt saodat nimaligini bilmaydi ham. Chunki, johil odam hech qachon baxt topmagan va baxt saodatga ishonmaydi xam. Farovonlikka kelsak johil odam (haqiqiy obodonlikni bilmasdan) ba‘zilar nazarida baxtu davlat bo‘lib ko‘rinadigan o‘tkinchi, yuzaki narsalarni, mol dunyoni, jismoniy lazatlarni, xirsu shahvatni, obro‘, amal, shon shuhratni haqiqiy baxt, farovonlik deb o‘ylaydi. Shu ne‘matlardan har biri johil odam nazarida hayotdan maqsad, baxt saodat bo‘lib ko‘rinadi.

Moddiy va ma‘naviy ne‘matlarning barchasi birgalikda uyg‘unlashgan chog‘dagina haqiqiy baxt saodatga erishish mumkin. Bu ne‘matlarning teskarisi tan kasalliklari, kambag‘alchilik zavq va lazzatdan mahrumlik hurmat va obro‘ning yo‘qligi – baxtsizlikdir. Yolg‘iz jismi talablarini, hirsini qondirish, ishrat, kayfsafoga intilish baxt saodatni bildirmaydi. Ehtiroslar tizginini jilovlamay, shaxsiy istaklarini tinimsiz qondirishga intilishlar ham shular jumlasidandir. Forobiy, shuningdek bir birlarini maqtashni, ko‘kka ko‘tarish, bir birlarining oldida yoki begonalar ko‘ziga ulug‘vor, shon shavkatli bo‘lib ko‘rinishga soxta urinishlarni ham johillikning ko‘rinishi sifatida baholaydi.

Farovonlikka intiladigan jamiyat a‘zolarining o‘z g‘oyalari, ixtiyoriy amal qilishga jazm etgan qadriyatlariga sobitligini talab etadi. Forobiy fikriga ko‘ra, fozil jamiyat aholisining nazariy qarashlari va amaliy ishlariga nisbatan begona g‘oyalar asta kirib olib, ularning qarashlarini o‘zgartirib yubormasligi kerak. Zero, inson baxt saodat nimaligini tushungan bo‘lsayu, unga erishishni maqsad kilib olmasa, g‘oya va xohishiga aylantirmagan bo‘lsa, unga nisbatan ozgina bo‘lsada, shavq va zavq sezmasa, istak va mulohazasini, kuch va quvvatini boshqa narsalarga sarflasa, bu qilmishlari noo‘rindir. Insonlik mohiyati haqiqiy baxt saodatga erishuv ekan, inson bu maqsadni o‘zining oliy g‘oyasi va istagiga aylantirib, bu yo‘lda barcha imkoniyatlardan foydalansa, u baxt saodatga erishadi. Inson, avvalo, baxt saodatning nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvni o‘ziga g‘oya va eng oliy maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun bo‘lishi kerak. Keyin bu baxt saodatga olib boradigan amal va vositalarning

nimalardan iborat ekanligini bilib olishi zarur. Soʻngra esa baxt saodatga erishtiradigan ishlarni shaxsan bajarishga kirishmogi lozim boʻladi. Forobiyning ushbu fikrlari bugungi kunda oʻz milliy gʻoyasining pirovard maqsadi sifatida fuqarolik jamiyatini barpo etishni koʻzlayotgan jamiyatimizning maqsadlariga hamohang ekanligini anglash mushkul ish emas.

Xullas, farovon jamiyat gʻoyasi mustaqil va barqaror taraqqiyot yoʻliga kirayotgan jamiyatlar uchun ikki hissa qadrlidir. Shu maʼnoda, uning umuminsoniy jihatlariga, demokratik mohiyatiga ulkan eʼtibor berilayotganligi tabiiydir. Prezident Islom Karimov milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayangan holda ozod va obod Vatan, demokratik jamiyat qurish jarayoniga davlat siyosati darajasida eʼtibor qaratayotganligi ham shundan.

Mustaqillik tufayli jamiyat hayoti sohasida erishilgan yutuqlar. Ularning milliy gʻoya gʻoya maqsadlari bilan uygʻunligi. Istiqlool, demokratiya va taraqqiyot oʻzaro vobasta tushunchalar. Chunki agar milliy mustaqillik boʻlmasa, erkinlik ham, erkin rivojlanish ham boʻlmaydi. Shaxs erkinligi millat erkinligidan ayri tushuncha emas. Shu bois, Oʻzbekiston oʻtgan asr boshlarida istiqloolni qoʻlga kiritganda birbiri bilan vobasta ikki vazifa kun tartibida turardi: biri – mustaqillikni mustahkamlash boʻlsa, ikkinchisi bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat qurish.

Hozirgi paytda Oʻzbekistonda bu ikki jarayon muvaffaqiyat bilan davom etmoqda va mamlakatimiz tobora iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlar safiga kirib bormoqda. Yana shu narsa ham aniq boʻldiki, iqtisodiy taraqqiyot ijtimoiy-siyosiy va maʼnaviy-maʼrifiy yuksalish bilan uzviy aloqada kechishi shart ekan. Boshqacha aytganda, iqtisodiy taraqqiyot osmondan tushadigan moʻjiza emas, balki uni Oʻzbekiston xalqining oʻzi amalga oshiradi. Yaʼni xalqimizning maʼnaviy maʼrifiy saviyasi, bilim va malakasi, salohiyati, umummadaniy darajasi qanchalik baland boʻlsa, iqtisodiy taraqqiyot ham shuncha tezlashib, “erkin, farovon hayotni taʼminlashgashart sharoit yaratiladi”. Aholining har bir qatlami, har bir fuqaro buni yaxshi anglab yetib, shunga qarab faoliyat olib borishi lozim boʻladi. Ammo bu jabhada muammolarimiz koʻp. Zero, demokratiya – erkin yashash va erkin faoliyat olib borish, fikr bildirish, oʻz irodasini ifodalash, haq huquqlaridan bemaolol

foydalanish va jamiyat ishlariga faol qatnashishni anglatadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi bunga to‘la kafolat beradi va har bir fuqaroning huquqini himoya qiladi. Biroq, ayni vaqtda, demokratiya yuksak ma’naviyat egasi bo‘lish, mas’uliyat va jamiyat oldidagi burchni his qilishni talab etadi. Qonun, huquq imkoniyatlar bersa, axloq, burch, o‘zgalar manfaati bilan hisoblashish, insoniylik udumlari, vijdon esa mas’uliyat yuklaydi, har bir individual shaxs manfaati bilan jamiyat manfaati chambarchas bog‘liq ekanini har soatda bizga bildirib turadi. Shu bois huquq va burch, erkinlik va mas’uliyat qamma vaqt birga, uzviy aloqada amal qiladigan tushunchalardir. O‘zaro raqobat, aqlu zakovat kurashi va tadbirkorlik ishbilarmonlik xislatlari ham shu zaminda adolat o‘zaniga tushadi, kishining kishi tomonidan nohaq ezilishi, zo‘ravonlik qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

Demokratiya hamma sohalarda shaxsiy qobiliyatni charxlaydi, raqobat va “kim o‘zar”ga bardosh berishni talab qiladi. Bu muttasil va muntazam ravishda izlanish, ixtirolarni amalga oshirishni, har doim olga intilishni talab qiladi. Sustkashlik qilgan, yangilik yaratishga noqobil odam taraqqiyotdan orqada qolib ketaveradi. Buning oqibatida shaxsda xudbinlik shaxsiy manfaatni ustun qo‘yishga mayllik vujudga kelishi muqarrar. Xudbinlikning bir necha jihatlari bor: o‘z iste’dodi va qobiliyatini ishga solib, fikri va rejalarini hayotga tadbiiq etish ham aslida xudbinlik ya’ni shaxs sifatida o‘zlikni namoyon qilishdir. Buni ijobiy ma’nodagi xudbinlik deb atash mumkin. Bunday xudbinlik individual say harakat jamiyat rivojiga yordam beradi. Ammo faqat o‘zini o‘ylaydigan, boshqalar mehnati evaziga boyishga intiluvchi shaxslar ham bor. O‘lar o‘zlarini eng dono, eng kuchli hisoblab, atrofdagilarga bepisand munosabatda bo‘ladilar, kibru havoga beriladilar va jamiyat rivojiga naf keltirmaydilar. Mana bunday manmanlik va hukmfarmonlikka asoslangan xudbinlik aslida ma’naviy kashshoklik tufayli paydo bo‘ladigan axloqiy qusurdir. Zero, “o‘zim bo‘lay” falsafasi milliy vatanparvarlik tuyg‘usini so‘ndiradi. “O‘zim bo‘lay” deb intiladigan odam iymon e’tiqodni ham poymol etadi. Bunday odam harom halol, yaxshi yomonni ham farqlamaydi, qanday bo‘lmasin, qayerda bo‘lmasin o‘zlashtirib olsa bo‘lgani, boshqasi bilan ishi yo‘q

Shunisi ma'lumki, bizning ulug' shoirlarimiz, mutafakkir bobolarimiz, avliyo shayxlarimizning hirs va hasadga, shaytoniy nafsga berilishlariga, bu yo'lda odamlarga jabr zulm qilishlariga qarshi chiqqanlar. Xalqimiz axloqining eng yaxshi jihatlari shu bois hozir ham o'z kuchini ko'rsatmoqda. Biz tariximiz, ulug' madaniyatimiz obidalari, ma'naviy qadriyatlarni tikladik. Xalqimizning ruhiyati tiklandi. Ma'naviy merosimiz bilan faxrlanamiz, ulug' Vatan farzandlari ekanligimiz dilimizni g'ururga to'ldiradi. Buning o'ziyoq Vatanimizning buguni va kelajagi uchun qayg'urish hissini uyg'otadi. Biz chinakamiga uygoq xalq sifatida dunyoga boqmoqdamiz, do'stu dushmani ajratib, milliy manfaatlarimiz uchun kurashmoqdamiz.

Har bir xalq o'zining milliy mustaqil davlati bilan o'zligini ko'rsata oladi. Xalqaro rivojlanish sharoitida boshka mamlakatlar bilan raqobat qila oladi. Xullas, xalq (millat), mamlakat va davlat tushunchalari ajralmas yaxlitlikdir.

O'zbekistonning mustaqil mamlakat sifatidagi mavjudligi uning milliy davlatchiligi taraqqiyoti bilan birgalikda olib qaralgandagina mazmunmohiyatga ega bo'ladi. Tarixiy tajribalar aynan o'tish davrida davlatning islohotchilik roli benihoya katta bo'lishini tasdiqlamoqda. Shu ma'noda, mustaqil O'zbekiston davlatini xalqimizning irodasi va ruhini ifodalaydigan, uning birligini ta'minlashdagi o'rni beqiyosdir.

Davlatni shunchaki ma'muriy instrument, boshqaruv apparati, xolos deb talqin etish yetarli emas. Bu ta'rif demokratiya sharoitida ham milliy birlik va xalqning ma'naviy yaxlitligi, demak uyushib, jiplashib, rivojlanish yo'liga chiqnshiga xalaqit beradi. Qolaversa, taraqqiyot ham, demokratiya ham o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi. Mamlakat xavfsizligini, osoyishtaligini ta'minlash, siyosiy manfaatlar to'qnashuvida dadil turib, milliy manfaatni himoya qilish davlat zimmasidadir.

Demokratiya sharoitida, albatta, davlat va uning tarkibiy qismi bo'lgan hokimiyatga munosabat o'zgaradi. Chunki hokimiyat jamiyat nazorati ostida bo'ladi. Saylash va saylanish mexanizmining amal qilishi, davlat rahbarlarining hisob berib turishi, matbuot erkinligi, jamoat tashkilotlarining

faolligi – bularning hammasi davlatning mutlaq g‘oyalarga berilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Ya’ni shaxs, jamiyat va davlat o‘zaro yaqinlashib boradi, bir-biriga hisob berish kuchayadi. Natijada, shaxs va davlat manfaatlari uyg‘unlashib boradi.

Ana shunday sharoitda milliy g‘oya qanday ahamiyatga ega bo‘ladi, u demokratik qadriyatlarning xalq ongiga singashi va joriylanishiga to‘sqinlik qiladimi yoki davlatning ilohiylashuviga sabab bo‘ladimi?

Bunga faqat “yo‘q” deb javob berish mumkin.

Birinchidan, milliy g‘oya bu har bir shaxs va butun jamiyatga tegishli g‘oyadir. Milliy g‘oya fikrlar va mafkuralar xilma-xilligiga asoslanadi; milliy g‘oya jamiyat mafkurasi, davlat mafkurasi emas;

Ikkinchidan, milliy g‘oya negizida vatanparvarlik millatparvarlik tuyg‘usi yotadi. Demak milliy g‘oya va milliy taraqqiyot, yurt rivoji vobasta.

Uchinchidan, milliy g‘oya hech narsani, jumladan, davlatni ham, alohida shaxslarni ham ilohiylashtirishni nazarda tutmaydi, balki xalqning eng ezgu his tuyg‘ulari, intilishlarini ifodalab, bunyodkorlik ishlariga rag‘batlantiradi.

To‘rtinchidan, milliy g‘oya allaqanday totalitar xususiyatga ega mafkura emas, u biron bir shaxs ishlab chiqqan va zo‘rlab jamiyatga tiqishtirayotgan yoki tepadan tushirilgan “yagona g‘oya” ham emas. U xalqning o‘z tafakkuri mevasi bo‘lib, milliy ma’naviy negizga tayanadi.

Beshinchidan, milliy g‘oya umumbashariy fikrlar, ilmiy yutuqlarni jamlab singdirishni ham ko‘zda tutadi. Yevropa mutafakkirlaridan biri K.Gelvetsiy yozgan edi: “Vatanga muhabbat butun dunyoga muhabbat bilan muvofiq keladi. Ilmu ma’rifat nuridan bahramand bo‘lgan har bir xalq bu bilan o‘z ko‘shnilariga zarar yetkazmaydi. Aksincha, davlatlar qanchalik ma’rifatli bo‘lsalar, ular o‘zaro gayalar, bilimlar almashishga moyil bo‘ladilar va oqibatda shu tufayli butun dunyo aqli ortib boraveradi”. Shu bois, milliy g‘oya mamlakatni yakka qo‘yadi, taraqqiyotni susaytiradi, deguvchilar xato qiladilar.

Shunday qilib, milliy g‘oya – milliy rivojlanish lokomotivi. Turgan gap, bunda davlatchilik g‘oyasi, davlat va uning rahbariga hurmat, milliy

davlat salohiyati bilan faxrlanish ham muhim o‘rin tutadi. “Bu – mening xalqim, bu – mening Vatanim”, deb faxrlangan odam “Bu – mening davlatim” deb ham faxralana olishi kerak. Davlat bir organizm sifatida o‘zini takomillashtirib, demokratik jamiyatni tashkil etuvchi kuch sifatida har doim millat ravnaqiga rahnamo bo‘lib turadi.

O‘zbekistonning istiqlol davridagi rivojlanishi, o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li buni isbotlab turibdi. Donishmand Gegel yozgan edi: “Xalq (millat)ning tub maqsadi davlat bo‘lish hamda o‘zini shu holatda saqlashdir. Xalq (millat) davlatsiz hech qanday tarixga ega bo‘lmaydi... Davlat xalq hayotining, ya’ni san’at, axloq, din, fanning asosi va ularni atrofiga to‘playdigan xalq ruhidir”.

Gegel nazarida o‘zlikni anglashning oliy ko‘rinishi ham milliy o‘zlikni anglashdir. Chunki, toki kishilar o‘zlarini bir tarix bir ruhiyat, bir makon kishilari deb his etmasalar va shu asosda birlashmasalar, tarix sahnasiga chiqa olmaydilar, zero tarixning o‘zi «millatlar ruhining raqobatlashuvidir» (Gegel).

Demak milliy rivojlanish omillari quyidagilardan iborat:

1. Milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan bunyodkorlik fidoyilik va vatanparvarlik.
2. Milliy ma’naviy yuksalish va ilmiy salohiyat, madaniy darajaning balandligi.
3. Milliy yakdillik siyosiy barqarorlik.
4. Mustahkam milliy davlatchilik asoslarining mavjudligi.
5. Milliy o‘zlikni anglashning yuksak darajada bo‘lishi va boshqalar.

Milliy g‘oya demokratiya va milliy davlatchilikning negizlarini tashkil etadi.

Prezident Islom Karimov birinchi chaqiriq Oliy Majlisning XIV-sessiyasida so‘zlagan ma’ruzasida qo‘lga kiritilgan yutuqlarni sarhisob etib, tahliliy nazardan o‘tkazar ekan, yaqin yillardagi muhim ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida “jamiyat ma’naviyatini yanada yuksaltirish” deb e’lon qildi. Xo‘sh, buning eng ustuvor yo‘nalishi hisoblanmish “mamlakat siyosiy, iqtisodiy, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish” vazifasi bilan qanday aloqasi bor? Aytish mumkinki, bevosita aloqasi bor.

Chunki siyosiy va iqtisodiy hayotni erkinlashtirish degan gap jamoat tizimlarini, fuqarolarning o'zo'zini boshqaripshi rivojlantirish demakdir. Buni kim amalga oshiradi? Albatta, fuqarolarning o'zi. Shunday ekan, fuqarolar o'z haququqini tanimasdan, faollashmasdan, siyosiy ongi oshmasdan, chinakamiga vatanparvar, fidoyi bo'lmasdan bu vazifalarni ado eta olmaydi.

Bu ulkan vazifani bajarish uchun har bir fuqaro chinakamiga fuqarolik burchini anglagan, kurashchan va faol bo'lishi lozim.

Erkin fuqaro va ozod shaxs quyidagi to'rt jihatni, ya'ni:

- 1)o'z haq haquqini taniydigan va buning uchun kurashadigan;
- 2)o'z kuchi va imkoniyatlarini ishga solib uning samarasini ko'radigan;
- 3)atrofida sodir bo'layotgan voqeahodisalarga mustaqil munosabat bildira oladigan;

- 4)shaxsiy manfaatini mamlakat va xalq manfaati bilan uygun holda ko'rib faoliyat yuritadigan bo'lishi lozim.

Harakatlar va Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyalarida ijtimoiy rivojlanish masalalari. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, mafkuraviy-ma'naviy sohalarda taraqqiyot va yangilanishning o'ziga xos hamda o'ziga mos yo'lini tanladi. Mamlakatimiz o'tgan qisqa vaqt mobaynida ulkan yutuqlarga erishdi. Vatanimizda sog'lom, osoyishta ijtimoiy muhit, siyosiy barqarorlik vujudga kelib, fuqarolarga o'z qobiliyat va iste'dodlarini namoyon qilish, yaratish, bunyodkorlik bilan shug'ullanish uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

Bosib o'tilgan yo'l va orttirilgan tajribani xolisona baholashdan, mustaqillik yillarida erishilgan yutuqlarni tahlil qilishdan hamda zamon talablaridan kelib chiqqan holda, oldimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifasi turgan edi.

Mazkur vazifani amalga oshirish yo'lida aholining keng qatlamlari, jamoatchilik va ishbilarmon doiralar vakillari, davlat organlarining rahbarlari va mutaxassislari bilan amaliy suhbat hamda muhokamalar olib borildi, shuningdek amaldagi qonun hujjatlari, milliy va xalqaro tashkilotlarning

axborot-tahliliy materiallari, ma'ruzalari, tavsiyalari va sharhlari o'rganildi, rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilindi.

Mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O'zbekistonning munosib o'rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Ayniqsa, Harakatlar strategiyasida aholi, ayniqsa, ayollar, yoshlar bandligini ta'minlash, shu maqsadda tadbirkorlik, oilaviy biznes hamda hunarmandchilikni rivojlantirish, ayollar va qizlarning salomatligini mustahkamlash, ular orasida jismoniy tarbiya hamda sportni ommalashtirish, shuningdek, keksalar, o'zgalar parvarishiga muhtoj, urush va mehnat fronti qatnashchilari, ijtimoiy himoyaga ehtiyojmand shaxslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq dolzarb chora-tadbirlar ham qamrab olingan. O'z navbatida, biz, xalq vakillari Strategiyada ko'zda tutilgan maqsad hamda vazifalarni aholi keng qatlamiga yetkazishimiz, uning mazmun-mohiyatini atroflicha tushuntirishimiz zarur.

Zero, ushbu vazifalarning izchil ijrosi mamlakatimizning asosiy qonuni bo'lgan Konstitutsiyasi, eng muhimi milliy g'oyamizda ilgari surilgan "Inson manfaatlari barcha narsadan ustun" degan hayotiy tamoyilning ro'yobini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

O'zbek xalqining bag'rikengligi qadimdan yashab kelayotgan tabiiy xudud, iqlim, o'ziga xos xilma-hil tabiat bilan uzviy bog'liq. Markaziy Osiyoning o'rtasida joylashgan O'zbekiston tabiati o'troq yashashga har tomonlama qulay va yilning to'rt fasli o'zligini to'liq namoyon etadi. Shu xudud tabiatiga xos kenglik – odamlardagi xushfe'llikni, rang-baranglik – dunyoqarashidagi mulohazalilikni, saxovatli ona zamin – saxovatpeshalikni, shaldiroq suvlari – sofdillikni, purviqor tog'lari – oliyhimatlilik kabi eng muhim insoniy fazilatlarni shakllanishiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. O'zbekiston tuprog'ining buyuk mo'jizasi shundaki, unda dunyoning istalgan qit'asidan bir urug' yoki ko'chat olib kelib eksangiz bexato unadi, yaxshi

hosil beradi. Balki, ona tabiatimizning mana shu imkoniyatlari mamlakatimizni ko‘p millatli davlatga aylantirgan va xalqimiz ruhiyatida bag‘rikenglikni shakllantirgan bo‘lsa ajab emas.

O‘zbekning irqiy mansubligi to‘g‘risida so‘z borganda tasavvurimizdagi bir ikki etnik guruhlar emas, balki 92 etnik guruhlar ustida boradi. Bu milliy-etnik tarkib to‘g‘risida XVII asrlarda yashab ijod etgan buyuk xalqparvar shoirlarimizdan biri Turdi o‘z she‘rida shunday yozgan edi.

“Tor ko‘ngullik beklar, manman demang, kenglik qiling,

To‘qson ikki bovli o‘zbek yurtidur, tenglik qiling”.

Darhaqiqat, tarixda o‘tgan ko‘plab amiru – sultonlar qanchalik harakat qilib “tor ko‘ngullik” qilmasinlar, millatimiz tabiati va fe‘liga mos bag‘rikenglik fazilatini o‘zgartira olmadilar. Aksincha, o‘zlarining shaxsiy fojealari bilan oddiy xalqqa bag‘rikenglikning hayotdagi o‘rni qanchalar ulug‘ va muhim qadriyat ekanligini qayta-qayta isbotladilar.

Atoqli qirg‘iz adibi, jahon tamadduniga o‘z asarlari bilan ulkan hissa qo‘sha olgan Chingiz Aytmatov o‘zbeklarning tarixda tutgan adolatli o‘rni va rolini baholab shunday yozgan edi. “Qadimgi Gretsiya Ovrupoda sivilizatsiya o‘chog‘i sifatida qanday o‘rin tutgan bo‘lsa, O‘zbekiston va o‘zbek xalqi Osiyoda, butun turkiy o‘lkalar va barcha turkiy xalqlar tarixida xuddi shunday o‘rin egallagan”. Bu adolatli va haqqoniy e‘tirofga bizni olis va yaqin tariximizni yaratilishida bevosita ishtirok etayotgan boshqa millat va elat vakillari bugun ham holis qo‘shilmoqdalar. O‘zbek xalqi o‘ziga tarix yuklagan ulkan va sharafli missiyani mustaqillik sharofati bilan yangi-yangi mazmun bilan boyitishga, yangi sifat bosqichiga olib chiqishga har doim tayyorligini amalda ko‘rsatmoqda.

Bag‘rikenglikning ma’naviy asoslarini beqiyos kuchi shundaki, uning shoh supasiga chiqishga muyassar bo‘lgan xalq uchun milliy va etnik chegaralarning ahamiyati nisbiylik kasb etadi. Va aksincha, u yoki bu millatning ma’naviy madaniyati durdonalari umuminsoniy bag‘rikenglikka beminnat xizmat qila boshlaydi. Bugun o‘z asarlarida millatlararo do‘stlik va hamkorlikni tarannum etgan ulug‘ mutafakkir va shoir Navoiyga rus xalqi katta g‘urur va iftixor bilan o‘z poytaxtida bejiz haykal qo‘ymadi. Aslida bu

haykal xalqimizning bag‘rikenglik qadriyatiga sodiqligini tan olishning bir namunasidir. Yoki, mamlakatimiz markazi Toshkentda ulug‘ rus shoiri Pushkinga qo‘yilgan haykal bizning ma‘naviy madaniyatimiz bag‘ri harchand kengligini yana bir isbotidir.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

Jamiyat hayoti, jamiyat hayoti sohalari, iqtisodiy hayot, ma‘naviy hayot. fan va ta‘lim, ijtimoiy hayot sohalari, erkin va farovon hayot bunyod etish, milliy g‘oyaning bosh maqsadi, ijtimoiy rivojlanish.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Milliy g‘oya jamiyat hayotining qaysi sohalarida aks etadi?
2. G‘oya qachon va qanday sharoitda mafkuraga aylanadi?
3. Forobiy talqiniga ko‘ra, fozil jamiyat qanday jamiyat?
4. Forobiy qanday sharoitda kuchli hokimiyatga ehtiyoj tug‘iladi, deb hisoblaydi.
5. Demokratiya nima?
6. Har bir xalq nima bilan o‘zligini ko‘rsata oladi?
7. Milliy rivojlanish omillarini sanab o‘ting...
8. Harakatlar va Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyalaridagi ijtimoiy rivojlanish masalalari ustuvorligiga misollar keltiring...

7-§. MILLIY G‘OYADA INSON – ENG OLIY QADRIYAT

O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyoti jarayonida insonparvarlik g‘oyalarining takomillashuv jarayoni, unda avlodlararo vorislik va yangilanishning namoyon bo‘lishi. O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyoti jarayonida insonparvarlik g‘oyalarining takomillashuv jarayoni, unda avlodlararo vorislik va yangilanishning namoyon bo‘ladi. O‘zbekistonda demokratik huquqiy jamiyatni barpo etish shaxs erkinligi hamda uning g‘oyaviy-mafkuraviy asoslari bilan bevosita bog‘liqdir. Shaxs erkinligi avvalo ijtimoiy tushuncha hisoblanadi. Jamiyatda erkinlashtirish jarayonini amalga oshirmasdan shaxs erkinligi to‘g‘risida fikr yuritish mumkin emas.

Shaxs erkinligi fuqaroning imkoniyatlari, ijodiy qobiliyatlariga yo‘l ochadi. Pirovard natijada shaxs ijtimoiy faol individga aylanadi.

Milliy g‘oyaning fikrlar, g‘oyalar xilma-xilligi, erkin fikr, shaxs erkinligiga erishish tamoyiliga amal qilishi mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada demokratiyalashtirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, erkinlashtirishga jamiyatni demokratlashtirishning boshlang‘ich bosqichi sifatida qaralib, jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirish vazifalari amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda milliy tiklanish konsepsiyasi milliy ma’naviyatni tiklash, ma’naviy omillarni takomillashtirish bilan bevosita bog‘liq holda shakllandi.

Milliy g‘oyaning asosiy mazmuni deganda, unda ifodalangan maqsadlar tushuniladi. Ya’ni, milliy taraqqiyot g‘oyalaridagi konkret maqsadlar uning asosiy mazmunini tashkil qiladi. Shu boisdan ham bu maqsadlar - Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yoki yurtimizda huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurish bilan bog‘landi. “Biz uning mazmun-mohiyati, ufqlarini umumiy tarzda belgilab oldik, - degan edi Prezident I.A.Karimov “Hushyorlikka da’vat” asarida. “Endi ijtimoiy soha olimlari, mutaxassislar, ilg‘or fikrli ziyolilar bu boradagi izlanishlarni chuqurlashtirib, umumlashgan nazariy xulosalarni ishlab chiqishlari, qisqacha aytganda, mafkuramizning asosiy maqsadlarini xalqqa sodda, haqqoniy, tushunarli tarzda ifodalab berishlari lozim”²⁷.

Shuningdek, I.A.Karimovning “Milliy mafkura - davlatimiz va jamiyatimiz qurilishida biz uchun ruhiy-ma’naviy kuch-quvvat manbai” nomli asarida milliy mafkurani shakllantirishdagi murakkab masalalarni, uning davlat va jamiyat qurilishi bilan bog‘liq mazmun-mohiyatini tushuntirishga alohida e’tibor qaratib, bu boradagi asosiy vazifalarni aniq-ravshan ko‘rsatar ekan, jumladan yana quyidagilarni ta’kidlagan edi: “Birinchidan, o‘zining kelajagini ko‘rmoqchi va qurmoqchi bo‘lgan har qanday davlat yoxud jamiyat, albatta o‘z milliy g‘oyasiga suyanishi va tayanishi zarur.

Tabiiyki, davlat tizimi, uni boshqarish va olib borilayotgan siyosat avvalo aniq va ravshan ifodalangan mafkura asosiga qurilmog‘i lozim... Ya’ni, oldin g‘oya paydo bo‘ladi, undan keyin g‘oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim, siyosat paydo bo‘ladi... Bundan shunday xulosa

²⁷ Каримов И.А. Хушёрликка даъват.Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. Т. 8. – Тошкент:Ўзбекистон, 2000,28-бет.

chiqadiki, biz avvalambor qanday jamiyat qurmoqchimiz, o‘z kelajagimizni qanday tasavvur etamiz, degan savollarga o‘z javoblarimizni yana bir bor aniqlashtirib olishimiz, shundan keyin odamlarimizni ana shu olijanob maqsadlar atrofida birlashtirishimiz zarur”²⁸. Demak, g‘oyaviy ta’lim-tarbiya va targ‘ibot-tashviqot ishlarida hozir biz qanday jamiyat qurayotganimizni, unga erishish yo‘llarini sodda, haqqoniy, hamma tushunadigan qilib tavsiflash, xalqimizda ana shular haqida aniq-ravshan bilim-tasavvurlarni hosil qilish g‘oyat muhim ahamiyatga ega. Chunki, odamlar o‘zlari yashayotgan jamiyat kelajagini tasavvur qilolmas ekan, ular o‘z istak, orzu, intilishlarining ro‘yobga chiqishi qanday yuz berishini bilolmaydi. Bunday sharoitda, odamlarda ertangi kunga umid va ishonch bo‘lmay, ruhiy-ma’naviy depressiya yuzaga keladi, ularda hayotdan norozilik, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muhitga nisbatan salbiy munosabat paydo bo‘ladi.

Ertangi kunga umid va ishonch inson hayotining mazmuni, orzu-intilishlari va faoliyatining asosi, uning tub manfaat va maqsadlarining namoyon bo‘lishidir. Ular bo‘lmasa: inson hayoti mazmunsiz, orzu-idellari sarob, faoliyati samarasiz, manfaat va maqsadlari noaniq, kelajagi qorong‘u bo‘lib, bu umuman baxtsizlikdir. Ya’ni, har qanday inson yoki millatning o‘z kelajagini umuman tasavvur qilolmaydigan, unga biror umidi va ishonchi bo‘lmagan holati eng katta baxtsizlikdir. Ayni paytda, bu – mafkurasizlik hamdir.

Inson, uning sha’ni va qadr-qimmatini, huquq va erkinliklarini ta’minlashning huquqiy kafolatlari. Milliy g‘oyada inson – eng oliy qadriyat ekanligi. Insoniyat XX-asrning so‘nggi 10 yilligidan boshlab, yangi tarixiy davrga qadam qo‘ydi va istiqbol rivojlanishining yangi yo‘nalishlarini belgilab olmoqda. Bu tarixiy davr xususiyatlari, eng avvalo, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy munosabatlari paradigmalari o‘zgarishida namoyon bo‘lmoqda. Ijtimoiy-siyosiy hayotning turli sohalariga doir an’anaviy shakllangan tushunchalar mazmuni, g‘oyaviy-mafkuraviy munosabatlar ko‘lami, xarakteri gorizontal va vertikal yo‘nalishlarda o‘zgarimoqda. Bu dunyo miqyosida ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy jarayonlarning globallasuvi, integratsiyalashuvi, universallasuvi va intensivlashuvida o‘z ifodasini topmoqda. Aynan ana shunday jarayonlarda millatning, O‘zbekiston davlatining jahon hamjamiyatida munosib o‘rin topishiga bo‘lgan intilishlari kuchaymoqda. “Biz demokratik jamiyat barpo

²⁸ Shu manba: 464-465-бетлар.

etish maqsadi sari qadamlarimizni kimgadir yaxshi ko‘rinish, kimgadir hisobot berish va soxta obro‘ topish uchun emas, avvalo, xalqimizning xohish-irodasi bilan tanlab olgan, milliy manfaatlarimizga javob beradigan manzilga bosqichma-bosqich rivojlanish yo‘li bilan yetib borish uchun qo‘ymoqdamiz. Va ana shu yo‘limizdan aslo qaytmaymiz”²⁹.

Istiqlol tufayli yangilanish va bunyodkorlik yo‘lidan borayotgan millat va davlat, jamiyat boshqaruvining o‘ziga xos milliy tarixiy tajribalariga, an‘analariga asoslanadi. Boshqacha aytganda, demokratik milliy davlatchilikning tarixiy boshqaruv merosi, tajribalari bugungi kunda davlat siyosatining ustuvor vazifalarini belgilab bermoqda. Qolaversa, O‘zbekistonda mustaqillikka erishgandan keyin demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurilishining konseptual asoslari yaratilishi bilan, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni boshqarishda tarixiy milliy ma‘naviy-axloqiy qadriyatlarga bo‘lgan ehtiyoj ham, talab ham, ortib bormoqda. Zero, jamiyat hayotida demokratik tamoyillarning qaror topishi va ijtimoiy munosabatlarning barcha sohalariga singib borishi yangi tipdagi inson shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Prezident I.A.Karimov “Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi – bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo‘lidan og‘ishmay, izchil va qat‘iyat bilan borishdir”³⁰, – deb ta’kidlaydi.

Bunday mushtarak strategik maqsad, bir tomondan, milliy, o‘ziga xos davlat boshqaruvining ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma‘naviy shart-sharoitlarini, g‘oyaviy-mafkuraviy imkoniyatlarini taqozo qiladi. Ikkinchi tomondan, muqobil demokratik tamoyillar va andozalar (standartlar)ning zamon talabiga mos dinamik o‘zgarib borishi, ularning yangi nazariy-metodologik asoslariga, mafkuraviy ta‘minlashnisha ehtiyojni vujudga keltirmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, demokratiya fenomenini o‘rganishda turli fanlarning integratsiyalashish va differentsiyalashish yo‘nalishlarini belgilab bermoqda. Xususan, fuqarolarning erkinliklarini ta‘minlash, huquqini muhofaza qilish; ijtimoiy himoyalash; siyosiy madaniyati va faolligini oshirish; milliy demokratik qadriyatlari rivojini umuminsoniy

²⁹ Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари – энг олий қадрият. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Т.14. –Тошкент: Ўзбекистон, 2006 йил, 70-71-бет.

³⁰ Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишидир. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005 йил,177-бет.

qadriyatlar bilan boyitish va uyg'unlashtirish; jamiyat siyosiy institutlar faoliyatini umuminsoniyat e'tirof etgan demokratik tamoyillar asosida takomillashtirish; ijtimoiy munosabatlarda turli-tuman kuchlar muvozanatini ta'minlash mexanizmlarining samaradorligini aniqlash mezonini belgilash; fuqarolarning konstitusion huquqlarini muhofaza qilish asoslarini tashkil etishdan iboratdir. Aynan mana shunday siyosiy sharoit mustaqillik g'oyasi va uni mustahkamlash tufayli vujudga keldi.

Bilim, unga qo'yiladigan bahoda aks etganidek, g'oyaviy-mafkuraviy saviya inson va jamiyat hayotining ma'naviy-ma'rifiy darajasi qanday ekanligini ko'rsatadi. Binobarin, kishilarimizning milliy g'oyalarimizni o'rganib, o'zlashtirish natijasida shakllanadigan g'oyaviy-mafkuraviy bilim saviyasi, ya'ni milliy mafkura - jamiyatimizdagi ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyot darajasining muhim ko'rsatkichi, o'lchov mezoni bo'ladi. Uni chuqur bilgan kishilar xalqimizning tub manfaat va maqsadlarini hamda unga erishish yo'llarini to'g'ri angelaydi. Bunday holda mafkura xalqchillashib, inson va jamiyat hayotidagi barcha o'zgarish jarayonlarini baholovchi, tashkillashtiruvchi, muvofiqlashtiruvchi va aniq maqsadga yo'naltiruvchi o'ziga xos dunyoqarash tizimi bo'ladi. Shu tariqa, u davlat va jamiyat qurilishiga doir konsepsiyaning sistemalashgan nazariy-metodologik mazmunini tashkil qiladi. G'oyaviy-mafkuraviy ishlarda milliy mafkuraning ayni shu mazmunini atroflicha yoritishga alohida e'tibor qaratish kerak. Aks holda bu boradagi ishlar samarasiz bo'lib qolishi, aniqroq aytganda, milliy taraqqiyot g'oyalarining keng jamoatchilik ongi va qalbiga singishi qiyin kechishi, kishilar mafkuraning mohiyatini to'g'ri tushuna olmay, unga qiziqish va ishonch-e'tiqod sust bo'lishi mumkin. Natijada odamlar, umuman biz barpo etayotgan davlat va jamiyat, undagi ijtimoiy tuzumning o'zi qanaqa bo'ladi; ular har bir shaxs, guruh, toifa turmushida, ma'naviyatida qanday mazmun kasb etadi, eng muhimi, milliy g'oyalarimiz qachon va qay tartibda ro'yobga chiqadi, degan masalalar to'g'risida yetarlicha bilim-tasavvur hosil qilisholmaydi. Holbuki, har qanday kishi milliy g'oyalarimizga qiziqib, ishonib, ergashishi uchun, avvalo ularning ayni shu masalalar ifodalangan asosiy mazmuni va maqsadlarini chuqur idrok qilishi, bu maqsadlarni amalga oshirish yo'llarini, ayniqsa, endilikda ular qay darajada ro'yobga chiqayotganini aniq ko'rib, bilib, his qilishi lozim. Masalan, umuman dunyodagi, xususan bizdagi taraqqiyot hozirgi maromda davom etaversa, bir, ikki, besh yoki o'n yildan so'ng hayotimiz qanday bo'ladi? Jamiyatimizdagi har bir kishi, guruh, toifaning turmush darajasi, umuman ijtimoiy, iqtisodiy,

siyosiy, ma'naviy, madaniy, ma'rifiy ahvoli qanaqa bo'ladi? Barcha ijtimoiy munosabatlar qanday xarakter kasb etadi? Bu boradagi ishlarda ana shu savollar ham aniq-ravshan yoritilishi lozim. Buning uchun, milliy g'oya va mafkurani tushuntirishda, avvalo, ularning yuqorida bayon qilingan masalalar bilan bog'liq asosiy mazmuni, ya'ni xalqimizning ularda ifodalangan tub manfaat va maqsadlari yoritilishi zarur.

Uchinchi Renessansning to'rtta muhim xalqasi va asosiy tayanchlari. Bugun Uchinchi Renessansni bunyod etish, Uchinchi uyg'onishga erishish har bir o'zbekistonlikning oliyjanob maqsadiga aylandi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 30 sentyabrda "1-oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni"ga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida mamlakatimiz tarixidagi birinchi va ikkinchi Renessans borasida fikrlarga aniqlik kiritdi:

"Biz keng ko'lamli demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o'zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Bu haqda gapirar ekanmiz, avvalo, uchinchi Renessansning mazmun-mohiyatini har birimiz, butun jamiyatimiz chuqur anglab olishi kerak.

Tarixga nazar solsak, Buyuk ipak yo'lining chorrahasida joylashgan ona zaminimiz azaldan yuksak sivilizatsiya va madaniyat o'choqlaridan biri bo'lganini ko'ramiz. Xalqimizning boy ilmiy-madaniy merosi, toshga muhrlangan qadimiy yozuvlar, bebaho me'moriy obidalar, nodir qo'lyozmalar, turli osori atiqalar davlatchilik tariximizning uch ming yillik teran ildizlaridan dalolat beradi"³¹.

Darhaqiqat tarixda insoniyatning kamolotga erishishi yo'lida har bir yo'nalishda ko'plab ilmiy kashfiyotlar, ilmiy izlanishlar olib borilgan. Insoniyat o'tmishi turfa voqea hodisalar-u, turli rivojlanishlarni boshidan o'tkazgan. Xususan, ilm-fan, matematika, tibbiyot, san'at, adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, din va shu kabi ko'plab sohalarda ilmiy asarlar, ilmiy izlanish va tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu sohalarda yuksak yutuq va ilg'or

³¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 1-октябрь Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи// Халқ сўзи, 2020 йил, 1 октябрь.

natijalarga erishilgan. Dunyo tarixidagi mana shu dastlabki rivojlanish jarayoni tarixda renessans deb ataladi.

Mutaxassislarning qayd etishlaricha, Uygʻonish davri (Renessans) – Markaziy Osiyo, Eron, Xitoy (9-12 va 15-asrlar) va Gʻarbiy Yevropada yuz bergan alohida madaniy va tafakkuriy taraqqiyot davri hisoblanadi.

Aslida “Renessans” atamasi dastlab Italiyadagi madaniy-maʼnaviy yuksalish (14-16-asrlar)ga nisbatan qoʻllanilgan, uni oʻrta asrchilik turgʻunligidan yangi davrga oʻtish bosqichi deb baholaganlar.

Renessansning asosiy koʻrinishlari quyidagilarda namoyon boʻlgan: tafakkurda va ilmu ijodda dogmatizm, jaholat va mutaassiblikni yorib oʻtib, insonni ulugʻlash, uning isteʼdodi, aqliy-fikriy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish; antik davr (yunon-rum) madaniyatiga qaytib, uni tiklash, boyitish; cherkov sxolastikasidan qutulib, adabiyot va sanʼatda dunyoviy goʻzallik, hayot taronalarini qizgʻin kuylash; inson erki, hurfikrlilik uchun kurashish. Buning natijasi oʻlaroq, ijodiy qudrat va tafakkur kuchini namoyish etadigan ulugʻvor badiiy asarlar, salobatli binolar yaratilib, ilm-fan rivojlandiki, ularni tom maʼnoda chinakkam Uygʻonishning hosilasi deb baholash mumkin boʻldi.

Italiyada shoir Petrarka va Dante, rassom Jotto, adib va mutafakkirlar Bokkachcho, Ariosto, Tasso, Byome Renessans gʻoyalarining jarchilari boʻlib maydongachiqdilar. Keyinchalik Yevropaning turli mamlakatlarida Michelangelo, Rafael, Shakespeare, Miguelde Cervantes kabi Uygʻonish davrining yangi namoyondalari ularning bu say harakatlarini davom ettirdilar.

Ammo Renessans, yaʼni Uygʻonish faqat Yevropa hodisasi emas. Dunyo madaniyatini yaxlit olib oʻrgangan olimlarning ishlari shuni koʻrsatdiki, Osiyo markazida joylashgan Movarounnahr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin (9-12-asrlar) ulkan madaniy koʻtarilish yuz bergan, ilm-fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilgʻor insonparvarlik gʻoyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan.

Ma'naviyatshunos olim A. Erkaevning "Uchinchi renessans – milliy g'oya sifatida" maqolasida keltirilishicha, "Avstriyalik atoqli sharqshunos Adam Mesning 1909 yilda "Musulmon Renessansi" nomli fundamental asari chop etilgan. Shundan buyon Renessans faqat Yevropaga oid hodisa emasligi, uni Sharq xalqlari yevropaliklarga nisbatan avvalroq boshdan kechirgani to'g'risidagi qarashlar va tadqiqotlar paydo bo'la boshladi. Rossiyalik buyuk sharqshunos akademik N. N. Konrad Renessans VII -VIII asrlarda Xitoyda boshlanib, VIII asrda Hindistonda davom etgani, undan IX-XII asrlarda islom mamlakatlari estafetani qabul qilgani, mo'g'ul istilosi tufayli ancha pasayib qolgan yuksalish Amir Temur va temuriylar davrida yana qayta gurkurab o'sganini ta'kidlaydi. U O'rta Sharq Uyg'onish davrini Alisher Navoiy zamonasigacha cho'zadi. Javoharlal Neru Boburni ham Renessansning tipik vakili, deb baholagan edi"³².

Aslida ham "Qayta tug'ilish", "uyg'onish" ma'nolarini anglatuvchi "renessans"ning jamiyat ma'naviy taraqqiyotiga ulkan ta'siri bor. Ushbu fikrimizning isboti uchun quyidagi asoslarni keltirib o'tamiz:

O'zbekiston – buyuk allomalar yurti. Zaminimizda tug'ilib, kamol topgan mutafakkirlarning jahon ilm-fani rivojiga qo'shgan hissasi necha asrlarki e'tirof etilib, chuqur tadqiq etilmoqda. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida ta'kidlanganidek, bizning qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Har bir hayot jabhasining o'z buyuk siymolari bor: Fan yo'nalishida: - al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, al-Forobiy, al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino...; Din

³² Эркаев А. Учинчи ренессанс – миллий ғоя сифатида// "Янги Ўзбекистон", №172, 2020 йил, 9 сентябрь.

yoʻnalishida: - Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Az-Zamaxshariy, Hoʻja Ahror Valiy...; Tasavvuf yoʻnalishida: - Ahmad Yassaviy, Abdulholiq Gʻijduvoni, Najmiddin Kubro, Bahouddin Naqshband...;

Adabiyot yoʻnalishida: - Mahmud Qoshgʻariy, Yusuf Xos Hojib, Navoiy...; Davlat boshqaruvi yoʻnalishida: - Amir Temur, Mirzo Ulugʻbek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalar faoliyatini qayd etib oʻtish mumkin.

Uchinchi Renessans bizdan xalqaro hamjamiyatga ilm-fan, texnologiyalar, axborot, madaniyat va iqtisodiyot sohalarida yanada chuqurroq integratsiya boʻlishini talab etadi. Ayni paytda oʻzlikni anglash, ona tilining sofligini asrash, milliy xususiyatlar va milliy maʼnaviyatni saqlash va rivojlantirish – Uchinchi renessans bunyod etish yoʻlidagi eng muhim vazifalar hisoblanadi. Bu esa taʼlim-tarbiya tizimiga jiddiy eʼtibor qaratishni bildiradi.

Zero, har bir jamiyat oʻziga zarur shaxsni tarbiyalaydi. Unga oʻz taraqqiyoti darajasi va tendensiyalaridan kelib chiqib axloqiy, eʼtiqodiy, kasbiy-professional, huquqiy va boshqa qator talablar qoʻyadi. Jamiyat taraqqiyotining pirovard maqsadi ham inson, uning farovon, erkin va xavfsiz turmush kechirishidir. Jamiyat talabiga toʻliq javob beradigan kishi turli davrlarda har xil atalgan. Yusuf Xos Hojib uni “tugal er”, Forobiy “fozil kishi”, tasavvuf namoyandalari “komil inson” deb ataganlar. “Har tomonlama rivojlangan shaxs”, “uygʻun rivojlangan shaxs” atamaları ham qoʻllanilgan.

Xuddi shunday milliy identligimizni saqlab qolish uchun ona tilimizni, tariximizni, adabiyotimiz va sanʼatimizni yetarlicha oʻrgatishning optimal yoʻllarini topmogʻimiz lozim. Urf-odatlarimiz ham takomillashtirilishi va zamonaviylashtirilishi juda zarur. Ijtimoiy ongda, odamlarning xatti-harakatlarida burilish yuz berishi, yangi ideallar va qadriyatlar qaror topmogʻi darkor³³.

Agar Oʻzbekiston Prezidentining keyingi toʻrt yilda maʼrifat, taʼlim va ilm-fanni rivojlantirish yoʻlida imzolagan qonun, farmon va qarorlari,

³³ Эркаев А. Учинчи ренессанс – миллий ғоя сифатида// “Янги Ўзбекистон”, №172, 2020 йил, 9 сентябрь.

tasdiqlagan Davlat dasturlari, ilgari surgan yangidan-yangi tashabbuslarining magʻzini toʻla chaqib koʻrsak, navbatdagi Maʼrifat Renessansining markazi Oʻzbekiston ekaniga hech kimda shubha qolmaydi.

Shu boisdan ham Oʻzbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining: “Xalqimizning ulugʻvor qudrati joʻsh urgan hozirgi zamonda Oʻzbekistonda yangi bir uygʻonish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda”, - degan soʻzi yangradi.

Darhaqiqat, shiddat bilan rivojlanayotgan hayotimizda roʻy berayotgan yuksalish jarayonlari oʻzini barcha sohalarda namoyon etmoqda. Binobarin, mustaqillikka erishgan yillarimizning ilk davrida biz oʻzimizning milliy oʻzligimizni anglash, boy tarixiy-maʼnaviy hamda ilmiy merosimizning asl mazmun-mohiyati magʻzini chaqish va uni roʻyobga chiqarishga intilgan boʻlsak, endilikda xalqimiz jipslanib “milliy tiklanishdan – milliy yuksalish” gʻoyasini sobit qadamlik bilan amalga oshirishga kirishdi. Bu davrda jamiyatimizda ijtimoiy tafakkurning yuksalish tendensiyasi qaror topishi, unga xos ham milliy, ham umuminsoniy qadriyatlarning mujassamligi eʼtirof etilmoqda. Milliy ruh va umuminsoniy qadriyatlar uygʻun boʻlgan ijtimoiy tafakkur – mamlakatimiz barqaror rivojlanishining oʻzan mezon va mustahkam poydevoriga aylanmoqda. Yurtimizda ijtimoiy tafakkur darajasining tobora oʻsishi bois, sanoat, qishloq xoʻjaligi va boshqa jabhalarda mehnat va sohaga yondashuv madaniyati hamda masʼuliyati oʻzgardi. Ayniqsa, fan sohasiga qaratilayotgan alohida eʼtiborning zamirida chuqur maʼno bor.

Uchinchi Renessans poydevorini yaratish uchun taʼlim-tarbiya, ilm-fan, maʼrifat va madaniyatni muttasil rivojlantirish gʻoyasining bosh drayver - lokomotiv sifatida tanlangani ushbu tashabbusning gʻoyat hayotiyligini taʼminlovchi eng muhim omildir. Millatning ilm-maʼrifati oshgani sari farovonligi shunchalik yuksalib boraveradi.

“Biz maktabgacha taʼlim va maktab taʼlimi, oliy va oʻrta maxsus taʼlim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni boʻlgʻusi Renessansning toʻrt uzviy xalqasi, deb bilamiz, - deb taʼkidladi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev.

- Bog‘cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o‘qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg‘onish davrining to‘rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz’.

Ushbu sohalarga qaratilayotgan e’tiborning, yo‘naltirilayotgan sarmoyalarning, sarflanayotgan kuch-g‘ayratning muttasil oshib borishi natijasida jamiyatning qolgan barcha tarmoqlari harakatga keladi, rivoj topadi.

Bu yaqin istiqbolda yurtimizdagi barcha bolalar maktabgacha ta’lim dargohlari bilan to‘la qamrab olinadi, degani. Bu milliy harakat ko‘lamini olgan maktab ta’limi yanada ravnaq topishi, yoshlar oliy ta’lim dargohlarida tahsil olishi, ilm-fan bilan mashg‘ul bo‘lishi uchun imkoniyatlar misli ko‘rilmagan darajada kengayishidan dalolat. Bu zamonaviy bilimga ega va mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali minglab, millionlab kadrlar yetishib chiqadi, degani. Bu mustaqil O‘zbekiston, bobolarimiz orzu qilganlaridek, fozil insonlar mamlakatiga, jahonning eng yirik iqtisodiy, ilmiy, ijodiy, texnik kashfiyotlar, madaniyat va san’at markazlaridan biriga aylanadi, degani. Bu xalqimizning ilmiy-intellektual salohiyati yanada yuksalib, Yangi O‘zbekiston ilmiy-ijodiy, texnik, tafakkur zehni bilan dunyoni lol qoldiradigan buyuk allomalar yurtiga aylanadi, degani...

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

Inson, insonparvarlik, insonparvarlik g‘oyalari, shaxs erkinligi, milliy mafkura, g‘oyaviy ta’lim-tarbiya va targ‘ibot-tashviqot ishlari, demokratik milliy davlatchilik, strategik maqsad, g‘oyaviy-mafkuraviy saviya, Renessans, Uchinchi Renessans, Uchinchi Renessansning to‘rtta muhim xalqasi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Shaxs erkinligi deganda nimani tushunasiz? O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyoti jarayonida shaxs erkinligining o‘rni qanday?
2. Milliy g‘oyaning asosiy mazmuni deganda nimalar tushuniladi?
3. I.A.Karimovning qaysi asarida milliy mafkurani shakllantirishdagi murakkab masalalarni, uning davlat va jamiyat qurilishi bilan bog‘liq mazmun-mohiyatini tushuntirishga alohida e’tibor qaratildi?

4. Qaysi omil inson va jamiyat hayotining ma'naviy-ma'rifiy darajasi qanday ekanligini ko'rsatadi?
5. Milliy g'oyada eng oliy qadriyat...
6. Renessans nima?
7. "Renessans" atamasi dastlab qayerda, qaysi jarayonlarga nisbatan qo'llanilgan?
8. Uchinchi Renessansning to'rtta muhim xalqasi qaysilar?

8-§. INSON ERKINLIGI, HUQUQ VA MANFAATLARINING MILLIY G'UYADA AKS ETISHI

Inson erkinligi, huquq va manfaatlari tushunchasi, uning ma'no-mazmuni. Inson erkinligi, huquq va manfaatlarning milliy g'oyada aks etishi haqida so'z ketar ekan, eng avvalo insonparvarlik, inson erkinligi, huquq va manfaatlari tushunchasiga, uning ma'no-mazmuniga to'xtalib o'tish lozim bo'ladi.

Insonparvarlik – odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, insonning moddiy farovonligini yuksaltirish va ki-shilarda yuksak ma'naviy fazilatlarni rivojlantirishga gamxo'rlik qilish goyalari bilan sug'orilgan dunyoqarash. Insonni sevishning sababi, boislari, inson baxti, baxtiyor yashash uchun zarur bo'lgan adolat haqidagi orzular qadimgi xalqlarning og'zaki ijodida, mifologik, diniy, falsafiy qarashlarida yuzaga chiqqan boshlagan. Inson haqidagi hozirgi rang-barang va fundamental qarashlarning shakllanishida bularning xizmati katta. Qadimgi kishilar nazdida oliyjanob, jasur, qahramonlik ko'rsatishga tayyor kishilarning ma'naviyati insonparvarlik bilan yo'g'rilgan. Er-Xubbi Turonda, Germes yunonlarda, Agni rigveda (dini) da bunga misol bo'la oladi. Islom ta'limotiga ko'ra, inson Olloh yaratgan maxluqlar orasida eng karamlisidir. Inson Yaratuvchining yerdagi xalifasi, ya'ni, Aploh buyurgan yaxshi amallarni amalga oshiruvchisi. Inson hatto farishtalardan ham yuqori martabali zot. Sharqda futuvvat harakati insonparvarlikning yorqin namunasi. Futuvvat Hotami Toyni insonparvar kishining umumlashgan obraziga aylantirdi. G'arb gumanistlari insonparvarlikni insonning ichki va tashqi go'zalligidan deb biladilar. Ularning fikricha, odamda jismoniy va ma'naviy ibtidolar uyg'unlashganda insonning topgan lazzati, baxti axloqiy qimmatga ega bo'ladi. Kant ta'limotiga ko'ra, inson vosita emas, balki maqsad bo'lishi lozim. Insonparvarlikning maqsadi inson hayoti davomida o'z salohiyatini to'la

namoyon qilib, jamiyatda o'ziga munosib o'ringa ega bo'lish uchun maksimal sharoit yaratish, hamda bunga to'sqinlik qiluvchi g'oyalarning puch ekanligini fosh qilish, g'ov bo'luvchi omillarni bartaraf etishdir. Insonparvarlik inson qadr-qimmatini himoya etish va erkin huquqini talab qilishdir. Inson nafaqat tabiiy ofat, ijtimoiy institutlar tazyiqidan, hatto o'z havo nafsi, tanazzulga olib boruvchi mayllardan himoya etilishi uchun insonparvarlik taqozo etiladi. U inson ma'naviyatida muhitning tarbiyaviy ta'siri va ilm-ma'rifat orqali joy oladi. Ta'limning insonparvarlashuvi inson qobiliyatining ochilishi va uning ta'limga nisbatan bo'lgan turli-tuman ehtiyojlarining qondirilishi, milliy va umumbashariy qadriyatlar ustuvorligining ta'minlanishi, inson, jamiyat va atrof-muhit o'zaro munosabatlarining uyg'unlashuviga qaratilgan.

Insonning huquq va manfaatlari inson erkinliklari, burch va majburiyati bilan bog'liq qarashlarni aks ettiruvchi tushunchalar bo'lib, ular milliy g'oyamizning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Insoniyat o'z taraqqiyoti jarayonida insonning huquq va manfaatlariga oid bo'lgan maxsus qonunchilik tizimini yaratgan. Bu tizim o'z taraqqiyotida uchta katta bosqichni bosib o'tgan.

Birinchi bosqich 1789 yildagi Fransiya inqilobining Inson va fuqaro huquqlari deklaratsiyasi qabul qilinganidan boshlanib, Birinchi Jahon urushigacha bo'lgan (1914 y.) davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda shaxs erkinligi va fuqarolar tengligi, shaxs daxlsizligi, xususiy mulkka egalik, saylash va saylanish kabi shaxsiy va siyosiy xuquqlar bilan boshqa masalalar tartibga solingan.

Ikkinchi bosqichda (1914-1950 yillar) insonlarning turli g'oya va harakatlar ta'sirida mehnat qilish, dam olish, ijtimoiy yordam olish bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy huquqlariga oid qonunchilik rivojlangan.

Uchinchi bosqich 20-asrning 2-yarmidan bugungi kunlarga bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda tinch yashash, atrof-muhit tozaligiga erishish, axborot olish huquqi bilan bog'liq masalalar faol muhokama qilinib, ularni hal etish yo'llari qidirilmoqda. Bu davrda insonning huquq va manfaatlari sohasida xalqaro qonunchilik tizimi shakllandi. BMT tomonidan yetmishga yaqin, Yevropa Kengashi Bosh assambleyasi tomonidan bir yuz oltmishdan ziyod, YUNESKO da yetmishdan ortiq, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti tomonidan o'ttizdan ko'proq insonning huquq va manfaatlariga taalluqli xalqaro konvensiyalar, deklaratsiyalar, paktlar qabul qilindi. Hozirgi

paytda insonning huquq va manfaatlari bo'yicha 400 yaqin xalqaro hujjat mavjud.

Milliy g'oyaning inson erkinligi, huquq va manfaatlari ustuvorligi printsiptiga asoslanishi. Milliy g'oyamiz insonparvarlik, inson qadriyatlarini, sha'ni va or-nomusi, xaq-huquqlari hamda manfaatlarining ustuvorligi printsiptiga tayanadi. Unda insonning hayoti oliy qadriyatdir. Bu printsipti o'tkinchi xarakterga ega bo'lmay, balki O'zbekistonning demokratik rivojlanish istiqbolini o'zida mujassam etadi.

Bunda milliy g'oyaning insonparvarlik va demokratik printsiplari inson hamda jamiyat manfaatlarini uygunligini belgilab beruvchi tayanch nuqta va jipslashtiruvchi omil vazifasini o'taydi. Demak, milliy istiqbol g'oyasi ikki muhim, bir-biri bilan bog'liq negizga tayanadi. Bu, bir tomondan. O'zbekiston xalqining tarixi, turmush tarzi, urf-odat, an'analari, madaniyati bilan bog'liq milliy-madaniy merosi bo'lib, bu uning asosi, bosh negizi, tayanchi hisoblanadi. Ikkinchisi, dunyo xalqlari e'tirof etib, faqat ezgulikka, bunyodkorlik ishlariga. o'zaro totuvlik va hamjihatlikka xizmat qilib kelayotgan umuminsoniy tamoyillardir. Shu ma'noda milliy g'oya umumbashariy qadriyatlarni e'tirof etadi.

Milliy qadriyatlarga sodiqlik - milliy g'oyaning tayanch negizlaridan biridir. Bu printsipti O'zbekiston hududida istiqomat qilayotgan har bir fuqaroning o'z milliy qadriyatlarini asrab-avaylash, kelajak avlodlarga yetkazishi uchun to'la imkoniyatlar yaratilishini ifodalaydi. O'tmishdan qolgan buyuk madaniy boyliklarimiz, mumtoz qadriyatlarni hurmat qilish, ularni ijodiy jihatdan o'rganish – bu printsiptning asosiy jihatidir. Lekin shu narsani umumqonuniy sifatida hisobga olish kerakki, umumbashariy qadriyatlar, avvalo, milliy-ma'naviy negizda shakllanadi. Xalq, millatning ruhiyati uning milliy-madaniy merosi orqali uning hayotida, maqsad va orzularida, jamiyat qurilishida o'zining aniq ifodasini topadi, Ijtimoiy taraqqiyot natijasida u yoki bu xalqlarga xos bo'lgan milliy-ma'naviy qadriyatlarning umuminsoniy mohiyati dunyo xalqlari rivoji uchun umumbashariy qadriyat sifatida xizmat qiladi. Ular bir birini boyitadi, ayni paytda o'zaro mushtaraklikka ega ekanligi bilan ham ajralib turadi.

Milliy g'oya – barkamol avlodni tarbiyalash omilidir. Milliy g'oyada inson manfaatlarini ta'minlash – yuksak qadriyat sifatida e'tirof etiladi.

O‘zbekistonning mustaqil taraqqiyoti jarayonida inson huquqlariga e‘tibor doirasi kengayib, ikki tomonlama mas‘uliyat ortib bormoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligini ta‘minlashning kafolati hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida O‘zbekiston xalqi huquqiy davlat barpo etishni ko‘zlagani qayd qilingan. Huquqiy davlatning muhim va ajralmas belgisi - bu qonun ustuvorligi hisoblanadi.

Qonun ustuvorligi xalq hokimiyati va inson huquqlari tushunchalari bilan bevosita bog‘liq printsiptir. Chunki xalq hokimiyati deganda fuqarolarning qarorlar qabul qilish jarayonida bevosita yoki bilvosita ishtirok etish huquqi tushuniladi. Shu ma‘noda xalq irodasining ifodasi bo‘lgan, fuqarolarning parlamentga saylab qo‘ygan vakillari orqali yoki o‘zlari tomonidan bevosita referendum orqali qabul qilingan qonunlar xalq hokimiyatchiligining natijasi, majoziy qilib aytganda, mevasi hisoblanadi. Inson huquq va erkinliklari qonunlar vositasida hayotga joriy etiladi, aslida qonunlarning pirovard maqsadi ham inson, uning huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iboratdir.

Xalqaro hujjatlarda qonun ustuvorligining asosiy elementlari sifatida qonun ijodkorligini shaffof, hisobdorlik va demokratik jarayonni qamrab olgan qonuniylikka asoslanishi; huquqiy aniqlik; o‘zboshimchalikning taqiqlanganligi; mustaqil va xolis odil sudlovning ochiqligi; shuningdek ma‘muriy hujjatlar ustidan sud nazoratining o‘rnatilganligi; inson huquqlarini hurmat qilish va kamsitmaslik hamda qonun oldida tenglik hisoblanadi.

Mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta‘minlashning zarur normativ-huquqiy va tashkiliy institutsional asoslari shakllantirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining III-bobi “Konstitutsiya va qonunning ustunligi” deb nomlanib, mazkur bob Konstitutsiyamizning Asosiy prinsiplar bo‘limida joylashgan. Nazariyadan ma‘lumki, printsiptir deganda rahbariy qoidalar nazarda tutiladi. Agar Konstitutsiyaning boshqa bo‘limlari o‘rtasida qandaydir tushunmovchilik kelib chiqadigan bo‘lsa, masala nazariyaga ko‘ra asosiy prinsiplarga tayanilib hal qilinishi kerak. Shu ma‘noda qonun ustuvorligining Asosiy prinsiplar bo‘limida

joylashtirilganligi mamlakatimizda mazkur prinsipga alohida ahamiyat berilganidan dalolatdir.

Konstitutsiyaning mazkur bobidagi hamda boshqa normalarida mustahkamlangan qoidalarni tahlil qilish quyidagi fikrlarni keltirib chiqaradi: birinchidan, O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. Ikkinchidan, davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko‘radilar. Uchinchidan, birorta ham qonun yoki boshqa normativ-huquqiy hujjat Konstitutsiya normalari va qoidalariga zid kelishi mumkin emas.

“Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunda O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi oliy yuridik kuchga egaligi, qonunosti hujjatlar qonun asosida va uni ijro etish uchun qabul qilinishi, qonunlar eng muhim va barqaror ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishi, normativ-huquqiy hujjat o‘ziga nisbatan yuqori yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq bo‘lishi shartligi, normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida tafovut bo‘lgan taqdirda, yuqori yuridik kuchga ega bo‘lgan normativ-huquqiy hujjat qo‘llanilishi kabilar belgilab qo‘yilgan.

Bundan tashqari mamlakatimizda qonuniylik va qonun ustuvorligini ta‘minlashning tashkiliy-huquqiy asoslari ham yaratilgan. Avvalambor bu O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya etilishining kafili hisoblanishi, qonunlarning bajarilishi ustidan parlament, jamoatchilik va idoraviy hamda adliya organlarining nazorati o‘rnatilganligi, Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari Konstitutsiyaga qanchalik mosligiga doir ishlarni ko‘rishi, sudning faoliyati qonun ustuvorligini ta‘minlashga qaratilganligi, har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanganligi, qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan prokurorlik nazorati

mustahkamlanganligi, tashkilotlarda yuridik xizmatlar faoliyati yo'lga qo'yilganligi kabilarda bevosita namoyon bo'ladi.

Mustaqillik sharoitida milliy g'oyani rivojlantirish, uning ma'naviy ta'sirchanligi va mafkuraviy samaradorligini oshirish jarayonida inson huquq va erkinliklarini takomillashtirish muammosi. Mustaqillik sharoitida milliy g'oyani rivojlantirish, uning ma'naviy ta'sirchanligi va mafkuraviy samaradorligini oshirish jarayonida inson huquq va erkinliklarini takomillashtirish muammosi muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy g'oyamizning o'ziga xos jihati ham shundaki, u fikrlar va g'oyalar xilma-xilligini tan oladi. Jamiyatning yakka-yu yagona mafkurasi sifatida biron-bir fikr, g'oyani e'tirof etmaydi. Erkinlik, xususan, fikr erkinligi va xilma-xilligi printsiplariga amal qilish milliy istiqlol g'oyasi uchun muhim. Fikr erkinligi va g'oyalar xilma-xilligiga asoslanish taraqqiyotni ta'minlab turuvchi, inson salohiyatini oshiruvchi noyob imkoniyatdir.

Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, o'z davlatchiligini qo'lga kiritish, milliy va ijtimoiy ozodlikka erishish hech kayerda yengil va osonlikcha bo'lmagan. Mustaqillikka erishgan xar bir mamlakat o'z taraqqiyot yo'lini izlaydi, yangi jamiyat barpo etishda o'z andozasinn ishlab chiqishga intiladi. Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat, odamlar o'rtasida tarkib topgan munosabatlar, ularning dunyokarashi, jumladan, diniy e'tiqodi ruhiyati va xulq-atvor normalari ham shuni taqozo etadi. Masalan, dunyoda ijtimoiy taraqqiyot yo'lining turli variantlari mavjud. Turkiya, Janubiy Koreya, Shvetsiya modellari va boshqalar bunga misoldir. Bir qancha musulmon mamlakatlari va yangi industrial mamlakatlarning tajribasi ham shuni ko'rsatadi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng Ovrupo mamlakatlari va Yaponiya xalq xo'jaligini qayta tiklash rejasi ham buning amaliy namunasi bo'ldi.

O'zbekiston boshqa davlatlar taraqqiyoti jarayonida to'plangan va respublika sharoitiga tadbiq qilsa bo'ladigan barcha ijobiy va maqbul tajribalardan, shak-shubhasiz, samarali foydalanadi. Biron-bir modelni, hatto u ijobiy natijalar bergan taqdirda ham, ko'r-ko'rona ko'chirib olish to'g'ri emas. Aksincha, aniq-ravshan vositalar va usullar qaysi mamlakat uchun mo'ljallangan bo'lsa, o'sha mamlakatning o'ziga xos sharoitidagina ijobiy natija beradi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan Harakatlar va Taraqqiyot strategiyalarida inson erkinligi, uning huquqlari masalasi. Inson qadri-qimmati, sha’ni, g‘ururi, manfaatlari haqida uzoq gapirish mumkin. Lekin, uni ta’minlash, huquqini amalda kafolatlash, Davlat rahbari ta’biri bilan aytganda adolatni qaror toptirish masalasi anchayin murakkab va zalvorli vazifa. Chunki, hech bir davlat shu paytgacha o‘z fuqarolari erkinligini mutlaq kafolatlash mumkin bo‘lgan biror bir mexanizm yoki formula ishlab chiqqan emas.

Mamlakatimiz bosib o‘tgan so‘nggi yillarga nazar tashlasak, amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlarining asosiy maqsadi insonning huquq va erkinliklarini har tamonlama ta’minlash va kafolatlash ekaniga amin bo‘lamiz. O‘tgan yillarda Harakatlar strategiyasi doirasida bu borada samarali islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, aholi murojaatlari bilan ishlash jarayoniga yangi mexanizmlarning tatbiq etilishi orqali qonun ustuvorligini ta’minlash, aholini qiynab kelgan muammolarni hal etish, qiynoqlarning oldini olish, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash, so‘z erkinligini mustahkamlash kabi qator yo‘nalishlarda salmoqli natijalarga erishildi. Xususan, 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida qabul qilingan 70 dan ortiq qonunlarda ham inson huquqlari ustuvorlik kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi” tasdiqlanishi ham mamlakat hayotidagi muhim voqea bo‘ldi. Mazkur hujjat bilan Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi va uning “Yo‘l xaritasi”, qolaversa, BMTning inson huquqlari bo‘yicha ustav organlari hamda shartnomaviy qo‘mitalari xabarnomalarini va qarorlarini ko‘rib chiqish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi davlat organlarining o‘zaro hamkorlik qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi. Farmonga ko‘ra, inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalarning normalari talablarini bajarish yuzasidan mas’ul davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan.

Mamlakatimizning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo'yicha kengashiga a'zo bo'lgani ham davlatimiz zimmasiga yuklatilgan majburiyatlarni astoydil bajarish va inson huquqlarini global miqyosda himoya qilishga qat'iy bel bog'laganidan dalolatdir.

Davlat rahbari kuni kecha dunyoning eng nufuzli inson huquqlari himoyachisi bo'lgan tashkilot minbaridan turib, Qiynoqlarga qarshi konvensiyaning Fakultativ protokolini ratifikatsiya qilinishi va bu borada hamkorlikda ishlash maqsadida Qiynoqlar masalasi bo'yicha maxsus ma'ruzachini O'zbekistonga taklif etishga tayyorgarlik ko'rilayotganini bildirdi. Bu esa O'zbekiston xalqaro maydonda ochiqlik siyosatini ilgari surayotganidan dalolat.

Bundan tashqari Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida doirasida ham bu boradagi xayrli ishlar izchil davom ettirilib, yuqori bosqichga ko'tarish bilan bog'liq muhim taklif va tashabbuslar ilgari surilmoqda. Jumladan, inson qadrini ushbu jarayonning bosh mezoni sifatida belgilash maqsadida mahkumlar va jazoni o'tab bo'lgan shaxslarning mehnat, ijtimoiy ta'minot va xalqaro e'tirof etilgan boshqa huquqlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy moslashuvi va jamiyatga reintegratsiyasiga ko'maklashishning samarali mexanizmlarini joriy etish, bu yo'nalishda davlat va jamiyat institutlarining birgalikdagi faoliyatini yo'lga qo'yish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, fuqarolarga huquqiy ta'sir ko'rsatish, shu jumladan, harakatlanish erkinligini cheklash bilan bog'liq choralarni qo'llashda qonuniylikni so'zsiz ta'minlash hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga ham ustuvorlik berilgan.

Jinoiy qonunchilikni liberallashtirish siyosatini izchil davom ettirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tizimiga insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish bilan birga qiynoqlarning oldini olish bo'yicha milliy preventiv mexanizmlarni takomillashtirish va ushbu yo'nalishda maxsus qonun qabul qilish, jazoni og'irlashtirish yoki yengillashtirishga oid normalarni qo'llash jarayonidagi inson omilini bartaraf etish masalalari ham Taraqqiyot strategiyasining muhim maqsadlaridan sanaladi.

2022-2026- yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasidagi yana bir muhim maqsadlardan biri sifatida davlat boshqaruvi organlari faoliyatini "fuqaroga xizmat qilishga yo'naltirish" tamoyili asosida transformatsiya qilish vazifasi belgilangan. Bunda asosiy e'tibor vazirlik va idoralar faoliyatining barcha yo'nalishlarini "Davlat – xalq xizmatchisi" tamoyili asosida fuqaroga xizmat qilishga yo'naltirishga qaratiladi. Ushbu masala nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanini hayotning o'zi yaqqol ifodalab turibdi.

Taraqqiyot strategiyasi doirasida Oliy Majlis faoliyatini yanada takomillashtirish, qonun ijodkorligi faoliyatini demokratlashtirish va ularning ijrosini ta'minlashga qaratilgan parlament nazoratini kuchaytirishga ham ustuvorlik berilmoqda. Parlament tomonidan murojaatlar bilan ishlash holatini nazoratga olish, joylardagi ijro idorasi rahbarlari hisobotini eshitish, natijasiga muvofiq ularga nisbatan ta'sirchan choralar ko'rish mexanizmining amalga oshirilishi parlament nazoratining ta'sirchanligini yanada oshiradi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

Inson erkinligi, huquq, manfaat, insonparvarlik, inson haqidagi fundamental qarashlar, gumanizm, G'arb gumanistlari, maxsus qonunchilik tizimi, maxsus qonunchilik tizimi bosqichlari, O'zbekistonning demokratik rivojlanish istiqboli, Milliy qadriyatlarga sodiqlik, xalq hokimiyati, Harakatlar va Taraqqiyot strategiyasi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Insonparvarlik nima?
2. Inson haqidagi hozirgi rang-barang va fundamental qarashlarning shakllanishida qaysi manbalarning o'рни katta?
3. Islom ta'limotiga ko'ra, inson kim?
4. G'arb gumanistlari insonparvarlikni qanday talqin etadilar?
5. Insoniyat o'z taraqqiyoti jarayonida insonning huquq va manfaatlariga oid bo'lgan maxsus qonunchilik tizimi o'z taraqqiyotida nechta katta bosqichni bosib o'tgan? Bular qaysilar?

6. Qaysi printsip O‘zbekistonning demokratik rivojlanish istiqbolini o‘zida mujassam etadi?
7. Xalq hokimiyati deganda nima tushuniladi?
8. Harakatlar strategiyasi doirasida mamlakatimizda inson huquqlari borasida qancha qabul qilindi?

9-§. MILLIY G‘OYADA SIYOSIY INSTITUTLAR VA MAFKURALAR XILMA XILLIGI TAMOYILI

Siyosiy institutlar va mafkuralar xilma xilligi tushunchasi, uning mazmun va mohiyati. Bugungi kunda O‘zbekistonda kechayotgan faol demokratik yangilanishlar va mamlakatni modernizatsiyalash jarayonlari siyosiy va iqtisodiy hayot, davlat va jamiyat qurilishining barcha jabhalarini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, mustaqil sud tizimini mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishni talab etmoqda. kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyatiga izchil va bosqichma-bosqich o‘tish bu davrning asosiy xususiyatidir.

Ikki palatali parlamentning shakllanishi, prezident vakolatlarining bir qismini yuqori palata – senatga o‘tkazilishi, bosh vazir huquq va vakolatlarining kuchaytirilishi “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalar rolini kuchaytirish to‘g‘risida” gi konstitusiyaviy qonunning qabul qilinishi bilan yanada amaliy tusga kirdi.

O‘rni va ahamiyati jihatidan siyosiy partiya va harakatlar jamiyat hayotida muhim rol oynaydi. Siyosiy partiyalar jamiyatni harakatga keltiruvchi asosiy siyosiy kuchlardan biri hisoblanadi. Qaysi mamlakatlarda siyosiy partiyalar harakatda bo‘lmas ekan, shu mamlakatda fikrlar erkinligi ham bo‘lmaydi. Tarixiy taraqqiyotning ma’lum bir bosqichida jamiyatda ijtimoiy–iqtisodiy tabaqalanish roy bergan. Buning oqibatida manfaatlari bir-biriga qarama–qarshi bo‘lgan ijtimoiy guruhlar va ular manfaatlarini ifoda qiluvchi siyosiy partiyalar shakllana boshlagan.

“Partiya” so‘zi lotincha “pars (“partire”)” – qism, guruh, bo‘lak so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, u jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy sinf, tabaqa, guruhlarining eng ilg‘or, faol qismini birlashtirgan siyosiy tashkilotni anglatadi.

Siyosiy partiyalarning vujudga kelishi siyosiy hokimiyatni qo‘lga kiritish uchun murosasiz kurash olib borish zaruriyati bilan uzviy bog‘liqdir. Siyosiy partiyaga o‘xshash institutlar g‘arb va sharqda qadimdan mavjud bo‘lgan.

Tarixdan ma‘lumki, siyosiy partiyalar qadimgi Yunonistonda tashkil topgan bo‘lib, ular oldin juda ozchilikni o‘z saflarida birlashtirgan. Ular tarkibi jihatidan juda tor doirada uyushgan siyosiy tashkilotlar bo‘lgan. Ular asosan jamiyatdagi turli sinflarning manfaatlarini emas, balki quldorlar sinfi ichidagi xilma-xil siyosiy oqimlar manfaatlarini ifoda etgan. Afinada geteriyalar, Rim optimat va populyarlari antik davrida siyosiy partiya vazifalarni bajarishgan. Jamiyat tarixidagi turli siyosiy tizimlarda odamlar o‘zlarining alohida manfaatlarini himoya qilish maqsadida uyushganlar va irodalarini jamiyatga o‘tkazishga uringanlar.

Siyosiy partiyalarning mamlakat parlamenti faoliyatini tashkil etishda, shuningdek, vakillik va ijro hokimiyati organlarini shakllantirish, ularning faoliyatini nazorat qilishidagi roli va ahamiyatini tubdan kuchaytirilishi, ayniqsa Bosh vazir lavozimiga nomzod bo‘yicha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashish tartibi, uning parlament tomonidan tasdiqlanishining qat‘iy belgilangan tartib va mexanizmining joriy etilgani davlat qurilishi sohasida demokratik islohotlarning chuqurlashganligini ko‘rsatadi.

Mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada erkinlashtirish, chuqurlashtirish va uni modernizatsiyalash quyidagilarni o‘z ichiga qamrab oladi: siyosiy, davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonlari, Iqtisodiyot sohasini erkinlashtirishni.

Partiya jamiyat hayotini demokratlashtirish jarayonida har bir mamlakat oldida turgan vazifalarni belgilashda va royobga chiqarishda o‘ziga xos o‘rniga ega bo‘ladi hamda muayyan funktsiyalarni bajaradi.

Partiya dasturlari siyosiy–ijtimoiy aniq maqsad va funksiyalariga qaratilgan bo‘lib, ular ikki turga bo‘linadi:

1. Ichki funksiyasiga: 1) Jipslashtiruvchi. 2) Muvofiqlashtiruvchi. 3) Rag‘batlantiruvchi. 4) Etakchilikka intilish. 5) Mavqeiga mosligi.

2. Tashqi funksiyasiga: 1) Targ‘ibot va tashviqot. 2) Ma‘lim siyosiy yo‘nalishga moslashtirish. 3) Siyosiy voqea va jarayonlarga hozirjavoblik kabi vazifalar kiradi.

Milliy g‘oya va siyosiy institutlar xilma-xilligi. Siyosiy plyuralizm, mafkuralar xilma-xilligi. Fuqarolik jamiyatining muhim belgilaridan biri – davlatning siyosiy institutlarda va siyosiy jarayonlarda turli xil fikrlarning erkin ifoda qilinishiga huquqiy asoslar yaratib berish, shuningdek, huquqiy davlat fuqarolari – plyuralistik siyosiy madaniyatga ega bo‘lgan shaxslarni shakllantirishdir. Mamlakatimiz fuqarolik jamiyati tomon odimlar ekan, jamiyatimizda bugun mavjud bo‘lgan xilma-xil fikrlar va g‘oyalar, erkin qarashlar, har qanday toifa va guruhlarning intilish va umidlari, har qanday inson e‘tiqodi va dunyoqarashi oshkor, erkin izhor etiladi. Siyosiy partiyalar esa demokratik jarayonning muhim instituti sifatida aholining kengroq qamrovi ifodalayotgan g‘oyalarni mujassam etish, ular atrofida aholini birlashtirishga intiladi. Har bir siyosiy partiya mazkur g‘oyalarni hayotga tadbiq etishda muayyan ijtimoiy tabaqaga tayangani bois, ularning amalga oshirish yo‘llari bir-biridan farq qiladi. Shunga qaramay, turli partiyalar tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyalar mazkur jamiyatni jipslashtirish, aholi turmush farovonligini yuksaltirishga yo‘naltirilganligi bilan umumiylik kasb etadi. Shu bois, demokratik jarayonlar faollashgani sari, har bir siyosiy partiya faoliyatida milliy g‘oya targ‘ibotiga talab kuchayaveradi.

1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Konstitusiyasining II-bob, 12-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasida o‘rnatilishi mumkin emas”³⁴-deb belgilandi. O‘zbekistonda ko‘ppartiyaviylik tizimining qaror topishida 1996-yil 25-dekabrda Oliy Majlis qabul qilgan “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi

³⁴ Ўзбекистонда сиёсий партиялар. –Тошкент: “Академия” нашриёти, 2007 йил, 197-бет.

qonunning ahamiyati muhim bo'ldi. Qonun 17 ta moddadan iborat bo'lib, unda siyosiy partiyalarning demokratik qoidalar asosida faoliyat yuritishlari uchun yetakchi va ilg'or mamlakatlar mezonlari talablaridagi huquqiy asoslar yaratildi. Qonunning 5-moddasiga binoan, "davlat siyosiy partiyalar huquqlari va qonuniy manfaatlari muhofaza etilishini kafolatlaydi, ustavda belgilangan o'z maqsadlari va vazifalarini bajarishlari uchun ularga teng huquqiy imkoniyatlar yaratib beradi"³⁵.

Siyosiy partiyalar faolligini oshirish va milliy g'oyani takomillashtirish. Mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi shakllanishining qonuniy asoslari bilan bir vaqtda siyosiy partiyalarda o'z g'oyalarini targ'ib etish imkoniyati ham kengaydi. "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi qonunning 12-moddasiga binoan boshqa vakolatlar bilan bir qatorda o'z mafkuralarini targ'ib va tadbiiq etish borasida "Siyosiy partiyalar quyidagi huquqlarga ega:

- o'z faoliyati to'g'risidagi axborotni erkin tarqatish, o'z g'oyalari, maqsadlari va qarorlarini targ'ib qilish:

- saylab qo'yiladigan davlat organlaridagi o'z vakillari orqali tegishli qarorlarni tayyorlashda ishtirok etish:...

- partiya faoliyati bilan bog'liq yig'ilishlar, konferensiyalar va boshqa tadbirlarni o'tkazish;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ommaviy axborot vositalari ta'sis etish va boshqa ommaviy axborot vositalaridan foydalanish;..."³⁶.

"Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi Qonunning 1-moddasida "Siyosiy partiya O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro'yobga chiqarishga intiluvchi hamda o'z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko'ngilli birlashmasidir"³⁷-deb ko'rsatilgan. Qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi esa – g'oya, mafkura demakdir. Demak partiya mafkurasini milliy mafkuraning bir bo'lagi,

³⁵ Ўзбекистонда сиёсий партиялар. –Тошкент:“Академия” нашриёти, 2007 йил, 201-бет.

³⁶ Ўзбекистонда сиёсий партиялар. –Тошкент:“Академия” нашриёти, 2007 йил, 205-бет.

³⁷ Ўзбекистонда сиёсий партиялар. –Тошкент:“Академия” нашриёти, 2007 йил, 200-бет.

tashkil etuvchi qismi sifatida talqin etilsa uning mohiyati chuqurlashadi. Binobarin partiya – kishilarning mafkuraviy birlashmasidir.

Demak siyosiy partiyalar milliy g‘oya targ‘iboti va tadbiriqida quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- jamoatchilikni g‘oya atrofida birlashtirish va safarbar etish;
- jamoatchilik fikrini tarbiyalash;
- millatning hayotiy manfaatlarini ifodalovchi jamoatchilik fikrini shakllantirish;
- milliy g‘oya va mafkurani boyitish;
- mafkuraviy immunitetni shakllantirish;
- ishlab chiqilayotgan qonunlarga milliy g‘oyani singdirib, uning amaliyotga tadbiriqi yuzasidan monitoring olib borish;
- milliy g‘oya va mafkurani takomillashtirish;
- milliy g‘oya va mafkuraning hayotga tadbiriqi jarayonidagi to‘siqlarni (tahdidni) oldini olish va bartaraf etish.

Respublikamizda mavjud beshta siyosiy partiya uchun bu kabi faoliyatni olib borish uchun barcha huquqiy sharoitlar mavjud.

Siyosiy institutlar, yondashuvlar xilma-xilligining jamiyat rivojiga ta’siri, uning demokratik xarakteri. Ma’lumki, ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Zotan, maqsad – rivojlangan, erkin, demokratik fuqarolik jamiyatini rivojlantirish ekan, jamiyatimizda albatta ko‘ppartiyaviylik tizimi shakllantirilishi lozim edi. Shu ma’noda aytish mumkinki, mamlakatimizda erkin bozor munosabatlariga asoslangan ochiq, huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatini barpo etishda, fuqarolarning siyosiy jarayonlarda, davlatni boshqarishda qatnashuvini ta’minlashda siyosiy partiyalar faoliyati va mamlakatda ko‘ppartiyaviylikning amal qilishi muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda ushbu tamoyilning amal qilishiga milliy mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq jiddiy e’tibor berildi. Xususan, 1992-yilning 8-dekabrida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida: “O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma xilligi asosida

rivojlanadi”³⁸ – deb, ko‘rsatib qo‘yilgan. Bosh Qomusimizning “Jamoat birlashmalari” deb nomlangan XIII-bobining 60-moddasida esa: “Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o‘zlarining demokratik yo‘l bilan saylab qo‘yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o‘z faoliyatlarini moliyaviy ta‘minlanish manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar”³⁹ – deb, belgilab qo‘yilgan. Hozirda, O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida siyosiy partiyalarning roli tobora ortib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining shakllanib borishida mavjud siyosiy partiyalarning faoliyati yanada ortib borayotgan ekan, avvalo “siyosiy partiya o‘zi nima?” degan savol tug‘iladi.

“Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 1-moddasida belgilab qo‘yilganidek, “Siyosiy partiya O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining qarashlar, manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi asosida tuzilgan, davlat hokimiyati organlarini shakllantirishda jamiyat muayyan qismining siyosiy irodasini ro‘yobga chiqarishga intiluvchi hamda o‘z vakillari orqali davlat va jamoat ishlarini idora etishda qatnashuvchi ko‘ngilli birlashmasidir”⁴⁰.

siyosiy partiyalar davlat va jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega. Zero, siyosiy partiyalarsiz demokratiyani tasavvur qilib bo‘lmaydi. Shu ma’noda mamlakatimizda o‘tgan asrning 90-yillaridan boshlab huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati barpo etishning asosiy sharti sifatida siyosiy partiyalar faoliyatini tashkil qilish va rivojlantirish, ko‘ppartiyaviylik muhitini mustahkamlashga alohida e‘tibor qaratila boshlandi. Shu jihatdan mamlakatimizda siyosiy partiyalarning huquqiy

³⁸ Qarang: Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2021 йил,5-бет.

³⁹ Shu manba.12- bet.

⁴⁰ Ўзбекистон Республикасининг “Сийсий партиялар тўғрисида”ги Қонуни.// Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 25-сон, 287-модда; 2007 й., 15-сон, 153-модда; 2008 й., 52-сон, 510, 513-модда; 2014 й., 4-сон, 45-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.04.2018 й., 03/18/476/1087-сон.

maqomini tahlil qilish, xorijiy davlatlarning bu boradagi tajribasini o‘rganish dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Aytib o‘tish joizki, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq siyosiy partiyalar faoliyatining huquqiy asoslari izchil va bosqichma-bosqich tarzda shakllantirilib, takomillashtirilib kelinmoqda. Jumladan, Konstitutsiyamizning 13 ta (10-, 12-, 32-, 34-, 56-, 57-, 58-, 60-, 62-, 106-, 108-, 112-, 120-) moddasida siyosiy partiyalar bilan bog‘liq qoidalar mavjud.

Konstitutsiyaning 60-moddasida shunday deyiladi: “Siyosiy partiyalar turli tabaqa va guruhlarining siyosiy irodasini ifodalaydilar va o‘zlarining demokratik yo‘l bilan saylab qo‘yilgan vakillari orqali davlat hokimiyatini tuzishda ishtirok etadilar. Siyosiy partiyalar o‘z faoliyatlarini moliyaviy ta‘minlanish manbalari haqida Oliy Majlisga yoki u vakil qilgan organga belgilangan tartibda oshkora hisobotlar berib turadilar”.

Ayni vaqtda “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”, “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”, “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi va boshqa qator qonun hujjatlari ham aholining turli qatlamlari manfaatlarini ifoda etuvchi jamoat birlashmalari, siyosiy partiyalarning tashkil etilishi hamda erkin rivojlanishi uchun mustahkam huquqiy asos bo‘ldi.

Xususan, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O‘zbekistonda xalqni davlat hokimiyatini boshqarishda ishtirok etishini ta‘minlashning siyosiy-huquqiy asoslarini yaratilishiga alohida e‘tibor qaratildi. O‘zbekistonda yangi demokratik jamiyat asoslariga o‘tish, totalitarizmdan meros bo‘lib qolgan davlat va fuqaro munosabatlariga barham berish siyosatning ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Qisqa davrda mamlakatda “fuqaro - jamiyat –davlat” tizimi qonuniy asosga qo‘yildi. Bu – siyosiy jihatdan keng va atroflicha tahlilga ega bo‘lgan jarayon. Chunki, uning mohiyati jamiyatda demokratik jarayonlarni amalga oshirishni nazarda tutadi, eng muhimi, fuqaro manfaati bilan davlat hokimiyatini boshqarish o‘zaro muvofiqlashtiriladi. Bu jamiyatda, insonning barcha huquqlari: xususan, davlat ishlarida qatnashish; e‘tiqod erkinligi; yig‘ilishlar; uyushmalar

erkinligini amalda ta'minlash siyosiy voqelikka aylanadi. "Fuqaro" va "davlat" munosabatlaridagi mavjud begonalashish jarayonlariga barham berilib, ularni davlat hokimiyatini boshqarishga bo'lgan mas'ulligi hamda davlatning fuqarolar oldidagi javobgarligi vujudga keldi. Jumladan, bosh Qomusimizning 32-moddasida belgilab qo'yilganidek, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar⁴¹ deb, belgilab qo'yiladi. Bunday imkoniyat jamiyatda demokratik institutlarning rivoji bilan ta'minlanadi.

Siyosiy institutlar jamiyat hayotida demokratik tamoyillarni qaror topishga xizmat qiladigan tashkilotlar va tuzilmalar majmuasi. Tarixiy jihatdan ularni shartli ravishda demokratik mazmunga ega bo'lgan an'anaviy, ijtimoiy-siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari, OAV) hamda faqat demokratik jamiyat sharoitida faoliyat yuritadigan maxsus institutlarga, masalan, inson huquqlariga amal qilinishini ta'minlovchi turli nodavlat tuzilmalarga ajratish mumkin.

Siyosiy institutlar mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kuchli fuqarolik jamiyatining o'ziga xos jihatlari shundan iboratki, demokratik tamoyillar rivojida fuqarolik institutlari faoliyatiga keng o'rin beriladi, ular jamiyatda jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi, davlatning e'tiboridan chetda qolgan muammolarni belgilash va bartaraf etishda davlat institutlari bilan hamkorlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 4 mayda qabul qilingan "Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlarining rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonida qayd etilganidek, bugungi kungacha mamlakatimizda "nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan ko'plab normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun zarur institutsional baza yaratildi.

⁴¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. –Тoshkent: Ўзбекистон, 2021, 13- бет.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan Harakatlar strategiyasida jamiyat siyosiy hayotini yanada erkinlashtirish vazifalari. Jamiyatning siyosiy hayoti – davlat sifatida tashkil topgan jamiyatning muayyan siyosiy vazifalarni amalga oshiruvchi ijtimoiy muassasalari majmui. Davlat, partiyalar, kasaba uyushmalari, diniy tashkilotlar, shuningdek, siyosiy maqsadlarni ko‘zlovchi barcha tashkilot va harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Jamiyatning siyosiy hayoti, muayyan darajadagi uyushgan tizim bo‘lib, bu tizimning bosh bo‘g‘ini davlatdir. Davlat jamiyatning ijtimoiy muassasalari huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta‘minlaydi, ularga ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun teng huquqiy imkoniyatlar yaratadi.

Siyosiy tizim – davlat ichki tuzilishi jihatlarining o‘zaro aloqalari va ta‘sirining eng muhim, doimiy xususiyatlarini ifodalovchi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar tizimi ham bo‘lib, siyosiy hokimiyatni, umuman davlat muassasalari tizimini va ularning asosiy tashkiliy shakllarini belgilab beradi. Siyosiy tizim har bir mamlakatning mavjud shart-sharoitlari bag‘rida shakllanadi, odatda, mamlakat konstitutsiyasida va boshqa qonun hujjatlarida mustahkamlab qo‘yiladi. Jamiyat demokratlasha borgan sari siyosiy tizimning xilma-xil ko‘rinishlari o‘z faoliyatini namoyon eta boradi. Xalqning keng qatlami va turli yosh, kasb hamda soha vakillarining bu tizimda ishtirok etish imkoniyati kuchayadi.

O‘zbekistonning siyosiy tizimi qayd etilganidek, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, shu asosda qabul qilingan qonunlar hamda boshqa rasmiy hujjatlarda o‘z ifodasini topgan, hokimiyatni qonun chiqaruvchi hokimiyat, ijro etuvchi hokimiyat va sud hokimiyatiga taqsimlash tamoyili asosida tuzilgan. Zotan davlat siyosati har qanday jamiyat hayoti, undagi o‘zgarishlar, siyosiy yangilanishlar, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa sohalardagi jarayonlarni bevosita boshqarish, tartibga solish va strategik yo‘naltirishda, rivojlantirishda eng asosiy vosita va institutsional hodisa bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda davlat siyosatining huquqiy asoslari va amal qilish mexanizmlarining rivojlantirilishida O‘zbekiston Respublikasi

Prezidentning 2017-yil 8-fevralda qabul qilingan “Qonun hujjatlarini tarqatish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori o‘ta dolzarb ahamiyat kasb etdi. Mamlakatimiz Prezidentning “Harakatlar strategiyasini qabul qilish to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmonida belgilab berilgan strategik maqsadlarni amalga oshirish bo‘yicha eng birinchi siyosiy hujjat bo‘lgan mazkur qarorda davlat siyosati va qonunlar izchil bog‘liqlikda amal qilishining eng zamonaviy demokratik mexanizmlari tasvirlab berildi.

Yangi demokratik O‘zbekistonni barpo qilishga yo‘naltirilgan davlat siyosatida siyosiy institutlarni kuchli rivojlantirish hamda yangilarini shakllantirish vazifalariga ustuvor ravishda yondashilmoqda.

Bir necha yil oldin fraksiyalar muhokamasidan o‘tmasdan, ularning xulosasini olmasdan birorta ham qonun, davlat byudjeti loyihasi qabul qilinmasligi qonuniy asosda aniq belgilab qo‘yilgan edi.

Tan olish kerak, o‘tgan davr mobaynida parlamentda ana shu qoidani hayotga tatbiq etish bo‘yicha ko‘p ishlar qilindi.

Biroq fraksiyalarda qonun loyihalari va boshqa muhim masalalar muhokamasini, konstruktiv bahs va munozaralarni yanada kuchaytirishni hayotning o‘zi taqazo etmoqda.

Qabul qilinayotgan har bir qonun loyihasi saylovchilar, partiya elektorati, turli tabaqa va guruhlarining manfaatlari nuqtayi nazaridan kelib chiqib, atroflicha muhokama qilinishi, fraksiyalar ushbu masalalarda prinsipial pozitsiyasini namoyon etishi shart⁴².

Ushbu g‘oyalardan aniq ravishda sezilmoqdaki, mamlakatimizda demokratiyaning eng ilg‘or jahon mamlakatlari tomonidan e‘tirof qilingan “plyuralistik” modelining samarali asoslarini joriy qilishga ham muhim e‘tibor berilmoqda va bu bilan yurtimizda demokratiya institutlarini takomillashtirish bilan bir paytning o‘zida davlat siyosatida demokratiyaning eng zalvorli va tamomila zamonaviy qoidalarini joriy qilish jarayonlari harakatga keltirilmoqda.

⁴² Дюверже М. Политические партии. Пер. с франц. изд. 3-е. – Москва: “Академический Проект”, 2005.

Jumladan, vakillik demokratiyasining asosiy instituti boʻlgan mamlakatimiz Oliy Majlisi har ikkala palatasining amal qilish qoidalariga doir huquqiy asoslarni yanada takomillashtirib, xususan, 2002-yilning 12-dekabrida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy qonuniga 2016-yilda O‘RQ-44-sonli qonun bilan bir marotaba O‘RQ-459-sonli qonun tahririda, 2018-yilda O‘RQ-459-sonli qonun asosida bir marotaba, 2019-yilda tegishli qonunlar asosida 2020-yilda bir marotaba o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi⁴³.

Xulosa shuki, jamiyatning eng asosiy instituti bo‘lmish davlat o‘z siyosatida natijadorlikka, avvalo, davr talablariga monand hamda jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiquvchi samarali siyosiy institutlarni yangi mexanizmlar bilan muntazam ravishda yangilab va takomillashtirib borish orqali erishish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar va taraqqiyot strategiyasining qabul qilinishi bilan yurtimizda boshlangan zamonaviy davlatchilik siyosatini amalga oshirish jarayonlari demokratiyaning amal qilishi va rivojlanishi uchun xizmat qilishi lozim bo‘lgan jamoat tashkilotlari hamda siyosiy partiyalarning institutsional salohiyatini yuksaltirish bo‘yicha strategik chora-tadbirlar amalga oshirila boshlandi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

Siyosiy institut, siyosiy jarayon, siyosiy partiya, ko‘ppartiyaviylik, mafkuraviy plyuralizm, siyosiy institutlar va mafkuralar xilma xilligi, siyosiy tizim, siyosiy hayot.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Siyosiy institut tushunchasi nima?
2. Siyosiy institutlarga nimalar kiradi?
3. Siyosiy jarayonlar va ularda fikrlar erkinligini qanday tushunasiz?

⁴³ Нискевич Ю. Институт выборов как механизм легитимации публичной власти// Мировая экономика и международные отношения. 2018. – №2.

4. "Partiya" so'zi qanday ma'noni anglatadi?
5. Ko'ppartiyaviylik nima va u tizimining O'zbekistonda qaror topishi haqida nimalarni bilasiz?
6. Mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini qanday tushunasiz?
7. O'zbekistonda qanday siyosiy partiyalar faoliyat ko'rsatmoqda?
8. Siyosiy tizim deganda nimani tushunasiz?

III-BOB. MILLIY G'OYANING ASOSIY TAMOYILLARI VA UNING JAMIYAT HAYOTIDA NAMOYON BO'LISHI

10-§. MILLIY G'OYA NEGIZLARINI ASRAB-AVAYLASH, UNI HIMOYA QILISH SHART-SHAROITLARI VA OMILLARI

O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyatning eng qadimgi ildizlari. Har qanday g'oya singari milliy g'oya ham o'zining tub ildizlariga. Uning tub ildizlari eng qadimiy davrlarga borib taqaladi.

Hozirgi o'zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo'lib, ular o'ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda katta va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan. Dastlabki tosh qurollardan tirikchilik uchun foydalanish, ancha takomillashgan mehnat qurollarini yasash, urug'chilik davriga kelib, xo'jalik hayoti va madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlari o'z ichiga olgan davrgacha bo'lgan tariximiz ota- bobolarimizning boy qadimiy madaniyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona, Parfiya hamda Parkana kabi davlatlarda turli qabila va elatlar yashaganlar. Ular saklar, massagitlar, so'g'dlar, xorazmiylar, boxtarlar, chochliklar, parkanaliklar kabi qabila va urug'lardan iborat bo'lib, hozirgi Markaziy Osiyo hududida yashovchi xalqlarning ajdodlari hisoblanadilar.

Eramizdan oldingi asrning birinchi yarmida qadimiy davlatlar: Baqtriya va So'g'diyona, Marg'iyona, Xorazm, Parkana, Parfiya kabi o'lkalarda xalq xo'jaligining turli sohalarida rivojlanish ro'y bergan. Eramizdan oldingi IX-VI asrlarda paydo bo'lgan Ahmoniylar, eramizdan avvalgi III asr o'rtalarida tashkil topgan Grek-Baqtriya, eramizning I asrida tashkil topgan Kushonlar,

eramizning V asrida yuzaga kelgan Eftalitlar, soʻngra Sosoniylar va, nihoyat, Turk xoqonligi davlatlarida madaniyat yuksala bordi.

Eng qadimgi gʻoyavir qarashlar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Turkiy va forsiyzabon xalqlarning hayot kechirish sanʼati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda boʻlishning namunasi tarzida eʼtirof etilgan maʼnaviy madaniyat yodgorliklari qadimgi grek tarixchisi Gerodotning “Tarix”, Strabonning “Geografiya” hamda Mahmud Koshgʻariyning “Devonu lugʻatit-turk” kabi asarlari, Urxun-Enasoy bitiklari kabi adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan. Ushbu yodgorliklar mohiyatini oʻrganish insonning shakllanishida moddiy va maʼnaviy madaniyat qay darajada katta oʻrin tutganidan dalolat beradi.

Ayniqsa, turkiy xalqlarning yozma maʼrifiy yodgorliklari oʻziga xos xususiyatga ega boʻlib, yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Bular “Urxun-Enasoy yodgorliklari”, “Irq bitigi” (“Taʼbirnoma”) kabi manbalar boʻlib, mazkur manbalar bugungi yangi davr yoshlari maʼnaviy tarbiyasida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Eng qadimgi turkiy tilda yaratilgan va turkiy-run yozuvida bitilgan Urxun-Enasoy bitiklarini “toshlarga bitilgan kitoblar” ham deb ataydilar. Oʻziga xos xat(yozuv)da bitilgan bu bitiklar eramizning VII-VIII asrlarida yozib qoldirilgan. Toshlarga bitilgan mazkur yodgorliklar taʼlim-tarbiyaga oid qimmatli maʼlumotlarni beradi.

Bu yodnoma yoshlarni oʻz elini sevish, doʻst va ittifoq bolib yashash, Vatan va xalq manfaati uchun kurashga tayyor turish ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. Turk xoqonlari Bilga xoqon hamda Kul tegin jasoratlari haqiqiy vatanparvarlik hamda jasoratning ibrat namunasi boʻlib hisoblanadi.

Milliy gʻoya tamoyillari asosida Oʻzbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyat asoslarining eng qadimgi ildizlaridan biri “Avesto”dir. U miloddan avvalgi 7-6 asrlarda hozirgi Oʻzbekistonning Xorazm viloyati hududida yaratilgan ilk davlatchilik toʻgʻrisidagi ijtimoiy-falsafiy, diniy taʼlimot hisoblanadi. ”Avesto”ni “Hayot yoʻriqnomasi”, ”Qonunlar toʻplami”, “Bilimlar majmuasi” deb bejiz atashmagan. Zero, hozirgi

adolatparvar demokratik jamiyat asoslarini yaratishga qaratilgan milliy g'oya bilan hamohang ijtimoiy-falsafiy fikr unda mavjudligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, manbalarda yozilishicha, mahalliy xalqni o'z asoratida tutib turish uchun bosqinchilar mustahkam o'rnashib olish maqsadida "Mahalliy xalq ustidan o'z hukmini yanada mustahkamlash, ular ustidan nazoratni kuchaytirishning zarurligi natijasi o'laroq, boshqaruv apparati, boshqaruv markazi muntazam qurolli kuchlar, nazorat organlari tashkil etila boshlandi. Davlat ana shu tartibda tarkib topa boshladi"⁴⁴. Ana shunday tarixiy sharoitda mahalliy xalqni birlashtirish obyektiv zaruriyatga aylanib bordi. Faylasuf olim Tohir Karimning e'tirof etishicha, "CHO'l bilan voha xalqini kelgindi bilan o'troq xalqlarning manfaatlariga bunday mos kelmaydigan ziddiyatlarni bartaraf eta oladigan qudratli mafkura zarur edi. Ana shunday mafkura bo'lib Zardo'sht ta'limoti vujudga keldi"⁴⁵.

Zardushtiylik dinining g'oyalari xususida so'z borganda, ularning to'g'rilik bilan yashash va axloqiy unsurlarga asoslanganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Ushbu afsonada gunoh va uning jazosi, poklikning mohiyati ta'riflanib olov, suv, er, chorva, daraxt hamda o'simliklar ulug'lanadi, kohin, harbiy, dehqon va chorvadorlar sharaflanadi. Hayvonlarga zulm o'tkazish eng katta gunoh sifatida qoralanadi. Mazkur bo'limda shaxsiy gigienaga amal qilishga oid qoidalar–tirnoq va sochni parvarishlash masalalari yuzasidan fikr bildiriladi.

Bildirilayotgan fikrlardan anglashiniladiki, zardushtiylik dinining g'oyalariga ko'ra, shaxsning axloqiy xislatlarga ega bo'lishi Adolat o'lkasini qaror toptirishda tayanch omil bo'lib xizmat qiladi. Zardushtning asosiy yo'riqlaridan biri ham Axura Mazdaning ko'makchisi sanalgan inson saxovatli bo'lishi kerak, degan aqidadir. Garchi, zardushtiylikda diniy rasmlariga rioya etish, Zardusht tomonidan ilgari surilgan barcha axloqiy yo'l-yo'riqlarni bajarish har bir kishining muqaddas burchi ekanligi e'tirof etilishi bilan birga, dunyoviy ishlar va ularning mohiyati ham ochib beriladi.

⁴⁴ Toхир Карим. Муқаддас "Авесто" изидан.-Тошкент: Чўлпон, 2000 йил,122-бет.

⁴⁵ Ўша манба, -Б. 124.

“Yaxshi fikr” iborasining mazmuni o‘zida ilohiy qonun ruhidagi g‘oyalarga ega bo‘lish, yaqin kishisiga nisbatan mehribonlik ko‘rsatish, muhtojlarga ko‘maklashish, yovuzlikka qarshi kurashga doimo tayyor turish, kishilarning baxt-saodati yo‘lida harakat qilish, ahillik, qabiladoshlar bilan birga do‘stlik va totuvlikda yashashga intilish ruhidagi niyat va fikrlar musaffoligini aks ettiradi. Inson fikran ham boshqalarga hasad qilmasligi lozim. Yaxshi niyatli kishi darg‘azab bo‘lmaydi, jaholatlarga berilmaydi. Zero, bunday ruhiy holatda inson yaxshilik haqida o‘ylamaydi, burch va adolat haqida unutadi va nojo‘ya harakatlar qiladi.

Zardushtiylik evolyusiyasi uch bosqichga bo‘linadi:

Birinchi bosqich – “Avesto”ning eng qadimgi qismi “Yasht”larda jamoa tuzumi qabilalari e‘tiqodi aks etgan. Ularning kelib chiqishi, aftidan, e.a. 3-ming yilikka to‘g‘ri keladi. Ular mazmunida tabiat kuchlarini ilohiylashtirishdan iborat ko‘p xudolilik kuzatiladi.

Ikkinchi bosqich – “Gota”lar, ularda yagona iloh Axuramazda haqidagi ta’limot yoritiladi. Uning haqidagi ta’limot Zardushtga tegishli deb, qaraladi.

Uchinchi bosqich - ko‘p xudolilik (“Yasht”lar) va yakka xudolilik (“Got”lar) o‘rtasidagi kurash natijasida, e.a. V asrda Mazda yasna deb nom olgan, yuksak e‘tiqod yuzaga keladi. U “Avesto” diniy ta’limotida uchinchi va asosiy bosqich sanaladi.

“Avesto”da hikoya qilinishicha, ko‘plab yaxshi odamlar bo‘lgan, bir xil huquqqa ega bo‘lishgan, baxtli, yaxshi xulqi bilan hamma bir–biriga namuna bo‘lgan, bir so‘z bilan aytganda, “oltin asr”da yashagan.

Markaziy Osiyoda mustaqil davlatchilik tizimining shakllantirilishi. Oldingi mavzularimizda qaud etilganidek, “Uyg‘onish davri” Fanda “Uyg‘onish davri” deb ataladigan davr G‘arbiy va Markaziy Yevropa mamlakatlarda XIV-XVI asrlardagi rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlarini ifodalash uchun ishlatilgan. Birinchi marotaba “uyg‘onish” atamasini XVI asr italyan rassomi va tarixchisi J.Vazari o‘z asarlarida ishlatadi. “Uyg‘onish”, “uyg‘onish davri” atamaları XIV-XVI asr ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mohiyatini ochib bermasdan, ko‘proq antik davr merosini, ya’ni antik madaniyatga o‘xshash madaniyatni qaytadan “tirilishi”,

“uyg‘onishi” ma’nosida ishlatila boshlandi. Keyinchalik fanda bu atama keng qo‘llanila boshlandi. Shu ma’noda ko‘pchilik tadqiqotchilar IX-XII asrlar Markaziy Osiyo xalqlari tarixida madaniyatning rivojlanishini o‘ziga xos xususiyatlarni ham “uyg‘onish” davri deb atalishi yuqorida qayd qilinganidek, shartlidir deb hisoblaydilar.

Tarixchi Abu Mansur as-Saolobiyning Somoniylar Buxorosiga bergan ta’rifi butun Markaziy Osiyo davlatlarining IX-XIII asrlardagi ahvoliga tegishlidir: “...shon-shuhrat makoni, saltanat ka’basi va zamonasining ilg‘or kishilari jamlangan, yer yuzi adiblarining yulduzlari porlagan hamda o‘z davrining fozillari yig‘ilgan (joy) edi”. Markaziy Osiyo hukmdorlari ilm ahli bilan yaqinlashdilar. Mamlakatni boshqarishda ularning bilimi va maslahatlaridan foydalandilar. Hukmdorlarning aksariyati bu davrda o‘z saroylarida olim, shoir va usta san’atkorlar, turli sohalar bo‘yicha qimmatbaho kitoblarni to‘plashga odatlandilar. Saroyga jalb etilgan olim va shoirlar, kutubxonalaridagi nodir qo‘lyozma asarlar bilan mag‘rurlanardilar.

Damashq, Qohira, Bag‘dod, Kufa, Basra va boshqa katta shaharlarda Markaziy Osiyodan borib fan, madaniyat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shgan avlod-ajdodlarimiz bu davrga kelib ko‘paya bordi. Bag‘dod shahri Sharqning ilm-fan markazi sifatida olamga tanildi, chunki IX asrda bu yerda “Bayt ul-hikma”(“Donishmandlar uyi”) Sharqning fanlar akademiyasi tashkil etildi. Bunga monand holda X asr oxirlarida Xorazmda ham xalifa Ma’mun davrida (995-997-y.) “Donishmandlar uyi”-“Bayt ul-Hikma”-“Ma’mun akademiyasi” (Xorazm akademiyasi) tashkil topdi. Bu ikki ilm o‘chog‘larida Sharqning mashhur va ma’lum olimu-allomalari tahsil ko‘rganlar. Ular orasida Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino va boshqa buyuk allomalarning nomlari bor.

Jumladan bu davrda Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” risolasida jamiyatni boshqarish tizimi haqidagi ilmiy-nazariy qonuniyatni yaratdi. Forobiyning demokratik jamiyat haqidagi ta’limoti asosida adolat va axloq, qonunchilik g‘oyasi yotadi. “Madaniy jamiyat va madaniy shahar (ya’ni mamlakat) shunday bo‘ladiki, -deb ta’kidlaydi Forobiy, – shu mamlakatning aholisidan bo‘lgan har bir odam kasb-hunarda ozod, hamma

barobar bo‘ladi, kishilar o‘rtasida farq bo‘lmaydi, har kim o‘zi istagan va o‘zi tanlagan kasb-hunar bilan shug‘ullanadi. Odamlar chin ma‘nosi bilan ozod bo‘ladilar. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga xalaqit beruvchi sulton bo‘lmaydi. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo‘ladi”⁴⁶.

Odil – demokratik jamiyat barpo etish haqida gap borar ekan, A.Temur va temuriylar davriga alohida to‘xtalmoq lozim. Chunki, bu davrda demokratik jamiyat nazariyasi emas, balki uning real voqelikda namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq muhim ilmiy-falsafiy g‘oyalarni uchratishimiz mumkin.

Ma‘lumki, XII-XIII asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasini mo‘g‘ullar tomonidan bosib olinishi shakllanayotgan milliy davlatchilik tamoyillari rivojlanishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Ayniqsa, ma‘naviy hayotda, iqtisodiyotning izchil rivojlanishida va ijtimoiy munosabatlarda bu ta‘sir yaqqol namoyon bo‘lgan edi. Markaziy Osiyo xalqlarining qattiq jabr-zulm ostiga olinishi, mehnatkash mahalliy aholining qattiq ezilishi, ularga nisbatan zo‘ravonlik siyosati tarixdan bizga ma‘lum. Eng ayanchlisi shundaki, ming yillar davomida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan madaniy meroslar, moddiy meroslarimiz bo‘lgan ilm-fan maskanlari, madrasalar va qiroatxonalar yakson qilinadi. Ana shunday, bir murakkab davrda Amir Temurning tarix sahnasiga chiqishi va Markaziy Osiyoda mustaqil davlatchilik tizimini shakllantirishi mamlakatda ichki nizolarni, mahalliy-xalqqa nisbatan adolatsizlikni bartaraf etishga olib keldi.

Amir Temurning Markaziy Osiyo halqlari tarixida adolatli davlat barpo etishda tutgan o‘rni alohida ahamiyatga molikdir. U markazlashgan yirik davlatga asos solgan buyuk siymodir.

E‘tiborli jihati shundaki, musulmonlarga diniy masalalardan ta‘lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tavsif, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qilganligi sohibqironning demokratik tizimni ijtimoiy hayotga joriy etish uchun ma‘naviyat, mafkura va g‘oyaning ahamiyatiga alohida e‘tibor qaratganini ko‘rsatadi. Ijtimoiy qatlamlar va guruhlarga tayangan holda faoliyat yuritish hamda ularning manfaatlarini himoya qilish o‘sha davr boshqaruvining

⁴⁶ Абу Наср Форобий Фозил одамлар шахри. -Тошкент: Навруз, 1993 йил, 196-бет.

o‘ziga xos jihatlaridan biri edi. Temur esa, davlatni boshqarishda alohida ijtimoiy guruhlar, sinflar manfaatlarini himoya qilmasdan, davlat tizimining qatlamlariga, har bir fuqaroga tayanadi. ”Millatning dardlariga darmon bo‘lmoq vazifangizdir... Adolat va ozodlik - dastingiz, rahbaringiz bo‘lsin”⁴⁷, - deydi Amir Temur.

Markaziy Osiyoda demokratik jamiyat barpo etish va bu jarayonda ma’naviyat, mafkura va milliy g‘oyaning naqadar muhimligi haqidagi ta’limotlar, hozirgi davrda ham nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga molik nazariyalardan hisoblanadi.

Ana shunday yirik mutafakkirlardan Alisher Navoiy o‘z faoliyatida amaliyot bilan nazariyaning birligini mujassam etgan siymolardan biri hisoblanadi.

Alisher Navoiy nazariyotchi va amaliyotchi sifatida xalq hokimiyati va davlat siyosatining adolatga asoslanganligini va uning mafkuraviy mezonlarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shgan. Uning fikricha, adolatsizlik, fuqarolarning fikrini inobatga olmaslik davlat boshqaruv tizimi tanazzuliga sabab bo‘ladi va pirovard natijada demokratik jamiyat emas, balki jamiyatni jaholatga olib keladi.

Navoiy o‘zining shoh asarlaridan biri bo‘lgan “Mahbub ul – qulub” nomli asarida, “Goh amirlik o‘rnida o‘tirdim va hukumat mahkamasida xalqning arzu dodini so‘rdim va goh podshoh yonida vazirlik qildim va menga umidvor nazar bilan qarab turgan elga muruvvat ko‘rsatdim”⁴⁸, – deydi. A.Navoiyning ijtimoiy-falsafiy ta’limotining asosida adolatli jamiyat g‘oyasi yotadi. Adolatli jamiyat esa, kishilarning jamiyat hayotidagi tengligini ta’minlay oladi. Bunday jamiyatga erishishda, nafaqat podshohning adolatliligi, balki kishilar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning yuksak ma’naviyat va mafkura asosida sog‘lom bo‘lishi lozimligiga e’tiborni qaratadi.

Islom dini – miliy g‘oyalarimizning asosiy negizlaridan biri.
Yurtimizga islom dini kirib kelishi bilan adolatli jamiyat haqidagi tarixiy

⁴⁷ Amir Temur ўgитлари. -Тошкент: Навруз, 1992 йил,61-бет.

⁴⁸ Алишер Навоий Махбуб ул қулуб. -Тошкент: Ғ.Ғуллом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983 йил,12-бет.

ma'lumotlarning barcha ko'rinishlarida islom falsafasi, fiqh ilmi arkonlarining qarashlari o'z ifodasini topgan.

Jumladan, xijriy III-asrlarda Movaraunnaxr va Xuroson zaminidan yetishib chiqqan At-Termiziy, An-Nisoriy, Imom al-Buxoriy kabi buyuk zotlar jahonga mashhur oltita xadislar to'plamini yaratib, islom ilmi va madaniyatiga buyuk hissa qo'shganlar.

Imom al-Buxoriy (asl ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim al Buxoriy) (810.21.7, Buxoro – 870.31.8, Samarqand yaqinidagi Hartang qishlog'i) – islom olamining yirik mutafakkiri. Muhaddislar imomi, hadis ilmining sulтони deb ham yuritiladi. Otasi Ismoil o'z davrining yetuk muhaddislaridan, Malik ibn Alasning shogirdi va yaqinlaridan biri bo'lib, tijorat ishlari bilan shug'ullangan. Onasi taqvodor, diyonatli, oqila ayol edi. Otasi vafot etgach, uning tarbiyasi volidasi zimmasiga tushgan. U 5-6 yoshidan islomiy ilmlarni, Muhammad (s.a.v)ning hadislarini o'rganishga va yodlashga kirishadi.

Bir necha tarixchilarning ta'kidlashicha, Imom Buxoriy Hijoz, Makka, Madina, Toif, Jiddaga qilgan safarlari 6 yil davom etgan. So'ng Basra, Kufa va Bag'dodga safar qiladi. Shom va Misrga o'tadi. Bundan tashqari Xuroson, Marv, Balx, Hirot, Nishopur, Ray, Jibol kabi shaharlarda bo'lib, bu shaharlardagi olimlardan saboq oldi va hadislar to'pladi. Imom Buxoriyning asarlari orasida eng mashhur bo'lgani "Al-jome' as-Sahih"dir. Undan tashqari tarixiy voqealar va shaxslarni chuqur tahlil qiladigan, hadis ilmining asoslaridan bo'lgan ilmlarga oid bir qator o'ta ahamiyatli kitoblar yozdi. Imom Buxoriyning ilmiy ahamiyati yuksak bo'lgan bir necha asarlar tasnif qildi: "Al-jome' as-sahih", "Al-adab al-mufrad", "At-tarix al-kabir", "At-tarix as-sag'ir", "At-tarix al-avsat", "At-tafsir al-kabir" "Birrul volidayn", "Asmo as-sahoba", "Kunyalar» va boshqalar. Ular orasidagi "Al-jome' as-sahih" asari islom olamida Qur'ondan keyingi eng muhim manba sifatida e'zozlanuvchi manba hisoblanadi. Imom Buxoriyning hadislar to'plash borasidagi qo'ygan shartlari boshqa muhaddislarning shartlaridan ko'ra aniqroq bo'lgani sababli "Al-jome' as-sahih" asari "Eng ishonchli hadislar to'plagan" nomiga sazovor bo'lgan. Muhaddislar hadislarining roviylarini

o‘zaro uchrashganlari ehtimoli mavjud bo‘lsa shunga kifoyalanishgan, ammo Imom Buxoriy eshitgan hadislarining roviylari o‘zaro uchrashganini alohida ko‘rgan guvohning e’tirofini ham shart qilib qo‘ygan. Bunday shart boshqa muhaddislarda uchramaydi. Hofiz ibn Xajar al-Askaloniyning hisobiga ko‘ra “Al-jome’ as-sahih”dagi hadislarining soni 7397 tani tashkil etadi. Bular orasida takrorsizlari 2602 tani tashkil qiladi. Izohlar, roviylarning ixtilofi va ilovalarni qo‘shilsa kitobda keltirilgan hadislar soni 9082 taga yetadi. Aynan Imom Buxoriy tufayli Movarounnahr hududida IX-XII-asrlarda ko‘plab hadisshunoslik maktablari shakllandi va muvaffaqiyatli faoliyat yuritdi. Hozirgi kunda olimning asarlari dunyoning o‘nlab tillariga tarjima qilingan va islom dunyosida uning ijodidan ko‘plab ilmiy tadqiqotlarda foydalanib kelinadi. Xorijiy yurtlardagi safardan keyin Buxoroga qaytgach, hadis ilmini targ‘ib etishga kirishadi. Ul zotning bu sa‘yu ko‘chishlari bu vaqtda Buxoroda hisoblanadi. Bu asar Hindiston va Qohirada chop etilgan. Buxoriy yaratgan “Kitob alfavoid” (“Foydali ashyolar haqida kitob”), “AlJomi’ alkabiyr” (“Katta tayanch”), “Xalq af’ol alibod”, (“Alloh bandalari ishlarining tabiati”), “Al Musnad alkabiyr” (“Katta tayanch”), “At tafsir alkabiyr” (“Katta tafsir”), “Kitob alxiba” (“Xayr ehson haqida kitob”) va boshqa asarlarning ba’zilari bizgacha yetib kelmagan, ba’zilari jahonning turli mamlakatlari kutubxonalarida saqlanayotganligi haqida ma’lumotlar bor. Buxoriyning boshqa asarlari orasida “Tafsir al Qur’on” (“Qur’on tafsiri”) kitobini ham alohida ta’kidlash kerak. Buxoriy asarlari musulmon dunyosining barcha Madrasa va dorilfununlarida payg‘ambar (as) sunnatlari bo‘yicha asosiy darslik, qo‘llanma hisoblanadi. Jamoat arboblari, olimu ulamolar va din peshvolari Buxoriy asarlariga tayanib ish tutadilar. Istiqlol sharofati bilan Buxoriyning o‘lmas merosi elyurti bag‘riga qaytdi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Imom al Buxoriy tavalludining hijriyqamariy taqvim bo‘yicha 1225-yilligini nishonlash to‘g‘risida”gi qarori (1997-yil 29-aprel) asosida Buxoriyning ilmiy merosini o‘rganish va targ‘ib qilish, xotirasini abadiylashtirish borasida katta ishlar qilindi.

Islom ilmlari va madaniyatini rivojlanishida buyuk hissa qo‘shgan vatandoshimiz at-Termiziy o‘zining “Al Jome’ as-sahih”, “Shamoili Nabaviya” (Payg‘ambarning shakl va sifatleri), “Kitob o‘z-zuxd” (zohidlik kitobi) kabi bir qator asarlari bilan islom dunyosiga ma‘lum va mashhurdir. Bulardan tashqari ulug‘ o‘zbek shoiri va mutafakkiri A. Navoiy o‘z ijodi faoliyatida islom ma‘naviyatini rivojlantirishda islom ta‘lim-tarbiyasiga oid, “Arbain hadis” (qirq xadis) nomli asarida Muhammad alayhissalomning ko‘rsatma va o‘g‘itlari, fe‘l-atvorlari, musulmonchilik ta‘lim-tarbiya qoidalari to‘g‘risidagi qirq hadisni sharhlab targ‘ib qiladi.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo, hozirgi O‘zbekiston hududida yetishib chiqqan mutafakkirlar islom ma‘naviyati, ma‘rifati va madaniyatiga umuminsoniy qadriyat sifatida qarab, uning rivojiga munosib hissa qo‘shganlar.

Binobarin, islom dini jamiyatda insonparvarlik, adolatparvarlik g‘oyalarini keng targ‘ib-tashviq qiladi. Unda, birovlarining haqiga ko‘z olaytirish, ichkilikbozlik, giyohvandlik, o‘g‘rilik kabi qabih ishlar bilan shug‘ullanish, fohishabozlik, poraxo‘rlik qattiq qoralanadi. Odamlarni harom-harish yo‘llardan uzoq yurishga, insofli-diyonatli bo‘lishga, o‘zidan yaxshi iz qoldirishga undaydi. Birinchi Prezidentimiz tomonidan, “Ko‘hna tariximizning qaysi davrini eslamaylik, din har doim odamlarni o‘z-o‘zini idora etishga, yaxshi xislatlarni ko‘paytirib, yomonlaridan xolos bo‘lishga chorlagan. Har bir alohida insonga, oila, jamoa, mintaqa, bir so‘z bilan aytganda, umumxalqqa rahnamo bo‘lgan. Uni og‘ir-og‘ir sinovlarga bardosh berishga, yorug‘ kunlarga intilib yashashga da‘vat qilgan, ishontirgan. Bunday da‘vat, o‘z navbatida, odamlarga kuch-quvvat bag‘ishlagan, irodasini mustahkam qilgan, bir-biriga mehru oqibatini oshirgan... Asrlar davomida din odamlarni eng ulug‘ maqsadlar yo‘lida birlashishga, hamjihat bo‘lishga undagan”⁴⁹, deb ta‘kidlanishi islomning odil jamiyat qurishda o‘rni beqiyos ekanligini ko‘rsatib turibdi.

⁴⁹ Каримов И. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истикболининг асосий тамойиллари. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. -Тошкент: Ўзбекистон, 1995 йил,54-55-бетлар.

Milliy g'oya negizlarini asrab-avaylash – ulug' mas'uliyat. Milliy g'oya o'zligimizga, muqaddas an'analarimizni anglash tuyg'ularini, xalqimizning ko'p asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qo'yilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi va yoshlarda ularni asrab avaylashga daxldorliknu tarbiyalashga yo'naltirilganligi bilan ham ahamiyatlidir.

Milliy g'oya vositasida el – yurt birlashadi, o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yadi va ularni ado etishga qodir bo'ladi. Millat, xalqning hamjihatligi esa har qanday taraqqiyotning garovidir.

Shu ma'noda unga kuch berib, rivojlanishi uchun asos vazifasini o'taydigan Milliy g'oya negizlarini asrab-avaylash, uni himoya qilish shart-sharoitlarini yaratish bilan birga, uning rivojlanishiga mungosib hissa qo'shish yurtning baxtli kelajagini o'ylagan har bir fuqaro uchun mas'uliyatdir.

Milliy g'oya - xalqning qalbidan chiquvchi, uning orzu-umidlarini o'zida ifoda etuvchi, xalqning haq-huquqini himoya qiluvchi, uning qadr-qiyamatini yuksaltirishga undovchi haqqoniy fikrdir. Milliy g'oya xalqning o'zligini anglatuvchi, milliy tuyg'ularini uyg'otuvchi, milliy g'urur va oriyatini qo'zg'atuvchi fikrdir. Milliy g'oya xalqni uyushtiruvchi, uning qadr-qiyamatini tiklovchi, o'zligini anglatuvchi, ijodkorlik va yaratuvchanligini ro'yobga chiqaruvchi, jamiyat taraqqiyotini insonparvarlik yo'nalishiga yetaklovchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Milliy g'oya vatanparvarlikka, xalqning tarixiy xotirasiga, o'zligini anglashiga asoslanadi. Bizning milliy g'oyamiz millatning, davlatning, yurtning qadr-qiyamatini yuksaltiradi, iqtisodiy, sotsial, siyosiy va ma'naviy salohiyatini yuzaga chiqaradi, oriyat va g'ururini asraydi, istiqbolini belgilaydi, kelgusi taraqqiyot uchun yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi. Milliy g'oya o'zbek millatining o'ziga xosligi nimada ekanligini asoslab beruvchi ilmiy-nazariy va falsafiy qarashlar sistemasidir.⁵⁰

Darhaqiqat, Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ta'kidlab o'tganidek, tarix - millatning tarbiyachisidir, o'zlikni anglash - tarixni bilishdan

⁵⁰ Qarang: Tўraev Б., Раматов Ж. Миллий истиқлол ғояси: асосий хусусиятлари, фалсафий ва тарихий илдиэлари. –Тошкент: Ижод дунёси, 2002 йил.

boshlanadi, - isbot talab qilmaydigan bu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi lozim. Alohida inson xotirasida o'zining hayotida nimalar qilganligi, uning aql-zakovati va irodasi nimalarga sarflanganligi qay darajada o'rnashib qolsa, millat uchun ham u tomondan amalga oshirilgan narsalar shu darajada yaqin va qimmatlidir. Tarix - bu insoniyatning, millatning ijtimoiy xotirasi, uning o'z-o'zini bilishi va anglashidir: voqelikda yo'qolgan narsalar ongda, xotirada yashaydi. O'tmishni bilish hozirgini yaratish uchun beqiyos ahamiyatga molik. Ijtimoiy hayotni tushunishdagi birinchi qadam hozirning o'tmish tomonidan yaratilganligini tasavvur qilish bilan bog'liqdir. Milliy g'oya xalqimiz tarixiga, uning tarixiy xotirasiga tayanadi. Tarixiy xotirasidan judo bo'lgan xalq o'zini millat sifatida anglay olmaydi, millatning manfaat va ehtiyojlarini qalban xis qila olmaydi. Binobarin milliy g'oya ham ratsional, ham irratsional mohiyatga ega bo'lib, u milliy ruhiyat, kayfiyat, ichki uyushtiruvchi, yo'naltiruvchi, harakatga keltiruvchi, yetaklovchi milliy xis-tuyg'u hisoblanadi.¹

Istiqbolning yaratuvchisi hisoblangan milliy mafkura - muayyan jamiyatning tarkibidagi millatlarning o'z mustaqilligini, mustaqillik manfaatlarini himoya qilish, rivojlantirish yo'nalishidagi ichki intilishlari natijasida vujudga keluvchi tuyg'ulari, maqsadlari, hoxish-irodalarini ifodalovchi g'oyalar majmuasidir. Milliy mafkuraning o'zagini milliy g'oya tashkil etadi, u jamiyatda barqarorlik, tinchlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikni ta'minlaydi. Milliy g'oyaning asosiy tayanchi nuqtasi ham, harakatga keltiruvchi, uyg'otuvchi kuchi ham milliy o'zlikni anglashdir. Millat o'zini xalq sifatida, millat sifatida, el sifatida anglamaguncha uning obro'yi, qadr-qimmati, or-nomusi haqida qayg'urishi, milliy faxr va g'ururi uchun kurashishi mumkin emas. O'zlikni anglash xalqni g'aflatdan uyg'otuvchi, faol harakatga keltiruvchi, ijtimoiy uyushtiruvchi kuchdir.²

Darhaqiqat biz kimmiz va jahon sivilizatsiyasi tarixidagi o'rnimiz va rolimiz qanday kechgan? Biz jahon sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shgan va

¹ Qarang: Tўraev B., Ramatov Ж. Миллий истиқлол ғояси: асосий хусусиятлари, фалсафий ва тарихий илдиэлари. –Тошкент: Ижод дунёси, 2002 йил.

² Qarang: Tўраев B., Ramatov Ж. Миллий истиқлол ғояси: асосий хусусиятлари, фалсафий ва тарихий илдиэлари. –Тошкент: Ижод дунёси, 2002 йил.

qo'shib kelgan ma'rifatli millat ekanligimizni unutmaganmiz, aniqrog'i, unuttirishgan. Milliy g'urur tiklanishi shart. O'zbek tarixini umumturk tarixining bir qismi sifatida o'rganishimiz va baholashimiz, o'zbek xalqining qadim-qadimdan Turon, Turkiston deb atab kelingan ko'hna zaminning minglab yillar davomida yashab kelayotgan va o'z tarixiy takomilida o'nlab saltanatlar qurgan haqiqiy egalari ekanligini, bu Turon-Turkiston O'zbekiston qadim madaniyat beshiklaridan biri ekanligini, hozirgi zamonaviy fan va texnikaning poydevori shu yerda yaratilganligini anglamog'imiz va anglatmog'imiz zarur. "Biz kim, mulki Turon, amiri Turkistonmiz, biz kim millatlarning eng qadimi va ulug'i - turkning bosh bo'g'inimiz" - Sohibqiron Amir Temurning buyukligi zamirida ana shunday milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira yotgan bo'lsa ajab emas. Zero, milliy his-tuyg'u va mustahkam e'tiqod - insoniy va milliy kamolotning ikki qanotidir. To'maris momomiz va Alp Erto'nga bobomizdan to Abdulla Qodiriy va Ozod Sharafiddinogacha yengilmas kuch-qudrat ato etgan narsa milliy his-tuyg'u va e'tiqodiy ruhdur, desak xato qilmasmiz.

Ijtimoiy voqelikning turli sharoitlarida O'zbekistonda odil jamiyat, demokratik jamiyat haqidagi nazariyalar va ta'limotlar tarixiga oid misollarning goh unisi, goh bunisi o'z mohiyatini, ahamiyatini ko'proq namoyon qilishi mumkin. Ammo bizning nazarimizda, yuqorida ko'rib chiqqan jihatlar bugungi kunda O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyatning tarixiy-nazariy asoslari desak, mubolag'a bo'lmaydi. Binobarin, O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek: "Bugun O'zbekiston xalqi ulug' ajdodlarining an'analarini, urf-odatlarini davom ettirib, taqdirini o'z qo'lga olib, qaddini rostlab, el-yurtimizda osoyishtalik, barqarorlikni, millatlararo ahillik va fuqarolar totuvligini avaylab-asrab, yangi tarixiy sharoitda kelajagini qurmoqda, milliy davlatchilikni tiklamoqda"⁵¹.

Shu o'rinda, ulug' ajdodlarimiz yaratgan boy rang-barang ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-madaniy, meroslarining tiklanib borishi va xalqimiz

⁵¹ Каримов И.А. Биз танлаган йўл-демократик таракқиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. 11-жилд.- Тошкент: Ўзбекистон, 2003 йил, 92-бет.

hayotiga kirib borishini alohida ta'kidlamoq kerak. Ayniqsa, jahon ilm fani va tafakkuri taraqqiyoti tarixida muhim o'rin egallovchi ilmiy-falsafiy meros, turli tarixiy davrlarda, xususan, yillar mobaynida yaratilgan ma'naviy meros bilan birga, moddiy madaniyatimizning nodir namunalari ham, o'zimizga xos bo'lgan demokratik jamiyatning shakllanishida o'z o'rniga egadir. Shunday ekan biz ularni asrab-avaylashimiz kelgusi avlodlarga sog'-omon yetkazishimiz bizning muqaddas burchimizdir.

Kelajagi buyuk davlatni barpo etish jarayonida o'zining tub negizlariga asoslangan milliy g'oyalimiz O'zbekistonda demokratik jamiyatni barpo etish, milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur, qobiliyat negizida, o'z kuchi va imkoniyatlarini ishga solib, millat taraqqiyoti yo'lida jipslashib bir maqsad sari harakat qilishga zamin bo'lib xizmat qiladi.

Zotan, Milliy g'oya negizlari globallashuv jarayonida milliy urf-odatlar, qadriyatlarni saqlab qolish va jaholatga qarshi ma'rifat sifatida to'g'ri yo'l tanlashda bebaho ma'naviy meros bo'lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

Milliy g'oya negizlari, Avesto, Islom dini g'oyalari, Qur'oni karim, Hadis, o'rta asr mutafakkirlari ta'limoti, Amir Temurning davlatchilik siyosati, odil jamiyat, ma'naviy-madaniy meros, milliy o'zlikni anglash.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyat asoslarining eng qadimgi ildizlariga nimalar kiradi?.
2. "Avestoda" davlat boshqaruvi tizimi, jamiyat tarixiga oid ianday fikrlar bayon etilgan?
3. Islom dinida qanday insonparvar g'oyalar ilgari suriladi?
4. Islom dini miliy g'oyalimizning asosiy negizlaridan biri ekanligini asoslang...
5. O'rta asr Sharq mutafakkirlari ta'limotining Milliy g'oyani shakllantirishdagi roli qanday?

6. Amir Temur Markazlashgan davlat tuzishda qanday g'oyaga asoslanadi?
7. Markaziy Osiyoda mustaqil davlatchilik tizimini shakllantirilishida Amir Temurning tugan o'rni qanday?
8. Navoiy ijodida qanday g'oya ustuvor turadi?

11-§. MILLIY G'OYANING UMUMMAFKURAVIY JARAYONLAR BILAN BOG'LIQLIGI

Mafkuraviy jarayonlarning mohiyati. Mafkura shakllari haqida gap ketar ekan, ularda ilgari surilayotgan g'oyalar, maqsadlarning to'g'ri yoki noto'g'riligiga qarab ilmiy va noilmiy, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy yoki salbiy ta'sir qilishidan kelib chiqib esa, progressiv va reaksiyon mafkuralar farqlanadi.

Mafkuralarda ko'zlangan maqsadlarning ro'yobga chiqishining ehtimollik darajasiga tayanib ularning real va xayoliy (utopik), jamiyatdagi mavjud ijtimoiy munosabatlar, turmush tarzini saqlab qolish yoki uni isloh qilishga yo'naltirilganiga qarab esa konservativ va liberal ko'rinishlari ajratiladi.

Eng umumiy ma'noda "mafkuraviy jarayon" tushunchasi muayyan g'oyaviy qarashlar tizimining shakllanishi, rivojlanishi va tarqalishi bilan bog'liq bosqichlarning uzviy birligini ifodalaydi.

Mafkura tizimidagi bilimlar to'g'ri yoki noto'g'ri, progressiv yoki reaksiyon xarakterga ega bo'lishi mumkin. Mazkur bilimlarning xarakteri o'z navbatida ular asosida shakllanadigan baholarning to'g'ri yoki noto'g'riligiga zamin yaratadi. Shakllanadigan baholarda esa real yoki kutilayotgan hodisa, jarayonlarga mavjud ehtiyojlar, manfaatlardan kelib chiqib o'ziga xos munosabat ifodalanadi.

Mafkuraviy jarayonlarda maqsadlarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

G'oyaviy qarashlar doirasida belgilab olingan maqsadlarni bayon etishda istiqbolga, ertangi kunga ishonch tuyg'usini shakllantirish ham ko'zlanadi. Albatta, bunday ishonch o'z mohiyatiga ko'ra sarob bo'lishi ham

mumkin. Ammo u chuqur ilmiy asos va gumanistik mohiyatga ega bo‘lgan hamda jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari bilan hamohanglik kasb etganda kishilar xulqi va faoliyatining muhim regulyatori bo‘lib xizmat qiladi. Zero, bunday paytda ishonch kishilar qarashlaridagi barqarorlikni belgilovchi xalqa sifatida chiqadi. Ayni paytda, mavjud yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklardan cho‘chimaslikka, ularga qarshi tura olish va bartaraf etishning oqilona yo‘llarini izlashga xizmat qiladi va shu tufayli xulqdagi sobitlik, izchillik va amaliyotdagi faollikni ta’minlashga yo‘l ochadi.

O‘zbekistonda bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan zamonaviy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurilishi, hozirgi davrda jahonda kechayotgan umumbashariy jarayonlardagi ishtirokiga va ularning g‘oyaviy-mafkuraviy asoslanishiga bog‘liqdir. Shunga ko‘ra, dunyodagi g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini, ularning xalqimiz hayoti va taraqqiyotiga ta’sir xususiyatlarini tahlil qilish g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

Tarixiy tajribalarga ko‘ra, har qanday yo‘nalishdagi ijtimoiy-siyosiy jarayon g‘oyaviy-mafkuraviy munosabatlarning xarakteriga mos keladi. Ayniqsa hozirgi davrda, axborot kommunikatsiyalari, aloqa infrastrukturasi takomillashishi natijasida jamiyatga «axborot bosimi» oshgan bir sharoitda, ularning ijobiy ahamiyatga ega bo‘lishi bilan birga, mamlakatlarning mustaqil taraqqiyotiga tahdidi ham kuchaydi. I.Karimov takidlaganidek: “bugungi kunda turli eski va yangi mafkuralarning o‘zaro kurashi har qachongidan ham ko‘ra shiddatli tus olmoqda. Rang-barang, ba’zan bir-biriga zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o‘rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs-munozara doirasidan chiqib, qonli to‘qnashuvlar, ommaviy qirg‘inlarga sabab bo‘lmoqda. Odamlar boshiga behisob qayg‘u-kulfatlar solmoqda”.⁵²

G‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning globallashuvida bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki yo‘nalish, tendensiya namoyon bo‘lmoqda. Birinchidan, insoniyat sivilizatsiyasi tarixida erishgan har qanday moddiy va

⁵² Каримов И. А. Жамият мафкуриси халқни халқ, миллатни миллат қилишга хизмат этсин. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан кураимиз. Т.7. –Тошкент:Ўзбекистон, 1999 йил, 85-бет.

ma'naviy qadriyatlarning umuminsoniy jihatlari tarixiy makon doirasidan chiqib, baynalminallashib, universallashtirib bormoqda. Boshqacha aytganda, milliylik va umuminsoniylik tamoyilining integratsiyalashuv jarayoni kechmoqda. Ikkinchidan, millatlar va davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-madaniy rivojlanishidagi beqarorlik, ular manfaatlaridagi o'ziga xoslikni mutlaqlashtirish insoniyatga, shu jumladan, o'z millatining kelajagiga xavf tug'diradigan salbiy hodisalarning mafkuralashgan holda globallashtirishga olib kelmoqda. Bu xalqaro terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm va narkobiznes hodisalarida namoyon bo'lmoqda. Biron-bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda.

Bunday holatning asoslari ham, paydo bo'lish sabablari ham ko'p. Ammo, eng muhimi 70 yildan ortiqroq hukm surgan ikki ziddiyatli, bir-biriga qarama-qarshi qutblarning barham topishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. "Totalitar tuzum yemirilgandan keyin, - degan edi I. Karimov, - dunyoning qutblarga bo'linishi barham topdi. Lekin shu tufayli u xavfsizroq, barqarorroq, sobitqadamroq bo'lib qoldimi?"⁵³. Darhaqiqat, masalaning shu tarzda qo'yilishida juda katta mantiq bor. Zero, XX asr oxirida «ro'y bergan ulkan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar, ikki qutbli dunyoning barham topishi natijasida nisbiy muvozanatning buzilishi jahonning mafkuraviy manzarasini o'zgartirib yubordi»²

“Mafkuraviy kurash” tushunchasi. Ko'pgina tushunchalar kabi “mafkuraviy kurash” tushunchasi ham serqirra mazmunga ega. Eng avvalo u turli g'oyaviy qarashlar o'rtasida yuzaga keladigan va qarama-qarshilikka asoslangan munosabatni ifodalashini ta'kidlash zarur. U yangi, shakllanayotgan g'oyalar bilan o'z “vazifasini” bajarib bo'lgan mafkura, yoki uning qoldiqlari o'rtasidagi munosabat shaklida ham sodir bo'lishi mumkin.

Mafkuraviy kurash muayyan g'oyalarni singdirish jarayonini ham anglatadi.

⁵³ Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. Ўзбекистон буюк келажак сари. –Тошкент:Ўзбекистон, 1999 йил, 419-бет.

² Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. –Тошкент: Ўзбекистон, 2000 йил, 22-бет.

Mafkuraviy kurashni muxolif mafkuraviy qarashlarning har qanday ko‘rinishini yo‘q qilishga, g‘oyaviy plyuralizmni bartaraf qilishga qaratilgan harakatlardan farqlash kerak. Mazkur sifatiy holatni xarakterlash uchun mafkuraviy konfrontatsiya (fransuzcha - qarama-qarshi qo‘yish) terminini qo‘llash o‘rinlidir.

Mafkuraviy sodda qilib aytganda, mafkuraviy beqarorlik vaziyatining hosilasi hisoblanadi. Bunday beqarorlik holati keskin ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, xususan, bir tuzumdan boshqasiga o‘tish davri, muayyan hollarda tashqi ta’sir, masalan, xalqaro maydonda yakkalanib qolishi yoki harbiy harakatlar, o‘zaro urushlarda yengilish natijasida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy vaziyat natijasi bo‘lishi ham mumkin. Bir so‘z bilan aytganda, mafkuraviy beqarorlik jamiyatdagi mavjud mafkuraviy muvozanat buzilgan, ammo yangisi qaror topmagan vaziyatdagi g‘oyaviy o‘zgaruvchan holat hisoblanadi.

Hozirgi davrda g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlar globallashib, yer yuzidagi barcha mintaqa va mamlakatlarni qamrab olib, quyidagi xususiyatlarini namoyon qilmoqda, ya’ni:

Birinchidan, xalqaro miqyosda integratsiyalashish ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ma’naviy hayotning barcha sohalarini qamrab olib, milliy chegaralarni shartli qilib qo‘ymoqda.

Ikkinchidan, hozirgi davrda ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning globallashish xususiyati obyektiv jarayon bo‘lib, jamiyat hayotining hamma sohalariga istisnosiz ta’sir ko‘rsatishi bilan xarakterlanadi.

Uchinchidan, jamiyat taraqqiyotining umumiy qonuniyatlari milliy rivojlanishning modellarida differetsiyalashish jarayonlarini namoyon qilib, insoniyat taraqqiyotida umumiy qonuniyatlarni milliy darajada konkretlashtirmoqda.

To‘rtinchidan, xalqaro ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy munosabatlarning texnik-texnologik, intellektual asoslari, aloqa kommunikatsiya vositalari rivojlanishi natijasida g‘oyaviy-mafkuraviy munosabatlarning intensivlashuvi bilan xarakterlanadi.

XX-asrning oxiri – XXI-asr boshlarida dunyoda ana shu jarayonlar bilan bog‘liq jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi. Ilgari oddiy fuqarolar, hatto mutaxassislar tasavvur etolmagan hodisalar sodir bo‘lishi tufayli dunyoning siyosiy qiyofasi o‘zgarib, barcha davlatlarda ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-mafkuraviy sohalarda yangi sifat o‘zgarishlariga sabab bo‘ldi. Xususan, aloqa vositalarining rivojlanishi, ularning kompyuterlashtirilishi, elektron pochta, internet, kosmik teleradioaloqa tizimlarining texnik-texnologik vositalari kuchayib ketishi bilan axborot almashuvi, binobarin g‘oyaviy ta‘sir o‘tkazish imkoniyatlari ham tobora kengaymoqda.

Mustaqil O‘zbekistonda mafkuraviy jarayonlar rivoji. Mustaqillik va O‘zbekistondagi mafkuraviy jarayonlar rivoji haqida gap ketar ekan, eng avvalo u istiqloqlarning qo‘lga kiritilishi tufayli yuzaga kelgan yangi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning hosilasi ekanini ta‘kidlash zarur.

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti tajribalari shuni ko‘rsatmoqdaki, milliy g‘oya jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy va huquqiy munosabatlar tizimiga mutanosib shakllangandagina real kuchga aylanishi mumkin. Ijtimoiy hayot, iqtisodiy turmush, siyosat, ma‘naviyat va ma‘rifat, huquqiy munosabatlar, hech shubhasiz, g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarga ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, g‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning o‘zi ham ana shu munosabatlar tizimiga ijobiy yoki salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin.

G‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning axloq, din, san‘at bilan o‘zaro munosabatlari masalasi ham muhimdir. Milliy g‘oya va mafkura o‘zbek xalqining milliy axloqi, milliy san‘ati va madaniyatini turli “izm”lardan, vayronkor g‘oyalardan asraydigan kuch-qudrat hisoblanadi.

XIX-asrning ikkinchi yarmidan jahondagi g‘oyaviy- mafkuraviy jarayonlarda demokratik tamoyillarning shakllanib, rivojlanishi yuz bera boshladi. Demokratlashtirish, erkinlashtirish, iqtisodiyotning ochiqligi, havfsizlik muammolariga munosabatlarning bir-biriga yaqinlashuvi bugun jahondagi ko‘pchilik davlatlarning ichki va tashqi siyosatlarini belgilab bermoqda. 200 yil muqaddam jahonning hamma davlatlari avtoritar davlatlar edi. XIX-asrning oxirida jahonda 13 tagina demokratik davlat bor edi. XX -

asrning birinchi yarmida ularning soni ikki marta ortdi, 1992 yilga kelganda esa jahondagi 183 davlatning 91 tasi demokratik davlat bo'ldi, yana 35 tasi esa avtoritarizmdan demokratiyaga o'tish davrida turardi. Shu asosda umumsayyora ko'lamida axloqiy-ma'naviy masalalar va qiziqishning kuchayishi ravshanroq ayon bo'lmoqda⁵⁴.

Milliy g'oya g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarni demokratiyalashtirishni qat'iy talab qilmoqda. Demokratiyalashtirish eng avvalo jamiyat fuqarosida eski tuzum sarqitlarini bartaraf etish hamda uning yangicha fikrlash va tafakkur qilishi uchun shart-sharoit yaratishdir. Zero, "modomiki biz huquqiy demokratik davlat, erkin fuqarolik jamiyati qurayotgan ekanmiz, ma'naviyat sohasidagi yigirma birinchi asrga mo'ljallangan harakat dasturimiz ham ana shundan kelib chiqmog'i darkor. Ya'ni erkin fuqaro - ongli yashaydigan, mustaqil fikrga ega bo'lgan shaxs ma'naviyatini kamol toptirish bizning bosh milliy g'oyamiz bo'lishi zarur"⁵⁵.

G'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarni demokratiyalashtirishda mamlakatimizdagi siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarining o'rnini va ahamiyati katta. Ular mamlakat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hayotida demokratlashtirish va hayotni erkinlashtirish borasida ancha jiddiy ishlarni amalga oshirmoqdalar. Biroq, hali ularda o'z faoliyatini takomillashtirish uchun tajriba yetishmayotganligi ko'rinib qolmoqda.

Mamlakatimizda ro'y berayotgan g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarni insonparvarlashtirish masalasi ham o'ta muhim ahamiyatga molikdir. Umuman, gumanizm g'oyalari, jamiyatni insonparvarlashtirish muammosi insoniyatning eng dastlabki paytlaridanoq katta muammo sifatida kun tartibida turibdi. Insonparvarlik kishiga g'amxo'rlikni anglatadi. U odamning qadri, uning erki, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashishda, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotni ta'minlashga intilishda o'z aksini topadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbekistonning o'tmish tarixi - gumanizm g'oyalarining shakllanishi tarixi hamdir. Buyuk ajdodlarimizning ijodi va faoliyatida inson qadr-qimmatini, uni

⁵⁴ "Жаҳон адабиёти" 2003, ноябр. 116-бет.

⁵⁵ Каримов И. А. Ўз келажакимизни ўз кўлимиз билан қурмоқдамиз. Биз келажакимизни ўз кўлимиз билан қураимиз. Т.7. Тошкент: Ўзбекистон, 1999 йил, 303-бет.

hurmatlash, ularga erkin faoliyat ko'rsatish uchun shart-sharoit yaratish g'oyasi yotadi.

Dunyoning mafkuraviy manzarasi. Dunyoning mafkuraviy manzarasi deganda, jamiyat taraqqiyoti qonunlari, uning rivojlanish tendensiyalarini muayyan ijtimoiy guruh, etnik birliklar, siyosiy kuchlarning o'ziga xos manfaatlaridan kelib chiqib talqin qilish va unga asoslangan holda insoniyat istiqbolini belgilashga qaratilgan mafkuraviy tizimlar majmui tushuniladi.

Kishilik jamiyati taraqqiyotining hozirgi davrida "turli xil eski va yangi mafkuralarning o'zaro kurashi har qachongidan ham ko'ra shiddatli tus olmoqda, - deb yozadi O'zbekistonning birinchi Prezidenti I. Karimov, – rang-barang, ba'zan bir-biriga mutlaqo zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va sektalar o'rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs-munozara doirasidan chiqib to'qnashuvlar, ommaviy qirg'inlarga sabab bo'lmoqda, odamlar boshiga behisob qayg'u-kulfatlar solmoqda".

Dunyoning mafkuraviy manzarasiga xos mohiyatni chuqurroq va teranroq anglash inson ongi va qalbi uchun olib borilayotgan tinimsiz kurashning asl maqsadlarini to'g'ri tushunib yetishga, mamlakatimizdagi mavjud ijtimoiy hamkorlik, milliy birlik va hamjihatlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikka tahdid soluvchi g'oyalarning oldini olishga qaratilgan tegishli ma'rifiy ishlarni izchil va tizimli tashkil etishga xizmat qiladi.

Bugun kechaning, erta bugunning davomi bo'lganidek yaqin istiqbolda dunyoning mafkuraviy manzarasi qanday bo'lishini hozirgi kunda jahon mafkura sahnida kechayotgan ayrim jarayonlarda ham ko'rish mumkin. Xususan, ba'zi hollarda yuqorida qayd etilgan vayronkor mafkuralarning o'ziga xos omuxtalashuvi kuzatilmoqda. Bu, bir tomondan, millatchilik va irqchilik, boshqa tomondan, ashaddiy millatchilikning diniy aqidaparastlik bilan qo'shib ketayotganida yaqqol ko'rinmoqda. Buning oqibati o'laroq omuxtalashgan g'oyaviy qarashlar bilan qurollangan kuchlar o'z maqsadlari yo'lida ko'plab fojialarni keltirib chiqarayotgan terrorchilik harakatlarini sodir etmoqdalar. Natijada milliy ozodlik va diniy qadriyatlar tushunchasining

o‘zi obro‘sizlantirilmoqda, jahon afkor ommasida salbiy stereotip va qarashlarning shakllanishiga olib kelmoqda.

Ijtimoiy hayotning turli sohalarida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar mafkura jabhasidagi globallashuvni ham keltirib chiqarmoqda.

Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi deganda, g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish imkoniyatlarining kengayishi, uslub va vositalarining takomillashuvi, yangi texnik va texnologik tizimlarning yuzaga kelishi natijasida unga Yer yuzining barcha mintaqalari tortilganini, g‘oyaviy ta’sir o‘tkazish va mafkuraviy kurash umumbashariy miqyos kasb etgani tushuniladi.

Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvida bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki yo‘nalish, tendensiya namoyon bo‘lmoqda. Birinchidan, muayyan hududda yuzaga kelgan, umuminsoniy mazmunga ega qadriyatlar, ma’naviy-ma’rifiy ne’matlar o‘zi shakllangan tarixiy makon doirasidan chiqib baynalminallashib, universallashib bormoqda. Ikkinchidan, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy-madaniy rivojlanish darajasidagi turfa xillik, etnik, madaniy, konfessional, sinfiy, irqiy, hududiy, mintaqaviy yoki boshqa shakllardagi o‘ziga xosliklarni mutlaqlashtirish insoniyat istiqboliga jiddiy xavf tug‘diradigan salbiy xodisalarning mafkuralashgan holda globallashuviga olib kelmoqda. Islom Karimov ta’kidlaganidek, biron bir hudud yoki mamlakatda paydo bo‘layotgan g‘oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada odamzot ma’lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, olis-yaqin manbalardan tarqaladigan, turli mafkuraviy markazlarning bosimini doimiy ravishda sezib yashamoqda. Bu jarayonning yana biri muhim xususiyati g‘oyaviy kurashning g‘araz maqsadlar va iqtisodiy manfaatlar bilan chirmashib ketayotganidadir.

Muayyan guruh, xalq, jamiyatni mafkuraviy ta’sir doirasiga tortishga urinishlar hamma vaqt bo‘lgan. Tarixga nazar tashlasak, bu jarayon jamiyat rivojlana borishi bilan birga chuqurlashib, keng qamrovlilik kasb etib borganini ko‘ramiz. Xususan, hozirgi davrda mafkuraviy ta’sir o‘tkazish o‘zining bir qator xususiyatlari bilan ajralib turishini ko‘rish mumkin.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

Jarayon, mafkuraviy jarayon, mafkuraviy kurash, mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi, mafkuraviy manzara, dunyoning mafkuraviy manzarasi, geosiyosat, mafkuraviy poligon, tendensiya,

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. “Mafkuraviy jarayon” tushunchasining mazmun- mohiyatini tushuntiring...
2. O‘zbekiston mustiqalligi qo‘lga kiritilgandan keyin mamlakatda qanday mafkuraviy vaziyat yuzaga keldi?
3. “Dunyoning mafkuraviy manzarasi” tushunchasining mazmun - mohiyatini izohlang...
4. Inson ongi va qalbi uchun kurash qanday vositalar orqali amalga oshirilmoqda?
5. G‘oyaviy-mafkuraviy jarayonlarni demokratiyalashtirishda mamlakatimizdagi siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlarining o‘rni qanday?
6. Dunyoning mafkuraviy manzarasiga xos mohiyatni chuqurroq va teranroq anglash nimani to‘g‘ri tushunib yetishga xizmat qiladi?
7. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi qanday sodir bo‘ladi?
8. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvida qanday yo‘nalish, tendensiyalar ko‘zga tashlanadi?

12-§. MILLIY G‘OYANING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI, RIVOJLANISH MEXANIZMLARI VA VOSITALARI

Milliy g‘oyaning o‘ziga xos xususiyatlari. Milliy g‘oyaning muayyan mamlakat yoki xalq maqsadlari va taraqqiyot yo‘li bilan bog‘liqligi. Milliy g‘oyaning o‘ziga xosligini namoyon etuvchi belgi – uning e‘tiqod bilan chambarchas bog‘liqligi, shu bilan bir qatorda milliy ong mahsuli ekanligidir. Qachonki, milliy g‘oya odamlarning e‘tiqodiga aylanar ekan, u milliy ongni yanada rivojlanishiga olib keladi. Milliy ong millatni e‘tiqodiy, ma’naviy omillar asosida birlashtirib, milliy manfaatlarni anglash, ularni

amalga oshirishga asos bo'ladigan mo'tadil ruhiy omillar. Milliy ong ham o'z navbatida, milliy g'oyalarning takomillashib, rivojlanib borishga ta'sir etadi.

Milliy ong, birinchi navbatda, milliy o'zlikni anglashdir. Milliy ong mazmun jihatidan milliy g'oyadan kengroq bo'lsada, milliy g'oya uning asosiy, umumiy mohiyatini ifodalaydi. Milliy ongi mushtarak bo'lgan etnik birlik muayyan milliy g'oya atrofida birlashadi, faoliyat ko'rsatadi.

Milliy g'oya milliy ongning milliy burch va mas'uliyat bilan bevosita bog'langan holdagi ko'rinishidir. Milliy ongi zaif bo'lgan, milliy o'zligini anglamagan xalqda yetuk milliy g'oya ham bo'lmaydi. Millatning yetukligi darajasi bevosita vazifa tariqasida kun tartibida turgan muhim, mushtarak umuminsoniy manfaatlar va maqsadlar, g'oyalar nisbati tizimida o'z ifodasini topadi.

Taniqli faylasuf olim Q.Nazarovning qayd etishicha, milliy g'oya har bir millatga mansub kishilar uchun umumiy faoliyat mezonini, ularni birlashtiruvchi va muayyan maqsadga xizmat qiluvchi omil hisoblanadi. U muayyan millatning tabiiy-tariixiy rivojlanishi jarayonida, moddiy va ma'naviy hayot sharoitlari ta'siri natijasida, milliy ruh va yashash tarzi, siyosiy tuzum va ijtimoiy tizim bilan bog'liq maqsad va ideallar hamda umumiy qadriyatlar tizimi bilan tavsiflanadigan va milliy makonda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladigan g'oyalardan biridir⁵⁶.

Bir guruh faylasuf olimlar milliy g'oya o'z mohiyatiga ko'ra, xalq, millat taqdiriga daxldor bo'lgan, qisqa yoki uzoq muddatda hal etilishi kerak bo'lgan vazifalar va mo'ljallarni ham aks ettirishiga urg'u berishadi. U yoki bu g'oyaning milliy g'oya sifatida maydonga chiqishi millatning o'tmishi, mavjud holati bilan bevosita bog'liqdir. Zero, ana shu ikki negizga tayangan holdagina u millatning qisqa yoki uzoq vaqtda erishishi lozim bo'lgan maqsad – muddaolari va mo'ljallarini to'g'ri ifodalay olishi mumkin⁵⁷.

Tom ma'nodagi milliy g'oya oxir-oqibatda ozmi-ko'pmi insoniyat taqdiriga ta'sir qiladi. Shu ma'noda har qanday milliy g'oyada umuminsoniy mohiyat mavjud bo'ladi. Ammo aniq bir millat yoki umuman insoniyat

⁵⁶ Назаров Қ. Ғоялар фалсафаси. – Тошкент: Академия, 2011 йил, 95-бет.

⁵⁷ Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. – Тошкент: Академия, 2007 йил, 220-бет.

uchun ahamiyatli bo'lgan g'oyalar ham bor. Aytaylik, "milliy yarash" g'oyasi fuqarolar urushi ketayotgan davlat uchun hayotiy mazmunga ega bo'lsa, "Manfaatli hamkorlik" g'oyasi dunyoning barcha mamlakatlari uchun birdek ahamiyatlidir. Har bir xalq o'z tarixining burilish nuqtalarida, avvalo, mafkura masalasini, uning o'zagini tashkil etadigan, birlashtiruvchi yadro vazifasini o'taydigan ijtimoiy g'oyani shakllantirish muammosini hal qiladi⁵⁸.

Milliy g'oya kishilarning ongidagi o'zgarishlarning asosiy mezonini va ko'rsatkichiga aylangandagina o'zining asosiy ijtimoiy funksiyalarini bajara olishi mumkin. Bunda bir tomondan milliy g'oyaning umumiy qarashlar, xulosalar tarzida namoyon bo'lishi jarayoni bosqichlaridan o'tishi, ikkinchi tomondan demokratik jamiyatning barcha sohalarida faoliyat yurgizayotgan shaxslar g'oyaviy kamolot darajalariga ega bo'lishi zarur bo'ladi. Demokratik jamiyat shakllanishida ma'naviy-ma'rifiy va mafkuraviy jarayonlar muhim rol o'ynashi bilan bir qatorda, ijtimoiy ong shakllari, ayniqsa, mafkura, g'oya, kishilarning turmush tarzi, tafakkuri sifatida bu jarayonni bosqichma-bosqich amalga oshirishga ko'mak beradi.

Milliy g'oya – jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy kategoriyalardan biri. Ayni paytda milliy g'oya – millatni demokratiyaga, adolat va erkinlikka tayyorlovchi, safarbar etuvchi omil hamdir. O'z o'rnida demokratiya – faqat nazariya yoki siyosiy jarayongina bo'lib qolmay, shu bilan birga xalqning turmush tarzi va uning butun ruhiyati, an'analari, madaniyati, psixologiyasining xususiyatlari hamdir.

Umuman, milliy g'oya, erkin fuqaro va demokratiya - yuqori darajada rivojlangan kishilar jamiyati, insoniyat erishgan buyuk ne'mat, ko'pchilikka ma'qul yashash tarzi. Ammo uning amalga oshishi barcha mamlakatlarda bir xil emas. Har bir mamlakat demokratiyaning umumiy qadriyat va tamoyillarini o'z milliy qadriyatlari zaminida, o'z xalqining uzoq tarixi davomida shakllangan an'analari bilan qo'shib qabul qilganini bilamiz. Masalan, AQSH yoki Angliya, Frantsiya (boshqa Yevropa mamlakatlari ham) demokratik davlatlar bo'lsalar-da, lekin har biri o'z milliy ruhi, an'analari ham saqlagan. Shu kabi Yaponiya, Koreya, Malayziya kabi

⁵⁸ Milliy fo'ya: tarqibot texnologiyalari va atamalar lug'ati. – Toshkent: Akademiya, 2007 yil, 220-bet.

mamlakatlarda ham demokratik tuzum milliy va diniy e'tiqod udumlar negizida amal qilmoqda.

Milliy g'oyaning o'ziga xosligi yana shundaki, uning eng ezgu maqsadi – yetuk ma'naviyatli, ma'rifatli shaxsni tarbiyalashga yo'naltirilgan bo'ladi. Zotan, Vatanga, xalqiga muhabbatli odamgina yetuk ma'naviyatli, ma'rifatlidir. Ma'rifatli odam o'z erkini boshqalar erki bilan birga deb biladi, o'zgalarning yashash tarzi, e'tiqodi huquqini hurmat qiladi. Biroq, bu kabi ezgu fazilatlarining aksi bo'lgan “o'zim bo'lay” falsafasi milliy vatanparvarlik tuyg'usini so'ndiradi. “O'zim bo'lay” deb intiladigan odam iymon-e'tiqodni ham poymol etadi. Bunday odam harom-halol, yaxshiyomoni ham farqlamaydi, qanday bo'lmasin, qaerda bo'lmasin o'zlashtirib olsa bo'lgani, boshqasi bilan ishi yo'q. Shu boisdan ham ulug' ajdodlarimiz, mutafakkir bobolarimiz, avliyo-shayxlarimiz bu kabi g'ayri axloqiy illatlarga, jumladan, hirs va hasadga, shaytoniy nafsga berilish, bu yo'lda odamlarga jabr-zulm qilishga qarshi chiqqanlar. Xalqimiz axloqining eng yaxshi jihatlari shu bois hozir ham o'z kuchini ko'rsatmoqda. Biz tariximiz, ulug' madaniyatimiz obidalari, ma'naviy qadriyatlarni tikladik. Xalqimizning ruhiyati tiklandi. Ulug' ma'naviy merosimiz bilan faxrlanamiz, ulug' Vatan farzandlari ekanligimiz dilimizni g'ururga to'ldiradi. Buning o'ziyoq Vatanimizning buguni va kelajagi uchun qayg'urish hissini uyg'otadi. Biz chinakamiga uyg'oq xalq sifatida dunyoga boqmoqdamiz, do'stu dushmani ajratib, milliy manfaatlarimiz uchun kurashmoqdamiz.

Milliy g'oya o'ziga xosligini ifada etuvchi xususiyatlardan yana biri – uning fikrlar xilma-xilligi, plyuralizm(lotin. Plyuralist – erkinlik, xilma-xillik)ga asoslanishidir. Plyuralizm asosan jamiyatda – fikr, so'z, vijdon, e'tiqod erkinliklarini bildiruvchi tushuncha sifatida qaraladi. Jumladan O'zbekiston respublikasi Konstitutsiyasida ham bu norm qonuniy jihatdan o'zinih kafolatini topgan bo'lib, unga ko'ra “O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi” deyiladi.

Milliy g'oya O'zbekistonning umumiy va yagona Vatan ekanligini tushunish, davlat tilini o'rganish, hurmat qilish hissining uyg'unligi,

istiqlolga sodiqlik, mustaqillikni mustahkamlash va milliy mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga o'z hissasini qo'shishiga intilish kabilarning mohiyati va mazmunini tashkil etadigan jihatlarini o'zida aks ettiradi. Shu bilan birga, unda kishilarning madaniy-milliy merosni asrab avaylash, jamiyatning madaniy-iqtisodiy kamolotiga intilish, millatparastlik va millatchilikka qarshi kurash, etnik munosabatlarda umuminsoniylikning ustuvorligi kabi tuyg'u va maqsadlar ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, milliy manfaatlar, ehtiyojlarning umumiy maqsadlarga bo'ysundirilganligi, milliy g'urur, milliy o'zlikni anglash jarayonlarining mamlakatning pirovard maqsadlarga xizmat qilishga yo'naltirilganligi, siyosiy institutlar, partiyalar, jamoat tashkilotlari hamkorligi, diniy qavmlarning o'zaro hamjihatligi milliy g'oyaning rivoji va ko'zlangan maqsadlarga erishishda muhim ahamiyatga ega.

Milliy g'oya tamoyillari ijtimoiy hayotdagi o'zgarishlar, islohotlar bilan hamohang uyg'unligi, kishilar ongida ijtimoiy o'zgarishlarning obyektiv inikosi tarzida vujudga kelishi, aholining mutlaq ko'pchiligi uchun zaruriy iqtisodiy ma'naviy ehtiyojga aylanishi, ijtimoiy ong, ya'ni psixologik va mafkuraviy tuyg'ularning uyg'unligi sifatida namoyon bo'ladi.

Bu tamoyillar jamiyat qarshisida ko'ndalang bo'lib qolgan muammolarning yechimlarini o'zida aks ettiradi hamda ularni hal etish uchun jamiyat a'zolarini birlashtirishga xizmat qiladi. Mustaqillikni mustahkamlash va ijtimoiy barqarorlikning muttasilligi hamda davomiyligini ta'minlash uchun, jamiyatning barcha qatlamlarini umummanfaat uchun jipslashtiradi. Fuqarolarning hamkorligini yangi darajaga ko'tarish omiliga aylanadi hamda milliy-etnik birliklar va diniy qavmlarning siyosiy hayotda muayyan partiya vakili tarzida emas, balki mamlakatning Konstitusiyasida belgilab qo'yilgan tenglik tamoyili asosida, fuqaro sifatida ishtirok etishi uchun ma'naviy shart-sharoitlarning vujudga kelishiga yordam beradi.

Milliy g'oyani rivojlantirish tushunchasi, ma'no-mazmuni, milliy g'oya rivojlanishining ong va tafakkur, turli xil omillar bilan bog'liqligi. Jamiyatda olib borilayotgan islohotlar va o'zgarishlarning asosiy maqsadi bo'lgan demokratik davlat, huquqiy jamiyat, qonunning ustuvorligini

ta'minlash uchun xizmat qiladi. Shunga ko'ra, xalqimiz va mamlakatimizning bugungi va kelgusi taraqqiyotini ta'minlashda mustaqillik yillari shakllanib, rivojlanayotgan milliy g'oya muhim o'rin tutadi.

Milliy g'oyani rivojlantirish deganda uning jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy kategoriyalardan biri ekanligini hisobga olgan holda, milli g'oyani rivojlantiruvchi barcha asoslar, omillar, usul va vositalarni aniqlash, ularni axloq normalari bilan umumlashtirgan holda bugungi davr milliy g'oyasining asosiy tamoyillarini yaratish va jamiyat a'zolarini, ayniqsa, o'sib kelayotga yosh avlodni shu tamoyillar asosida birlashtirish va tarbiyalash bilan bog'liq jarayonlar tushuniladi. Bu jarayonlarda milliy g'oyani rivojlantirishga mo'ljallangan ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni jamiyatning barcha qatlamlariga, jumladan, oila va yoshlar, ularning ta'lim-tarbiya jarayonlariga tadbiq etish, milliy qadriyatlarni saqlab qolish va shu asosda targ'ibot ishlarini olib borish hamda yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, milliy an'ana va urf-odatlarini o'zida mujassamlashtirgan ma'naviy munosabatlarni shakllantirish, shuningdek, jamiyatda oila institutini mustahkamlash hamda unda ma'naviy muloqotni ta'minlash tamoyillari bilan uzviy bog'liqlikda olib borish kabi vazifalar ko'zda tutiladi. Bu ishlarni tadrijiy, uzluksiz ravishda bajarib borish mamlakatimizni taraqqiyotning yangi bosqichida o'z oldiga qo'ygan ulkan maqsadlarni izchillik bilan amalga oshirishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Insoniyat tarixining ko'p asrlik tajribasi ezgu g'oyalardan va sog'lom mafkuradan mahrum biron bir jamiyatning rivojlana olmasligini ko'rsatdi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy zaruriyat sifatida yuzaga kelgan milliy g'oyada ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot barpo etish, rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olish, demokratik jamiyat qurish kabi ezgu maqsadlar aks etgan.

Bu esa, kelajakni yaqqol tasavvur etish, barpo etilayotgan huquqiy demokratik jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy poydevorini mustahkamlash, yot mafkuralar tajovuziga qarshi tura oladigan, har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish va nihoyat yurtning yuksak taraqqiyotini ta'minlash uchun milliy mafkurani shakllantirish ehtiyojini yuzaga keltirdi.

Ya'ni mustaqillikka erishishi bilan respublikamizdagi sobiq ittifoq hayotining so'nggi yillarida bo'linib ketgan ijtimoiy kuchlar, guruhlar, etnik va boshqa birliklarning hamjihatligini ta'minlash zaruriyati paydo bo'ldi. Chunki masala faqatgina mustaqillikka erishishdan iborat emas edi. Bunda hayotning hamma sohalarida tub islohotlar va o'zgarishlarni amalga oshirish nihoyatda muhim vazifa hamda davr ehtiyojiga aylandi. Ana shu sababdan ham, O'zbekiston mustaqillik e'lon qilinganining eng boshidanoq ijtimoiy masalalarni qamrab oluvchi chuqur o'zgarishlarni amalga oshirish, rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olish, demokratik jamiyat qurish kabi ezgu maqsadlarni qo'ydiki, bu esa jamiyatimizning ijtimoiy ma'naviy poydevorini mustahkamlash, ta'kidlab o'tganimizdek, yot mafkuralar tajovuziga qarshi tura oladigan, jamiyat a'zolarida mustahkam e'tiqodni shakllantirib, ularni yanada jipslashtirib, mamlakat fuqarolarining o'zaro totuv, do'st va inoq bo'lib yashashiga, o'z manfaatlarini Vatan manfaatlari bilan uyg'unlashtirishga chorlaydigan, har tomonlama barkamol insonlarni voyaga yetkazish, g'oyaviy bo'shliq bo'lishiga yo'l qo'ymaslik va nihoyat, yurtning yuksak taraqqiyotini ta'minlash uchun milliy g'oyani shakllantirish ehtiyojini yuzaga keltirdi.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritganidan keyingi yillarda o'ziga xos sharqona demokratik jamiyatni shakllantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab oldi. Ana shunday yunalishlardan biri bu, komil insonni tarbiyalab yetishtirish, uning ma'naviy-ma'rifiy va ahloqiy fazilatlarini shakllantirishdir. Zero, yetuk shaxslar komil inson mamlakatimizda shakllanayotgan demokratik jamiyatning takomili demakdir. Buning uchun esa, avvalo, Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtiga muhabbat istiqloлга sadoqat to'yg'ularini chuqur singdirish masalasi bugungi kunda tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda⁵⁹. Demak, O'zbekistonda yuzaga kelgan demokratik jarayonlar, xalqaro mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan hozirgi murakkab davrda yurtdoshlarimizning mazkur jarayonga ma'suliyat bilan ongli munosabatini shakllantirish, tinch-osoyishta kechayotgan demokratik

⁵⁹ Халқ сўзи, 2006 йил, 26 август.

islohotlarga to‘siq bo‘layotgan va unga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish uchun milliy g‘oyalarimizni kishlar qalib va ongiga singdirish, mafkuraviy immunitetni shakllantirish davr taqozosidir.

Binobarin, demokratik jamiyat barpo etish jarayoni milliy g‘oyaning shakllanishi bilan uzviy bog‘liqligi hamda, dialektik aloqadorligi namoyon bo‘ladi. Har qanday davrning o‘z g‘oyasi bo‘lgani kabi, milliy g‘oya shu davrning asosiy vazifasi va maqsadini aks ettiradi. Agar, demokratik jamiyatni barpo etishda milliy g‘oya ikkinchi darajali maqsad va vazifalar tarzida targ‘ib etilsa, bu asosiy jarayonlarga nafaqat halaqit beradi, balki o‘zgarishlarning to‘g‘ri amalga oshmasligiga olib keladi.

Milliy g‘oya rivojlantirishning asosiy omillari tizimida muhim o‘rin tutuvchi demokratik jamiyat qurish tamoyillari davlat, mamlakat hamda fuqarolarni kelajakka da‘vat qiladigan ma‘naviy ehtiyoj, taraqqiyotga undaydigan omillardan biri tarzida yuzaga keladi, kishilarni boshqarish vazifasini bajarayotgan siyosiy partiyalar, rahbar shaxslar aql-zakovati hamda salohiyatini o‘zida ifodalaydi. Shu bilan birga, Respublikamizning turli mintaqalarida yashaydigan aholi o‘rtasida mahalliychilik, qarindosh-urug‘chilik kabi subyektiv hissiyotlarning ustuvor bo‘lib ketmasligiga, xilma-xil intilish hamda harakatlarni umumxalq va yagona vatan manfaatlari yo‘lida uyg‘unlashtirishga imkon yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 8-sentyabrdagi “Mahalla” xayriya jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi farmoni e‘lon qilinishi, ayni paytda jamiyatimizni milliy g‘oya atrofida jipslashtirishda zarur bo‘lgan jabhani hayotga tadbiq etish bo‘ldi. Binobarin, bugungi kunda o‘z-o‘zini boshqarishga asoslangan mahalla fuqarolik yig‘inlari mustahkam uyushma sifatida samarali faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Zero, “oila sog‘lom va mustahkam bo‘lsa, mahalla tinch va hamjihat, agar mahalla mustahkam bo‘lsa, davlat osoyishta va barqaror bo‘ladi”⁶⁰.

⁶⁰ Каримов И.А. Оила фаровонлиги-миллат фаровонлиги Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлидан. 6-жилд -Тошкент: Ўзбекистон, 1998 йил,400-бет.

Milliy g'oyaning rivojlanish mexanizmlari – milliy ma'naviy meros, urf-odat, an'analar va qadriyatlar. Milliy ma'naviy meros, urf-odat, an'analar va qadriyatlar – milliy g'oyani rivojlantiruvchi eng muhim mexanizmlar hisoblanadi. Ayni paytda milliy g'oyaning tayanch negizlarini tashkil etuvchi mazkur mexanizmlarning mazmun va mohiyatini chuqur organish, tahlil va tadqiq etish hozirgi davrda ilmiy-nazariy, amaliy ahamiyatga ega.

Jumladan, milliy g'oyani rivojlantirishning muhim mexanizmlaridan biri – xalqning asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan ma'naviy merosi hisoblanadi. Ma'naviy meros qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz, otabobolarimizdan bizgacha yetib kelgan ma'naviy boyliklar – siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq – odob me'yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san'at asarlari majmuidir. Ma'naviy qadriyatlar, boyliklar inqilobiy yo'l bilan hosil qilinadigan hodisa emas, u jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi va o'sha davr hayotini aks ettiradi, u jamiyat o'zgarishi bilan yo'qolib ketmaydi, keyingi avlodlar uchun meros bo'lib qoladi. Har bir avlod ma'naviyatni yangidan yaratmaydi, balki mavjud ma'naviy merosga tayanadi. Biroq uni qanday bo'lsa shundayligicha, ko'r-ko'rona qabul qilavermaydi, taraqqiyparvarlik, insonparvarlik, adolat nuqtai nazaridan qabul qiladi va rivojlantiradi.

Milliy g'oyani rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etuvchi mexanizmlardan yana biri – urf-odatlardir.

Urf-odat – kishilarning turmushiga singib ketgan, ma'lum muddatda takrorlanib turuvchi xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari, ko'nikmasidir. Masalan, kichiklarning kattalarga salom berishi, uy-hovlini tartibga keltirib qo'yish, mehmonlarga alohida hurmat ko'rsatish, bayram arafasida kekxa, qariyalar, kasal, ojiz, qiynalgan kishilar holidan xabar olish qo'ni-qo'shnilarning biror ishiga yordam berish, hasharga borish kabilar o'zbek xalqiga xos yaxshi odatlar hisoblanadi. “Odat” degan tushuncha psixologiyada ham mavjud bo'lib, u ma'lum sharoit ta'sirida vujudga kelib, kishining fe'l-atvorida mustahkamlanib qolgan va keyinchalik o'z-o'zidan beixtiyor bajariladigan harakat ma'nosini bildiradi.

Milliy g‘oyani rivojlantirishda ann’analar ham muhim o‘rin tutadi. An‘ana ijtimoiy hayot, mehnat, madaniyatning barcha sohalariga xos hodisa sifatida juda keng doirani qamrab oladi. Muayyan bir jamoaning turmush tarzi, xatti-harakati, xulq-atvori, muloqoti va oilaviy munosabatlarida namoyon bo‘ladi.

Qayd etilganidek, milliy g‘oyani rivojlantiruvchi eng muhim mexanizmlardan yana biri xalqning asrlar davomida sayqallanib, rivojlanib kelayotgan qadriyatlar hisoblanadi. Aslida qadriyat voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma‘naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha hisoblanadi. Qadriyatlar o‘zi nima degan savolga ilmiy adabiyotlarda turlicha qarash va yondashuvdagi javoblarni topish mumkin. Jumladan, falsafaga oid qomusiy lug‘atlarda bu tushunchaga “voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma‘naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan falsafiy-sotsiologik va aksiologik tushuncha”⁶¹ deb ta‘rif bersalar, yana bir boshqa manbada “qadriyatlar muayyan jamiyat yoki sinfga mansub kishilar turmushi va madaniyatining haqiqiy yoki ideal ne‘matlari bo‘lgan tabiat va jamiyat hodisalarining mohiyati (yoki hodisaning bir jihati)dir. Bu ne‘matlarning qadriyatlar deyilishiga sabab – kishilar ularni qadrlaydilar, chunki bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi. Shuning uchun ham kishilar o‘z tasarruflaridagi qadriyatlarni himoya qiladilar va o‘zlari uchun maqsad yoki ideal bo‘lgan qadriyatlarni amalga oshirishga intiladilar”⁶² deb e‘tirof etilganini ko‘rishimiz mumkin.

Qadriyatlar ijtimoiy xususiyatga ega bo‘lib, bir necha turlarga bo‘linadi. Masalan, tabiiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, moddiy, ma‘naviy, axloqiy, diniy qadriyatlar shular jumlasidandir. Sanab o‘tilganlar ichida milliy g‘oyani rivojlantirishda mukammal darajada shakllangan axloqiy qadriyatlarning o‘rni beqiyosdir. Sababi, axloqiy qadriyatlar halollik, poklik, o‘zaro yordam, adolatlilik, haqiqatgo‘ylik, ezgulik, tinchlik, shaxs erkinligi, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi bir qator yuksak

⁶¹ Фалсафа. Қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2004 йил, 476-бет.

⁶² Тугаринов В.П. О ценностях жизни и культуры – Ленинград: ЛГУ, 1960,стр. 3.

umuminsoniy fazilatlarni qamrab oladi. Aynan shu fazilatlarni mujassamlashtirgan xalq vakillari yaxshilik, burch, vijdon, or-nomus, sabr, farosat, kamtarlik, andisha kabi axloqning o'ziga xos o'lchamlarini o'zida namoyon etadi va shu bilan birgalikda millat, xalq va yurt taqdiriga daxldor tushuncha milliy g'oyani rivojlantirishda o'zining munosib hissasini qo'shadi.

Qadriyatlar ichida ma'naviy qadriyatlar ham inson ijtimoiy mohiyatini belgilashda muhim ahamiyatga egadir. Ma'naviy qadriyatlarga yuksak axloq, imon, e'tiqod, insof-diyonat, yaxshi xulq-atvorni targ'ibot qiluvchi boy ma'naviy merosimiz, urf – odatlarimiz, an'analarimiz kiradi⁶³. Shu ma'noda ma'naviy qadriyat tushunchasi milliy g'oyani rivojlantirishning ijtimoiy-axloqiy masalalari tarkibiga kiruvchi miliy an'ana va urf-odatlarni o'zida mujassamlashtirgan ma'naviy munosabatlarni shakllantirish tamoyili bilan chambarchas bog'liqdir.

Milliy qadriyatlarni saqlab qolish hamda yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, shuningdek, milliy an'ana va urf-odatlarni o'zida mujassamlashtirgan ma'naviy munosabatlarni shakllantirish tamoyillarining vujudga kelish ilk makoni – bu, shubhasiz, oiladir. Zero, oila avlodlararo aloqa muhiti demakdir.

Oila jamiyatning asosiy bog'ini. Oilaning mustahkamligi bevosita jamiyatning mustahkamligiga daxldor tushuncha. O'zbek xalqining yirik ma'rifatparvar olimi Abdurauf Fitrat o'zining “Oila yoki boshqarish tartiblari” nomli asarida bu haqda quyidagi fikrlarni bildirib o'tgan: Dunyoda izzat va saodat tolibi bo'lmagan birorta qavm yo'q. Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog'liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi. Qayerda oila munosabati kuchli intizom va tartibga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi. Agarda bir mamlakatning aholisi axloqsizlik va johillik bilan oilaviy munosabatlarini zaiflashtirib yuborsa va

⁶³ Yusubov D.A., Saitxodjayev X.B., Mavlyanov A.A. Falsafa. –Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 2012 yil, 240-bet.

intizomsizlikka yo‘l qoysa, shunda bu millatning saodati va hayoti shubha ostida qoladi⁶⁴.

Aslida ham har bir jamiyatning betakror qadriyatlari, o‘lmas merosi, avloddan-avlodga o‘tib boradigan an’analarining saqlanib kelayotganligi ham oila tufaylidir.

Xullas, muayyan ijtimoiy-siyosiy muhitda milliy g‘oyani rivojlantirish uchun yuqorida sanab o‘tilgan omillarning barchasini e‘tiborga olish, qayd etib o‘tilgan mexanizmlarning samaradorligini oshirish zarur. Boshqacha aytganda, bufunji davr – inson va jamiyat manfaatlarini to‘la-to‘kis ifoda etibgina qolmasdan, ularning ong va tafakkuri, dunyoqarashi, turmush tarzini rivojlantirishga xizmat qiluvchi yetuk g‘oyani ilmiy-nazariy asosga qo‘yish va takomillashtirib borishni taqozo qilmoqda.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

Milliy g‘oya, milliy ong, milliy o‘zlikni anglash, milliy birdamlik, milliy g‘oyaning xususiyatlari, milliy g‘oya tamoyillari, demokratik jamiyat, mexanizm, milliy g‘oyani rivojlantirish mexanizmlari, meros, ma’naviy meros, urf-odat, an’ana, qadriyat.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Milliy g‘oya va milliy ong deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy g‘oyaning muhim jihatlari nimalarda aks etadi?
3. Milliy g‘oya qanday maqsadlarni amalga oshiradi?
4. Milliy g‘oya qanday tamoyillarga asoslanadi?
5. Demokratik jamiyat shakllanishida milliy g‘oyaning o‘rni qanday?
6. Milliy g‘oyani rivojlantirish mexanizmlariga misollar keltiring...
7. Ma’naviy meros, urf-odat, an’ana, qadriyat tushunchalarining mohiyatini izohlab bering...
8. Milliy qadriyatlarni saqlab qolish hamda yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda oilaning o‘rni qanday?

⁶⁴ Abdurauf Fitrat. Oila yokki boshqarish tartiblari – Toshkent: Cho‘lpon, 2013-yil, 6-bet.

13-§. MILLIY G‘OYADA MA’NAVIY VA MODDIY HAYOT UYG‘UNLIGI

Ma’naviy va moddiy hayot tushunchalari ma’no mazmuni. Milliy g‘oyaning ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligiga asoslanishi. Ma’lumki, ma’naviyat jamiyat hayotida iqtisodiyot bilan birga shakllanmog‘i lozim. O‘zbekistonning birinchi Prezidenti I.A. Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobida ta’kidlaganidek, moddiy va ma’naviy hayot tamoyillari bir-birini inkor etmaydi, aksincha, o‘zaro bog‘lanib, bir-birini to‘ldiradi. Yuksak taraqqiyotga erishishni orzu qiladigan har bir inson va jamiyat o‘z hayotini aynan ana shunday dealiktik va uzviy bog‘liqlik asosida qurgan va rivojlantirgan taqdirdagina ijobiy natijalarga erisha oladi⁶⁵.

Kishilik jamiyati o‘ta murakkab, rang-barang, ziddiyatlarga boy. Unda milliardlab insonlar, minglab tillarda so‘zlashuvchi xalqlar yashaydi. Ularning ba’zilari zamonaviy taraqqiyotning eng yuksak cho‘qqilarini zabt etgan. Ba’zilari ancha qashshoq kun kechiradi, ta’lim, tibbiyot, san’at, ilm-fan, madaniyat yutuqlaridan yetarlicha foydalanish imkoniyatiga ega emas. Hatto yer yuzining turli burchaqlarida haligacha ibtidoiy munosabatlarni boshdan kechirayotgan urug‘-jamoalar, qabilalar uchraydi. Lekin jamiyat tarixiy taraqqiyotning barcha bosqichlarida o‘zining birlamchi mohiyatli belgilarini, xususiyatlarini saqlab qoladi. Bu, eng avvalo, uning yagona ijtimoiy organizm (vujud) ekanligidir. Biologik vujud a’zolarini bir-biridan ajratish mumkin bo‘lmaganidek, jamiyatni tashkil etuvchi tuzilmalarni ham bir-biridan ajratish imkonsiz.

Jamiyat tuzilmalarini shartli ravishda ikki guruhga va har bir guruhni, o‘z navbatida, bir necha kichik guruhlarga bo‘lish mumkin. Jamiyat uyg‘un rivojlanishi uchun ularning har ikkisiga birday e’tibor berish lozim. Birinchi guruhga - moddiy-iqtisodiy yaratuvchilik tuzilmalari va institutlari, ularning muammolari va vazifalari kiradi. Odamlar o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi axloqiy, huquqiy, falsafiy, diniy, siyosiy g‘oyalar, baholar, qoidalar, meyorlar, qonunlar, odamlarning go‘zallikka, zavq-shavqqa bo‘lgan ehtiyojlarini kondiruvchi adabiyot va san’at hamda tabiat va koinot, jamiyat

⁶⁵ Qarang: Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008 йил, 68-69-бетлар.

va inson to'g'risidagi bilimlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondiruvchi ilm-fan mavjud. Ular ikkinchi guruh tarkibiga kiradi. Ular ijod natijalari bo'lib, ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlar tizimi hisoblanadi. Aynan tafakkur va aqliy mehnat mahsulotlari - tushunchalar, g'oyalar, qoidalar, meyorlar, nazariyalar, ular asosida vujudga kelgan ijtimoiy ong **shakllari** - falsafa, axloq, huquq, san'at, ilm-fan, din, mafkura, siyosiy ong jamiyatning ma'naviy hayotini tashkil qiladi. Ayrim olimlar siyosatni, iqtisodiyot va ma'naviyat qatorida, jamiyat hayotining alohida uchinchi sohasi, deb hisoblaydilar. Bunday yondashuv ijtimoiy- siyosiy hayotning muxtoriyligidan kelib chiqadi. Ushbu yondashuvni qabul qilish xato bo'lmaydi. Biroq siyosiy ong va siyosiy madaniyat ma'naviyatning bir qismi bo'lib qolaveradi.

Odamlar o'z farzandlariga ishlab chiqarish ko'nikmalari qatorida boshqalar bilan birga yashashni, muomala qilishni, o'zaro munosabatlarni tartibga soluvchi qoidalarni, meyorlarni o'rgatadi. Mazkur jarayon dastlab ibtidoiy tuzumda oilaviy tarbiya, jamoaviy, qabilaviy e'tiqodlar (siginishlar, dinlar), xalq ogzaki va amaliy san'ati va ijodi namunalari (raqslar, qo'shiqlar, dostonlar, makollar va h.k.) orqali amalga oshirilgan. Aqliy mehnat jismoniy mehnatdak ajralib chiqqanidan keyin asta-sekin maxsus maktablar, tarbiya maskanlari, diniy tashkilotlar, ya'ni ta'lim-tarbiya va mafkura tizimi vujudga kelgan. Ular jamiyat ma'naviy hayotining ajralmas qismiga aylangan.

Madaniyatni moddiy va ma'naviy madaniyatlarga bo'lish ilmiy an'anadir. Ammo olimlar orasida ijtimoiy- siyosiy madaniyatni uchinchi alohida qism sifatida ajratishni taqlif qilayotganlar bor. Bunday nuqtai nazar ma'lum darajada jamiyat hayotini alohida sohalarga bo'lishga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Siyosat jamiyat hayotining alohida sohasi hisoblanadi. Masalan, nemis sotsiologi va faylasufi Erix Fromm jamiyat hayotini ma'naviyat, siyosat va iqtisodiyotga bo'ladi. Biz uchinchi soha sifatida tor mazmundagi siyosatni emas, kengroq ijtimoiy-siyosiy sohani olamiz. O'z navbatida, siyosiy sohani ikki nisbatan farqlanuvchi mustaqil sohalarga - fuqarolik jamiyatiga (jamoat, nodavlat notijorat tashkilotlariga, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga) va oshkora rasmiy hokimiyatga, ya'ni davlat hokimiyati tuzilmalariga bo'lish tarafdorlari

bor. Ba'zan ular tegishlicha ijtimoiy-siyosiy soha va oshkora hokimiyat (publichnaya vlast) deb ham ataladi. Biz jamiyat hayotini uch sohaga bo'lib qaraymiz: iqtisodiyot, ma'naviyat va ijtimoiy-siyosiy soha. Jamiyatda o'zaro ajralib turadigan turli sohalar mavjud. Masalan, iqtisodiyot, madaniyat, ta'lim, sog'likni saqlash, ilm-fan, ijtimoiy ta'minot, sport va sh.k. Aslini olganda ular xalq xo'jaligining (iqtisodiyotning) alohida zaruriy yoki ijtimoiy tarmoqlari hisoblanadi. Ularning faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun tegishli mablag' ajratiladi, investitsiyalar kiritiladi. Ular ishlab chiqarishning zamonaviy jamiyatdagi alohida turlaridir. Masalan, ta'lim qadrlarni, mutaxassislarni tayyorlaydi (ishlab chiqaradi). Ammo siyosat va ma'naviyat (sof ma'naviyat - ma'naviy ong, iroda, adabiyot va san'at, urfodatlar) jamiyat hayotining shunday sohalaridirki, ular bevosita xalq xo'jaligining tarmoqlarini tashkil etmaydi. Shu sababdan ko'p hollarda ijtimoiy-iqtisodiy soha degan atama keng tarkalgan. Xuddi shunday ijtimoiy-siyosiy soha, degan atama ham qo'llaniladi. Bunda zor mazmundagi davlat boshqaruv siyosatidan tashqari, davlatning va jamiyatning madaniy-maishiy munosabatlari, ta'lim, sog'liqni saqlash, sport va h.k.lar nazarda tutiladi. Ta'lim, ilm-fan, din, adabiyot va san'at, axloq ma'naviyat tarkibida ko'rilgani uchun biz faqat siyosat, iqtisodiyotning ijtimoiy jihatlari, urfodatlar bilan cheklanamiz. Siyosat, birinchi navbatda, bu jamiyatni boshqarishdir. To'g'ri iqtisodiy siyosat olib borilsa, iqtisodiyot yuksaladi, noto'g'ri olib borilsa, tanazzulga uchraydi.

Shuningdek, har bir yuksalishning zamirida farovonlik tushunchasi yotadi. Ya'ni, biror bir davlat chinakkam ma'noda rivojlangan mamlakatlar qatoridan o'rin olishi, iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy jihatdan baquvvat bo'lishi uchun avvalo mazkur davlat fuqarolarining turmush darajasi ko'tarilib, to'kis va farovon yashashlari ta'min etilgan bo'lishi kerak. Shuning uchun ham "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir – dedi mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2021 yil 19 yanvar kuni ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga bag'ishlangan videosektor yig'ilishida. – Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga

tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”⁶⁶.

Chindan ham fuqarolarning baxt saodatga erishuvida ma’naviy yetuklik va iqtisodiy farovonlik tarozining teng pallasida turuvchi omillardan hisoblanadi. Bir so‘z bilan aytganda, xalq va davlatning boyligi uning xalqaro miqyosdagi mavqeini ham shak-shubhasiz belgilab beradi.

Moddiy ehtiyojlarni insonning ruhiy olamiga qarama-qarshi qo‘yish, ularning biriga ustunlik berishning samarasizligi. Jamiyatda nosog‘lom muhitning shakllanishiga ta’sir etuvchi eng muhim omillardan biri – moddiy ehtiyojlarni insonning ruhiy olamiga qarama-qarshi qo‘yishdir. Shu bois ham O‘zbekiston mustaqilligining ilk yillaridanoq Prezident Islom Karimov iqtisodiy va ma’naviy omillar uyg‘un bo‘lishi masalasiga alohida e’tibor qaratgandi. Xususan, XX-asrning 90-yillarida mamlakatning birinchi Prezidenti bu masalani chuqur anglarkan, “Bozor iqtisodiyoti deb, inson ma’naviyatini unutish gunoh bo‘ladi. Nuqul pul va foyda ketidan quvsak-da, ammo odamlarimiz ruhan qashshoq bo‘lib qolishsa – bunday jamiyatning hech kimga keragi yo‘q”,⁶⁷ – deya alohida ta’kidlagandi. Bu o‘tkir haqiqatni o‘sha vaqtda ko‘pchilik yetarli darajada idrok qilib ololmagandi. Vaholanki, mohiyatan o‘ylab qaraganda ham:

birinchidan, iqtisodiy va ma’naviy omillar o‘zaro uyg‘un bo‘ladi;

ikkinchidan, iqtisodiy yoki ma’naviy omilning birortasi oqsasa, albatta inson va jamiyat tanazzulga yuz tutadi;

uchinchidan, ayniqsa bozor iqtisodiyoti sharoitida bu uyg‘unlik dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Misollarga murojaat etaylik.

Birinchi misol. XX-asrda sobiq SHo‘ro jamiyatida odamlarning kundalik oziq-ovqat iste’molini qondirishga alohida e’tibor qaratildi. Odamlarning ma’naviy, ruhiy dunyosi esa ishlab chiqilgan qoliplar vositasida boshqarildi. Natijada qorni to‘yib qolgach, odamlar qolgan nonni mollarga

⁶⁶ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент.: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021 йил, 127-бет.

⁶⁷ Каримов И.А. Истиклол йўли: муаммолар ва режалар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992 йил, 23 - бет.

bera boshladi. Jamiyatning fikru-zikri iste'mol tovarlari ishlab chiqarish bilan band bo'lib qoldi. Oqibati nima bo'ldi? Avvalo odamlar ma'naviy tubanlikka uchradi, keyin jamiyat ichdan chiriy boshladi. Pirovardida qonxo'rga aylangan tuzum o'z-o'zidan quladi. Biror kimsa yetmish yil davomida urho-ur bilan qilingan mehnatga achinmadi. Nega? Chunki faqat yeyish-ichishga asoslangan jamiyatning hech kimga keragi bo'lmay qolgandi.

Ikkinchi misol. Yana XX asrning o'zida tanganing u tomonida ham qiziq voqea ro'y berayotgan edi. G'arb olamida "avval boy bo'l, keyin miyangni to'ldirasan" prinsipi amalga oshirilayotgandi. Odamlar boyluk orttirish uchun hech narsadan tap tortmasdi. Inson ma'naviyati esa cho'ldagi sarob holiga tushgandi. Oqibati nima bo'ldi? G'arb jamiyatida naslsizlik, shahvoniyat, keksayib qolgan ota-onani "qariyalar uyi"ga topshirish, nikohsiz yashash udum tusini oldi. Natijada G'arb jamiyati ma'naviy inqirozga uchradi va bu hamon davom etmoqda.

Uchinchi misol. O'zbekiston mustaqillikka erishgach Prezident Islom Karimov tomonidan iqtisodiy va ma'naviy omillarning uyg'unligi siyosati qat'iy yuritila boshladi. XX-asrning 90-yillari boshida bu ko'pchilikni ajablantirdi. Pana-pastqam joylardan ba'zilar "iqtisodiyotni avval tiklab olish kerak", deya gap sota boshlashdi.

Iqtisodiyot va ma'naviyatga teng e'tibor qaratilishi natijasida mustaqillik yillarida O'zbekistonda quyidagi muvaffaqiyatlarga erishildi:

birinchidan, jamiyatda iqtisodiy va ma'naviy omilni uyg'un qabul qilish immuniteti shakllandi;

ikkinchidan, iqtisodiy va ma'naviy uyg'unlikdagi mustahkam baza yaratildi;

uchinchidan, inson va jamiyat hayotida iqtisodiy va ma'naviy omillarning uyg'unligi zarurat ekanligi milliy tajribadan o'tdi.

Keltirilgan misollardan ma'lum bo'ladiki, iqtisodiy va ma'naviy omillarning uyg'unligi dialektik zaruratdir. Shu ma'noda quyidagi ikki jihatga diqqat qilish lozim:

1. Iqtisodiy omil ustuvor bo'lib, ma'naviy omil ikkinchi darajada bo'lsa:
 - insonning ma'naviy-ruhiy dunyosi qashshoqlashadi;

- jamiyatda ijtimoiy muhit muvozanati buziladi;
- davlatning byurokratik roli oshadi;
- xalq ongida bir yoqlama fikrlar, qarashlar va tushunchalar shakllanadi;
- istiqbolli rivojlanish shubha ostida qoladi va h.k.

2. Ma'naviy omil ustuvor bo'lib, iqtisodiy omil ikkinchi darajada bo'lsa:

- insonning turmush farovonligi kutilgan darajada bo'lmaydi;
- jamiyatda iqtisodiy-moddiy manfaatdorlik susayadi;
- davlatning qudratiga bo'lgan ishonch yo'qoladi;
- xalqning ertangi kunga bo'lgan ishonchi va orzusi bir yoqlama tus

oladi;

- tadbirkorlik, tashabbuskorlik va optimistik ruh yo'qolib boradi va h.k.

Moddiy va ma'naviy omillarni o'zaro uyg'unlashtirish – davlat va jamiyat hayotini yuksaltirishdagi muhim omillar sifatida. Qayd etilganaidek, iqtisodiy va ma'naviy omillar dialektik birlikka egadir. Bu masala insoniyat tarixida, ayniqsa Sharqda qadimdayoq juda nozik idrok qilingan. Misol uchun, mazkur masalalar sohibqiron Amir Temur tomonidan uyg'un idrok etilib, ustalik bilan amaliyotga tatbiq etilgan. Sohibqiron kezi bilan ham iqtisodiy, ham ma'naviy omildan o'rinli foydalangan. Bir o'rinda istilochi mo'g'ul amirlariga qo'llagan tadbiri haqida deydi: “. . . bu ochko'z amirlarni molu-dunyo bilan mahliyo qilib, Movarounnahrni qatlu g'oratdan qutqarib qolishga qaror qildim... ularning ko'zlariga o'xshab ko'ngillari ham tor bo'lganligidan, sovg'a-sovrin yo'sinida ularga berilgan har turli tansiq mollar ko'zlariga ko'p ko'rinadi. Movaraunnahrni qayta bosib olish va talon-taroj qilish niyatidan qaytdilar”.⁶⁸ Diqqat qilinsa, iqtisodiy omilni ustuvor bilish istilochilarni ochko'zlik, tor ko'ngillik, tubanlik kabi ma'naviy illatlarga duchor qilgan. Sohibqiron buni yaxshi anglab, ularni yengishning oson va sharmandali usulini tanlagan.

Shunday qilib hayot, voqea va hodisalar iqtisodiy va ma'naviy omilning o'zaro uyg'un xarakteridan saboq beradi. Buni har bir kishi chuqur anglab yetmog'i nihoyatda zarur. Zero, “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” kitobida ta'kidlanganidek, “Ushbu masalaga chuqurroq va atroflicha nazar

⁶⁸Темур Тузуклари. – Тошкент: 1996 йил, 28-бет.

tashlaydigan bo'lsak, avvalo shuni aytish kerakki, bu ko'hna dunyo, biz yashayotgan yagona, yaxlit bir voqelikdir. Shunday ekan, moddiy ehtiyojlarni insonning ruhiy olamiga qarama-qarshi quyish, ularning birini ustun deb bilgan holda, tiriklikning asosiy maqsadi sifatida qabul qilish qandaydir bir yoqlama qarash ifodasi, deb aytsak xato bo'lmaydi"⁶⁹.

Bu olamda kechayotgan voqea va hodisalar insonning aqliy imkoniyatlari, hayotiy pozitsiyasi va tajribasini yana bir bor sinovdan o'tkazmoqda. Kechagina mutlaq deb qabul qilingan tushunchalarning bugun nisbiy ekanligi ma'lum bo'lmoqda. Yoki, yillar mobaynida aksioma tarzida tushunilgan haqiqatlar hozirgi kunda xayoliy g'oya bo'lib qolmoqda. Iqtisodiy va ma'naviy omillarning *o'zaro uyg'unligi* masalasi ham xuddi shunday dolzarb muammolardan biriga aylandi.

Inson o'z hayoti davomida iqtisodiy omil vositasida moddiy farovonligiga erishadi, ma'naviy omil vositasida insoniy tabiatini yuksaltirib boradi. Prezident Islom Karimov mazkur masalaga alohida diqqatni tortib, "Odamning kundalik hayoti va faoliyatida moddiy va ma'naviy asoslar bir-biriga nisbatan qanday yo'l tutishi, ularning qay biri ustuvorlik kasb etishi haqida turli-tuman, ba'zan esa ziddiyatli fikr va qarashlar bo'lgani va bunday tortishuvlar hozirgacha davom etayotganini kuzatish qiyin emas".⁷⁰ – deydi. Albatta, masalaga bunday yondoshish haqiqiy yo'lni topish imkonini beradi. Ulardan shunday xulosaga kelish mumkin:

- “. . . Moddiy ehtiyojlarni insonning ruhiy olamiga qarama-qarshi quyish, ularning birini ustun deb bilgan holda, tiriklikning asosiy maqsadi sifatida qabul qilish qandaydir bir yoqlama qarash ifodasi, deb aytsak, xato bo'lmaydi”.⁷¹

- “. . . Inson o'z timsolida ham moddiy, ham ma'naviy xususiyat va alomatlarini mujassam etgan noyob xilqat, Yaratganning buyuk va sirli mo'jizasidir”.⁷² Haqiqatdan ham inson borlig'i iqtisodiy va ma'naviy omilning uyg'un ekanligidan dalolat beradi hamda bu muhim dalildir. Chunki

⁶⁹ Каримов И.А. Юсак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент:Маънавият, 2008 йил, 6-бет

⁷⁰ Каримов И.А. Ўз келажагимизни ўз кўлимиз билан курмоқдамиз. 7-жилд. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999йил, 65-бет.

⁷¹ Каримов И.А. Юсак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008 йил, 66-67-бетлар.

⁷² Шу манба. 67-бет.

inson vujudi moddiy elementlar bilan, ruhi (ma'naviyati) esa ma'naviy-shuuriy elementlar bilan tirikdir. Shu ma'noda bu ikki omilning birortasi ustun quyilsa yoki zaiflashsa inson borlig'ining tirikligiga putur yetadi.

*“ . . . Insonga xos orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish, uning ongli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy va ma'naviy olamni bamisoli parvoz qilayotgan qushning ikki qanotiga qiyoslasak, o'ylaymanki, o'rinli bo'ladi”.

Qachonki ana shu ikki muhim omil o'zaro uyg'unlashsa, tom ma'nodagi qo'sh qanotga aylansa, shundagina inson, davlat va jamiyat hayotida o'sish-o'zgarish, yuksalish jarayonlari sodir bo'ladi ⁷³.

Taraqqiyot strategiyasida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash vazifalari. Xalq tilida biroz jo'nroq bo'lsa-da. “avval iqtisod, keyin siyosat” degan ta'kid yuradi. Mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti tomonidan asoslangan O'zbekistonning o'z iqtisod va taraqqiyot yo'lini belgilab beruvchi besh tamoyilning dastlabkisini iqtisodning siyosatdan xoli bo'li tamoyili tashkil etgan bo'lsa, “Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish” – 2017 yil 7 fevralda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev tomonidan ilmiy-amaliy jihatdan asoslanib, ilgari surilgan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishga asoslangan Harakatlar strategiyasi hamda yettita ustuvor yo'nalishni o'z ichiga olgan 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining tayanch yo'nalishlardan biri sifatida belgilab qo'yildi.

Iqtisodiy rivojlanishning ham, ma'naviy takomilning ham tag zamirida ham farovonlik tushunchasi yotadi. Agar odamzotning qorni och bo'lsa, shubhasiz unga hech narsa yoqmaydi. Qorinni to'yg'azish uchun esa avvalambor uning o'zi harakat qilishi, so'nggina unga davlat yordam berishi kerak. Albatta bu o'rinda ishbilarmonlik, tadbirkorlik, har bir ishga sidqidildan, vijdonan yondashish, izlanuvchanlik, aql va tafakkur, ya'ni,

⁷³ Каримов И.А Юсак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008 йил, 67-бет.

tarbiya va ma'naviyatga tayanib ish yuritish kabi fazilatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, iqtisodiy to'kislikning manbai – aql, tafakkur, bilim, malaka, tarbiya va ma'naviyatdir. Buning uchun esa dehqon o'z dalasida, cho'pon o'z otarida, chorvador o'z fermasida, ishchi o'zining ishlab chiqarish korxonasida, tadbirkor o'zi tanlagan sohasida fidokorona mehnat qilishi kerak. Kezi kelsa, olim ham o'z ilmiy izlanishlarini fidokorlik bilan, sidqidildan olib borishi lozim. Har bir kasb sohibi oqilona mehnat qilsa, avvalo o'z farovonligini, so'ng oilasining to'kisligini ta'min etadi, albatta bu bilan el-yurt farovonligiga ham ulush qo'shgan bo'ladi. Bozorlardagi mo'l-ko'lchilikning, yurtdagi serobchilikning, narx-navolar pasayishining negizida ham bilim, aql-tafakkurga tayanib qilinadigan mehnat yotadi.

Aslida mulkdor odam jamiyat a'zolari orasida faqat moddiy jihatdan boyligi uchun emas, balki, yuksak ma'naviy fazilatlari bilan ajralib turishi zarur. Shaxsiy va oilaviy farovonlikka erishish har kimning o'z qo'lida. Zero, har bir fuqaroning farovonligi – bu butun jamiyatning farovonligi deganidir. Davlat tomonidan qancha shart sharoitlar yaratilgan bo'lishiga qaramay odamlarning o'zlarida intilish va izlanuvchanlik bo'lmasa, ular o'z qobiliyatlariga va mehnatlariga tayanib ish tutmasalar har qanday islohotlar ham o'z samarasini bermaydi.

Xalqning munosib turmush sharoitiga ega bo'lishi, jamiyatda o'z ehtiyojlarini to'la qondira olishi, o'z orzu istaklariga erishishi jamiyat a'zolarining hech kimdan va hech qachon kam bo'lmasligi – iqtisodiy to'kislik tushunchasining mazmun va mohiyatini belgilab beradi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev qayd etganidek, “amaliy natijadorlik, inson manfaatlari va yana bir bor inson manfaatlari – iqtisodiy isloklarimizning o'zak masalasidir”⁷⁴.

Bugungi yuksak rivojlangan bozor iqtisodi tizimi asrlar davomida mukammallashib borgan ibtidoiy bozor xo'jaligidan o'sib chiqqanidek,

⁷⁴ Агар жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавийдир/ в Ўзбекистон президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2021 йил 19 январь куни бўлиб ўтган маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштиришга бағишланган видеоселектор йиғилиши материаллари//Халқ сўзи. 2021 йил, 20 январь.

shunga yarasha bugungi tadbirkorning xislatlari ham ibtidoiy tovar ishlab chiqaruvchining sifatlarini muayyan miqyosda va tadrijiylikda aks ettiradi. Ma'lumki, hunar ahlining ikki qiyofasi bor: biri jamiyat uchun zarur ashyoni yaratishda namoyon bo'lsa, ikkinchisi yasagan buyumini bozorda pullashda ko'rinadi. Agar kasibning yaratuvchiligi faqat moddiy ehtiyojlarni qondirish uchun zaruratan ijro etilsa va u o'z insonlik mohiyatini, binobarin, Haqni anglab yetmagan bo'lsa, uni bozor foyda izlashga o'rgatadi, olibsotarlikka, o'zgalarning soddaligi va halolligidan foydalanib, imkon boricha o'z o'chog'iga kul tortishga odatlantiradi.

Navoiy haqiqiy savdogarni (tijorat ahli) olib sotarlardan farq qiladi. Savdogar halol rizq topaman deb uzoq, mashaqqatli yo'llarni bosib o'tadi, ya'ni u inson jamoalari aro iqtisodiy munosabatlarning tashkilotchisidir. Bir yurtdagi ma'lum ashyolarning ortiqcha serobgarchiligi va qadrsizligi oldini olib, o'zga yurtdagi kamyobgarchilikka barham beradi, iqtisodiy muvozanatni ta'minlaydi. Bu kasbning o'ziga yarasha qiyinchiliklari va zavqlari bor. Ammo tojir boshida "birni yuz qilish savdosi va bo'zni shoyiga aylantirish tamannosi"⁷⁵ bor. Shahar olibsotarlarida esa ushbu xirs butkul insof o'rnini egallab olgan. Demak, hunarmand yaratuvchiligini unutsa va savdogar o'z ijtimoiy vazifasini ado qilmasa, har ikkisi ham bozor tovlamachisiga aylanadi.

Yangi davrga kelib hunarmand va savdogar yangi jihatlar kasb etdi va sarmoyador bilan ishchiga aylandi. Ishni tashkil etish sarmoya egasining vazifasi, tayyor ish qurollarida tayyor xomashyoni qayta ishlash ishchining vazifasi bo'lib qoldi. Albatta, XIX-asr Yevropasidagi sobiq savdogar hanuz "birni yuz qilish" kayfiyatini saqlab qolgan va ishchiga oz haq berib, o'zi ko'p foyda olish harakatidan qaytmagan edi. Ammo ishchilar ham bu davrda asta-sekin o'z haqlarini tanib, birlasha boshladilar va sarmoya egasining xudbinligiga qarshi o'z kurash usullarini ishlab chiqdilar.

Asli bozor munosabatlari hukmronligi ham insoniyatning kamolot sari intilishida bir bosqich, ya'ni jamiyatni tashkil etishda harbiy va siyosiy zo'rlik ishlatish usulidan iqtisodiy munosabatlar yo'liga o'tish bosqichidir.

⁷⁵ Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 14-жилд. – Тошкент: 1998 йил, 34-бет.

Bozor har bir insonni hushyorlikka, fursatni behuda o‘tkazmaslikka o‘rgatadi. Ammo agar jamiyatdagi turli toifalar o‘zligini anglab yetmagan bo‘lsalar, bozor korchalonlarining tanho hukmronligi insoniyatni razolatdan qutqarmaydi, tabiatni esa halokat sari eltishi mumkin. Buni unutmasligimiz kerak. Shu jihatdan qaraganda, ajdodlarimiz bizga qoldirgan tabarruk meros - futuvva axloqi - yaratuvchilik mehnatini ruhiy kamolot bilan uyg‘unlashtirib, inson tabiatidagi moddiy va ma’naviy jihatlar mavzunligini ta’minlashga qaratilgani bilan ibratga sazovordir.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

Ma’naviyat, iqtisodiyot, ma’naviy hayot, moddiy hayot, iqtisodiy omil, ma’naviy omil, ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligi, bozor iqtisodi, bozor iqtisodi tizimi, Harakatlar strategiyasi, Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot strategiyasi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Prezident I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida moddiy va ma’naviy hayotning uyg‘unligi haqida qanday konseptual g‘oyani ilgari surgan?
2. Nemis sotsiologi va faylasufi Erix Fromm jamiyat hayotini qanday sohalarga bo‘ladi?
3. Nima ucnun O‘zbekiston mustaqilligining ilk yillaridanoq Prezident Islom Karimov iqtisodiy va ma’naviy omillar uyg‘un bo‘lishi masalasiga alohida e’tibor qaratdi?
4. Iqtisodiy va ma’naviy omillar uyg‘un bo‘lmaganda qanday oqibatlar kelib chiqadi?
5. Iqtisodiyot va ma’naviyatga teng e’tibor qaratilishi natijasida mustaqillik yillarida O‘zbekistonda qanday muvaffaqiyatlarga erishildi?
6. Moddiy va ma’naviy omillarni o‘zaro uyg‘unlashtirish – davlat va jamiyat hayotini yuksaltirishdagi muhim omillar ekanligini asoslovchi misollar keltiring...
7. Iqtisodiy rivojlanishning ham, ma’naviy takomilning ham tag zamirida qanday tushuncha yotadi?
8. Ma’lumki, hunar ahlining ikki qiyofasi bor. Ular qaysilar?

14-§. MILLIY G‘OYA - MILLATLARARO TOTUVLIK VA HAMJIHATLILIKNI TA’MINLASH OMILI

O‘zbekiston ko‘pmillatli, poliyetnik davlat. Milliy g‘oyada turli millatga mansub xalqlarning manfaatlari va maqsadlarining ifodalanishi. O‘zbekiston hududida qadimdan ko‘plab millat va elat vakillari bahamjihat istiqomat qilib kelgan. Ular o‘rtasida asrlar davomida milliy nizolar bo‘lmagani xalqimizning azaldan bag‘rikengligini ko‘rsatadi. Millatlararo munosabatlarda uyg‘unlik vujudga kelgan mamlakatlarda ko‘p millatlilik jamiyatning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga samarali ta’sir etadi.

Ma’lumotlarga ko‘ra, 1897 yilda mamlakatimizning hozirgi hududida 70 millat va elat vakillari yashagan bo‘lsa, 1926 yilda ularning soni 91 taga, 1959 yilda 113 taga, 1979 yilda 123 taga, 1989 yilda 136 taga yetgan. Turli millat vakillarining mavjudligi mamlakatimiz hayotiga o‘ziga xos rang-baranglik baxsh etmoqda.

O‘zbekistonga etnik guruhlarning mamlakat bo‘ylab tarqoq yashashini ifodalaydigan ko‘p millatlik bilan bir qatorda, muayyan millatlar vakillarining alohida hududlarda g‘uj (kompakt) bo‘lib yashash holatini nazarda tutadigan multimillatlilik ham xosdir. Bu oqilona tashkil etilgan milliy siyosat, millatlararo totuvlik g‘oyasi ustuvorligining mamlakatimiz uchun ham muhim hayotiy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Millatlararo munosabatlarni takomillashtirish masalalari O‘zbekistonda titil, davlatga o‘z nomini bergan millat bo‘lgan o‘zbeklarga alohida mas’uliyat yuklaydi. Chunki bu yerda ta’kidlab ko‘rsatmasak ham jahonda mamlakatga o‘z nomini bergan millat vakillari kam sonli millat vakillariga tazyiq o‘tkazayotgan davlatlar hozir ham uchrab turadi. Bunday holat esa bizning tariximiz va milliy g‘oyamizga butunlay ziddir.

Har qanday millat, – deydi Prezident Islom Karimov, - u naqadar kichik bo‘lmasin insoniyatning boyligidir va har qanday milliy birlikning, uning til, madaniy va boshqa xususiyatlarining yo‘q bo‘lib ketishi Yer yuzasidagi madaniy va genetik fondning, shaxs imkoniyatlarining qashshoqlashuviga olib keladi.

Ushbu fikrlar biz o'rganayotgan fanning bosh masalalaridan biri ekanligini bildiradi. Zotan, milliy g'oyaning tom ma'nodagi mohiyatini tushunish bilan bog'liq asosiy metodologik masala – bu uning ijtimoiy g'oyaning boshqa shakllaridan farqlanuvchi xususiyatlarni ajratish, ta'rifini ishlab chiqish bilan bog'liqdir. Mazkur masalada bir qator yondashuvlarni ajratish mumkin. Xususan, “G'oya bir mamlakatning o'ziga taalluqli bo'lsa, uni Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillari deyish mumkin” yoki “Vatanning ilg'or kishilari tomonidan ishlab chiqiladigan va hech bo'lmaganda, fuqarolarning ko'pchiligi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan g'oyalarga milliy yoki umummilliy g'oyalar deyiladi”, -degan qarashlar shular jumlasidandir

Siyosiy barqarorlikni xalqlararo hamjihatlikni ta'minlash nuqtai nazaridan respublika xududida bir fuqarolik huquqiy institutini o'rnatish ijobiy hodisa ekanligini hayot isbotladi. O'zbekiston ko'p millatli davlatdir. Uning hududida yuzdan ziyod millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Konstitusiyani loyahasini muhokama qilish 'aytida mahalliy millatdan tashqari tarixiy vatani sobiq SSSR ning turli respublikalari bo'lgan ruszabon kishilarga ikki fuqarolik huquqini berish taklifi ham o'rta tashlangan edi.

Prezident Islom Karimov uzoqni ko'zlovchi siyosiy yetakchi sifatida buning salbiy oqibatlarini nazarda tutib, “ikki davlat fuqaroligiga mansublik achinarli holdir. Bu bewatanlik bilan barobardir”, – deb ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, mazkur huquqiy holatning hayotiy ekanligini, diniy, irqiy va milliy ziddiyatlarning oldini olishda fuqarolar o'rtasida ijtimoiy hamkorlik munosabatlarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini mamlakatda erishilgan tinchlik, hamjihatlik va millatlararo totuvlikda ko'rish, anglash qiyin emas.

O'zbekiston - umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, millati, dini, ijtimoiy ahvoli, siyosiy e'tiqodlaridan qat'iy nazar, fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlovchi davlatdir. O'zbekistonda inson hayoti, uning erki, qadr-qimmatini qadrlanadi.

Davlat o'zini demokratik davlat deb e'lon qilgani bilan mil-latlararo munosabatlar bilan bog'liq muammolar yo'q bo'lib qolmaydi. Huquqlarni

deklaratsiya qilish bilan bir qatorda uni amalga oshirish yoʻlida konkret ishlar qilinsagina, tenglik real xarakter kasb etadi.

“Millatlararo totuvlik” tushunchasi, uning milliy gʻoyada aks etishi. Millatlararo totuvlik – millatlararo ahillik, xalqaro doʻstlik tushunchalarini oʻzida mujassam etadi. U milliy mafkuraning asosiy gʻoyalaridan biri boʻlib, muayyan hudud, davlatda turli millat vakillarining bahamjihat yashashi, hamkorlikda faoliyat yuritishini ifodalovchi tushuncha hamdir.

“Millatlararo totuvlik gʻoyasi - umumbashariy qadriyat boʻlib, turli xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini belgilaydi, shu joydagi tinchlik va barqarorlikning kafolati boʻlib xizmat qiladi”².

Diniy bagʻrikenglik, mamlakatda yashovchi har bir millatning, hox u koʻp sonli va hox u kam sonli boʻlsin, milliy udumlari, anʼanalari, bayramlari va milliy tilini hurmat qilish, uni kamsitmaslik - ijtimoiy hamkorlik va siyosiy barqarorlikni taʼminlashda muhim omildir. Shu bois milliy rivojlanish gʻoyasining asosiy prinsiplaridan biri millatlararo hamjihatlik, diniy va irqiy bagʻrikenglik, oʻzaro hurmat va ehtirom prinsipidir. Mazkur prinsipga amal qilgan holda ijtimoiy hayotni tashkillashtirish va boshqarish kelajakda fuqarolik jamiyati, huquqiy, demokratik davlat qaror topshida zaruriy omil boʻladi.

Milliy rivojlanish gʻoyasi - konseptual omil, faoliyat strategiyasi boʻlsa, ijtimoiy hamkorlik uni amalga oshuvini taʼminlovchi shaxslarning faoliyatidir. Ijtimoiy hamkorlik faqat xalqning, millatning hamjihatligi asosida yuzaga keladi. “Millatning, xalqning hamjihatligi esa har qanday taraqqiyotning garovidir”⁷⁶.

Bagʻrkenglik bizning davlat ramzlarimizda ham oʻz ifodasini topgan. Respublikamiz davlat bayrogʻidagi ramzlar Oʻzbekiston sarhadida qadimda mavjud boʻlgan davlatlar bilan tarixan bogʻliqlikni hamda yurtimiz hududida yashovchi millat va elatlarning anʼanalarini oʻzida mujassamlashtirgan.

² Миллий истиклол ғояси: Асосий тушунча ва тамойиллар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000 йил, 59-бет.

⁷⁶ Каримов И.А. Жамиятимиз мафқураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилсин. //Адолатли жамият сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998 йил, 15-бет.

Bayroqdagi moviy rang – uning ostida barcha millatlar turli xil xavf-xatarlardan xoli, emin-erkin holda ahil-inoq yashab kelayotgan musaffo osmonimiz hamda obi hayot ramzidir. Bayroqdagi oq rang – davlatimiz fuqarolarining o‘zaro hamjihatlikda, bir-birini hurmat qilib, diniy bag‘rikenglik tamoyillari asosida tinch-totuv yashayotganining timsoli. Yashil rang esa tabiatning yangilanishi hamda yurtimizning jannatmonand ekanligi ramzidir. Bu rang ko‘pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodumonlik timsoli hisoblanadi.

Qizil chiziqlar davlatimiz farovonligi, jamiyat taraqqiyoti yo‘lida o‘zaro hamjihatlik bilan hormay-tolmay mehnat qilayotgan yurt farzandlarining vujudida oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlaridir.

Aziz yurtimiz o‘zining tom ma’nodagi istiqloliga erishgach mamlkatimiz xalqi hayotidagi barcha o‘zgarish, yangilanish, yutuq va muvaffaqiyatlar zamirida Asosiy Qonunimiz turadi. Zero, Asosiy Qonun – jamiyatimizning huquqiy mezoni bo‘lib hisoblanadi.

Yuqorida ta’kidlanganidek, Asosiy Qonunimizda jinsi, millati, dini, irqi, yoshi, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi va fuqarolarning teng huquqli ekanligida, o‘ylaymizki, ajdodlarimizdan meros bo‘lib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz va bebaho an’analarimizning beqiyos o‘rni bor. Ming yilliklar davomida ajdodlardan avlodlarga, ota-onalardan farzandlarga, vorislarga o‘tib kelayotgan va dunyoning hech bir burchagida takrorlanmaydigan ajoyib munosabatlar, insoniy fazilatlar Asosiy Qonunimizda o‘z o‘rnini topgan.

Milliy davlatchilik poydevorini barpo etish jarayonida, avvalo, uning huquqiy asoslari mustahkamlanishi mamlakatning taraqqiyot yo‘li, xalq taqdiri va kelajagini belgilab beradi. Vatanimizning Asosiy Qonuni tub mohiyatida ana shunday oliyjanob maqsad mujassam va u amalda o‘zining yuksak samaralarini berayotganini bugun hayotning o‘zi isbotlab turibdi. Diyorimizning barcha hududlarida istiqomat qiluvchi mo‘min-musulmonlar ushbu Qomusda belgilab qo‘yilgan haq-huquqlardan va erkinliklardan keng va bermalol foydalanmoqdalar.

Bosh Qomusning qabul qilinishi mustaqil davlatimizning davlatchilik tarixida buyuk voqea bo'ldi. Asosiy Qonunda fuqarolarning vijdon erkinligi, diniy e'tiqodi bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratilgan.

Bosh Qomusda kishilarning bir dinga e'tiqod qilishi yoki qilmasligi, diniy e'tiqodi uchun ta'qib qilinmasligi, barcha konfessiya vakillarining teng huquqliligi kafolatlab qo'yilgan.

Asosiy Qomusimizda inson huquqlari, burch va vazifalari kabi Vijdon erkinligi ham alohida belgilab qo'yilgan. Zero, Alloh taolo marhamat qilib aytgan: "Dinda zo'rlash yo'q..."

Diyorimizda amaldagi qonunlarga ko'ra turli dinlarga e'tiqod qiluvchi va ularga e'tiqod qilmaydigan fuqarolar, har xil e'tiqodlarga mansub diniy tashkilotlar o'rtasida o'zaro murosa va hurmat o'rnatilishi ta'minlangan. Diniy va o'zga mutaassiblik, ekstremizm, munosabatlarni qarama-qarshi qo'yish va keskinlashtirishga, turli din toifalari o'rtasida ziddiyatlar chiqarish hamda ularni avj oldirishga qaratilgan xatti-harakatlarga yo'l qo'yilmaydi.

Mustaqillik xalqimizga ko'p narsa berdi. Buni ko'rmaslik, his etmaslik, qadriga yetmaslik mumkin emas. Mustaqillik yillarida mamlakatda Islom dini ravnaqi uchun keng imkoniyatlar ochildi. Barcha islomiy qadriyatlar – masjid va madrasalarning binolari, nodir tarixiy manbalar, osori atiqalar musulmonlarga qaytarib berildi. Ularning emin-erkin ibodat qilishlari, diniy ta'lim olishlari, diniy adabiyotlar va ommaviy axborot vositalaridan bahramand bo'lishlari, Ramazon va Qurbon hayitlarini bayram qilib keng nishonlashlari, haj va umra ziyoratlarini amalga oshirishlari uchun qulay sharoitlar yaratildi.

Milliy g'oya - millatlararo totuvlik va hamjihatlik omili. Uni amalga oshirish shart-sharoitlari. Milliy g'oya mamlakatda millatlararo totuvlikni qaror toptirishning tayanch negizi va omili hisoblanadi. Zero, har bir millat Yaratganning mo'jizasi bo'lib, o'z tili, dini, maslagi, qadriyatlari, an'analariga ega. Shu bois mazkur ma'naviy omillarning amal qilishi millatlararo totuvlikning muhim shartlaridan sanaladi.

Milliy g'oya – millatlararo totuvlik, ijtimoiy hamkorlik, dinlararo bag'rikenglikni taqozo etadi.

Ijtimoiy hamkorlik, hamjihatlik va siyosiy barqarorlik garchi ijtimoiy hodisa bo'lsa-da, individ, konkret shaxs madaniyati, ma'naviyati, e'tiqodi va dunyoqarashiga bog'liq. Individ, shaxs faoliyati ijtimoiy hamkorlik va siyosiy barqarorlikka konkretlik bag'ishlaydi, ularni ijtimoiy voqelikda reallashuvini belgilaydi.

Milliy rivojlanish aynan shu ijtimoiy hamjihatlik, ya'ni millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, ijtimoiy adolat va qonun ustuvorlik bor joyda mavjud bo'ladi. Milliy rivojlanish g'oyasi o'z mazmuniga ko'ra serqirra va murakkab bo'lib, u mamlakat xalqlarini bir maqsad, bir orzu atrofida birlashtiradi, ularga tanlangan taraqqiyot siyosiy yo'lini muqarrar yuksalish yo'li ekanligiga ishonch tug'diradi.

“Inson huquqlari va demokratiya singari umumbashariy qadriyatlar, - deb ta'kidlaydi Prezident I. Karimov, - respublikamizning milliy davlatchilik manfaatlariga to'la mos keladi. Insonning eng ustuvor va muqaddas huquqlaridan biri - bu tinch yashash huquqidir. Davlat va jamiyatning burchi ana shu huquqni barcha qonuniy vositalar bilan kafolatlab berishdir. Bu huquqni amalga oshirish - davlat va jamiyatni demokratlashtirishning eng muhim shartidir. Demokratiyaning insonparvarligi shu bilan belgilanadi”⁷⁷.

Ijtimoiy hamkorlik va siyosiy barqarorlikning ma'naviy-ma'rifiy asoslari O'zbekistonda milliy o'zlikni tanish, e'tiqod erkinligini ta'minlash, millatlararo totuvlikni, o'zaro hurmat va hamjihatlik muhitini yaratish bilan bog'liq.

Dinlararo bag'rikenglik g'oyasi xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir vatanda, olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashini anglatadi. Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi, u halollik, tinchlik, yaxshilik va do'stlik kabi bir qancha ezgu fazilatlarga tayanadi. Insonlarni halollik va poklik, mehr-oqibat, insonparvarlik va bag'rikenglikka da'vat etadi.

O'zbekiston davlati ijtimoiy hamkorlik va siyosiy barqarorlikni ta'minlashda mamlakatda yashovchi barcha millat va elatlarning xohish-

⁷⁷ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. 1-том. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996 йил, 78-79-бетлар.

irodasini hisobga olib ish yuritdi. Taniqli siyosatshunos olim N.Jo‘rayev ta’kidlashicha “... davlat faqat adolatga tayansagina uning siyosatida milliy, irqiy, diniy mansubligidan qat’iy nazar yaxlit mamlakat fuqarosi taqdiri qamrab olinsagina qadriyatga, aylanadi”¹. Muallifning fikricha millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish o‘tish davri uchun xos xususiyatdir. Bizningcha, millatlararo munosabatlar o‘ta nozik va qaltis hodisa bo‘lib, u biron bir davr bilan cheklanmaydi, milliy rivojlanish konsepsiyasi uchun millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish siyosati muntazam va doimiy olib borilishi lozim. Aks holda 130 dan ziyod millat va elat istiqqomat qiluvchi ko‘millatli davlat sharoitida etnik va milliy ziddiyat har daqiqada yuzaga kelishi, jamiyat birligini buzishi, hatto fuqarolar urushini keltirib chiqarishi mumkin. Millatlararo munosabatlar muntazam e’tiborni talab qiladi. Siyosiy barqarorlik va fuqarolik hamkorligi milliy munosabatlar holatiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Millatlararo munosabatlarni mo‘tadil rivojlanishida davlat va milliy tillar, mahalliy aholi va tarixiy vatani boshqa mamlakatlar bilan bog‘liq bo‘lgan millat va elatlar o‘rtasida o‘zaro tenglik, tolerantlik va hurmat munosabatlarini saqlanishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Shu bois mamlakatda 16 dan ziyod diniy konfessiya va 70 ga yaqin milliy-madaniy markazlarni faoliyat ko‘rsatayotgani nafaqat siyosiy barqarorlik, balki fuqarolar o‘rtasida ijtimoiy hamkorlik, hamjihatlik munosabatlarini mustahkamlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Yoshlarni milliy totuvlik, diniy bag‘rikenglik ruhida tarbiyalashda tarixiy va badiiy manbalardan foydalanish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 15 noyabrda e’lon qilingan, 16 noyabrdan kuchga kirgan “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5876 sonli farmonida qayd etilganidek, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoidalari turmushga faol tadbiiq etilmoqda, bu qoidalar O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari millatidan qat’i nazar O‘zbekiston xalqini tashkil etishini, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi

¹ Жўраев Н. Тафаккурдаги эврилиш: Истиқбол изтироблари ва кувончлари ҳақида мулоҳазалар. –Тошкент: Шарқ, 2001 йил, 83-бет.

o‘zining hududida yashovchi millat va elatlarning tili, urf-odati va an‘analariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni, ularni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratilishini e‘lon qiladi va kafolatlaydi”.

“Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi”da o‘ziga kelayotgan yosh avlodni millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan.

Jumladan, ushbu Farmonda millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlari belgilab berilgan:

“millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirish sohasida O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosatini amalga oshirish jarayonida davlat organlari va tashkilotlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining fuqarolik jamiyati institutlari bilan, shu jumladan, ommaviy axborot vositalari bilan o‘zaro hamkorligi mexanizmlarini takomillashtirish;

millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalarini yanada rivojlantirish, respublikamizda yashab turgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, an‘analari va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish sohasida O‘zbekiston Respublikasining davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun qo‘shimcha ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish;

jamiyatda ko‘p millatli katta oila his-tuyg‘usini, respublikamizda yashayotgan turli millat va elat vakillari o‘rtasida do‘stlik va totuvlikni yanada mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, fuqarolarning teng huquqliligini ta‘minlash, ularning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari kamsitilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

millatlararo munosabatlarni mustahkamlash, mamlakat hududida va undan tashqarida fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida xalqaro hamkorlikni va chet mamlakatlar bilan do‘stona aloqalarni rivojlantirish, vatandoshlarni qo‘llab-quvvatlash va xorijdagi o‘zbek diasporalari bilan yaqin hamkorlik qilish, O‘zbekistonning jahon maydonidagi obro‘-e‘tibori va imijini oshirish;

O‘zbekiston Respublikasining davlat va jamiyatni rivojlantirishdagi ustuvor maqsadlarni, ilg‘or xorijiy tajribani e‘tiborga olgan holda millatlararo munosabatlarning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish”⁷⁸.

O‘z o‘rnida ertamiz egalari bo‘lgan yoshlarni millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik ruhida tarbiyalashda tarixiy va badiiy manbalardan foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, tarixiy, adabiy-badiiy manbalar bilan tanishtirish vositasida yosh avlodda O‘zbekiston mustaqilligi davrida erishilgan yutuqlar, uning o‘tmishi va kelajagi, boy madaniyati, ma’naviyati, ilmiy salohiyati haqida keng tasavvur va bilimlar hosil qilinadi, ularning shaxsida halollik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, adolatpeshalik bilan bog‘liq komil inson fazilatlari tarkib toptiriladi.

Aslida Vatan tarixi, vatanparvarlik, xalq tarixi bir-biridan ayro tushunchalar emas. Ularning biri ikkinchisini to‘ldirib, boyitib keladi. Xalq qo‘shiqdari, maqol va dostonlar, rivoyat va afsonalar, o‘tmish zamonlardan o‘lmas yodgorlik bo‘lib kelayotgan, xarobaga aylangan qadimiy qal‘alarimiz qatiga yashirin Vatan timsoli yosh avlodni ona-Vatanimizning shon-shuhrati, gullab yashnashi yo‘lida ezgu niyatlar sari olg‘a boshlaydi.

Masalan, buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburning “O‘z yerni qo‘yib Hind sori yuzlandim, Yorab, netayin ne yuz qarolig‘ bo‘ldi” degan tavallosida Vatandan judolikni “yuz qarolig‘” deb afg‘on chekishidan, Furqatning vatandan yiroqda “Adashgan it kibi Furqat, qayon borgum bilolmasman” deya nola qilishidan yoxud Abdulla Oripovning ona yurtga oid qalb tug‘yonlarini “O‘zbekiston – Vatanim manim”, “Men nechun sevaman O‘zbekistonni” deya jo‘shib-toshib kuylashidan Vatan timsoli insonning qalbu shuuri, es-hushiga jon qadar va bitmastuganmas ma’naviy-ruhiy oziq berishini sezish qiyin emas. Aslida To‘maris va Shiroq, Muqanna va Spitamen, Najmiddin Kubro va Jaloliddin Manguberdi, Dukchi eshonlarni hayot-mamot jangiga otlantirgan, aziz boshlari kundaga qo‘yilishi aniq bo‘lsa-da, o‘z e‘tiqodiga xiyonat qilmagan Munavvar qori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon va Abdulla Qodiriylar

⁷⁸ Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi.// Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 16.11.2019-y., 06/19/5876/4029-son.

irodasining bukilmaligi – Vatan muhabbatini aziz jonlaridan ham a'lo ko'rgani – vatanparvarlik tarbiyasining shaxs ma'naviy kamolotida yuksak maqomda turishini ko'rsatadi.

O'tgan asrning boshlaridagi jadidchilik davridagi vatan tushunchasi bilan sovet davridagi vatanga bo'lgan munosabat, yoxud sovet davridagi vatan tushunchasi bilan istiqbolga erishganimizdan keyingi davrdagi vatanga munosabat o'rtasida o'ziga xos tafovut bo'lganligi ayon haqiqatdir.

Binobarin, milliy uyg'onish davrida vatanparvarlik Mahmudxo'ja Behbudiy, Fitrat, Hoji Muin, CHO'lponlar ijodida da'vatkorlik, mushohadakorlik, jangovarlik, kurashchanlik ruhi bilan yo'g'rilgan bo'lsa, mustaqillik davri adabiyotida shukronalik, mas'uliyat, kelajakka ishonch, faxr va g'urur tuyg'ulari bilan to'yintirilganini kuzatish mumkin. Masalan, Fitrat "Yurt qayg'usi" she'rida milliy-ozodlikka bo'lgan qarashlarini Vatanga bo'lgan teran hissiy kechinmalari orqali ifodalaydi. "Ey, ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! – deb murojaat qiladi u. – Senga ne bo'ldi? Holing qalaydir? Nechuk kunlarga qolding? Ey chingizlarning, temurlarning, o'g'uzlarning, otillarning shonli beshiklari! Dunyoni "urho"lari bilan titratgan yo'lbars yurakli bolalaring qani? Yer tuprog'ini ko'klarga uchiraturg'an tog' g'avdali o'g'lonlaring qani? Nechun tovushlari chiqmaydir? Nechun-nechun? Gapur menga, ey, Ulug' Turon, arslonlar o'lkasi! Senga ne bo'ldi!.."⁷⁹.

Yuqoridagilardan xulosa shuki, yoshlarda millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, tolerantlik va bu fazilatlarlarning negizida vatanparvarlikni tarbiyalash – davlat siyosati bilan bog'liq zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

Ko'pmillatlilik, poliyetnik davlat, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik, bag'rikenglik, tolerantlik, hamjihatlik, hamkorlik, ijtimoiy hamkorlik, Vatan, vatanparvarlik, milliy uyg'onish, manba, tarixiy manbalar, badiiy manbalar.

⁷⁹ Фитрат А. Танланган асарлар. –Тошкент:Маънавият, 2000 йил, 34-бет.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. O‘zbekistonda qancha millat va elatlar istiqomat qilishadi?
2. Ko‘pmillatlilik mamlakat taraqqiyotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi.
3. Milliy g‘oyaning qaysi tamoyillari turli millat vakillarining hamjihatligini ta’minlashga xizmat qiladi?
4. Milliy rivojlanish g‘oyasining mohiyatini izohlang...
5. “Inson qadr-qimmati – eng oliy qadriyatdir” tamoyilini amalga oshirish yo‘lida mamlakatimizda qanday ishlar qilindi?
6. Ijtimoiy hamkorlik tamoyilini mazmun mohiyatini va amal qilish omillariga nimalar kiradi?
7. Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi”da o‘tib kelayotgan yosh avlodni millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash masalasiga qay darajada e’tibor qaratilgan?
8. Ertamiz egalari bo‘lgan yoshlarni millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik ruhida tarbiyalashda tarixiy va badiiy manbalardan foydalanishning ahamiyatini izohlang...

15-§. MILLIY G‘OYADA MILLIY VA DINIY

BAG‘RIKENGLIK TAMOYILI

“Milliy bag‘rikenglik” va “Diniy bag‘rikenglik” tushunchalarining ma’no-mazmuni. Milliy bag‘rikenglik va ko‘pmillatlilik. Bugungi kunda yoshlarni bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy va ma’naviy ongini o‘stirish, axloqiy madaniyatini yuksaltirish, madaniy xulqiga tarbiyaviy ta’sir etish dolzarb masaladir. Hozirgi globallashuv jarayonlarida bag‘rikenglikka bo‘lgan talabning dolzarb bo‘lishiga sabab, insoniyat kelajagini ta’minlash, global muammolarni tinch yo‘l bilan hal qilishni talab qilmoqda. Xalqimiz azal-azaldan adolat, erkinlik, muruvvat, mehr-oqibat, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni o‘zida singdirib kelgan. Ayniqsa oilada, jamiyatda yoshlar tarbiyasiga katta e’tibor qaratilgan.

Bag‘rikenglik tafakkuri insonlariing turli iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy, ma’naviy, ruhiy munosabatlarini ularning millati, irqi, nasli-

nasabi, iqtisodiy ahvoli, dini va e'tiqodiga qaramasdan muvozanatda saqlash meyorlarini anglatadi. Tarixiy shakllanishiga ko'ra milliy bag'rikenglik dinlarga bo'lgan xolis munosabat, dinlarni bir-biri ustidan ustun qo'ymaslik, ularni ajratmaslik, ularni bir-biriga qarshi qo'ymaslik, inson diniy e'tiqodiga hurmat bilan qarash, shu bilan birga boshqa din g'oyalarini zo'raonlik bilan singdirishga urinmaslik, dinsizlar, ya'ni dahriylar huquqlarining hurmat qilinishi kabi mohiyatan zarur bo'lgan g'oyalarni o'z ichiga qamrab oladi. Aslida milliy bag'rikenglik insoniyat tarixida o'zga din va millatlarga nisbatan bag'rikenglik va ehtiromli munosabatda bo'lish mezoni sifatida shakllanib kelgan. Chunki milliy bag'rikenglik urf-odat, madaniyat, qarash va mafquralarga nisbatan xolis munosabat bildiradi, dunyo rang-barangligini tan oladi. O'zbekistonda milliy bag'rikenglik tushunchasining diniy bag'rikenglik, tinchlik-totuvlik hamda hamjihatlikda yashash tamoyillariga qo'proq e'tibor berilgan. Ammo aslida milliy bag'rikenglik tushunchasi juda keng tushuncha ekanligi O'rta Osiyoda rivojlangan tarixiy ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlar tizimida o'zini to'laroq namoyon etadi.

Zamonaviy milliy bag'rikenglik tushunchasi o'z mazmuniga tarixiy shakllanib kelgan diniy va ma'rifiy bag'rikenglik tafakkurinigina emas, balki undan kengroq bulgan ma'naviy, madaniy, mafkuraviy, gumanitar bag'rikenglik tamoyillarini ham qamrab oladi. Shu bois, zamonaviy jamiyatlarda milliy bag'rikenglik insonlar orasidagi turli farqlarga nisbatan hurmatli va sabr-bardoshli munosabat sifatida talqin qilinadi.

Milliy bag'rikenglik tarixiy ildizlarga ega hodisa hisoblanadi. Tarixan o'z shakllanish jarayonlarida milliy bag'rikenglik ma'naviy va diniy bag'rikenglik g'oyalariga tayangan. Milliy bag'rikenglik va dinlar tarixi o'zaro bog'liq hodisalar hisoblanadi. Dunyo dinlari o'rtasidagi tenglik va o'zaro hurmat milliy bag'rikengliksiz rivojlana olmas edi.

Milliy bag'rikenglik diniy e'tiqodlarga bo'lgan o'z munosabatini an'anaviy diniy mazhablarning ulug'lanishi asosiga quradi. Shu nuqtai nazardan, har bir din tarkibida o'ziga xos milliy bag'rikenglik tamoyillariga asoslangan konfessional qadriyatlar tizimi shakllanib kelgan. O'zbeklarning milliy qadriyatlari tarkibida eng qadimgi davrlardan boshlab har doim milliy

bag‘rikenglik, xususan madaniy va diniy bag‘rikenglik tushunchalari mavjud bo‘lib, ular quyidagi masalalarni o‘z ichiga qamrab olgan:

- odamlarga ularning yoshi, millati, irqi, jinsi, moliyaviy ahvoli, nasl-nasabidan qat’i nazar bir xil e’tiborli va izzatli nazarda qarash;
- odamlarga nisbatan bir xilda hurmatli munosabatni inson madaniyati va tarbiyalanganligining muhim belgisi sifatida baholash;
- “komil inson” tushunchasi doirasiga uning keng fe’lligi, o‘zgalarga yaxshi munosabat ko‘rsata olishi, boshqa dinlar va urf-odatlarini hurmat qilishga tayyorligini kiritish;
- tarixiy jarayonlarda har vaqt o‘zga madaniyatlar, milliy urf-odatlarining eng yaxshi tomonlarini milliy madaniyatga singdirish (muomala madaniyati, uy tutish, taom tayyorlash, ozodalikka rioya etish, bolalarga munosabat);

- asrlar davomida o‘zbeklar madaniyati va muomala urf-odatlarini;
- qadriyatlarini ta’sirini o‘zga madaniyatlarga o‘tkazish va hk.

Bag‘rikenglik tushunchasi lotincha “tolerant” atamasiga to‘g‘ri kelib, u “tole gage” (chidamoq) so‘zidan olingan. Tolerantlik biror narsani, o‘zgacha fikr yoki qarashni, o‘z shaxsiy tushunchalaridan qat’i nazar, imkon qadar bag‘rikenglik va chidam bilan qabul qilishni anglatadi.

Bag‘rikenglik – har bir fuqaroning ma’naviy burchi, siyosiy hamda huquqiy ehtiyoji bo‘lib, turli millatlar manfaatlarini ijtimoiy-g‘oyaviy ifodalash orqali inson individualligini namoyon qilishning xilma-xil usullarini, millatlararo hamjihatlikni hurmat qilish, turli xalqlar va elatlar vakillarini qabul qila bilish, ularga hamdard bo‘lib, kam ta’minlaganlariga yordam berish va ijtimoiy-g‘oyaviy hayotni tushunishni, o‘z manfaatini xalq, davlat manfaatlarini bilan bog‘lay bilishni anglatadi. Bu jarayon oddiy yon berish yoki boshqalarga xushomad qilish emas, balki har bir insonning umumiy tarzdagi huquqlari va asosiy erkinliklarini tan olish asosida shakllangan faol munosabat, muloqot jihatidan yuksak madaniyat va yuqori darajadagi axloq hamdir.

Bag‘rikenglikni namoyon qilish ijtimoiy-g‘oyaviy manfaatlar yo‘nalishida sabr-toqatli bo‘lishni, o‘z e’tiqodidan(dinidan) voz kechib,

boshqalar e'tiqodiga (diniga) yon berishni anglatmaydi, balki har kim diniy e'tiqodida erkin bo'lib, boshqalarning ham shunday huquqqa ega ekanligini, har bir odam o'z alohidaligini saqlab qolishga haqliligini, o'zida mavjud bo'lgan tushunchalarni boshqalarda ham mavjudligiga ishonch hosil qila bilishga hamda bir kishining qarashlari boshqalarga majburan singdirilishi mumkin emasligini tan olishga qaratilgandir. Lekin o'zida mavjud bo'lgan ilohiylikni boshqalarda ham ko'ra bilish bilan birga, dunyoviy ilmga tayangan holda faoliyat yurita bilish zarurligini ongli tushunib yetish zarur. Chunki bag'rikenglik bu har bir insondagi o'zgacha fazilat va xususiyatlarning bir butunligini anglab olish bilan jamiyat rivojlanishiga bog'liq tushuncha hisoblanib har bir shaxsning dunyoviy bilimlariga, tajribasiga asosan jamiyatdan kutadigan ijtimoiy-g'oyaviy manfaatlarini fikrda va amalda ifodalay bilishdan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonuni va boshqa huquqiy hujjatlarda vijdon, e'tiqod erkinligi. Diniy bag'rikenglik vijdon erkinligi va ma'naviy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi, u boshqa shaxs yo dinga hurmatni bildiradi. Turli din hamda konfessiya vakillari e'tiqodida aqidaviy farqlar bo'lishiga qaramay, ularning yonma-yon va o'zaro tinch-totuv yashashini anglatadi.

Dinlararo bag'rikenglik yana shu bilan ham tavsiflanadiki, dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik va xalqchillik g'oyalariga asoslanadi, yaxshilik, to'g'rilik, tinchlik, birodarlik, do'stona munosabat, insonparvarlik kabi tushunchalarga tayanadi. Din yer yuzidagi barcha insonlarni halol va pok yashashga, nopok narsalardan tiyilishga, gunohkor bo'lishdan saqlanishga, zulm-sitamdan yiroq bo'lishga, mehr-shafqatli va bag'rikeng bo'lishga da'vat etib keladi.

O'zbekistonda diniy bag'rikenglik tarixiy ildiz va mustahkam qonuniy asoslarga ega bo'lib, dunyoviy davlat va din orasidagi munosabatlarning mustahkam huquqiy asoslari yaratilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida 16 diniy yo'nalishga mansub 2220 dan ortiq diniy tashkilot davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Ularning 2050 tasi, ya'ni 92 foizini musulmon diniy tashkilotlari tashkil

etadi. Respublikada, shuningdek, 159 ta nasroniy diniy tashkilotlari, 8 ta yahudiylar va 6 ta bahoiylar jamoalari, bittadan krishnachilar jamiyati va buddaviylar ibodatxonasi mavjud. Respublikada diniy tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish Vazirlar Mahkamasi 1998 yil 20 iyunda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasida diniy tashkilotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Asosiy Qonunimizning 31-moddasida "Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburiy singdirishga yo'l qo'yilmaydi", deb alohida ta'kidlangan⁸⁰. Ushbu moddani amalga oshirish mexanizmi 1998 yil 1 mayda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonunida keng yoritib berilgan. Uning 3-moddasiga ko'ra, Vijdon erkinligi fuqarolarning har qanday dinga e'tiqod qilish yoki hech qanday dinga e'tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir"⁸¹.

Bundan tashqari, O'zbekiston hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning madaniyati, tili, urf-odat va an'analari hurmat qilinishi qator qonun hujjatlarida ham aks ettirilgan. Masalan, Qonunchilik palatasi tomonidan 2020 yil 19 mayda qabul qilinib, Senat tomonidan 2020 yil 7 avgustda ma'qullangan, 2020 yil 24 sentabrdan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunining "Ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar" deb nomlangan 4-moddasida "ta'lim sohasida kamsitishlarga yo'l qo'yilmasligi", "ta'lim olishga doir teng imkoniyatlarning ta'minlanishi" "ta'lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi", "ta'lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik xususiyati" kabi prinsiplar singdirilgan bo'lsa, "Ta'lim olish huquqi" deb nomlangan 5-moddasida jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi,

⁸⁰ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014 йил, 8-бет.

⁸¹ Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar tўғrisida. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни.//Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 5-6-сон, 99-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 й., 52-сон, 513-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.04.2018 й., 03/18/476/1087-сон)

e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, har kimga ta'lim olish uchun teng huquqlar kafolatlanishi alohida qayd etilgan⁸².

Yoki "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunini olaylik. Mazkur qonunning "Murojaat etish huquqidan foydalanilayotganda kamsitishga yo'l qo'yilmasligi" deb nomlangan 10-moddasida davlat organlariga murojaat etish huquqidan foydalanilayotganda jismoniy shaxsning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeiga qarab kamsitishga yo'l qo'yilmasligi qat'iy belgilab qo'yilgan⁸³.

Milliy g'oya – turli millatlar va din vakillari o'rtasida o'zaro totuvlik va hamjihatlikni ta'minlovchi omil. Milliy g'oya xalqimizning azaliy an'analariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, ma'rifat tuyg'ularini ongimizga singdirishi lozim. Bu fikrlarga mustaqillikni mustahkamlashning eng asosiy prinsipi sifatida qarash lozim. Chunki shu g'oyani amalga oshirmay, hayotga tatbiq etmay turib, boshqacha aytganda, xalq va yoshlar ongini qayta tarbiyalamasdan, nazarda tutilgan buyuk maqsadga erishish mumkin emas. Bu esa o'zbek bag'rikengligining asosidir. Umuman olganda, mustaqillikni mustahkamlash umumxalq ishi va vazifasi sifatida mustaqillikka xos bag'rikenglikni ifodalaydi. Xususan, O'zbekiston istiqlolini avaylab asrash Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlarining birdamligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Ma'lumki, Markaziy Osiyo xalqlari mustaqillik yo'lga kirib olishdi. Shu yo'lni rivojlantirish, maqsad sari dadil, olg'a borish ularning qo'lida. Shu yo'ldagi manfaatlari, maqsadlari bir xil. Bu jarayonda ular birgalikda harakat qilishsa, bir-birlariga qo'l berishsa, hamisha hamkor bo'lishsa, buyuk maqsadga erishish oson bo'ladi.

Xalqimizda "Maqsadli bo'lgan yo'l topar", degan hikmat bor. Maqsad sari intilish, bu yo'lda zahmat chekish tufayligini kishi orzu-niyatlariga

⁸² Таълим тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг қонуни. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон.

⁸³ Жисмоний ва юридик шахсларнинг murojaatlari тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг қонуни.// Халқ сўзи, 2014 йил 4 декабр, 235 (6165)-сон.

erishadi. Bugungi kunda bagʻrikenglik yoʻnalishiga xos sogʻlom va kuchli tafakkurga asoslangan, ehtiros bilan targʻib qilinayotgan milliy gʻoya manfaatlar tizimidagi maqsadga-mustaqillikka erishish bagʻrikenglik yoʻnalishida oʻzga xalq, din, har bir shaxsga mansub hodisa hisoblanib, barcha xalqlarga hamdardlik bildirish, maʼlum davlatda inson huquqlarining poymol etilishi hollarini aniqlash va ularni ijtimoiy himoyalash yoki mamlakatni ijtimoiy rivojlanish jarayonida kishilar manfaatlarini koʻzlab faoliyat yuritishdan iborat boʻlgan bagʻrikenglikka ijtimoiy-gʻoyaviy hayotning ijobiy bir butun hodisasi sifatida qarash zarurligini talab etadi. Ana shu yaxlitlikni tushunish orqali tom maʼnodagi bagʻrikenglikka erishish mumkinligini amaldagi tinchlik va barqarorlik koʻrsatib turibdi.

“Jaholatga qarshi maʼrifat bilan kurashish” tamoyilining yangi bosqichga koʻtarilishi. Jaholat mavzusi tarixning har bir davrida bot-bot eslangan, davralarga tashlangan va har doim ham unga qarshi kurash olib borilgan. Siz-u biz umrguzaronlik qilayotgan bugungi kunimizda jaholatga qarshi kurash eng dolzarb masala boʻlib qolmoqda.

Xoʻsh, jaholat qanday oʻta salbiy illat, mudhish voqelikki, insoniyat yaralgandan buyon bu voqelik bilan roʻbaru kelyapti? Uning davosi bormi?

Jaholat shu qadar katta xavfki, u har bir davrda ham oʻz dahshati bilan jamiyatning aynishiga, maʼnaviy qashshoqlikka olib boradi. Eng yomoni bu illat moddiylikka mukkasidan ketgan va bu uchun har qanday razillikdan ham tap-tortmaydigan, hokimiyatni qoʻlga kiritish uchun hech narsani ayamaydigan, hokimiyatga erishganda ham oʻzini har narsadan va har kimsadan ustun qoʻyadigan shaxslarni shakllantiradi.

Jaholat – jamiyatda johil va gʻofil bandalar, yaʼni bilimsiz va bilganiga amal qilmaydigan kishilar koʻproq boʻlib, yaxshilikdan koʻra yomonlik koʻpayganidir. Jaholat johillar va gʻofillar koʻpaygan, ular ustunlik qilgan davr yoki oʻsha jamiyat uchun berilgan baho deb nomlab keldik.

Johil kim? Kimni johil deyish mumkin? Johil u ilmsiz, bilimsiz va oʻz harakatini mushohada qilmaydigan kishi. U ilmni tan olmaydi. Tushunishni istamaydi. Doimo oʻzini toʻgʻri, deb biladi va oʻz harakati oqibatlarini mushohada qilmaydi. Qozizoda Rumiyy “Bir dalil bilan qirqta olimni

yengdim, lekin qirq dalil bilan bir johilni yengolmadim” degan ekan. O‘z xatosini ko‘rib, mohiyatan anglashdan yiroq bo‘lgan va uni tan olmaydiganlar, ya’ni tuzalishni istamaydiganlar bor, xatosini tanib, uni bilib, baribir o‘zini haq, deganlar va qilayotgan nohaq ishlari oqibatlari nimalarga olib borishini his qilgan holda, uni hayotining bir qismiga aylantirib olganlar bor; xatosini ko‘rib, uni tan olib, kechirim so‘ray oladigan, dildan uyaladigan va alal oqibat bu kabi xatoni boshqa qaytarmaslikka intiladiganlar bor. Ulardan biri johil, ikkinchisi g‘ofil, uchinchisi ma’rifatli, deb ataladi.

1981 yilda chop etilgan “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” da johilga shunday ta’rif beriladi: “Jaholatga qolgan, ilm-ma’rifatdan mahrum, madaniyatsiz, nodon. Jahl-johillikning quroli”⁸⁴.

Yozuvchi Tohir Malik aytganidek, “Insonlar boshiga tushadigan kulfat va zulmning asosiy boisi jaholatdir. Kulfat va zulmdan xalos bo‘lishning yagona davosi esa – ilm. Jaholat homiylari insoniyatning eng ashaddiy dushmanlari hisoblanadilar”⁸⁵.

Ajdodlarimiz bizga go‘zal hayot kechirish yo‘lini ko‘rsatib ketganlar. Uni arab tili, Qur’on tafsiri va hadisidagi notanish lug‘atlar borasida tengi yo‘q olim, buyuk mutafakkir Abulqosim Zamaxshariyning ushbu so‘zlaridan yaqqol ko‘rish mumkin: “O‘qi, ilmli bo‘l, yoki ilmga tayanib ish tutadigan bo‘l, loaqal ilmni tinglab eshitadigan bo‘l, ammo to‘rtinchisi bo‘lma, chunki kasodga uchrab halok bo‘lasan.”

Ha, bugun zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan pallada buyuk ma’rifatparvar ajdodlarimizning boy ma’naviy-ma’rifiy merosiga, turli soha ilmlariga tayanmas ekanmiz jamiyatimiz rivojlanishi u yoqda tursin hatto, bir joyda deysinib turishi ham mumkin bo‘lmas. Axir yurtboshimiz o‘rinli tarzda qayd etganidek, “...qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasi bo‘lgan yurtimiz zaminidan o‘rta asrlarda minglab olimu ulamolar, buyuk mutafakkir va shoirlar, aziz-avliyolar yetishib chiqqan. Ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebaho merosi, butun insoniyatning

⁸⁴ Ўзбек тилининг изохли луғати. З.М. Маъруфов таҳрири остида. – Москва, Рус тили нашриёти, 1981 йил, 289-бет.

⁸⁵ Тоҳир Малик. Одамийлик мулки. –Тошкент:Sharq, 2016 йил, 232-бет

ma'naviy mulki hisoblanadi"⁸⁶. Ayni paytda xudda shu bebaho mulk bag'ridagi javohirga teng bo'lgan qimmatli saboqlar bizni jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashishga yetaklaydi.

Bugungi tezkor taraqqiyot zamonini har bir insondan o'zi qabul qilayotgan axborotning qay darajada foydali yoki zararli ekanligiga jiddiy e'tibor berishni hamda har bir axborotdan o'z o'rnida foydalana bilishni talab etmoqda.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jamiyatimizning kelajagi bo'lgan o'quvchi yoshlarni ruhiyatini, ongini, tafakurini har xil yomon yot g'oya, illatu, oqimlardan, odatlardan asrash uchun yuqorida sanab o'tilgan chora tadbirlar izchillik bilan oqilona amalga oshirilsagina biz milliy mafkuramizga sadoqatli, vatanparvar, ruhan toza, ahloqan pok, mehnatsevar, kuchli tafakkurga ega barkamol avlodni shakllantirgan bo'lamiz.

Buning uchun Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Jaholatga qarshi – ma'rifat"ni qurol qilgan ajdodlarimizdan bizgacha yetib kelgan boy ma'naviy meros o'ziga xos najot qal'asi, himoya qo'rg'oni vazifasini o'taydi, degan ugutlariga amal qilib, barcha olimu fuzalolar tomonidan ulug'langan, muqaddas va mo'tabar kitoblarni chuqur o'rganmog'imiz zarur. Xulosa sifatida aytish mumkinki, inson o'zligini anglashi daxldorligini bilishi atrof-muhitdagi voqeliklarga befarq bo'lmasdan, dunyoviy va diniy bilimlarni chuqur o'rganib, doimo izlanishdan to'xtamas, albatta "Jaholatga qarshi ma'rifat" kurasha oladi.

Xullas, yoshlarni o'z fikrlariga ega, turli ma'naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashda ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotganini anglab yetishimiz zarur.

⁸⁶Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси//Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь.

“Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyusiyasining qabul etilishi va uning ahamiyati. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” rezolyusiyasining qabul qilish taklifi ilgari surildi. Bu taklifning ilgari surilishi bejiz emas edi.

Aytish mumkinki, “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” to‘g‘risidagi rezolyusiya jahonda ekstremizm, terrorizm muammosi avj olib, turli din va e’tiqod vakillariga nisbatan toqatsiz, murosasiz munosabatlar kuzatilayotgan bir vaqtda global tahdidlarga qarshi kurashishning samarali vositasi sifatida ma’rifat, ta’lim-tarbiya masalasini ilgari surgani bilan, ayniqsa, ahamiyatlidir.

Bizga ma’lumki, XXI-asrga kelib, jahon dinlaridan biri — islomga qiziqish tobora ortib bormoqda. Afsuski, bu qiziqish ortida islomni niqob qilib, o‘zining jirkanch maqsadlarini amalga oshirishga urinayotgan kuchlar ham borki, ular nafaqat tinchlik va barqarorlikka, balki islom dini sofligiga ham katta tahdid solmoqda. Diniy ekstremistlarning yovuz maqsadlari, buzg‘unchi g‘oyalari bizni doimo hushyor va ogoh bo‘lishga chaqiradi. Mamlakatimizda muqaddas dinimizni soxtalashtirishga urinayotgan turli mutaassib kuchlarning yovuz harakatlariga qarshi kurashish, yoshlarni ekstremizm xataridan himoya qilish uchun ham mazkur rezolyusiyaga zarurat tug‘ildi.

Zotan, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Xoja Bahovuddin Naqshband, Burhoniddin Marg‘inoniy va boshqa ko‘plab allomalarimiz targ‘ib etgan islomiy qadriyatlar ma’naviy hayotimiz va din-diyonatimiz ko‘zgusi hisoblanadi. Ulug‘ allomalarimizning ma’naviy xazinasini yoshlarni ezgu ishlar bilan shug‘ullanishga, vatanparvar bo‘lishga, halol mehnat qilishga undaydi.

Diyorimizda yashab, faoliyat ko‘rsatgan ajdodlarimiz Islomni yuksak madaniyat va sivilizatsiya darajasiga ko‘tarishganini butun musulmon olami e’tirof etadi.

Shu boisdan ham davlatimiz rahbari o‘z nutqida: “Markaziy Osiyo Uyg‘onish davrining ko‘plab yorqin namoyandalarning islom va jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan bebaho hissasini alohida qayd etmoqchiman.

Ana shunday buyuk allomalardan biri Imom Buxoriy o‘z ahamiyatiga ko‘ra islom dinida Qur’oni karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan “Sahihi Buxoriy”ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan.

Bu ulug‘ zotning g‘oyat boy merosini asrab-avaylash va o‘rganish, ma‘rifatli islom to‘g‘risidagi ta‘limotini keng yoyish maqsadida biz Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qildik.

Toshkentda tashkil etilayotgan Islom sivilizatsiyasi markazining faoliyati ham shu maqsadga xizmat qiladi” deya alohida ta‘kidladi.

Aynan O‘zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan rezolyusiyada ko‘proq ma‘rifatparvarlik g‘oyalari ilgari surilib, jahonda xavfsizlik va tinchlikni mustahkamlash yo‘lida sog‘lom kuchlarni birlashtirishning, o‘zaro hurmat, inson huquqlari, murosa va o‘zaro anglashuvning muhimligi e‘tirof etilgan holda quyidagilarga alohida e‘tibor qaratiladi:

Birinchidan, rezolyusiyada madaniyatlar va dinlararo munosabatlardagi uyg‘unlikni rag‘batlantirish hamda shaxslarni din va e‘tiqodlariga qarab kamsitilishiga qarshi kurashishga qaratilgan barcha xalqaro, mintaqaviy, milliy tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanadi.

Ikkinchidan, hujjatda BMTning fan, ta‘lim va madaniyat masalalari bo‘yicha muassasasi – **YUNESKO**ning tinchlik va bag‘rikenglikni ta‘minlashdagi hal qiluvchi o‘rni e‘tirof etilgan.

Shu bilan birga, hozirgi davrda ayrim mintaqalardagi davom etayotgan din va e‘tiqod borasida diskriminatsiya, tahqirlash hamda zo‘ravonlik, terroristik guruhlar insonlarni dini va e‘tiqodi sababli doimiy ta‘qib qilayotganligidan jiddiy xavotir va tashvish bayon etilgan.

Mazkur xalqaro hujjatning qabul qilinishi, shubhasiz, O‘zbekiston tashqi siyosatining katta yutug‘i, mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarning mahsuli ekanidan dalolatdir.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

Tinchlik, barqarorlik, tenglik, qonun ustuvorligi, e‘tiqod erkinligi, bag‘rikenglik, milliy bag‘rikenglik, diniy bag‘rikenglik vijdon erkinligi,

jaholat, ma'rifat, "Jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" rezolyusiya, "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Mustaqillikni avaylab-asrash nimalarga bog'liq?
2. Bag'rikenglik – qanday tushuncha?
3. Milliy va diniy bag'rikenglik deganda nimani tushunasiz?
4. Har bir fuqaroning ma'naviy burchi nimadan iborat?
5. O'zbekistonda davlat va din munosabatlari qanday yo'lga qo'yilgan?
6. O'zbekistonda turli xil dinga e'tiqod qiluvchilarining huquqlari qanday himoya qilingan?
7. O'zbekistonda Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar haqidagi qonun qachon qabul qilingan?
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" rezolyutsiyasini qabul qilish taklifi qachon ilgari surildi?

16-§. KOMIL INSONNI SHAKLLANISHIDA MILLIY G'OYANING O'RNI

Komil inson, barkamol avlod tushunchalari, ularning mazmun mohiyati. Komil inson va barkamol avlodga xos bo'lgan fazilatlar. Komil va barkamol insonlar millat, jamiyat va davlat taqdiriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Inson kamolotida jismoniy va ma'naviy go'zallik muhim ahamiyat kasb etadi. Jismonan baquvvat, sog'lom bo'lish nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy qadriyatdir. Komillikning yana bir jihati vatanga, millatga, el-yurtga sadoqat bilan xizmat qilishdir.

Komillik insoniy fazilatlarning uyg'unligini ifodalaydi. Kishining ichki va tashqi dunyosi, sog'lom fikr va oqilona so'zi bilan amaliy faoliyati, tili bilan dili birday bo'lishi komillikning mezonlaridir. Barkamol inson haqidagi yuksak g'oyalar Abu Nasr Forobiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarning asarlarida, ayniqsa teran ifoda etilgan.

Komillik o‘zining muayyan shakllariga ega bo‘lib, uni quyidagilar tashkil etadi:

- jismoniy barkamollik
- aqliy barkamollik
- ma’naviy barkamollik
- milliy qadriyatlarga sodiqlik
- umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilish.

Aslida komil inson, bu - tariqat va riyozat yo‘li bilan qo‘lga kiradigan yuksak martabadir. Voiz Koshifay “Futuvvatnomai sultoniyy” asarida tasavvufning komillikka daxldor binosi o‘nta asosga qurilgani aytiladi: 1) ilm; 2) hilm; 3) taqvo; 4) saho; 5) shukr; 6) sidq; 7) vafo; 8) rizo; 9) safro; 10) ishq.

Prezident Islom Karimov fikricha, “Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o‘zgalarga ibrat bo‘ladigan bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz”⁸⁷.

Komillik. Kamolot. Barkamol. Mukammal odam. Komil inson. Piri komil... Bu so‘z, iboralarni ko‘p eshitamiz, aytamiz, o‘qiymiz. Lug‘atlarda Komil so‘zi – to‘liq, yetuk, mukammal ma’nolarini, “barkamol” esa yetuklikka erishgan, mukammal, kamol topgan, bekamu-ko‘st ma’nolarini berishi aytiladi. Yanada aniqroq kirsak, bekam – biror jihatida kami, kemptigi yo‘q; beko‘st – biror egri yoki ortiqcha joyi yo‘q, benuqson degani.

Milliy g‘oyamizning asosiy maqsadlaridan biri – har tomonlama komil insonni tarbiyalashdan iborat. Komil inson esa, bu – ozod shaxs, erkin fikr etuvchi, o‘z xalqining ideallari uchun kurashuvchi inson, o‘z Vataniga halol xizmat qiluvchi kishidir. Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, “bizning asosiy boyligimiz, rivojlangan davlat to‘zishga olib boradigan yo‘ldagi asosiy tayanchimiz – insondir. Yuksak malakali va yuksak ma’naviyatli insondir. Bu narsa, ayniqsa yosh avlodga tegishli”.

⁸⁷Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Тошкент: Шарқ, 1998 йил, 81-бет.

Komillik – mehr-muruvvat, adolat, to‘g‘rilik, vijdon, or-nomus, iroda, tadbirkorlik, matonat kabi ko‘plab asl insoniy xislat va fazilatlarining majmuidir.

Komil inson g‘oyasi asrlar davomida xalqlar, dinlarning ertak, dostonlarida, milliy qadriyatlarida, rivoyatu hikoyatlarida, kitoblarida, urf-odatlarida kelayotir. Al Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy kabi allomalarimiz asarlarida, milliy tarbiyamizning bosh g‘oyasi bo‘lib keldi. Jahon sayyohlarini maftun qilayotgan me‘moriy obidalar, qasrlar, madrasalar peshtoqlaridagi yozuvlarda, haykal, devoriy suratlarda ham bobolarimizning (bugungi tilda aytsak) g‘oyalari bitilgan. Ularda ham “Komil inson” g‘oyasining turli shakl va tasvirlari bisyor. Shuning uchun haqli ravishda O‘zbekiston - olamga komil inson g‘oyasini bergan buyuk sivilizatsiya markazlaridan biri, deya olamiz.

Ta’lim-tarbiyaning milliy g‘oya negizlariga asoslanishi hamda barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati. Komil inson g‘oyasi biz uchun bugun ko‘tarilgan g‘oya emas. Bu haqiqat milliy tarbiyamizning tub negizlaridan kelayotir. Bunga yer ustidagi obidalar ham, yer ostidagi arxeologik dalillar ham guvohlik bermoqda. Ularda bobolarimizning barmoq izlari qolgan.

Ma’lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilmu ma’rifat, ta’lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan.

Abatta, ta’lim-tarbiya – ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan, ya’ni, xalq ma’naviyatini shakllantiradigan va boyitadigan eng muhim omildir. Binobarin, ta’lim-tarbiya tizimini va shu asosda ongni o‘zgartirmasdan turib, ma’naviyatni rivojlantirib bo‘lmaydi.

Shu bois bu sohada yuzaki, rasmiy yondashuvlarga, puxta o‘ylanmagan ishlarga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Maktab, ta’lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo‘lishi Asosiy qonunimizda belgilab qo‘yilgan.

Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun xalqimizning ishtiroki va qo‘llab-quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir. Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi,

boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim-tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim va tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi.

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

Ma'lumki, so'nggi yillarda globallasuv turli tuman qarashlar asosida, deyarli barcha ijtimoiy hodisalar bilan bog'liq ravishda talqin etilayotgan muammolardan biriga aylandi.

Hozirgi kunda globallasuv jarayoni yangi-yangi hudud va mintaqalarni, inson faoliyatining barcha sohalarini o'z domiga tortayotganining guvohi bo'lmoqdamiz. Ayniqsa, ba'zi nosog'lom kuchlar, mafkuraviy va ma'naviy sohada o'z g'oya hamda mafkuralarini singdirish, ta'sir doiralarini kengaytirish maqsadida, o'z manfaatlarini ko'zlab, globallasuv jarayonidan kengroq foydalanishga intilmoqdalar. Biz esa bundan yoshlarizni himoya qilishimiz uchun ularning ma'naviyatlarini yuksak qilishimiz va kamolotga erishishlari yo'lida barcha sharoitlarni yaratib berishimiz zarur hisoblanadi. Odam bolasiga beriladigan tarbiya, birinchi navbatda, ilmga, fanga asoslanmog'i, ta'limiy jihatdan to'g'ri tashkil etilmog'i lozim. Agar tarbiya pala-partish holda savodsizlarcha tashkil etilsa, tizimli va muntazam ravishda olib borilmasa, bunday «tarbiya» inson kelajagiga, shaxsning shakllanishiga faqat zarar keltiradi. Mana shu

qoidalarga amal qilingandagina ta'lim-tarbiya o'zining pirovard maqsadiga erishishi - komil insonni voyaga yetkazishi mumkin.

Komil insonning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, shart-sharoitlar. Komil insonlarni "hozir va shu yerda", ma'naviy tarbiyaviy ishlarni ilmiy asosga qurib yetishtirish qudratiga va tizimiga egamiz. Buning uchun soha olimlari tomonidan shaxsni kamolatga eltuvchi:

- fazilatlar ma'nosini anglash;
- ularga ega bo'lish;
- ularga amal qilib yashash

degan uch metodologik mezoni asoslab berildi.

Komil shaxs bu –yuksak salohiyatli, ma'naviy uyg'oq, or-nomusli, uyat va andishali, sharmu hayoli, iboli va iffatli, sobitqadam, shijoatli, diniy qadriyatlarni biluvchi, savob ishlarni ko'p qiladigan, tariximiz, madaniyatimiz, buyuk ajdodlarimiz merosini chuqur biluvchi, vatanga sodiq, milliy g'ururli, yuksak ma'naviyatli, yangicha fikrlovchi, Amir Temur bobomizning shijoat, azmu qaror va o'ktamligiga ega, fidoyi, yuksak huquqiy madaniyatli, jahon tarixi va madaniyati yutuqlarini chuqur o'rgangan, mard, tashabbuskor, el-yurt tashvishini zimmasiga oladigan, daxldor, iymonli-e'tiqodli, o'z haq-huquqini bilib, himoya qila oluvchi, mustaqilligimizni ko'z qorachig'iday himoyalovchi, saxiy, o'z mustaqil fikriga ega, mehr-oqibatli, g'oyaviy va mafkuraviy ta'sirlarga qarshi tura oladigan, o'tganlarni xotirlab, tiriklarni qadrllovchi, qisqa fursatlarda erishgan yutuqlarimizni davom ettirishga qodir, bilimli va iste'dodli, mehnatsevar, tadbirkor va yangilikni tez ilg'aydigan, g'ayrat-shijoatli, irodali, qat'iyatli, sabot-matonatli, jasur, faol, zamonaviy, yuksak texnologiyalarni o'zlashtirgan, sog'lom turmush tarziga intiluvchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol topgan, ogoh, hushyor, munosib daromad topuvchi, yuqori malakali, mas'uliyatli, yetuk mutaxassis.

Bugungi kunda Vatan ijodkorlar zimmasiga yoshlarga ibrat bo'ladigan yangi barkamol insonlar, zamonaviy qahramonlar timsolini yaratish vazifasini yuklamoqda. Mustaqil Vatanimiz oliy maqsad qilib olgan ozod va

obod Vatan, erkin va farovon hayotni barkamol, ezgu g'oyalarni hayotiy e'tiqodiga aylantirgan yetuk insonlarga bunyod eta oladi.

Shuning uchun yangilanayotgan jamiyatimizda sog'lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma'naviyatini shakllantirish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yuksak darajaga ko'tarish orqali komil insonlarni voyaga yetkazishga yuksak e'tibor berilmoqda. Vatanimizda sog'lom avlod harakatining keng tus olgani, kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ta'lim-tarbiya tizimining tubdan isloh etilayotgani ham ana shu ulug'vor maqsadni amalga oshirish yo'lidagi muhim qadamlardir.

Barkamol avlodning shakllanishi, unga xos xususiyatlar: yangicha tafakkur, falsafiy dunyoqarash, ma'naviy axloqiy poklik, yuksak ma'naviyat. Mamlakatimiz aholisining aksariyat qismini yoshlar tashkil etadi. Yosh avlodni kelajakda odob-axloqli, ilmi bo'lib yetishishlariga avvalo kimlar mas'ul, degan savol tug'iladi. Ularning odob-axloqi, ta'lim-tarbiyasi mas'uliyati uyda ota-ona, o'rta va oliy o'quv yurtlari hamda maktablarda muallim va ustozlar zimmasidadir. Haqiqatda, tadbirli, ziyrak ota ona bolalarini ibratli hulq, chiroyli muomala, mehribonlik, kamtarlik, yaxshi nasixat, to'g'ri yo'l ko'rsatish kabi vositalardan foydalangan holda tarbiyalaydi. Shundagina bolalar ezgulik, o'zgalarga hurmat ko'rsatish, mexribonlik qilish muhitida ulg'ayadilar. Bunday o'g'lonlar ziyrak, solih, vadasiga vafo qiluvchi, zimmasidagi mas'uliyatlarni bajaruvchi bo'lib yetishadi.

Yosh avlodda sog'lom e'tiqodni tarbiyalashda oila va oila a'zolarining roli yetakchilik qiladi. Shu sababli biz kichik yoshli o'quvchilarda e'tiqod tarbiyasini eng muhim omil sifatida e'tirof etamiz. Xalqimiz qadim-qadimdan oilani muqaddas dargoh, yangi avlod tarbiya qilinadigan asosiy tarbiya o'chog'i deb biladi. Farzand tarbiyasida oilaning o'rni katta ekani xalqimizning "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan hikmatida ham o'z ifodasini topgan. Sog'lom e'tiqodlilikni shakllantirish yurtimizda asrlar davomida shakllangan islom dinida e'tiqod tarbiyasining mazmuniga maxsus to'xtalish zarurligini taqozo qiladi.

O‘quvchilarda vijdoniylikni tarbiyalash – sog‘lom e‘tiqodni shakllantirishning markaziy vazifasi bo‘lib, undan maqsad har bir bola o‘zining o‘quvchilik, farzandlik, vatanparvarlik, bo‘ljak fuqarolik burchlarini mukammal anglashiga va ularga amal qilishga, doimo va hamma joyda rostgo‘y bo‘lishga, milliy odobga, vatanparvarlikka, dinlararo bag‘rikenglikka, milliy g‘ururga intilish va unga zid hatti-harakatni taniy bilish hamda ularga qarshi turish, va‘da bersa mukammal bajarishga, bilmagan holda xato yoki gunoh qilsa, darhol o‘zi kechirim so‘ray olishga, yolg‘onchilik, subutsizlikni doimo, hamma joyda qoralashga qodirlikni shakllantirishdan iborat.

“O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini amaliyotga tabiiq etishning dolzarb masalalari (PQ-5465 asosida). Komil insonni tarbiyalash – jamiyatning ham, jamiyatda ilgari surilayotgan milliy g‘oyaning ham ezgu maqsadi. O‘z o‘rnida milliy g‘oyani Vatan tuyg‘usidan ayriacha tushunish mumkin emas. Aynan shuning uchun ham har bir o‘zbekistonlikning, demak, har birimizning taqdirimiz shu davlat va jamiyat rivojiga bog‘liq ekanini chuqur anglatish, bu tuyg‘uni ularda amaliy harakatga, hayot tarziga aylantirish milliy g‘oyaning eng muhim xususiyatidir.

Jahon tarixida xalqlarning yuksalishi ularning ma‘naviy, g‘oyaviy birlashuvidan boshlangan. Ular aynan milliy g‘oya asosida murakkab sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tgan. Milliy g‘oya ularni Vatanga bo‘lgan sadoqati, ma‘naviyati va madaniyatini yuksaltirib, buyuk maqsadlar sari safarbar etgan.

Mamlakatimizni taraqqiy ettirish bo‘yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalardan kelib chiqqan holda milliy g‘oyani rivojlantirish dolzarb masalaga aylandi. Zero, Harakatlar strategiyasini Milliy strategiyamiz desak ham adashmaymiz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 aprel kuni “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoyishi qabul qilinganidan buyon o‘tgan vaqt davomida bir qator ishlar qilindi. Xususan, taniqli olimlar, ekspertlar, ijodkor

ziyolilardan iborat ishchi guruh tomonidan Milliy g'oya konsepsiyasi loyihasi ishlab chiqildi.

Mazkur konsepsiyada mamlakatimizda milliy yuksalish g'oyasi asosida amalga oshiriladigan eng muhim vazifalar aks etgan. Milliy yuksalish g'oyasida yurtimizda tinchlik, fuqarolar va millatlararo hamjihatlik va bag'rikenglikni mustahkamlash, demokratik tamoyillarni to'liq qaror toptirish, inson huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligi va adolat, moddiy va ma'naviy hayotni barobar rivojlanishi o'z ifodasini topgan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, O'zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari", degan ulug' maqsad bosh g'oya sifatida maydonga chiqmoqda.

Milliy yuksalish g'oyasining asosiy tushunchalari sirasiga kiritilgan "Yagona Vatan tuyg'usi", "Adolat - qonun ustuvorligida", "Xalq roziligi", "Jaholatga qarshi ma'rifat", "Innovatsion taraqqiyot" tushunchalari milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari degan ulug' maqsad davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini kompleks rivojlantirishni, mamlakat ahliga bunyodkorlik va yaratuvchanlik ruhini baxsh etishni nazarda tutadi.

Konsepsiya loyihasida Milliy yuksalish g'oyasining asosiy tamoyillari bayon qilingan. Unda qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklarini eng oliy qadriyat darajasiga ko'tarish; oshkoralik va fikrlar xilma-xilligiga rioya etish; shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari hamda mas'uliyati uyg'unligiga erishish; farovon hayot barpo etishga qaratilgan iqtisodiy omillar samaradorligini oshirish; milliy yuksalish g'oyasini umummilliy harakatga aylantirish jamiyatni harakatga keltiruvchi asosiy tamoyillar sifatida berilgan.

Konsepsiyada e'tiborga molik yana bir muhim jihat bor: jaholat nafaqat diniy, balki dunyoviy, dahriylik ko'rinishida ham namoyon bo'lishiga alohida ko'rsatib o'tilgan. Bu ayrim kishilar tomonidan dinni yomonotliq qilishga urinish holatlariga qarshi munosib javob bo'ladi. Darhaqiqat, Milliy g'oya bunday jaholat ko'rinishlariga qarshi ma'rifat asosida kurash olib boradi, ma'naviyat va ma'rifat masalasini O'zbekistonlik barcha sog'lom fikrli, mas'uliyatli kishilarning vijdon ishiga aylanishiga da'vat etadi.

Hech kimga sir emas, mamlakatimiz tabiiy zaxiralari, iqtisodiy va insoniy salohiyatiga ko‘ra dunyodagi yetakchi mamlakatlar sirasiga kiradi. Shu bilan birga, O‘zbekistonning eng katta boyligi – bu xalqning ulkan intellektual va ma’naviy salohiyatidir. Qadim davrlardan buyon yurtimiz hududidan Imom Buxoriy, Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Moturidiy, Zamaxshariy, Navoiy kabi jahon ilm-fani taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan ulug‘ alloma va mutafakkirlar yetishib chiqqan. Xalqimizda bir naql bor “Oqqan daryo oqadi” degan, bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 60 foizdan ziyodini yoshlar tashkil etadi.

Ularga ilm olishi uchun munosib shart-sharoitlarni yaratilsa, nafaqat bobolarga munosib avlodlar tarbiyalanadi, shuningdek, inson kapitalining katta zaxirasini yaratishga erishiladi. Bu esa “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan ulug‘vor g‘oyani ro‘yobga chiqarishda, iqtisodiyotni, butun mamlakatni innovatsion asosda rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

Komillik, kamolot, barkamol, mukammal odam, komil inson, barkamol shaxs, axloqiy fazilat, ma’naviy qadriyat, ma’naviy yetuklik, jismoniy barkamollik, aqliy barkamollik, ma’naviy barkamollik, milliy qadriyatlarga sodiqlik, umumbashariy qadriyatlarni hurmat qilish, konsepsiya, milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Komil inson g‘oyasining ilmiy metodologik asosini nimalar tashkil qiladi?
2. Komillik qanday tushuncha?
3. Komillik qirralarini izohlab bering...
4. Komil inson g‘oyasining tarixiy ildizlariga nimalar kiradi?
5. Milliy mafkuramizning komil inson g‘oyasi qanday ta’riflanadi?
6. Komil inson g‘oyasining amal qilish tamoyillarini sanab bering...
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab

chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoyishi qachon qabul qilindi?

8. Milliy yuksalish g'oyasining asosiy tushunchalarini sanab o'ting...

17-§. MA'NAVIYATGA TAHDIDLARNING OLDINI OLISHDA MILLIYG'OYAGA TAYANISH ZARURATI

Ma'naviy tahdid, g'oyaviy tazyiq va tajovuz tushunchalari, ularning mazmun-mohiyati va yuzaga kelish shart-sharoitlari. Ma'lumki, ma'naviy tahdid insonning ongi, dunyoqarashi va axloqiga daxl qilishi bilan jiddiy xavf hisoblanadi. Bu xavf ko'zga ko'rinmasada, lekin uning keltiradigan zarari yuqumli kasalliklardan kam emas. Shu ma'noda "tarixiy haqiqatni anglamaydigan yoki anglashni istamaydigan chet eldagi ba'zi siyosatchi va arboblarni nafaqat siyosat yoki iqtisod, balki ma'naviyat bobida ham bizga aql o'rgatishga, azaliy hayot tarzimiz, ruhiy dunyomizga yot bo'lgan qarashlarni majburan joriy etishga urinmoqda"⁸⁸. Haqiqatan ham bunday urinishlar turli usullar va vositalar yordamida amalga oshirilmoqda.

"Tahdid" deganda inson hayotiy faoliyati, umuman, yashashini chigallashtiruvchi hamda aniq tarixiy davr davomida aniq maqsad uchun yo'naltirilgan ijtimoiy strukturani, to'g'rirog'i, davlatning siyosiy asosini zaiflashtiruvchi, qolaversa, yemirishga qaratilgan mahalliy, hududiy, mintaqaviy va nihoyat, umumsayyoraviy salbiy omillarning "kirib kelishi" tufayli yuz beruvchi makon va zamonda muayyan salbiy siyosiy ijtimoiy va tarixiy vaziyatni tushunish lozim.⁸⁹ [

"Tahdid" fenomeni, uning siyosiy jihatlarini sayyoramizning turli mamlakatlarida ijod qilayotgan zamondosh tahlilchilar hamda siyosiy va jamoat arboblarning e'tiborini ham o'ziga tortib kelmoqda. Shu jumladan, Reyshauer, Nibur, Xantington, Kissinjer (AQSH), Toynbi (Angliya), Turen (Fransiya), Moiseyev (Rossiya), qolaversa "Rim klubi" va Paguosh tinchlik

⁸⁸Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008 йил, 11-бет.

⁸⁹Пахрутдинов.Ш. "Таҳдид" тушунчаси: назария ва амалиёт. – Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1998 йил, 7-8-бетлар.

harakati⁹⁰ kabi ilmiy-amaliy muassasalar rahbarlari va fidoiylari faoliyatini misol tariqasida keltirish mumkin.

“Tahdid” tushunchasi to‘la ma’noda siyosiy leksikonga Prezident I.Karimov tomonidan 1994 yil 22 sentabrda Oliy Majlis sessiyasida so‘zlagan nutqida birinchi bor kiritildi⁹¹.

“Ma’naviy tahdid” iborasini ikki so‘z birikuvidan iborat: ma’naviy va tahdid. “Ma’naviy” deganda insonning ichki dunyosi, ongi va qalbi nazarda tutiladi.⁹² “Tahdid” deganda esa hadig, ya’ni tajovuz qilish, yo‘ldan chiqarishga asoslangan xavf-xatarlar majmui tushuniladi.⁹³ Tahdid xavf-xatardan darhol ko‘zga tashlanmasligi, uzoqni ko‘zlashi va xavf-xatarga nisbatan zarari ko‘pligi bilan farq qiladi. Mazkur so‘z 1997 yili Yurtboshimiz tomonidan ilk bor atama darajasida qo‘llanilgan.⁹⁴

Prezident Islom Karimov ma’naviy tahdid tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Ma’naviy tahdid deganda, avvalo tili, dini, e’tiqodidan qat’iy nazar, har qaysi odamning tom ma’nodagi erkin inson bo‘lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko‘zda tutadigan mafkuraviy, g‘oyaviy va informatsion xururjlarni nazarda tutish lozim...”⁹⁵

Ma’naviy tahdidlar faqat inson tomonidan yaratiladi va faqat insonga tajovuz qilishi bilan zararlidir. Shu ma’noda bu o‘rinda Prezidentimiz tomonidan ta’kidlab o‘tilgan ma’naviy tahdidlarning uch turini idrok qilib olish lozim bo‘ladi.

Shuni ta’kidlash lozimki, ma’naviy tahdidlar tili, dini va e’tiqodidan qat’iy nazar har bir insonga qaratilgan. Bundan maqsad, birinchidan, shaxsning ma’naviy-axloqiy olamini buzish; ikkinchidan, o‘z vatani va jamiyatiga nisbatan yovuzlik fikrini uyg‘otish; uchinchidan, milliy axloqiy

⁹⁰ Пахрутдинов.Ш. “Тахдид” тушунчаси: назария ва амалиёт. – Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1998 йил, 6-бет.

⁹¹ Пахрутдинов.Ш. “Тахдид” тушунчаси: назария ва амалиёт. – Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1998 йил, 6-бет.

⁹² Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. 3-жилд. –Тошкенти: “Фан”. 2008 йил. 91-бет.

⁹³ Шу манба. 4-жилд. 201-бет.

⁹⁴ Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка тахдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. – Тошкент: “Ўзбекистон” 1997 йил.

⁹⁵ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008 йил, 13-14-бет.

qadriyatlarni aynitish; to'rtinchidan, o'zgarlar jamiyatini ideal deb bilish ko'nikmasini hosil qilish; beshinchidan, zararli odatlarga xuruj qo'yish. Diqqat qilsak ma'naviy tahdidlarning barcha turi nosog'lom turmush tarzi bilan bog'liqligiga va u mafkuraviy nuqtai nazardan eng xavfli omil ekanligiga amin bo'lamiz. Chunki uning negizini shaxs tarbiyasini izdan chiqarishga qaratilgan zararli g'oya tashkil etadi.

S.M. Yo'ldosheva tadqiqotlariga ko'ra, ma'naviy tahdidlar bir necha ko'rinishdan iborat bo'lib, birinchi ko'rinish mafkuraviy xurujlarni o'z ichiga qamrab oladi. Bunda asosiy e'tibor shaxs fikrini buzish, shaxs dunyoqarashini aynitish va shaxs pozitsiyasini o'zgartirishga qaratiladi. Noto'g'ri fikrlash, mutaassibona dunyoqarash va zararli hayotiy pozitsiya shaxsning mafkuraviy nosog'lomligini anglatadi.

Ma'naviy tahdidning ikkinchi ko'rinish g'oyaviy tahdiddir. Bu xuruj ham uch ma'noga ega bo'lib, bunda asosiy e'tibor shaxs xulq-atvorini aynitish, shaxs axloqiy munosabatlarini izdan chiqarish va shaxs muomalasini buzishga qaratiladi. Zararli xulq-atvor, nosog'lom axloqiy munosabat va qo'pol muomala shaxsning xulqi zaifligidan dalolat beradi.

Ma'naviy tahdidning uchinchi ko'rinishi informatsion xujumdur. Bunda asosiy e'tibor shaxsga noto'g'ri ma'lumot berish, shaxs bilimni primitlashtirish va shaxs faoliyatini zaiflashtirishga qaratiladi. Noto'g'ri ma'lumotga ega bo'lish, sayoz bilimlilik va samarasiz faoliyat shaxsning madaniy oqsoqligidan dalolatdir. Bir so'z bilan aytganda, ma'naviy tahdidlar jamiyat kishilarini johil kimsalarga aylantiruvchi ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlaridir⁹⁶.

Ma'naviy tahdidlarni o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Birinchi, ma'naviy tahdidlar nosog'lom turmush tarzi asoratidir;

Ikkinchi, ma'naviy tahdidlar ma'naviy va axloqiy tubanlik illatlarini ifodalaydigan subyektiv omillar majmuidir;

⁹⁶ Йўлдошева С.М. Соғлом турмуш тарзи – таҳдидларга қарши кураш омили сифатида. Соғлом турмуш тарзини шакллантиришда ахлоқий кадриятларнинг ўрни. // Тошкент: 2009 йил, 192-бет.

Uchinchidan, ma'naviy tahdidlar shaxs axloqiy ongini buzish vositasida jamiyat hayotini izdan chiqarishga, nosog'lom turmush tarzini yoyishga yo'naltirilgan.

Mahalliy-hududiy darajadagi ma'naviy tahdidlar. Global miqyosdagi ma'naviy tahdidlar, ularning mazmun-mohiyati. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda jamiyatimiz taraqqiyotiga xavf solib turgan mahalliy-hududiy darajadagi ma'naviy tahdidlar quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda: xudpisandlik - bu illat jamoatparvarlik fazilatlariga qarshi o'laroq, shaxs axloqiy ongida noto'g'ri tushuncha va qarashlarni hosil qiladi. Shu sababli xudpisand kimsalarda burch va mas'uliyat tuyg'usi bo'lmaydi. Bundaylar faqat bugungi kunni o'ylab yashaydi, ertangi kunni o'ylash, ezgulik va haqiqat uchun kurashish fazilatlaridan xoli bo'ladi. Bundan tashqari ma'naviy tahdidlar quyidagi illatlarni targ'ib qilayotgani bilan namoyon bo'lmoqda: xudbinlik, nopoklik, nafs qutqusiga uchish, huzur-halovatga berilish, yengil-yelpi umr kechirishga da'vat, giyohvandlik, mutaasiblik, tajovvuzkorlik, molu-dunyoga o'chlik, axloqiy buzulqik, zo'ravonlik, axloqsizlikni madaniyat deb bilish, va aksincha asl ma'naviy qadiryatlarni eskilik sarqiti deb qarash, loqaydlik, mahalliychilik, hasadgo'ylik, baxillik, sotqinlik, irodasizlik, beparvolik.

Global miqyosdagi ma'naviy tahdidlar quyidagi asosiy ko'rinishlarda namoyon bo'lmoqda:

1. Mutaasiblik
2. "Ommaviy madaniyat"
3. Giyohvandlik
4. OITS illati
5. Uyushgan jinoyatchilik
6. Terrorizm
7. Diniy ekstremizm va hk.

Bu tahdidlar aynan xorijdan eksport qilinayotgani bilan ham xavfli hisoblanadi. Ular orasida ayniqsa mutaasiblik ma'naviy tahdidi keng ko'lamligi va salbiy ta'sirga egaligi bilan o'ta xavfli hisoblanadi.

Mutaassiblik deganda insonning biror g‘oya, aqida yoki odatlarga meyoridan ortiq darajada ishonishi tushuniladi. Mutassib odam odatda o‘zining tushunchalarini va qarashlarini mutlaq haqiqat deb biladi. O‘zgarlar fikr-mulohazalarini eshitishni ham istamaydi. “Men haqman, mening bilganlarim to‘g‘ri”, - deb o‘zini ishontiradi va ruhiy jihatdan aynaydi.

Mutaassiblik maqsadli va ongli ravishda g‘alamis va g‘arazgo‘y kimsalar, guruhlar tomonidan targ‘ib qilinadi. Ayniqsa, yoshlarning ongini zaharlab, o‘zlarining zararli maqsadlarini amalga oshirish uchun foydalaniladi.

Masalan, diniy aqidaparastlik iymon-e‘tiqodni noto‘g‘ri talqin qilishdan iborat. Unga ko‘ra, johil kimsalar iymon borasidagi o‘z tushunchalarini yoshlar ongiga singdiradilar. Haqiqiy diniy manbalarni o‘qitmaydilar. Yurtimizdan chiqqan mutafakkirlar asarlarini o‘qima, ota-onang yoki yoru-birodarlaring gap-so‘ziga quloq solma deya o‘rgatishadi.

Mutaassiblikning zararli oqibatlarini moddiy zararlardan o‘nlab barobar ustuvor turadi. Bu zararli oqibatlarining eng asosiylari sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

1. Mutaassiblik shaxs aqlini zaiflashtiradi.
2. Mutaassiblik shaxs qarashlari va fikrlarini dogmalashtiradi.

Barcha zamonlarda mutaassiblik qoralanib kelingan. Atoqli yozuvchi biri Ch.Aytmatov mutaassiblik oxir-oqibatda insonning nasliga daxl qiladi, degan fikrga kelgan (“Qiyomat” asari).

G‘arb madaniyatini ustuvor bilish aqidasi milliy madaniyatga bepisandlikka, ongsizlik va xalqona urf-odatlarini rad qilishga asoslanadi. Ochiq-sochiq kiyinish, jamoat joylarida axloqsizlik qilish, G‘arb turmush-tarzigina havas bilan qarash kabi illatlar tabiiy qabul qilinadi. Ko‘r-ko‘rona taqlid “San’atda oshkoralikni pesh qilib, televizor, kino ekranlarida, matbuot vositalarida bo‘limg‘ur lavhalarni aks ettirish, bema’nilik va hayosizlikni, ba’zan esa, hatto axloqiy buzuvchilikni targ‘ib qilishlari ko‘payib qolgani”⁹⁷ bunga yordam bermoqda. Shu sababli G‘arbgina ko‘r-ko‘rona taqlidchilik aqidasiqina qarshini kurashish lozim.

⁹⁷ Каримов И.А. Юсак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008 йил, 80-бет.

“Ommaviy madaniyat” hodisasi G‘arb olamida XIX-asr o‘rtalarida paydo bo‘ldi. Bu hodisa milliy madaniyatga zid o‘laroq ayrim shaxslar tomonidan o‘ylab topilgan g‘oyalar, udumlar va odatlar majmuini qamrab oladi. “Biz yurtimizda yangi hayot asoslarini barpo etar ekanmiz, bir masalaga alohida e‘tibor berishimiz lozim . . . Chetdan biz uchun mutlaqo yot bo‘lgan, ma‘naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o‘z ichiga olgan “ommaviy madaniyat” yopirilib kirib kelishi mumkinligini unutmash kerak”.⁹⁸ Bu eng maqbul ta‘rifdir. Zero “ommaviy madaniyat” asosini ma‘naviy va axloqiy tubanlik illatlari tashkil qiladi.

Giyohvandlik deganda inson ongini va fiziologik quvvatlarini sarxush holatga soluvchi moddalarni qabul qilish tushuniladi. Giyohvandlik insonni ma‘naviy aynatuvchi vosita sifatida g‘alamis kuchlar tomonidan tarqatilayotgan ijtimoiy illatdir. Turli psixotrop vositalar (o‘simlikning kuchaytirilgan zaharli unsurlari) yordamida insonga ruhiy-ma‘naviy va jismoniy salbiy ta‘sir ko‘rsatishga urinilmoqda. Bunday hatti-harakat chetdan turib ongli ravishda amalga oshirilmoqda.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, giyohvandlik balosiga ko‘proq 13-16 yoshlar oralig‘idagi o‘smirlarni tortishga harakat qilinadi. Chunki bu yoshda kishi qiziquvchan, hayot ne‘matlarini tortib ko‘rishga intiluvchan va salbiy oqibatlarni o‘ylashga ulgura olmaydigan bosqichda bo‘ladi. Natijada bor-yo‘g‘i ikki marta giyohvand modda qabul qilgan o‘smir unga odatlanib qoladi.

Giyohvandlik illatining mazmuni ikki xususiyatdan iborat: 1) insonni ruhiy-ma‘naviy falajga aylantirish; 2) insonni jismoniy jihatdan noto‘g‘ri shakllantirish. Bu ikki xususiyat millat salomatligiga daxl qilish bilan kishini hushyor torttiradi. Binobarin, giyohvandlik illatining shakl va turlari baloqazodek ko‘payib borayotganligi sog‘lom fikrli kishilarni tashvishga solmoqda.

Giyohvandlikning turli shakl va ko‘rinishlari qanday xususiyatga ega bo‘lishidan qat‘iy nazar inson, jamiyat va millat uchun xavflidir. Bu baloga qarshi kurashish har bir kishining vijdoniy burchi bo‘lishi kerak.

⁹⁸Каримов И.А. Юксак маънавият – энгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008 йил, 117-бет.

O‘zbekiston bugun jahon ahlini tashvishga solayotgan muammolarni hal etishda ham faol ishtirok etmoqda. Shulardan biri OIV/OITS kasalligining tarqalishiga qarshi keng ko‘lamli kurashdir. Bugungi kunda ilm-fanning barchasi sohasida bu kasallikning insoniyat uchun xavfli ekanligi to‘g‘risida bong urilmoqda va keng jamoatchilik uning zararli oqibatlari haqida xabardorlikka ega. Bunda davlat miqyosida olib borilayotgan ishlarning salmog‘i ahamiyatli bo‘lmoqda.

OITS tarqalishini oldini olish va unga qarshi kurashning mafkuraviy usul va vositalari ham ishlab chiqilishi kerak. Hozircha bu borada amalga oshirilayotgan ishlar yetarli emas. Chunki bu masalada aniq mafkuraviy usul va vositalar kerak. Bunday usul va vositalarni shlab,chiqish kasallikni davolashga emas, uning oldini olishga xizmat qiladi. Mana shu jihati bilan OITSGa qarshi kurashning mafkuraviy usul va vositalari katta ahamiyatga ega.

Uyushgan jinoyatchilik ijtimoiy o‘ta xavfli bo‘lib, jinoyatchilikning “cho‘qqisi”ni anglatadi. U odatdagi jinoiy sheriklarlan farqli o‘laroq jinoiy hamjamiyat tarzidagi faoliyatni bildiradi.

Uyushgan jinoyatchilik – barqaror hodisa bo‘lib, odatdagi jinoyatning oldini olish – profilaktika tadbirlariga bo‘ysunavermaydi, chunki jinoiy jamoa ishtirokchilarining kriminogen bog‘liqligi doimiy o‘zaro ta’sir bilan kuchaytirib turiladi, guruh a’zolaridan birining jinoiy muhitdan chetga chiqishiga urinishi esa shafqatsizlik bilan o‘ch olinishiga sabab bo‘ladi.

Uyushgan jinoyatchilik keng qamrovliligi bilan ajralib turadi. Ko‘pincha butun boshli xududlarni, xalq xo‘jaligi tarmoqlarini o‘z to‘ri bilan qamrab olib, jinoyatchilarning huquq - tartibot idoralaridagi ayrim korrupsiyaga moyil xodimlari, poraxo‘r, mansabini suiste’mol qilish, katta miqdorda davlat va jamoa mulkini o‘zlashtirish, qonunga xilof kontrabanda-valyuta operatsiyalari yordamida jamiyat taraqqiyotiga g‘ov soladi.

Terrorizm – jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish, aholi keng qatlamlarida vahima va qo‘rquv uyg‘otishga qaratilgan siyosiy kurashning o‘ziga xos usulidir. U yashirin (konspirativ) ruhdagi tashkilotlar tomonidan beqarorlik keltirib chiqarish orqali hokimiyatni egallash maqsadida amalga

oshiriladi. Terrorchi guruhlar jamiyatda aholining keng qatlami nomidan harakat qilayotgandek taassurot uyg‘otish maqsadida diniy shiorlardan niqob sifatida foydalanadilar.

Terrorizmning eng asosiy xususiyatlaridan biri ushbu harakat tarafdorlarining “Kuch ishlatish va zo‘ravonlik davlatni qulatuvchi va hokimiyatga erishishni osonlashtiruvchi parokandalikka olib keladi”, degan g‘oyaga asoslanib harakat qilishlaridir. Terrorizmning yana bir xususiyati hech qanday urush bo‘lmayotgan, demokratik institutlar faoliyat ko‘rsatayotgan, tinchlik hukmron jamiyat sharoitida muqobil usullarni atayin inkor etgan holda, siyosiy masalalarni zo‘rluk yo‘li bilan hal qilishga intilishda ko‘rinadi.

Terrorizm (lotincha “qo‘rqitish”, “vahimaga solish”) – aholining keng qatlamlarida vahima va qo‘rquv uyg‘otish, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallash maqsadiga qaratilgan jinoiy faoliyatdir. Hozirgi davrda u global miqyos kasb etib, xalqaro terrorizm shaklini oldi. Bunday shaklda u xalqaro ijtimoiy-siyosiy aks-sado beradigan qo‘poruvchilik sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Diniy ekstremizm – jamiyat uchun an’anaviy bo‘lgan diniy qadriyatlar va aqidalarni rad etish, ularga zid bo‘lgan g‘oyalarni aldov va zo‘rluk bilan targ‘ib qilishga asoslangan nazariya va amaliyotni anglatadi. Ekstremizm va terrorizm bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan yagona jarayonning birin-ketin rivojlanadigan bosqichlaridir.

Diniy-ekstremizm kelib chiqishining birinchi va asosiysi sababi mutaassib fikr va qarashlarning paydo bo‘lishidir. Mutaassiblik muayyan g‘oyalarning to‘g‘ri ekaniga qattiq ishonish, ularga mukkasidan ketish, “o‘zgalar” va “o‘zgacha” qarash va g‘oyalarga murosasiz munosabatda bo‘lish, boshqa firqa va mazhablarni butunlay rad etgan holda, ularni tan olmaslikda namoyon bo‘ladi. Mutaassiblik barcha davrlarda turli din va yo‘nalishlar orasida keskin nizo va to‘qnashuvlar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan.

Ayni paytda, dunyoviy va diniy bilimlarning sayozligi, sof diniy tushunchalarning asl mazmunini bilmaslik ham diniy ekstremistik g'oyalarning tarqalishiga sabab bo'lishi mumkin.

O'zbekistonda ma'naviy tahdidlarni oldini olishning shart sharoitlari va omillari, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy asoslari, texnik-texnologik imkoniyatlari. Bugungi kunda ekstremizm va terrorizm kabi turli ma'naviy – g'oyaviy tahdidlar alohida mamlakatlarning milliy xavfsizligi va umuman jahon hamjamiyatiga jiddiy tahdid uyg'otayotgan omilga aylandi. Umumbashariy muammoga aylangan ekstremizm va terrorizmni jahon hamjamiyati faqat birgalikda, turli tor geosiyosiy manfaatlardan voz kechgan holda harakat qilibgina yenga olishi mumkinligi aksariyat davlatlar tomonidan tan olingan ayni haqiqatdir. Ekstremizm va terrorizm illatining so'nggi paytlarda tobora kuchayib borayotgani mazkur muammoning naqadar dolzarb ekanini ko'rsatadi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ham bu masala yuzasidan: “Ayni vaqtda dunyoning ba'zi mintaqalarida yuzaga kelgan notinch vaziyat aholi migratsiyasi kuchayishiga, bu esa, o'z navbatida, terrorizm va ekstremizmning tarqalishiga hamda ularning global muammolardan biriga aylanishiga olib kelmoqda. Bunday vaziyatda milliy davlatchiligimiz, mustaqilligimiz, aholimizning tinch va osoyishta hayoti va xavfsizligimizni saqlash biz uchun eng ustuvor vazifaga aylanib bormoqda” deb so'zlaganlar. Ta'kidlash joizki, turli ekstremistik va terroristik tashkilotlar Markaziy Osiyo davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatni izdan chiqarishga qaratilgan faoliyatini davom ettirmoqda. Shu nuqtai-nazardan, muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev jahon hamjamiyati e'tiborini Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash maqsadida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash, terrorizm va ekstremizm, transmilliy jinoyatchilik va narkotrafik tahdidlariga qarshi samarali kurashishni BMT preventiv diplomatiya usullaridan foydalangan holda, shuningdek, MDH, SHHT, YEXHT va boshqa nufuzli xalqaro hamda mintaqaviy tuzilmalar mexanizmlari doirasida ta'minlash mumkin ekaniga, xavfsizlikka tahdidlarni

“o‘ziniki va o‘zgalarniki” deb ajratishdan voz kechish, “yaxlit xavfsizlik” tamoyiliga amalda rioya qilish zarurligiga qaratmoqda.

Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasi 72-sessiyasidagi nutqida xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etishi, shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifa ekaniga e’tibor qaratildi.

“Ekstremizm g‘oyalari ta’siriga tushib qolgan, to‘g‘ri yo‘ldan adashgan fuqarolar ijtimoiy rehabilitatsiya qilinmoqda, ularni sog‘lom hayotga qaytarish uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda.

Dunyoda terrorizm tahdidlari, ayniqsa, so‘nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi, asosan, kuch ishlatish yo‘li bilan kurashish usuli o‘zini oqlamayotganidan dalolat beradi.

Bu borada ko‘p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir.

Shu nuqtai-nazardan, Prezidentimizning ikki global ahamiyatga ega, ya’ni yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat – BMTning “Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro konvensiya”sini ishlab chiqish hamda BMT Bosh Assambleyasining “Ma’rifat va diniy bag‘rikenglik” deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilish haqidagi takliflari barcha mamlakatlar tomonidan katta qiziqish bilan qabul qilindi va qo‘llab-quvvatlandi.

Ma’naviyatga tahdidlarning oldini olishda milliy g‘oya va mafkuraviy tarbiyaning ahamiyati. Dunyoda g‘oyaviy hamda informatsion xurujlar, turli mafkuraviy, ma’naviy tahdidlar avj olayotgan bugungi kunda yoshlarimiz ma’naviyatini yuksaltirish, tafakkurida sog‘lom dunyoqarash asoslarini shakllantirish muhim ahamiyatga egadir. Buning eng samarali usuli mafkuraviy tarbiyani to‘g‘ri tashkil etishdir. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha: “Mafkuraviy tarbiya - inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat

dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayon⁹⁹. Jamiyatdagi har bir ijtimoiy kuch yoki aholi qatlamlari o'z manfaat va maqsad-intilishlarini ifoda etuvchi g'oyalar tizimini yaratgach, boshqa guruhlarni ham o'z g'oyalar ta'siriga tortishga harakat qiladi. G'oyalar adolatli va haqqoniy bo'lib, ko'pchilikning talab-ehtiyojlariga mos kelsa, bu sohadagi tarbiya vositalari ta'sirchan, tarbiyachilar esa faol va fidoiy bo'lsa ko'zlangan maqsadga erishiladi. Jamiyat, xalq hali o'z manfaatlarini anglab yetmagan, o'z mafkurasini shakllantirib, maqsad sari safarbar bo'lmagan hollarda begona va zararli g'oyalar ta'siriga tushish ehtimoli ortib boradi. Bu esa g'oyaviy tarbiyani yo'lga qo'yish, sog'lom mafkura tamoyillarini aholi ongi va qalbiga muttasil singdirishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

Aslida shaxs tarbiyasining muhim yo'nalishi - bu g'oyaviy tarbiyadir. Bu inson ongi va tushunchalari tizimida hayot haqidagi falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, estetik, axloqiy, badiiy, kasbiy qarashlarni maqsadli shakllantirish jarayonidir. Har qanday tarbiya jarayoni oxir-oqibat, o'z maqsad va mohiyatiga ko'ra g'oyaviy tarbiyadir. Chunki oilani olamizmi, bolalar bog'chasini, mahalla, maktab, kollej, litsey, universitet yoki akademiyaning olamizmi – hammasida beriladigan ta'lim va tarbiya jarayonlari talaba va tinglovchilar dunyoqarashini kengaytirish, ularning ongini ilmiy asoslangan bilimlar bilan boyitish hamda jamiyat uchun, uning ravnaqi uchun kerak bo'lgan sifatlarni kamol toptirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Bu ishlar bolaning dunyo haqidagi, olamning rivojlanish qonuniyatlari, insoniy munosabatlar borasidagi o'ziga xosliklar, axloq tamoyillari, go'zallik haqidagi tushunchalarini kengaytirishga xizmat qiladi. Bu - tom ma'noda mafkuraviy tarbiyaning asosiy poydevoridir. Shuning uchun mafkurasiz inson, mafkurasiz guruh, millat, xalq, jamiyat bo'lishi mumkin emas.

Mafkuraviy tarbiya insonning ijtimoiy hayot haqidagi muayyan bilimlar, baholar va ular zamirida yuzaga keladigan maqsadlar tizimi sifatida chiqishi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham, mafkura shaxsning ijtimoiy tasavvurlari, bilimlari, qadriyatlarini tizimi, hayotiy mo'ljallarining

⁹⁹ Фалсафа қомусий луғат. –Тошкент: Шарқ, 2004 йил, 250-бет.

shakllanishiga kuchli darajada ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, mafkuraviy tarbiya, ya'ni shaxs jamiyat hayoti, uning taraqqiyot qonunlarini, kuzatilayotgan hodisa, jarayonlarni nechog'li to'g'ri va to'liq tushunishi, o'rinli va adolatli baholashi, qanday maqsadlarni ko'zlab faoliyat olib borishi masalasi ma'naviy tahdidlarning oldini olishda eng dolzarb va ahamiyatli bo'lib hisoblanadi.

Har qanday mafkuraviy tarbiyaning maqsadi –jamiyatning har bir a'zosi va ular timsolida har bir ijimoiy qatlam, guruhning trabiaviy darajasini ta'minlashdir. O'zbekiston sharoitida mafkraviy tarbiyaning asosiy vazifasi – xalqimizning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo'lidagi asriy orzu–istaklari, maqsadlarini, miliy istiqlol mafkurasining mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish va ayniqsa yoshlar ongiga singdirishdan iboratdir. Bu pirovard natijada o'sha jamiyat rivojiga turtki beruvchi ilg'or g'oyalarning har bir fuqaro tomonidan ongli ravishda o'zlashtirilishini, uning tafakkur va fikrlash tarziga aylantirilishini ta'minlaydi. Shu ma'noda, milliy istiqlol mafkurasini O'zbekistonda yashab, ijod qilayotgan har bir fuqaro ongi va shuurida asriy milliy qadriyatlarimiz, xalqimizning bugungi va kelgusidagi manfaatlari-ni ifodalovchi eng sog'lom g'oyalar va fikrlar tarzida – xalq tafakkuri tarzida o'z ifodasini topishi lozim. Bu jihat mafkuraviy tarbiyaning bosh xususiyatlaridan biridir. Mafkuraviy tarbiyaviylik eng avvalo yuksak e'tiqod, iymon, Vatan va xalq oldidagi mas'uliyat, vatanparvarlik, fidoiylik kabi fazilatlarda namoyon bo'ladi.

Mafkurasini bo'lmagan va unga asoslangan tarbiya tizimini yaratmagan jamiyat bo'lmaydi. U yoki bu mafkura rasmiy deb tan olinmagan, mafkuraviy xilma xillik hukmron bo'lgan mamlakatlarda ham aslida ijtimoiy hayot, jarayonlarga yondashuvning ustuvor bo'lgan tamoyillari, kishilar o'z faoliyatlarida so'zsiz rioya qiladigan qadriyatlar majmui borligi aniq. Jamiyat, millat taraqqiyotining istiqbollari to'g'risidagi maqsadlarni ifodalagan dasturlar mavjud. Ular o'z mohiyat e'tibori bilan insonning erkinligi va huquqlarini ta'minlash, shaxsning muayyan tipini kamol toptirishga yo'naltirilgan. Bularning barchasi mafkuraviy tarbiya tizimini shaxs tarbiyasining uzviy qismiga aylantirishning dolzarbligini isbotlaydi.

Respublikamiz aholisining 64 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil etar ekan, yurtimizning istiqboli ham aynan yoshlar qo'lida ekanligiga shubha yo'qdir. Yoshlarning irodali, iymon-e'tiqodli, mustaqil va erkin fikrli, har qanday xurujlarga dadil qarshi bora olishga qodir inson bo'lib yetishishlarida ta'lim muassasasi, oila, mahalla hamkorligi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan mafkuraviy tarbiyaning ahamiyati katta.

Bugungi yoshlar o'zlarining kim ekanligini, hech kimdan kam emasligini, ajdodlari kim bo'lganini anglab yetdilar. Lekin ayni paytda xalqimizning ma'naviy birligiga rahna solishga, yoshlarimizning yurtimizga bo'lgan ishonch-e'tiqodini buzishga urinayotgan kuchlar ham bor. Ular turli xil vayronkor, aldamchi g'oyalarni pesh qilib, yovuz va g'arazli maqsadlarni ko'zlab, ayrim irodasi zaif yoshlardan o'z yurtiga, ona Vataniga, hatto otanasiga qarshi bo'lgan dushmanlarni tayyorlashga urinmoqdalar.

Yot g'oyaviy ta'sirlarga qarshi kurashda begona g'oyalarning qo'poruvchilik ta'siriga qarshi doimiy va uzluksiz aksiltarg'ibotni tashkil etish muhim sanaladi. Chunki bunday mafkuraviy kurashni nafaqat mamlakatimiz ichkarisida, balki xalqaro maydonda ham olib borish talab etiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Faylasuflari milliy jamiyatining ishchi guruhi tomonidan milliy istiqloq g'oyasining asosiy tushunchalari va tamoyillari ishlab chiqildi. O'zbekistonda milliy istiqloq g'oyasining targ'ibot-tashviqoti ana shu asosiy g'oyalar, tushunchalar va tamoyillarga tayangan holda amalga oshirilmoqda.

Chunki milliy g'oya chuqur e'tiqodga aylangan taqdirdagina u ulkan kuch va qydpatga ega buladi. Buning uchun esa xalqda mafkuradan o'rin olgan g'oyalarga kuchli ishonch, e'tiqod va unga amal qilish bo'lishi lozim.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risidagi Qarorda belgilangan vazifalar. Bugungi kunda mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan choratadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish,

mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuygʻusi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Soʻnggi yillarda bu borada qator qarorlar qabul qilindi. Respublika maʼnaviyat va maʼrifat kengashi raisi Prezident ekani belgilab qoʻyildi. Kengashning hududiy boʻlimlariga masʼullik hokimlar zimmasiga yuklatildi. Bu oʻzgarish maʼnaviy-maʼrifiy ishlarni davlatimiz siyosatida yanada yuksak oʻringa koʻtardi.

Quyida ana shu muhim qarorlarning ayrimlariga toʻxtalib oʻtamiz:

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi “Maʼnaviy-maʼrifiy ishlar samaradorligini oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-4307-sonli qarori mamlakatimizda maʼnaviy-maʼrifiy ishlar taʼsirchanligini oshirish, maʼnaviyat sohasidagi ichki va tashqi tahdid hamda xavf-xatarlarga qarshi samarali kurashish, jamiyatda mafkuraviy immunitetni mustahkamlash, davlat va jamoat tashkilotlarining bu boradagi faoliyatiga yaqindan koʻmaklashish maqsadida qabul qilindi.

Shuningdek, 2021-yil 26-mart kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev “Maʼnaviy-maʼrifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish toʻgʻrisida”gi qarorni imzoladi. Hujjatda aytilishicha, olib borilayotgan ishlarga qaramay, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida maʼnaviy-maʼrifiy islohotlarning samaradorligiga toʻsiq boʻlayotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Maʼnaviy-maʼrifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yoʻnalishlari belgilandi:

- “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” gʻoyasini keng targʻib etish orqali jamiyatda sogʻlom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;
- oila, taʼlim tashkilotlari va mahallalarda maʼnaviy tarbiyaning uzviyligini taʼminlash;
- targʻibot-tashviqot va tarbiya yoʻnalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha boʻyicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini

oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;

- el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

- madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;

- geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish.

Ushbu qarorda belgilangan vazifalarni amalga oshirish ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarishda, bu orqali turli ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga oqilona kurashishga zamin hozirlaydi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

Tahdid, g'oyaviy tahdid, mafkuraviy tahdid, informatsion tahdid, "ommaviy madaniyat", ma'naviy tahdid, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat, mafkuraviy immunitet, ma'naviy-ma'rifiy ishlar, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Tahdid, g'oyaviy tahdid, mafkuraviy tahdid tushunchalarining mazmun- mohiyatini tushuntirib bering
2. Ma'naviy tahdid deganda nimani tushunasiz?

3. Insonning ongi, dunyoqarashi va axloqiga daxl qiluvchi qanday tahdidlar mavjud?
4. Qanday sabablar ko‘ra ma‘naviy tahdidlar yuzaga keladi?
5. Fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma‘rifat orqali ma‘naviy tahdidga qarshi kurashish mumkinligini tushuntirib bering...
6. Bugungi kunda jamiyatimiz taraqqiyotiga xavf solib turgan mahalliy-hududiy darajadagi ma‘naviy tahdidlar qanday ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda?
7. Global miqyosdagi ma‘naviy tahdidlar asosiy ko‘rinishlarini sanab o‘ting va izohlang...
8. Ma‘naviyatga tahdidlarning oldini olishda milliy g‘oya va mafkuraviy tarbiyaning o‘rni va ahamiyati qanday?

18-§ “OMMAVIY MADANIYAT”NING MILLIY G‘OYAGA ZIDLIGI, UNING OLDINI OLISH SHART-SHAROITLARI, OMILLARI

“Ommaviy madaniyat” tushunchasining mohiyati, bugungi kunda “Ommaviy madaniyat” g‘oyalarini tarqatishga urinishlar. Madaniyat - bu axborotni saqlash va uzatish usullari, ko‘nikma va malakalarni to‘plash, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash mexanizmlari tizimidir. Shu bilan birga, u dunyoqarash universallari orqali o‘zlarining o‘zaro ta’siri va uyg‘unligida inson dunyosining umumlashtirilgan qiyofasini o‘rnatadigan butun bir qadriyatlar mexanizmidir. Madaniyatning ezgulik, yovuzlik, e’tiqod, umid, erkinlik, adolat kabi kategoriyalari yordamida inson olamni idrok etadi va boshdan kechiradi, o‘z tajriba doirasiga kiradigan barcha voqelik hodisalarini yaxlitlikka olib keladi.

Madaniyatning zamonaviy hodisasini samarali, maqsadli o‘rganish yo‘lini belgilab, aytaylik, ta’rifning muhim xususiyatlarini yetarli darajada ifodalash uchun inson madaniyatning global muammosi ekanligini unutmazlik kerak. Shuning uchun madaniyat hodisasini o‘rganishning qiymat kesimi shaxsning ijodkorligi va o‘zini o‘zi yaratishida ifodalangan sub’ektiv-insoniy jihatni o‘z ichiga oladi.

XX-asrning oxiriga kelib, ommaviy madaniyat nafaqat zamonaviy jamiyat rivojlanishining eng muhim omili, balki ijtimoiy – gumanitar bilimlarning turli sohalarida aks ettirish va nazariy qarashlar maydoniga aylandi. Bugungi kunda “Ommaviy madaniyat” turkumida ikkita tushuncha sintezlash holati kuzatilmoqda: a) “madaniyat” mahsulotning maxsus belgisi sifatida, b) “ommaviy xarakter” mahsulotning tarqalish darajasi sifatida. Demak, “ommaviy madaniyat” atamasi bilan ifodalangan hodisaga aniq ta’rif berish uchun bu ikkala nuqtani ham tahlil qilish zarur. Shunga ko‘ra, kontsepsiyani tavsiflashning to‘g‘riligi uning tarkibiy qismlari qanchalik asosli ravishda alohida tahlil qilinganiga, eng muhimi, yangi (“sintezlangan”) tushuncha uning tarkibiy qismi bo‘lgan “tushunchalar-parchalar”dan qanchalik farq qilishiga bog‘liq bo‘ladi.

Ushbu masala bo‘yicha rus va xorijiy ilmiy fikr tarixshunosligini o‘rganish madaniyatga ko‘pincha bir-birini to‘ldiradigan ko‘plab ta’riflar mavjudligini ta’kidlashga asos beradi. Uslubiy noaniqlik madaniyatning ba’zan hodisaning turli tomonlari sifatida tushunilishiga olib keladi. Shunday qilib, tadqiqotchilar “Ommaviy madaniyat” tushunchasining asosiy mazmunini ochib berish uchun yoki qiymatini aniqlovchi, tavsiflovchi yondashuvdan foydalanadilar. Masalan, XX-asrning birinchi yarmida amerikalik kulturologlar F.Boas va A.Krober madaniyatni tahlil qilishning tavsif mezoniga alohida e’tibor qaratdilar, ular dunyo xalqlarining hayoti va turmush tarziga oid son-sanoqsiz faktlarni to‘pladilar.

Ommaviy madaniyat – murakkab ijtimoiy hodisasi bo‘lib, u ommaviy jamiyatga xos bo‘lgan madaniy qadriyatlarni ishlab chiqarish va iste’mol qilishning alohida turidir. Ommaviy madaniyatni shakllantirishning asosiy omili – texnologiya rivojlanishi ta’sirida ish vaqtining qisqarishi hisobiga dam olish vaqtining ko‘payishini hisobiga vujudga keldi. Natijada jamiyatning keng qatlamlari ham bo‘sh vaqtga ehtiyoj seza boshladi.

“Ommaviy madaniyat” atamasi dastlab XX-asrning 30-yillarida Amerika matbuotida, keyin 1944-yilda Jon Dan Mak Donald (1916-1986) amerikalik romanlar va qissalar va jinoiy trillerlar yozuchisining “Ommaviy madaniyat nazariyasi” maqolasi e’lon qilingandan so‘ng, ilmiy nutqda ham

o‘z o‘rnini topdi. Ko‘pgina tadqiqotchilar (Teodor Adorno (1903-1969) nemis faylasufi, jamiyatshunosi, Hans Magnus Enzenberger (1929-2022) nemis yozuvchisi, dramaturgi, Marshal Maklyuan (1911-1980) kanadalik faylasuf, sotsiolog) ommaviy madaniyatni madaniyat sanoati, ong sanoati, bozor madaniyati va boshqalar sifatida ifodalaydi¹⁰⁰. Ko‘pgina tadqiqotchilar singari mualliflar ham bu atamaning polisemantikasini kapitalistik munosabatlarning o‘rnatilishi natijasi bo‘lgan ommaviy jamiyatning mavjudligi yoki hozirgi kunda keng tarqalgani ifodalanganidek, bozor bilan izohlaydilar.

“Ommaviy madaniyat” XX-asrning 40-yillariga kelib ommaviy madaniyat muammolarini muhokama qilish keskin munozara xarakteriga ega bo‘ldi. Bu davrga kelib jamoatchilik fikrini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab materiallar to‘plangan, ommaviy kommunikatsiyalar nazariyasi ishlab chiqilgan, V.Lippman (1889-1974) amerikalik jurnalistning “stereotiplar nazariyasi” va unga aloqador “tasvirlar nazariyasi” ishlab chiqdi.

50-yillarda ommaviy madaniyatga nisbatan tanqidiy nuqtai nazar shakllandi bu qarashlar D.Makdonald tomonidan ifodalangan bo‘lib, u butun madaniyatga ulkan ta’sir ko‘rsatishini, xususan, madaniy tizimning barcha elementlariga aniqlik, bir xillik va o‘xshashlik mavjudligini ko‘rsatib berdi.

XX-asrning 60-yillarda Ommaviy madaniyat ommaviy axborot vositalari rivojlanishining tabiiy va uzviy natijasi ekanligini isbotlagan kanadalik sotsiolog M.Maklyuan ommaviy madaniyatning taniqli tadqiqotchisi hisoblangan. Uning fikricha, ommaviy madaniyat elektron ommaviy kommunikatsiya bilan bog‘liq taraqqiyotning eng oliy shakli bo‘lib, madaniyatning kitob chop etish kabi “eskirgan” shakllarini keraksiz deb hisobladi¹⁰¹. U ham D.Bell kabi ommaviy axborot vositalari ham madaniyatning yangi turini keltirib chiqaradi, degan xulosaga keladi. Maklyuan ta’biri bilan aytganda, kitob bosib chiqarish texnikasi ommani yaratdi, elektron texnika esa omma madaniyatini yaratdi. San’atni ma’naviy madaniyatning yetakchi elementi sifatida belgilab, Maklyuan

¹⁰⁰ Гриненко Г.В. Хрестоматия по истории мировой культуры. – Москва: Высшее образование, 2005, С 98.

¹⁰¹ Савкина И. Ф. Массовая культура: историография и проблема влияния на общество / Культура: управление, экономика, право. 2005. № 3.

badiiy madaniyatning haqiqatdan uzoqlashish funksiyasini deb ta'kidlashadi. Bu yerda odam illyuziya tajribasi va amalga oshmaydigan orzular dunyosi bilan tanishadi. Bularning barchasi hukmron turmush tarzining ochiq yoki yashirin targ'iboti bilan uyg'unlashadi, uning asosiy maqsadi ommani ijtimoiy faoliyatdan chalg'itish, odamlarni konformizm (muvofiqlik) sharoitida mavjud bo'lishga moslashtirishdir.

XX-asrning 70-yillarga kelib G.Gen ommaviy madaniyatga nisbatan har qanday tanqid mutlaqo asossiz va ommaviy madaniyat yuksak madaniyatga ham, jamiyatga ham zarar keltirmaydi¹⁰² xulosaga keladi. Ommaviy madaniyat paydo bo'lishining asosiy shartlaridan biri arzon va qulay ommaviy axborot vositalarining paydo bo'lishi edi.

Ommaviy madaniyat hodisasi nafaqat moddiy va ma'naviy hayotni, balki dunyoqarash universalligi sohasini ham qamrab olib, tadqiqotchilar e'tiborini qayta-qayta o'ziga tortadi. So'nggi paytlarda ijtimoiy munosabatlarda va gumanitar fanlarda ommaviy madaniyatga oid turli xil fikrlarga qaramay, bugungi kungacha bu masalada aniqlik yo'q. Xususan, ushbu hodisaning tarixiy-madaniy sharoitlari, falsafiy va madaniy jihatlari yaxshi o'rganilmagan, bir qator nazariy va amaliy muammolar noaniq bo'lib qolmoqda, ular har ikkala faoliyat sohasi uchun fundamental, ahamiyatga ega bo'lib, ularning dolzarbligini belgilaydi. Bu muammo, ayniqsa, modernizatsiya va ijtimoiy faollashuv jarayonidagi jamiyatlarda milliy-etnik qarashlar zamirida dolzarb bo'lib qolmoqda. Ommaviy madaniyatning jamiyat hayotidagi zamonaviy hodisa sifatida turli xalqlarning, xususan, insonning o'z-o'zidan begonalashuviga olib kelmoqda degan fikrlar tez-tez muomalada uchrab turibdi.

Ommaviy madaniyatning ijtimoiy funktsiyalari noaniq va ko'pincha yashirindir. Omma uchun ma'naviy ishlab chiqarish ularga kundalik hayotining asosi sifatida ma'lum me'yor va qadriyatlarni yuklaydi, shu bilan birga u inson psixologiyasiga, ayniqsa ong osti sohasiga faol ta'sir qiladi, ma'lum instinktlarni rag'batlantirishga harakat qiladi. Ular uni chiroyli,

¹⁰² Гаспаров М. Л. Историзм, массовая культура и наш завтрашний день. Вестник истории, литературы, искусства. Отд-ние ист.-филол. наук РАН. – Москва:Собрание; Наука. Т. 1, 2005

jozibali, estetik, kulgili yoki istehzoli qilishga harakat qilishadi. Ommaviy madaniyat ko‘pincha ibratli va haqiqatga juda o‘xshash ko‘rinadi, u tomoshabinni xavotirda ushlab turadi va uni qiziqtiradi, shu bilan birga insonni orzular va illyuziyalar olamiga olib boradi va eng muhimi, uning bo‘sh vaqtini to‘ldiradi. Inson o‘zi uchun ommaviy aloqa vositalari orqali ehtiyotkorlik bilan ishlab chiqarilgan ushbu madaniyatning asiriga aylanadi.

O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov adolatli ta’kidlaganidek: “Ommaviy madaniyat” degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarini tarqatish, kerak bo‘lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning necha ming yillik an‘ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar odamni tashvishga solmay qo‘ymaydi”¹⁰³. Ushbu iqtibos tarbiya muammosining g‘oyat dolzarbligidan, “ommaviy madaniyat” va uni niqob qilib olgan g‘oyaviy buzg‘unchi “madaniy” mahsulotlar mavjudligidan, ularni “ommaviy madaniyat” bilan chalkashtirmaslik zarurligidan dalolat beradi. Davr bilan hamqadam bo‘lishni istagan xalqlarga, mamlakatlarga zamonaviy taraqqiyot tanlash uchun ko‘p imkoniyat qoldirmaydi: eng so‘nggi ilmiy-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy qilish, urbanizatsiya, ommaviy kommunikatsiya vositalarini (OKV) va axborot texnologiyalarini (IT) rivojlantirish, jahon hamjamiyatiga integratsiya bo‘lish. Bular esa har bir xalq, mamlakat hayotiga o‘ziga xos unifikatsiya qiluvchi, ya’ni bir xillashtiruvchi, bir qolipga tushiruvchi ta’sir ko‘rsatadi. “Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat deb bilish va aksincha, asl ma’naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog‘liq holatlar bugungi taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda va ko‘pchilik butun jahonda bamisoli balo-qazodek tarqalib borayotgan bunday xurujlarga qarshi kurashish naqadar muhim ekanini anglab olmoqda”¹⁰⁴. G‘arb mamlakatlari ijtimoiy-madaniy hayotiga, umuman ma’naviy dunyosiga qarab, ertaga bizni ham nimalar kutayotganini ma’lum darajada bashorat qilish mumkin. Yaponiya,

¹⁰³ Karimov I.A. Юксак маънавият енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008 йил, 73-бет.

¹⁰⁴ Каримов И.А. Юксак маънавият енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008 йил, 73-бет.

Janubiy Koreya, Gongkong va boshqa qator davlatlar misoli buni tasdiqlaydi. Ularga gʻarbcha turmush tarzi, gʻarbcha qarashlar, gʻarb yuksak madaniyati va qadriyatlari qatorida ommaviy madaniyati, sayoz qadriyatlari, baʼzi hollarda soxta qadriyatlari oʻta ziddiyatli taʼsir koʻrsatmoqda. Bu ushbu mamlakatlar aholisi katta avlodida, oʻz xalqi milliy madaniyatiga befarq boʻlmagan ijodkor ziyolilarda bezovtalik uygʻotmoqda.

XIX-asr oxirlari va XX-asrga kelib, vaziyat biroz oʻnglana boshlandi. Bu mavzuni ilmiy-nazariy jihatdan oʻrganib, asl mazmun-mohiyatini ochishga ahd qilgan mutaxassislar oqimi vujudga kela boshladi. Faylasuf yozuvchilardan Xose Ortega-i-Gassetning “Olomon isyoni”, Karl Yaspersning “Davrning ruhiy holati” singari qator yirik koʻlamdagi kitoblari madaniyat tushunchasi aslida nima ekanini sharhlab berdi.

Ayniqsa, Osvald Shpenglarning “Yevropa quyoshining botishi” asarida “ommaviy madaniyat” niqobidagi aksilinsoniy oqimning kuchayishi asosli dalillar bilan ochib beriladi. Patrik Jozef Byukenen “Gʻarb halokati” asarida mavzuni chuqurroq taʼriflaydi: “Bu kabi “madaniyat”larning paydo boʻlishi va keng yoyilishiga bosh sabab shuki, Gʻarb olamidagi azaliy qadriyat va anʼanalarning, tarixan boy zahiraga ega maʼnaviyatning yemirilishi, inqirozga yuz tutishidir”¹⁰⁵.

Bugun Yevropaga xos boʻlgan individualizm, ota-ona holidan xabar olmaslik, aka-uka, opa-singillar oʻrtasidagi yaqinlikning boʻlmasligi va ularning bir-birlarini qoʻllab-quvvatlamasliklar va boshqa bir qator holatlar millatimiz hayotiga kirib bormoqda. Bunday salbiy jarayonlarning oldini olish uchun ham milliy tarbiyamizning bosh yoʻnalishi globallashuv jarayonida sodir boʻlayotgan ana shu salbiy holatlarni barataraf etish taraqqiyotimiz talabi hisoblanadi. Bu xususda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: “Barchangizga ayon, hozirgi kunda dunyo miqyosida beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar keskin tus olmoqda. Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, “ommaviy madaniyat” kabi xavf-xatarlar kuchayib,

¹⁰⁵ Василенко И.А. Геополитика современного мира: учеб. пособие. Москва: Издательство Юрайт, 2010,С.233.

odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan e'tiqodlar, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Mana shunday va boshqa ko'plab tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani-ayni haqiqat va buni hech kim inkor eta olmaydi,"¹⁰⁶ degan edilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda biz uchun ommaviy madaniyat-bu bir guruh boylikka o'ch odamlar tomonidan zamonaviy axborot–texnologiyalarining imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda axloqiy buzulq, zo'rovonlik, o'z manfaatini o'z galar manfaatidan ustun qo'yish, "Men"ni ulug'lash kabilarni aks ettiruvchi har xil o'ta sayoz madaniyat asarlarini moddiy va ma'naviy hayot maydonlariga tashlab, ko'ngilocharlik bahonasida tijoratga asoslangan iste'molchilikni yo'lga qo'yib xalqlarni o'z milliy qadriyatlariga asoslangan madaniyatidan judo qilish evaziga katta daromad topishga qaratilgan aksilmadaniyatdir. Darhaqiqat, "Ommaviy madaniyat" tahdidlarining inson ongiga salbiy ta'sirlari quyidagilardan iboratdir: "ommaviy madaniyat" inson ongini real hayotdan uzoqlashtiradi va soxta yaratilgan obrazlarga yo'naltiradi; aldovga oson ishonadigan shaxslarni paydo qiladi; insonni ishlab chiqaruvchiga emas, faqat iste'molchiga aylantiradi. insonni milliylikka borib taqaluvchi ildizlarini kesadi va ma'naviy jihatdan qashshoqlashtiradi. Afsuski, bugungi kunda ham jamiyatimizda "ommaviy madaniyat" niqobidagi mafkuraviy tahdidlarning yoshlarimiz ongiga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirlarini kuzatishimiz mumkin.

"Ommaviy madaniyat"ning eskalatsiyasining xavf-xatari va tahdidi milliy ma'naviyat negizlariga, milliy g'oya, ma'naviy meros va demokratik prinsiplariga zidligi. XXI-asrning katta muammolaridan biri "mafkuraviy ta'zyiq"dir. Uning yoshlarga yetkazayotgan ta'sirlari ko'pgina davlatlar qatori mamlakatimizni ham chetlab o'tmadi. Fan va texnika taraqqiy etgan ushbu asrda, ayniqsa, axborot texnologiyalari aql bovar qilmaydigan darajada rivojlanib bormoqda. Shuning bilan birga "Ommaviy madaniyat" zararlari ham kirib kela boshladi. Avvalo madaniyat so'zi haqidagi allomalar fikrini ko'zdan kechirsak. Qori Niyoziy ushbu so'zning

¹⁰⁶ Shavkat Mirziyoyevning "Kamolot" harakatining IV-qurultoyidagi nutqi 2017 yil 30-iyun

keng qamrovli tushuncha ekani haqida shunday deydi: “Madaniyat tarixi g’oyat darajada murakkab bo‘lib, uning hamma tomonlarini o‘z ichiga olgan kitob hech qaysi bir tilda yo‘q va bo‘lishi ham mumkin emas”. Ishoqxon Ibrat esa madaniyatni oziqlantirib turuvchi omil yaxshi axloq ekanini ta’kidlaydi:

Madaniyat jahondan osoyish, Xulq husni anga oroyish.

Madaniyat xaloyiqqa rohat, Ko‘rmagay g‘amni hech soat.

E’tibor bersak, bu tushunchaning negizi ezgulikdan iboratdir.

Biroq, bugun tilimizda qo‘llanayotgan “ommaviy madaniyat” iborasi bu mazmuni inkor etayotgani rost. Yoshlar ongidagi g‘oyaviy bo‘shliqdan foydalanib, chetdan kirib kelayotgan, biz uchun yot bo‘lgan, ma’naviy va axloqiy tuban illatlarni o‘z ichiga olgan bu “madaniyatlar” ko‘plab falokatlarning ibtidosidir. “Ommaviy madaniyat” degan ibora ostida biz tasavvurimizga ham sig‘dirolmaydigan ko‘plab axloqiy buzulqik g‘oyalari mavjud. Xususan, zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarni tarqatish, ana shu axloqsizlik orqasidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning qadim an’ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma’naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo‘porishga qaratilgan xatarli tahdidlar ana shular jumlasidandir. Ayniqsa, ayni paytda keng tarqalgan axloqsizlikni “madaniyat” deb atalishi, yoyinki, ming yillik ma’naviy qadriyat va an’analarni bepisandlik bilan “eskilik sarqiti” deyilishi yoshlarning tarbiyasiga jiddiy xavf solmoqda. Ming yillik odob-axloq qonimizga singgan ezgu qadriyatlarni boshqa an’analar bilan almashtirish ongli insonga xos bo‘lmagan odatdir. Taniqli o‘zbek adibi Muso Toshmuhammad o‘g‘li Oybek shunday degan ekan: “O‘zbek xalqi azaldan buyon madaniyat bulog‘ining boshida bo‘lgan.” Bugun yozuvchimiz A.Qodiriyning “O‘tgan kunlar” asarida tasvirlagan oila, muhabbat, burch, hayo, iffat, ma’suliyat, e’tiqod, hurmat, mehr-oqibat kabi har bir millatdoshimiz uchun ibrat bo‘la oladigan qadriyatlarning hayotdagi aksini to‘laqonli uchratishimiz qiyin ekanligiga ko‘pchiligimiz guvoh bo‘lib turibmiz. Buyuk yozuvchimiz ularni millatdoshlarimizning ongi va qalbiga singdirish, uni ommalashtirish uchun o‘z jonini qurbon qilgan edi. Uning millatimiz ma’naviyatini saqlab qolish

yoʻlidagi fidoiyligi hammani qolipga solish, yagona maʼnaviyatni shakllantirishni maqsad qilgan, shu yoʻl bilan sobiq ittifoqdagi barcha millat va elatlarning maʼnaviyati oʻrniga oʻzga xalq maʼnaviyatining hukmronligini taʼminlash yoʻlida kamarbasta boʻlgan maʼnaviy qashshoq siyosatchilar va shovinistlarni dahshatga solgan edi. Masalan, millatimizda asrlar osha qon-qonimizga singib ketgan ota-onamizni ulugʻlash, oila muqaddasligini himoya qilish, farzandning ota-ona oldidagi burchi, ularning gapiga quloq solish, qilinadigan katta ishlarni bamaslahat amalga oshirish, aka-ukalar opa va singillar, kelin qaynота, qayinonalar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlik, mehr-oqibat, ustoz va shogird hurmati kabi muaqaddas qadriyatlarni qayta tiklash milliy tarbiyamiz oldida turgan eng dolzarb vazifadir.

“Ommaviy madaniyat”ni ijtimoiy munosabatlar tizimida faollashuvi asosida hozirgi zamon amaliyoti va demokratiya nazariyalarining real holatidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, hozirgi vaqtda ijtimoiy-siyosiy amaliyot sohasida va demokratiyani ilmiy-nazariy tadqiq etishda bir-birini toʻldiruvchi ikkita paradigma paydo boʻlmoqda.

Birinchisi klassik paradigma boʻlib, unga koʻpchilik xorijiy va mahalliy demokratiya tadqiqotchilari amal qiladi. Ushbu paradigmaga koʻra, demokratiya siyosiy tashkilotning bir turi va siyosiy qarorlar qabul qilish usulidir, shuning uchun uning samaradorligining oʻziga xos mexanizmlarini oʻrganish kerak.

Ikkinchi paradigma: Demokratiya, birinchi navbatda, xalqning turmush tarzi va ijtimoiy sohani, fuqarolik jamiyatini tashkil etish usuli sifatida qaraladi, shundan keyingina - siyosiy tizimni tashkil etish usuli. Bu paradigma birinchi marta mashhur amerikalik faylasuf, pragmatizm falsafasining asoschilaridan biri J.Dyui tomonidan shakllantirilgan.

Morinning fikricha, “ommaviy madaniyat” oʻzining Amerikalashtirilgan versiyasida nafaqat zararli, balki inqilobiy kuchga aylanadi, chunki uning gedonistik ideallari eski anonim tizimlarga qarshi norozilikni shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, Morinning oʻzi yozgan standartlashtirish tendentsiyasi rivojlanayotgan davlatlar milliy madaniyatlariga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Morinning fikricha, “ommaviy

madaniyat” nafaqat burjua jamiyatining rivojlanish tendentsiyasini, balki umumiyroq, global tendentsiyalarni ham o‘zida aks ettiradi. “Ommaviy madaniyat kapitalistik jamiyat mahsuli bo‘lsa-da”, uning fikricha, u yanada murakkab va chuqurroq ehtiyoj va talablari ortib boraveradi va shuning uchun ham “barcha iste’mol jamiyatlarida, ularning rasmiy mafkurasi qanday bo‘lishidan qat’i nazar” aynan shu yo‘nalishda rivojlanib boraveradi.

Bell “Ommaviy madaniyat va zamonaviy jamiyat” asarida shunday deb yozadi: “Kino, radio va televidenie paydo bo‘lishi bilan, turli shaharlarda bir vaqtning o‘zida haftalik nashrlarni chop etish bilan, bu nashrlarni butun mamlakat bo‘ylab bir kunda tarqatish imkonini berdi. Amerika tarixida birinchi marta yagona g‘oyalar, tasvirlar va o‘yin-kulgilar tizimi paydo bo‘ldi... Aynan ommaviy aloqa vositalari tufayli Amerika jamiyati yagona bir butunga birlashdi”¹⁰⁷.

Har qanday xalq madaniyati asrlarga borib taqaladigan chuqur ildizlarga ega, u muayyan xalqning orzu-umidlari, urf-odatlarini, xarakterini aks ettiruvchi uzoq an‘analarga asoslanadi. “Ommaviy madaniyat” bunday urf-odatlarini bilmaydi, uning didi, ideallari moda ehtiyojlariga mos ravishda bosh aylantiruvchi tezlik bilan o‘zgaradi.

Xalq madaniyati hamisha milliydir, “ommaviy madaniyat” esa milliylikka ega bo‘lmasa-da, u kosmopolit, har qanday milliy did va xarakterlarga mo‘ljallangan.

O‘z tabiatiga ko‘ra, xalq madaniyati, qoida tariqasida, realistlik bo‘lib, xalq tafakkurining hushyor, dunyoviy tabiatini aks ettiradi. Aksincha, “ommaviy madaniyat” psevdorealistik bo‘lib, u xayollar, uydirmalar, afsonalar va hayotni bilishga emas, balki undan qochishga chaqirishga asoslangan.

Dunyo xalqlarini milliy o‘zligidan begonalashtirish, yoshlarning ongiga g‘oyaviy ta’sir ko‘rsatish, ularni manqurt (zombi)ga, aylantirishdan ko‘zlangan maqsadlar. Bugungi kunda zamonaviy jamiyat rivojlanishining asosiy omillaridan biri globallashuvga aylanishidir. Davom etayotgan globallashuv jarayonlari mamlakatlar va xalqlarning umumiy

¹⁰⁷ Bell D. The Two Culture and the Scientific Revolution. Cambridge, 1969.

o‘zaro bog‘liqligining kuchayishiga, insoniyatning, mohiyatan, uning hayotining barcha sohalarida integratsiyalashuvi va universallashtirishiga olib keldi. Birinchidan, davom etayotgan jarayonlar yagona jahon bozorining shakllanishi, tovar va kapitalning erkin harakatlanishi, ommaviy madaniyatning tarqalishi bilan bog‘liq; ikkinchidan, yangi axborot resurslari va texnologiyalaridan keng foydalanish. Shu munosabat bilan globallashtirish jarayonlari natijasida yuzaga kelgan muammolarni tushunish zamonaviy ilmiy tafakkurda turlicha yondashuvlarni ishlab chiqmoqda.

Zamonaviy ilmiy tafakkurda o‘rganilayotgan globallashtirish muammosi turli nuqtai nazardan qabul qilinadi. Bizningcha, globallashtirishni yagona, yaxlit va o‘zaro bog‘liq dunyoning eng ehtimoliy shakllanishi deb hisoblaydigan vakillarning qarashlari mantiqiyroq va adolatliroqdir. Fikrimizcha, globallashtirish jarayonlari oddiy birlashuv emas, balki insoniyatning turli xil va xilma-xil milliy, diniy, sivilizatsiyaviy va boshqa tarkibiy elementlarning universalligi doirasida birlashishi sifatida harakat qiladi. Boshqacha qilib aytganda, globallashtirish, birinchi navbatda, insoniyatni o‘z faoliyatining barcha sohalarida integratsiyalashuvining adolatli jarayoni, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan yagona dunyoni shakllantirishga yo‘naltirishdir.

Globalishtirish jarayonida milliy o‘ziga xoslik, o‘zlik, xalqning o‘ziga nisbatan bir xilligiga oxir-oqibat erishilmaydi, u har bir keyingi avlod o‘tgan sayin yangilanib, o‘zgarib boraveradi. Milliy o‘zlikni anglash shakllariga siyosiy va iqtisodiy o‘zgarishlar ta’sir ko‘rsatadi. Aniq tarixiy sharoitga qarab, milliy o‘zlikni anglashning o‘rni va ahamiyati ortishi yoki kamayishi mumkin. Bir tomondan, ma’lum ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda vatanparvarlik, milliy g‘urur tuyg‘usi kuchli farqlovchi kuchga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan, vatanparvarlik o‘z vataniga, madaniyatiga, urf-odatlariga, tiliga muhabbat, hurmat tuyg‘usi sifatida namoyon bo‘ladi.

Globalishtirish jarayonlari nafaqat mamlakatlar va xalqlarning siyosati, iqtisodiyoti, madaniyatiga, balki shaxs va butun xalq darajasida ularning o‘ziga xosligiga ham tubdan yangi lahzalarni kiritmoqda. O‘zgaruvchan dunyoda mavjud bo‘lish qiyin chunki, birinchidan, jamoaviy va individual

darajadagi o'ziga xoslik inqirozi, ya'ni barqarorlikni yo'qotish, disorientatsiya, o'zi haqidagi g'oyalarning parchalanishi; ikkinchidan, umuminsoniy me'yorlar va qadriyatlarning haqiqiy emasligi; uchinchidan, aloqalarning xilma-xilligi jamiyat va davlatlar tashkil topgan va yashagan asosiy tamoyillar tuzilishini buzadi.

“Ommaviy madaniyat” xavfining oldini olish shart-sharoitlari va omillari, bunda yuksak ma'naviyat va milliy g'oyaga ishonch-e'tiqodni oshib borishining ahamiyati. O'zbek xalqi milliy madaniyati bilan globallashuv sharoitida tug'ilgan zamonaviy ommaviy madaniyatning maqsad va mazmuni o'rtasidagi nomuvofiqlik alohida ta'kidlanadi. Shu munosabat bilan yoshlarda milliy ma'naviy qadriyatlarga, o'z xalqining yuksak madaniyatiga hurmat va g'urur tuyg'usini shakllantirish zarurligi belgilandi.

Ajdodlarimiz butun ongli faoliyati davomida yosh avlodni mehr-oqibat, yuksak madaniyat ruhida tarbiyalashga intilgan, ommaviy madaniyatning salbiy ko'rinishlariga qarshi kurashgan. Sovet hokimiyati yillarida xalqimiz ma'lum darajada ommaviy xususan, Yevropa madaniyatini qabul qilishga moyil edi.

Ommaviy madaniyat ko'pincha G'arb madaniyati bilan bog'lanadi (albatta, hammasi emas) va prinsipsiz, didsiz, asossiz sifatida baholanadi. Xalq pedagogikasi g'oyalarini o'ziga singdirgan o'zbek og'zaki xalq ijodiyoti xalq umumiy madaniyatini yuksaltirish vositasi sifatida e'tirof etilgan. Va shu ma'noda ommaviy (umummilliy) madaniyat chuqur ijtimoiy-madaniy asoslarga ega. Ommaviy madaniyatning paydo bo'lishi sanoat ishlab chiqarishining intensiv rivojlanishi bilan bog'liq. Sanoat ishlab chiqarishining o'sishi mehnatni safarbar qilishni taqozo etdi. Feodal tuzumning buzilishi natijasida sanoat mehnat resurslarini o'zlashtira boshladi. Bu omillar yangi ijtimoiy qatlamning madaniy ehtiyojlari ifodasiga aylangan ommaviy madaniyatning shakllanishiga turtki bo'lib xizmat qildi.

Asrlar davomida ijtimoiy dunyoqarash va axloqiy me'yorlar an'anaga ko'ra “ustoz-shogird” (ustoz-shogird) munosabatlari asosida avloddan-avlodga o'tib kelgan. Shuning uchun ham qadimgi davrlarda tarixiy-madaniy tajriba va g'oyalarni keyingi avlodlarga yetkazishda ommaviy madaniyat vositalari va ulardan foydalanish juda cheklangan edi. Sotsializm davrida bu jarayon sezilarli

darajada tezlashdi. Ittifoq respublikalarining barcha maktablari, texnikumlari va oliy o'quv yurtlari yagona o'quv rejasi, ta'limning umumiy mazmuniga asoslangan namunaviy dasturlar va yagona darsliklar bo'yicha ishladilar. Milliy madaniyat rivojlanmadi, talabalar ongiga singdirilgan yagona umuminsoniy madaniyat tamoyili hukmronlik qildi.

XX-asrda radio, kino, televideniya, kompyuter tizimlarining paydo bo'lishi bilan ommaviy madaniyat yangi shakllarni oldi va tez tarqala boshladi. Ommaviy xarakterdagi qadriyatlar va qarashlarni shakllantirish uchun qulay sharoitlar paydo bo'ldi. Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq ajdodlar merosini chuqur o'rganish, chinakam qadriyat va an'analarni targ'ib qilish, milliy ma'naviyat va madaniyatni yuksaltirish zarurligini qat'iyat bilan ta'kidladi. yosh avlodning jismoniy va ma'naviy salomatligini mustahkamlashga hissa qo'shadigan jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish. Ushbu chora-tadbirlar tufayli barkamol shaxsni shakllantirishga erishish mumkin. Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "Yoshlarning ma'naviy dunyosi bo'sh qolmasligi kerak" degan g'oya mujassam. Biz yoshlar qalbi va ongiga sog'lom turmush tarzini singdirishimiz, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga chuqur hurmat tuyg'usini bolalikdan shakllantirishimiz kerak.

Ommaviy madaniyat xalq madaniyatidan farqli ravishda milliy xususiyatga ega. Aksariyat hollarda ommaviy madaniyat namunalarining har qanday xalqqa tegishli ekanligini faqat til yoki ijrochigina aniqlash mumkin. Elita madaniyati ko'pincha aniq maqsadga ega emas, tushuntirib bo'lmaydi va uning vakillari jamiyatda alohida maqomga da'vo qiladilar. Ommaviy madaniyat, aksincha, aholi orasida keng ommalashgan. Xalq madaniyati har doim ma'lum bir mamlakat yoki mintaqa bilan bog'liq bo'lmagan ommaviy madaniyatdan farqli o'laroq, odamlar yashaydigan o'ziga xos joy bilan bog'liq. Bu iste'molchilarning keng doirasi va didiga qaratilgan. Ommaviy madaniyatda muhim o'rinni insonga xos bo'lgan his-tuyg'ularning aks etishi egallaydi: sevgi, go'zallikka qoyil qolish, muvaffaqiyatga intilish. Shu ma'noda, ommaviy madaniyat haqiqiy hayotga yaqin ko'rinadi, lekin u hayot panoramasini, qadriyatlarni va xatti-harakatlar modelini yaratadi. Bugungi kunda

mutaxassislar “ommaviy madaniyat” hodisasini turlicha baholaydilar. Umumlashtirilgan shaklda ekspertlarning fikrini quyidagicha ifodalash mumkin:

1) “ommaviy madaniyat” - xalq madaniyati, an'analari, san'ati, marosimlari in'ikosi;

2) “ommaviy madaniyat” - ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi bilan bog'liq hodisa;

3) “ommaviy madaniyat” - bu axloqsiz mazmun namunalari tarqatishga va iste'molchining past his-tuyg'ularini qondirishga qaratilgan spontan madaniyat, shuning uchun salbiy hodisadir.

Zamonaviy globallasuv sharoitida “ommaviy madaniyat” jamiyat a'zolari, ayniqsa, yoshlar ma'naviyati va ongiga ta'sir etishning samarali vositasiga aylanib bormoqda. “Ommaviy madaniyat” asosan iste'molchi kayfiyatini yaratadi. U insonparvarlik madaniyatini siqib chiqaradi. Uning mohiyatini buzadi, natijada odamlar nosog'lom hayajon holatida bo'lib, boshqarib bo'lmaydigan olomonga aylanadi.

Zamonaviy sharoitda ko'plab ommaviy axborot vositalari ommaviy madaniyat, jumladan, uning asosiy manbasiga aylangan telekommunikatsiyalar uchun ishlaydi. Bunday sharoitda insonning qayg'ulari va quvonchlari, inson uchun muhim bo'lgan barcha muammolar ekranli o'ramlarda taqdim etilayotgan tovarga aylanadi.

Globalashuv jarayonlarining mahsuli sifatida “ommaviy madaniyat” jadal sur'atlar bilan tarqalmoqda, shu bilan birga qadriyatlarning ijtimoiy mohiyati tubdan o'zgarib bormoqda, bu esa shaxs ongi va faoliyatida o'zgarishlarga olib keladi. Natijada inson va jamiyat o'zining ma'naviy-axloqiy boyliklaridan uzoqlashib, ularni asta-sekin yo'qotib boraveradi. Bunday vaziyatda ommaviy madaniyatning bunday namoyon bo'lishining mohiyatiga va uning oqibatlariga qarshi kurash vositalari va usullarini yaratish kerak.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida yashayotgan turli xalq va millatlar, jumladan, o'zbek xalqi ham ommaviy madaniyatning zararli ta'siridan, mafkuraviy tahdidlardan himoyalangan bo'lishi shart. Ijtimoiy-madaniy globallasuv bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarini: fan, madaniyat, ta'lim va ma'naviyatni qamrab olgan. O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti ushbu muammoga o‘z munosabatini bildirdi: “Agar shunday sharoitda mustaqil fikrlash, uning xalqida to‘plangan milliy qadriyatlarga munosabat, sog‘lom dunyoqarash va irodasi shakllanmasa, har xil aniq yoki yashirin shakldagi ruhiy tahdidlar unga asta-sekin va qaytarib bo‘lmaydigan tarzda ta‘sir qiladi”. Ya‘ni, bugungi kunda o‘qituvchilarning eng muhim vazifasi yoshlarga ommaviy madaniyat ta‘sirining oldini olish,

Yuqorida ta‘kidlanganidek, ommaviy madaniyatning yoshlar ongiga ta‘siri kuchaymoqda. Ta‘sir qilish vositalari ham kengayib bormoqda. Har xil lavhalar, kinofilmlar, ijtimoiy tarmoqlar, podiumlar ko‘rsatuvlari, modellar ayrim hollarda yoshlar ongi va xulq-atvoriga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda, chunki bunday vositalar ma‘naviyatsizlik asosidagi xalqimizga yot turmush tarzi va madaniyatini targ‘ib qiladi. Davlatimiz rahbari “ommaviy madaniyat” niqobi ostida ma‘naviy vayronagarchilik va zo‘ravonlik yashiringan, individualizm va egosentrizm avj olayotganini qat‘iy ta‘kidlaganlar. Uning tarqalishi boshqa xalqlarning ming yillik urf-odatlariga, ma‘naviy turmush tarzi asoslariga putur etkazadi, axloqqa tahdid soladi va odamlarni tashvishga soladi.

Pedagoglar, siyosatshunoslar ommaviy madaniyatning asosini tijoratlashtirish, moddiy manfaat va siyosiy maqsadlar tashkil etishini ta‘kidlaydilar. Qadimdan savdo-sotiq nafaqat oldi-sotdi, balki ma‘lum bir mafkuraning tarqalishi bilan ham bog‘liq edi. Qadimda savdogarlar va savdogarlar aholini yangiliklardan xabardor qilganlar, diniy g‘oyalarni, ma‘lum mafkura, madaniy-ma‘naviy qadriyatlarni tarqatganlar. Bu usul bugungi kunda ham o‘z qiymatini yo‘qotmagan. Bugungi kunda esa savdogarlar xalq orasida madaniyat tarqatuvchilardir. Xavf shundaki, agar ilgari odamlar turli xalqlarning madaniyati va an‘analarini shu tarzda o‘rgangan bo‘lsalar. Bizning zamonamizda yengil, ruhsiz ommaviy madaniyat yoshlarning ongi va qalbini egallaydi.

Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish borasidagi vazifalar. “Yangi O‘zbekiston orzusi” asarida ma‘naviy tahdidlar masalasi. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda jamiyat hayotining ma‘naviy-ma‘rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini

hayotga joriy etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirilgan targ'ibot tizimi shakllandi. Bu jarayonda Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi, uning joylardagi tuzilmalari hamda Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilganini qayd etish lozim.

Bugungi kunda dunyoda globallashuv jarayonlari kuchayib, tinchlik va barqarorlikka qarshi yangi tahdid va xatarlar tobora ko'payib bormoqda. Bunday murakkab va tahlikali vaziyat sohada amalga oshirilgan ishlarni tanqidiy baholab, uning faoliyatini zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda.

Xususan, oila, mahalla va ta'lim muassasalarida yoshlar tarbiyasi, chekka hududlar va mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan maqsadli g'oyaviy-tarbiyaviy ishlarning yuzaki tarzda olib borilayotgani, jinoyatchilik, diniy ekstremizm va terroristik harakatlarga adashib qo'shib qolish, milliy qadriyatlarga e'tiborsizlik, erta turmush qurish, oilaviy ajralishlar kabi salbiy holatlarning oldini olishga qaratilgan targ'ibot ishlarining aksariyat hollarda kutilgan natijani bermayotgani bu masalalarga jiddiy e'tiborni talab etmoqda.

Hozirgi darvda mamlakatimizda 18 yoshgacha bo'lgan yoshlar umumiy aholining taxmiman 40 foizini, 30 yoshgacha bo'lganlar esa 64 foizini tashkil etadi. Shu sababli yoshlarning tarbiyasiga, kamolotga yetishiga huquqlarini himoya qilishga e'tiborni qaratish davlat siyosatining ustivor yo'nishlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim"¹⁰⁸.

¹⁰⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr

Yoshlarni tarbiyalash, mamlakat kelajagini ta'minlash bu davlat buyurtmasidir. Shu sababli ma'naviy-ma'rifiy ishlar va uni tashkil etish, ma'naviy tarbiyaning yoshlarga ta'siri, yoshlarning jamiyat hayotidagi roli uzluksiz ta'limni insonparvarlashtirishda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning, ahamiyati, ma'naviyat, ma'rifat, mafkura tushunchalarining o'zaro bog'liqligi, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samaradorligini oshirish va yangi bosqichga ko'tarishdan iboratdir.

“Biz o'z oldimizga jamiyatimizning yangi qiyofasini yaratish, Yangi O'zbekistonni barpo etish masalasini strategik vazifa sifatida qo'ydik”. Prezidentimizning mana shu aniq maqsadli, xalqimizning farovon hayoti yo'lida ezgu harakatlar bilan yo'g'rilgan gaplarini eslaganda, har bir davlat xizmatchisi o'z xizmat vazifasiga mas'uliyat bilan yondashishi shartligi anglashiladi.

Shu asnoda, har bir maqsadni amalga oshirishda strategik yondashuv ahamiyatini tushungimiz keladi. Bu, albatta, aniq maqsad va uzoqni ko'ra bilib ish ko'rish mahoratidir. Keyingi yillarda Prezidentimiz rahbarligida nimaki yutuqqa erishgan, xalqimiz turmushi farovonligini ta'minlagan bo'lsak, ularning har biri zamirida davlat rahbarining nuktadonlik bilan amalga oshirayotgan xalqchil siyosati turibdi. Va, albatta, qonunlarga itoat, belgilangan maqsadlarni o'z vaqtida, bekamu ko'st bajarish, o'z xizmat vazifasiga sidqidildan, fidoyilik bilan yondashuv prinsipi bor.

Gap shu haqda ketganida, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va mislsiz o'zgarishlarning xalqimiz hayotida aks etayotganini ko'rib, dilimizda mamnunlik tuyamiz. Bir davrlar qulamas devor bo'lib ko'ringan muammolar o'z yechimini topib, yangidan yangi orzu-umidlar, maqsadlarning qad rostlashi uchun poydevor yaratildi.

Mavjud jabhalarning barchasi avvalo xalqimizga xizmat qiladigan butunlay yangi bosqichga olib chiqildi. “Xalq davlat uchun emas, davlat xalq uchun xizmat qilishi zarur”, degan adolat tamoyiliga asos solindi.

Odamlar hayoti tubdan o'zgardi, farovonlik darajasi oshdi, shaharlar, qishloqlar qiyofalari o'zgacha fusun kasb etdi. Xalq va davlat orasida muloqot yo'lga qo'yildi, mehrga asoslangan o'zaro ishonch ko'priklari

mustahkamlandi. Davlat idoralari, davlat xizmatchilarining aholi oldida mas'uliyati ortdi.

E'tirof etish joizki, bu yutuq va yuksak marralarning har biri, avvalo, burchga sadoqat, ijro intizomiga prinsipial yondashuvlar asosida bo'y ko'rsatdi.

Bu ulug'vor jarayonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha ham ulkan qadamlar tashlandi. Jamiyatda qarashlar o'zgardi: erkin fikr, erkin so'z, erkin axborot makoni yuzaga keldi.

Darhaqiqat, yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etish, yangi ma'naviy makon yaratishda "Yangi O'zbekiston orzusi", "Uchinchi Renessans poydevorini yaratish" maqsadi barchamizga yangicha ruh bag'ishlamoqda.

Ammo ma'naviy-ma'rifiy ishlar – ma'lum bir davrda mashg'ul bo'lib, keyin o'z holiga tashlab qo'yiladigan soha emas. Yurt taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish borasida ulkan maqsad va vazifalar belgilanar ekan, albatta, ma'naviy-ma'rifiy sohalarni yuksaltirish birinchi galdagi vazifaga aylanadi.

Davlatimiz rahbarining ta'biri bilan aytganda: "Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat".

Mustahkam poydevor ustida mustahkam imorat barpo bo'ladi. Shunday ekan, ajdodlarimizdan bizga qoldirilgan boy ma'naviy meros xalqimiz tafakkuri va ma'naviyati ildizlarini oziqlantirib turadi, unga ruhiy madad va yaratuvchi kuch baxsh etadi.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

"Ommaviy madaniyat", "ommaviy xarakter", "Streotiplar nazariyasi", "Ommaviy madaniyat"ning eskalatsiyasi, paradigma, "Yevropa quyoshining botishi", "G'arb halokati" asarlari, "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish

sari” g‘oyasi, Yangi O‘zbekiston, Uchinchi Renessans, strategiya, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash.

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Ommaviy madaniyat tushunchasi qachon paydo bo‘ldi?
2. “Yevropa quyoshining botishi”, “G‘arb halokati” asarlari haqida nimalarni bilib oldingiz...
3. Ommaviya madniyat rivojanishi qanday paradigmalarda asosida amalga oshadi?
4. “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasi, Yangi O‘zbekiston, Uchinchi Renessans mazmunini izohlang...
5. “Streotiplar nazariyasi” qanday nazariya?
6. “Ommaviy madaniyat”ning eskalatsiyasi atamasini izohlang...
7. Ommaviy madaniyat va elita madaniyati ning farqi nimada?
8. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va uni tashkil etish, ma’naviy tarbiyaning yoshlarga qanday ta’siri bor?

19-§. YOSHLARDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASHDA MILLIY G‘OYANING AHAMIYATI

Yoshlar, mafkuraviy immunitet tushunchalarining ma’no-mazmuni. Yoshlarga xos xususiyatlar. Mafkuraviy immunitet (lat. Ozod bo‘lish) - mafkuraviy ta’sir, yot g‘oyalarga qarshi tura olish degani Immunitet tug‘ma bo‘ladi, mafkuraviy immunitet esa shakllanadi. Mafkuraviy immunitet tizimi: 1-bilim (ammo shovinizm ham bilimga tayanadi) 2-Qadriyatlar tizimi, 3-ijtimoiy –iqtisodiy, siyosiy va madaniy ma’rifiy sohalardagi aniq mo‘ljallangan va maqsadlar tizimi bilan bog‘liq. Mafkuraviy profilaktika – yot g‘oyalarning kirib kelishining oldini olish va ularni yo‘qotishga qaratilgan chora – tadbirlar majmui, to‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim-tarbiya tizimidir.

Mafkuraviy profilaktika ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan turli shakllardagi g‘oyaviy–tarbiyaviy, ma’naviy–mafkuraviy ishlar majmui bo‘lib, u butun g‘oyaviy tarbiya tizimini qamrab oladi.

Mafkuraviy profilaktika goyaviy bo'shliqni tugatish mafkuraviy parokandalikni oldini olish yoki biror-bir hudud, qatlam, guruhni yot va zararli g'oyalar ta'siridan xolos qilish maqsadida amalga oshiriladi. Bugun dunyoning mafkuraviy manzarasida xulosa yasaydigan bo'lsak, mafkuralarning globallashuvi jarayoni bormoqda. Bu jarayonning xususiyatlari quyidagilardan namoyon bo'lmokda:

“Immunitet” so'zining ma'nosi O'zbekiston milliy ensiklopediyasida quyidagicha berilgan: (lot. - biron narsadan xalos, ozod bo'lish, qutulish) - tirik mavjudotlarning o'z butunligi va biologik noyobligini buzuvchi yot omillardan himoyalinishi, qarshilik ko'rsatishi, rezistentligi. Yot omillarga bakteriya va ularning toksinlari, viruslar, zamburug'lar, sodda jonivorlar, gelmintlar, ko'chirib o'tkazilgan a'zo va to'qimalar, organizmning o'zgargan o'z hujayralari (mas., o'smasimon hujayralar) va b. kiradi. Bu omillar organizm uchun irsiy begona bo'lgan kimyoviy agentlar – antigenlarni tutib qoladi.

Organizmni infeksiyon agentlar va boshqa yot moddalardan himoya qilish omillari tabiati boyicha uchga bo'linadi:

Birinchisi. Filogenetik immunitet - anatomik va fiziologik belgilar bilan ta'minlanib, nasldan-naslga o'tadigan nomaxsus himoya omillari yoki organizmning nomaxsus rezistentligi. Bu omillar patogen agentlar bilan birinchi bo'lib aloqa qiladi, shuning uchun ularning faoliyati hisobiga odam organizmining ko'pgina yuqumli kasallik qo'zg'atuvchilarga chidamliligi ta'minlanadi.

Ikkinchisi. Tug'ma immunitet (turga xos, tabiiy) – bir biologik turning ma'lum bir patogen agentga nisbatan chidamliligi bo'lib, nasldan-naslga o'tadi.

Uchinchisi. Orttirilgan immunitet – hayot davomida organizm immun sistemasining yot antigenlar bilan ta'sirlashuvi hisobiga yuzaga keladigan himoya bo'lib, nasldan-naslga o'tmaydi.

Mafkuraviy immunitet ma'naviy, ma'rifiy, siyosiy, iqtisodiy bilimlarni oddiygina qabul qilib olishini emas, balki ularni ongli ravishda tushunib yetishni, bu bilimlardan zamonaviy ijtimoiy voqealarga mafkuraviy kurashlar

voqeligidan kelib chiqib, munosabat bildirish ko'nikmalarini shakllantirish, ayrim nosog'lom g'oyalarga javob berish, uni qabul qilmaslik qolatidir.

Yoshlarga turli g'oya va mafkuralarning ta'siri. Ularning immunitetini mustahkamlash zarurligi. Yoshlarning mafkuraviy immunitetini mustahkamlash shart-sharoitlari. Mafkuraviy bo'shliq kishilarda jamiyatdagi mavjud holatni, ijtimoiy voqelikni noto'g'ri idrok etishga, ularning ongida agressivlikni shakllantirishga xizmat qiladigan bo'shliqni nosog'lom g'oyalar bilan to'ldirishga zamin yaratadi. "Manqurtlashtirish" deb ataladigan bu texnologiya kuchsiz ma'naviyat, bo'sh iroda va nosog'lom intilishlar muhitidagina ta'sir kuchiga ega bo'ladi.

Yoshlarning turli oqimlarga kirib qolish sabablari qatorida ularning dunyoqarashi torligi, diniy ilmlarni egallashga bo'lgan qiziqishi, o'ta ishonuvchanligi, birdaniga hamma narsaga (boylik, shon-shuhrat, martaba va h.k.) ega bo'lishga intilishi, umuman olganda maksimalizm kabi ma'naviy-ruhiy omillarni alohida ajratib ko'rsatish lozim. "Sen bu tashkilotga kirish yoki mana bu vazifani bajarish bilan alohida, har kimga ham nasib qilavermaydigan sharafligina qo'l urgan bo'lasan, kerak bo'lsa, sen millat, din, insoniyatning xaloskoriga aylanasan!" – degan qarashlarni singdirish jarayoni aynan mana shu kabi xususiyatlarga alohida e'tibor berilayotganini ko'rsatadi.

Jaholat – bilmaslik ma'nosini anglatadi. Bugun jaholat turli ko'rinishlarda o'zini namoyon qilmoqda. Shulardan biri diniy bilimsizlikdir. Diniy savodi past bo'lgan kishilar o'zlarini islom dinining jonkuyarlari qilib ko'rsatuvchi, aslida esa, hokimiyatni egallashni maqsad qilib qo'ygan turli oqim vakillarining quruq va'dalariga aldanib qolmoqdalar.

Jaholat og'ir oqibatlarni keltirib chiqarmasligi uchun, odamlar ongi va qalbida ma'rifatning mutlaq ustuvor bo'lishiga erishish, kishilar tafakkurini boyitish, ularda sog'lom va sobit e'tiqodni shakllantirish uchun kurash, bu yo'ldagi nazariy va amaliy ishlarning hozirjavobligini ta'minlash, ta'sirchanligini oshirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolaveradi.

Immunitet tibbiyotda organizmning o'zini zararli ta'sirlardan himoya qilishga qodirligini, tananing turli yuqumli kasalliklarga berilmaslik

xususiyatini anglatadi. Inson organizmining ana shu umumiy immunitet tizimidan farqli ravishda, mafkuraviy immunitet har bir avlod uchun o'ziga xos xususiyatga ega bo'ladi va mafkuraviy daxlsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda inson hayotida axborot va bilimlar xilma-xilligining o'рни va ahamiyati yanada oshgan. Bilimlar mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi unsuri hisoblanadi. Ammo bilimlar ko'p. Diniy ekstremizm va terrorizm tarafdorlari ham muayyan "bilim"larga tayanadilar va uni omma ongiga singdirishga harakat qiladilar. Demak, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar ob'ektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim.

Bugungi kunda, axloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, individualizm va egotsentrizm, mutaassiblik va aqidaparastlik g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa, shuning hisobidan boylik orttirish, boshqa xalqlarning milliy va diniy an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'porishga qaratilgan tahdidlar tobora xatarli tus olib, butun jahonda tarqalib borishiga qarshi kurashish hayotiy-amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, mafkuraviy immunitet tizimida uning ikkinchi asosiy unsuri – olingan bilimlar zamirida shakllanadigan ma'naviyat va qadriyatlarning o'рни beqiyosdir. Bilimlar qanchalik xolis va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga kelgan ma'naviyat va qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va zararli g'oyalar yo'lida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi.

Shu jihatdan bilimlar va qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning shakllanishida asosiy omil bo'lib qolaveradi. Mafkuraviy immunitetning uchinchi muhim unsuri ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalardagi mo'ljal va maqsadlar tizimi bilan bog'liq. Ana shunday tizim bo'lmas ekan, xoh alohida inson, xoh millat yoki jamiyat bo'lsin, goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi mafkuraviy tazyiqlarga bardosh berishi amrimaholdir.

Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda yot g'oyalar kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladigan mafkuraviy profilaktikaning o'rnini katta. U ijtimoiy institutlar tomonidan xilma-xil shakllarda amalga oshiriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy ishlar majmuini, to'g'ri tashkil etilgan tarbiya tizimini qamrab oladi.

Bolaga ilk yoshidan boshlab nima yaxshi, nima yomon, ularga qanday munosabat bildirish kerak, degan savollarga asoslangan bog'cha, maktab tarbiyasi, undan keyin ijtimoiy tarbiya yo'lga qo'yilsagina har bir millat sog'lom, ishonchli, mustahkam immunitetga ega bo'ladi. Demak, mafkuraviy immunitet – davlat va millatning ma'naviy birligi, ma'naviy sog'lomligini himoya qiluvchi g'oyaviy qalqon vazifasini bajaradi.

Jamiyatning o'z ertasi va kelajagiga ishonchi o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi. Buning zamirida millat baxt-saodati yo'lida, demak har bir fuqaro manfaatidan kelib chiquvchi maxsus faoliyat – mafkuraviy tarbiya yotadi. Mafkuraviy tortishuvlardagi g'oyani ommalashtirish uslublari – mafkuraviy tarbiya uslublaridir. Bu bahsda pirovard natijani ilmga asoslangan targ'ibot va tashviqot hal qiladi. Shu tariqa mafkuralar kurashi – g'oyalar targ'iboti va tashviqoti tortishuviga aylanadi. Jamiyatga yot mafkuralar o'z g'oyalarini birdaniga olib kira olmaydi. Ular avvalo mahv qilinishi kerak bo'lgan millat azaldan ishonib kelgan qadriyatlarga ishonchini, umidini so'ndiradi. Buning uchun millat ishonib kelgan qadriyatlar yomonlanadi, obro'sizlantiriladi. Natijada mafkuraviy immunitetni sindirishning birinchi bosqichi amalga oshadi – millat o'zi ishonib kelgan g'oyalar, qadriyatlarga befarq munosabatda bo'la boshlaydi. Bo'shliq ana shunday yaratiladi, “ochib olinadi”.

Mafkuraviy bo'shliq hosil bo'lgach, endi uning o'rnini to'ldiruvchi yot g'oyalar jozibali tasvirlana boshlanadi. Buzg'unchi g'oyaga xos “yangilik” va u berayotgan va'dalar odamlar qulog'i va ko'zi orqali ong va qalbiga kira boshlaydi. Mafkuraviy bo'shliq shu tariqa to'ldirila boshlanadi. Yolg'on g'oya odamlar ongiga o'rnashsa, u ham amaliy kuchga aylanadi.

Hozirgi fan va texnologiyalar ravnaqi davrida boshqa kishilarning ongi va qalbiga yashirin, gʻaraz maqsad bilan taʼsir koʻrsatishni ifodalashda manipulyatsiya keng ishlatilmoqda. Ushbu vaziyatda shaxs va uning mafkuraviy immunitetiga taʼsir koʻrsatish jarayoni manipulyatsiya tushunchasida aks etadi.

Bunda birinchidan, “daʼvatchi”ning taʼsiri shaxsga nisbatan zoʻrlik va kuch ishlatmasdan, balki maʼnaviy, psixologik xususiyatga ega boʻladi; ikkinchidan, bu taʼsirda asl maqsad yashirin qoladi. Shuning uchun ham “islom dini niqobida” degan ibora ishlatiladi; uchinchidan, gʻoyaviy manipulyatsiya, zimdan taʼsir koʻrsatuvchidan mahorat va bilimni talab qiladi. Shunday ekan, gʻoyaviy manipulyatsiyani mafkuraviy kurash, yot mafkuralar tomonidan qoʻllanilayotgan taʼsir texnologiyasining tarkibiy qismi, deb atash mumkin. Yaʼni manipulyatsiya odamni u yoki bu ishni qilishga emas, (targʻbot va tashviqotdan farqli oʻaroq), balki shu ishni qilishga xohish, istak uygʻotishga xizmat qiladi

Yoshlarni yot va zararli gʻoyalarning taʼsiridan himoyalashda milliy gʻoyaning ahamiyati. Bugungi kunda yoshlarimizni turli xil yot va zararli gʻoyalar va vayronkor gʻoyalarga qarshi barqaror mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda ularning dunyoqarashini boyitish, Vatanga sadoqat, uning taraqqiyotiga daxldorlik hissi, milliy gʻururni shakllantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida kamol toptirish, hozirgi zamondagi keskin intellektual – maʼnaviy raqobatga javob bera oladigan, mustaqil qarorlar qabul qilishga qodir boʻlgan yuksak malakali mutaxassis kadrlar etib tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir. Zero, bu global oʻzgarishlar davrida uzluksiz taʼlim tarbiya tizimining oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Shu boisdan ham oʻtmishimiz va kelajagimiz uchun qudrat bagʻishlaydigan milliy iftixor tuygʻusi bilan biz yangi avlodlarni tarbiyalashimiz, oʻz milliy davlatchiligimizni mustahkamlab borishimiz lozim. Bu jarayonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni yosh avlodga yetkazishning infrastrukturasi va texnologiyasini yanada takomillashtirish masalasi zararli va yot gʻoyalarni, mafkuraviy tahdidlarni bartaraf qilish

orqali ularning mafkuraviy immunitet shakllanishi muhim omili ekanini hayotiy tajribaning o'zi isbotlamoqda.

Mamlakatimiz xavfsizligini bugungi va ertangi kunini hal qiluvchi kuchi bo'lmish o'sib, unib kelayotgan yoshlarimizni har tomonlama mafkuraviy qurollantirish ya'ni ularni turli xil yot va zararli g'oyalar ta'siridan himoya qilish orqali ularning mafkuraviy immunitetini shakllanish lozimligini bugungi davrning o'zi talab qilmoqda. Agar bu tushunchani qurollantirish emas, balki qurollanmog'i kerak desak, bevosita ularni o'z holiga tashlab qo'ygan va ko'ziga "yaltirab" ko'ringan narsani o'zlashtirishga sharoit yaratgan bo'lamiz. Pok qalbli yoshlarimizni, pok niyatlarini o'g'rincha bilib olgan va ularning ezgu g'oyalarini asta-sekinlik bilan yot g'oyaga aylantirishga sabab bo'layotgan, faqat sirtidagina jozibador, asli esa puch bo'lgan g'oyalar ta'siridan qutulishning birdan-bir yo'li bu – ma'rifatdir. Demak, biz yoshlar "Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish" kerakligiga har doim ham amal qilish lozimligini unutmasligimiz kerak. Shundagina yoshlarda mafkuraviy immunitetning mustahkamligi milliy va umuminsoniy qadriyatlariga, madaniy merosi, urf-odatlarini, an'analari, tili, tarixini hurmat qilishi, unga bo'lgan e'tiqodi va sadoqati orqali namoyon bo'ladi. Shundagina u millatni globallashtirish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ayrim tahdidlardan saqlaydi.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini amaliyotga tabiiq etishning dolzarb masalalari. O'zbekistonning mustaqil taraqqiyoti jarayonida insonparvarlik g'oyalarining takomillashuv jarayoni, unda avlodlararo vorislik va yangilanishning namoyon bo'ladi. Yangi O'zbekistonni barpo etish shaxs erkinligi hamda uning g'oyaviy-mafkuraviy asoslari bilan bevosita bog'liqdir. Shaxs erkinligi avvalo ijtimoiy tushuncha hisoblanadi. Jamiyatda erkinlashtirish jarayonini amalga oshirmasdan shaxs erkinligi to'g'risida fikr yuritish mumkin emas. Shaxs erkinligi fuqaroning imkoniyatlari, ijodiy qobiliyatlariga yo'l ochadi. Pirovard natijada shaxs ijtimoiy faol individga aylanadi.

Milliy g‘oyaning fikrlar, g‘oyalar xilma-xilligi, erkin fikr, shaxs erkinligiga erishish tamoyiliga amal qilishi mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada demokratiyalashtirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, erkinlashtirishga jamiyatni demokratlashtirishning boshlang‘ich bosqichi sifatida qaralib, jamiyat hayotining barcha sohalarini rivojlantirish vazifalari amalga oshirilmoqda.

O‘zbekistonda milliy tiklanish konsepsiyasi milliy ma’naviyatni tiklash, ma’naviy omillarni takomillashtirish bilan bevosita bog‘liqdir.

Milliy g‘oyaning asosiy mazmuni deganda, unda ifodalangan maqsadlar tushuniladi. Ya’ni, milliy taraqqiyot g‘oyalaridagi konkret maqsadlar uning asosiy mazmunini tashkil qiladi. Bu maqsadlar - Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yoki yurtimizda huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishdan iboratdir. «Biz uning mazmun-mohiyati, ufqlarini umumiy tarzda belgilab oldik, - degan edi Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov “Hushyorlikka da’vat” asarida. “Endi ijtimoiy soha olimlari, mutaxassislar, ilg‘or fikrli ziyolilar bu boradagi izlanishlarni chuqurlashtirib, umumlashgan nazariy xulosalarni ishlab chiqishlari, qisqacha aytganda, mafkuramizning asosiy maqsadlarini xalqqa sodda, haqqoniy, tushunarli tarzda ifodalab berishlari lozim”¹⁰⁹.

Binobarin, g‘oyaviy-mafkuraviy ishlarda, ko‘proq ayni shu maqsadlarning mazmun-mohiyati: Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotning o‘zi nima, uning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy-mafkuraviy qiyofasi qay tarzda namoyon bo‘ladi; bizning sharoitda huquqiy demokratik davlat va erkin fuqarolik jamiyati qanday amal qiladi; ularni barpo etishda qanaqa imkoniyatlar va to‘siqlar bor; maqsadlarimizga erishish uchun jamiyatimizdagi har bir kishi, guruh, toifa, qatlamlar qanday bo‘lmog‘i va nima ishlar qilmog‘i kerak; ushbu buyuk va ezgu g‘oyalarimiz qay tariqa ro‘yobga chiqayapti kabi muammo-masalalar atroflicha yoritilishi lozim. G‘oyaviy-mafkuraviy ishlarni tashkil qilishda masala shu tartibda qo‘yilishi, milliy g‘oyani o‘qitish va targ‘ib-tashviq qilishda ayni shu muammolarni

¹⁰⁹ Каримов И.А. Хушёрликка даъват/Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. Т. 8. –Т.8. - Тошкент:Ўзбекистон, 2000 йил, 28-бет.

sistemali yoritishga alohida e'tibor qaratilishi lozim. "YA'ni, milliy mafkura, milliy g'oya deganda bizning qanday maqsadlar, qanday amaliy yo'nalishlarni ko'zda tutishimiz haqida odamlar aniq tasavvurga ega bo'lsin. Yurtimizning har bir fuqarosi uni o'zining g'oyasi deb bilsin"¹¹⁰.

Tabiiyki, davlat tizimi, uni boshqarish va olib borilayotgan siyosat avvalo aniq va ravshan ifodalangan mafkura asosiga qurilmog'i lozim... Ya'ni, oldin g'oya paydo bo'ladi, undan keyin g'oya asosida mafkura, mafkura asosida esa tizim, siyosat paydo bo'ladi... Bundan shunday xulosa chiqadiki, biz avvalambor qanday jamiyat qurmoqchimiz, o'z kelajagimizni qanday tasavvur etamiz, degan savollarga o'z javoblarimizni yana bir bor aniqlashtirib olishimiz, shundan keyin odamlarimizni ana shu olijanob maqsadlar atrofida birlashtirishimiz zarur»¹¹¹. Demak, g'oyaviy ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarida hozir biz qanday jamiyat qurayotganimizni, unga erishish yo'llarini sodda, haqqoniy, hamma tushunadigan qilib tavsiflash, xalqimizda ana shular haqida aniq-ravshan bilim-tasavvurlarni hosil qilish g'oyat muhim ahamiyatga ega. Bunday sharoitda, odamlarda ertangi kunga umid va ishonch bo'lmay, ruhiy-ma'naviy depressiya yuzaga keladi, ularda hayotdan norozilik, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muhitga nisbatan salbiy munosabat paydo bo'ladi.

Ertangi kunga umid va ishonch inson hayotining mazmuni, orzu-intilishlari va faoliyatining asosi, uning tub manfaat va maqsadlarining namoyon bo'lishidir. Ular bo'lmasa: inson hayoti mazmunsiz, orzu-idellari sarob, faoliyati samarasiz, manfaat va maqsadlari noaniq, kelajagi qorong'u bo'lib, bu umuman baxtsizlikdir. Ya'ni, har qanday inson yoki millatning o'z kelajagini umuman tasavvur qilolmaydigan, unga biror umidi va ishonchi bo'lmagan holati eng katta baxtsizlikdir. Ayni paytda, bu – mafkurasizlik hamdir.

Ertangi kunga umid va ishonch kelajak haqidagi bilim-tasavvurlar bilan uzviy bog'liq. Bu bilim-tasavvurlar esa g'oyadagi maqsad, orzu-ideallarni

¹¹⁰ Каримов И.А. . Миллий мафкура – давлатимиз ва жамиятимиз қурилишида биз учун рухий-маънавий куч-қувват манбаи. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. Т. 8. –Тошкент: Ўзбекистон, 2000 йил, 462-бет.

¹¹¹ Shu manba.

o'rganish bilan hosil bo'ladi. Shuning uchun ham, milliy g'oya va mafkurani tushuntirishda, ko'proq ularning mazmunida muhim o'rin tutuvchi asosiy maqsad va orzu-ideallar yoritilishi lozim.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

Mafkuraviy profilaktika, immunitet, mafkuraviy immunitet, mafkuraviy immunitet tizimi, mafkuraviy tarbiya, bilim, qadriyat, dastur, barkamol avlod, "Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish"

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Mafkuraviy profilaktika nima va u qanday amalga oshiriladi?
2. Immunitet va mafkuraviy immunitet tushunchalari qanday ma'noni anglatadi?
3. Yurtimizda barkamol avlodni voyaga yetkazish borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
4. Mafkuraviy immunitet tushunchasi kim tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan?
5. Mafkuraviy immunitetni shakllantiruvchi omillarga nimalar kiradi?
6. Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ma'naviyatning roli qanday?
7. Shaxs erkinligining mohiyatini izohlang...
8. Mafkurasizlikning salbiy oqibatlarini izohlang...

20-§. O'ZBEKISTONDA G'OYAVIY TA'LIM-TARBIYA VA TARG'IBOT TASHVIQOT INSTITUSIONAL TIZIMI

G'oyaviy ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot tushunchalarining mazmun-mohiyati, ularning o'zaro bog'liqligi va boshqa ta'lim-tarbiya shakllari bilan aloqadorliklari. Bugungi globallasuv davrida vatanni sevadigan, yurt qadriga yetadigan bolalarni tarbiyalash, ularga g'oyaviy tarbiya berish har bir davlatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bolalarga vatan haqida tushuncha berishni ularning ilk bolalik davridan ya'ni

maktabgacha ta'lim yosh davridan boshlamoq zarur. Chunki bu davrda bolaning ongi hamma narsani anglay boshlaydi. Ayni shu vaqtdan unga Vatani, ona yurti haqida tushuncha berilsa, bu tushuncha uni umrini oxiriga qadar tark yetmaydi. Bunday tushunchalar g'oyaviy fanlar orqali yoshlar ongiga singdiriladi. G'oyaviy fanlarning o'tilmasligi yoshlarda vatanparvarlik, O'zbekiston kelajagiga ishonch, milliy qadriyatlarga sadoqat kabi tushunchalarning to'laqonli shakllanmasligiga sabab bo'ladi.

G'oyaviy tarbiya – inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayon. Jamiyatdagi har bir ijtimoiy kuch yoki aholi qatlamlari o'z manfaat va maqsad-intilishlarini ifoda etuvchi g'oyalar tizimini yaratgach, boshqa guruhlarni ham shu g'oyalar ta'siriga tortishga, o'z tarafdorlari safini kengaytirishga harakat qiladi. G'oyalar adolatli va haqqoniy bo'lib, ko'pchilikning talab-ehhtiyojlariga mos kelsa, bu sohadagi tarbiya vositalari ta'sirchan, tarbiyachilar esa faol va fidoyi bo'lsa, ko'zlangan maqsadga erishiladi. Jamiyat, xalq hali o'z manfaatlarini anglab yetmagan, o'z mafkurasini shakllantirib, maqsadlari sari safarbar bo'lmagan hollarda begona va zararli g'oyalar ta'siriga tushish ehtimoli ortib boradi. Bu esa g'oyaviy tarbiyani yo'lga qo'yish, sog'lom mafkura tamoyillarini aholi qalbi va ongiga muttasil singdirishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

G'oyaviy tarbiya – bugungi davr talabi. Birinchi Prezidentimiz ta'kidlaganidek, “Tobora kuchayib borayotgan bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashashimiz zarur. Bunday tahdidlarga qarshi har tomonlama chuqur o'ylangan, puxta ilmiy asosda tashkil etilgan, muntazam va uzluksiz ravishda olib boriladigan ma'naviy tarbiya bilan javob berish mumkin”. Bu sharoitda axborot xavfsizligini ta'minlash uchun virtual olamda ham faol harakatlar olib borish zarur. Hozirda yoshlarimizning barchasi internet tarmog'idan faqat ilm yo'lida va dunyo axborat yangiliklaridan foydalanishmoqda desak, biroz yanglishamiz. Internetdan turli noto'g'ri va bahayo ma'lumotlarni olishda ham foydalanmoqdalar. Bu kabi nohush holatlardan so'ng yoshlarni kelajakda qaxri qattik, mehrsiz,

hayosiz bo‘lib yetishmaydi deb hech kim kafolat bera olmaydi. Balki, bu ham o‘ziga xos ijobiy natijadir, lekin yoshlarning ijtimoiy tarmoqlarga qattiq berilishi va ulardan “hobbi” sifatida foydalanish ko‘rsatkichlarining keskin oshishini ijobiy natija deb bo‘lmaydi. Chunki, muntazam ijtimoiy tarmoqlardan ko‘ngilxushlik uchun foydalanish, yoshlarda, umuman foydalanuvchilarda internet addiksiyasi (zararli odatga berilish, qaramlik), o‘ziga xos internet kasalligini vujudga keltiradi, hayotiy sof tuyg‘ularni virtual (real bo‘lmagan) tuyg‘ularga almashtirish zamirida: virtual sevgi, virtual do‘stlik, virtual hayot kabi ming yillar davomida yuzaga kelgan insonlarning tabiiy hayotiy tuyg‘ularini, hayot va insonlar o‘rtasidagi muloqot tarzini virtuallashtirishiga, natijada hatto yo‘q bo‘lib ketishiga asos bo‘lishi mumkin.

G‘oyaviy tarbiya ma‘naviy targ‘ibot va tashviqot bilan uyg‘unlikda olib borilsa ijobiy samara beradi.

Ma‘naviy targ‘ibot va tashviqot – muayyan guruh, millat, jamiyat, irq, etnik guruh, hudud xalqlariga ma‘naviy tarbiya va tamoyillarni singdirishga qaratilgan tizimli va maqsadli ma‘rifiy faoliyatni ifodalaydigan jarayondir. Shuningdek, yurtimizdagi turli millat, ijtimoiy toifa, kasbu korga mansub bo‘lgan kishilarni ma‘naviy tajovuzlardan ogohlikka chorlash, mavjud xavf va tahdidlarning mohiyatini anglab yetish, ular haqida jamoatchilik fikrini shakllantirish, eng muhimi, milliy g‘oya asosida xalqni birlashtirish, jipslashtirish, yosh avlod ongi va qalbida ezgu g‘oyalarga sadoqat tuyg‘ularini tarbiyalashga qaratilgan usul va amaliy harakatlar majmuini anglatadigan tushuncha hisoblanadi. Odamlar qalbi va ongida ana shunday insoniy tuyg‘ular qaror topishi, jamiyatda olijanob fazilatlar ustuvor bo‘lishida ma‘naviy targ‘ibot va tashviqot muhim ahamiyatga ega.

Ma‘naviy targ‘ibot va tashviqot aslida ta‘lim-tarbiyaning muhim ko‘rinishidir.

“Targ‘ibot” atamasining o‘zagini “rag‘bat” so‘zi tashkil etgani bois, u insonni biror harakatga rag‘batlantirishni nazarda tutadi. “Tashviqot” tushunchasining o‘zagi esa “shavq” so‘zidan olingan bo‘lib, u kishida biror narsaga shavq, ishonch tuyg‘ularini uyg‘otishga yo‘naltirilgan.

Demak, targ‘ibot-tashviqotdan ko‘zlangan asosiy maqsad – nafaqat bilim orttirish, balki kishini biror-bir xatti-harakatga undashdan iborat. Kishilar ongini eski tuzum asoratlaridan xalos etish, ular qalbiga yangicha tafakkur, yangi g‘oyalarni singdirish uzoq davom etadigan jarayondir.

Ma’naviy targ‘ibot va tashviqotning ikki an’anaviy yo‘li mavjud.

Birinchisi – insoniy fazilatlarni ulug‘lash, yuksak ma’naviyatli kishilar hayoti va faoliyatini ta’riflash, ularni ibrat, namuna qilib ko‘rsatish orqali kechadi.

Ikkinchi yo‘l esa illatlarni qoralash, ulardan xalos bo‘lishga da’vat, targ‘ib-tashviq orqali amalga oshadi. Bu vosita birinchisiga nisbatan samaraliroq. Shu sababli ham erishilgan yutuqlarni xolisona e’tirof etib, yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar tanqidiy nuqtai nazardan baholanishi lozim.

Ma’naviy targ‘ibot va tashviqotda ulug‘ ajdodlarimizning hayot yo‘li, qoldirgan merosini bir yoqlamalikka berilmay, to‘g‘ri va haqqoniy aks ettirmog‘imiz darkor. Lekin, bunda faqat o‘tmishdagi siymolar bilan cheklanib qolmay, bugungi kun qahramonlari, ilg‘or zamondoshlarimizdan o‘rnak olish ham muhim ahamiyatga ega. Toki, ular yoshlar uchun tom ma’noda ibrat namunasi bo‘lsin. Chunki, targ‘ibot-tashviqotda faqat o‘tmishdan misol keltirish bilan cheklanib qolinsa, bu – kechagi kun bilan yashash bo‘ladi.

Ma’naviy targ‘ibot-tashviqot borasida eski davrdan qolgan quruq, siyqasi chiqqan va’zxonlikdan voz kechib, yurt bugun boshidan kechirayotgan murakkab va mashaqqatli hayot haqiqatiga tayanib, jamoatchilik fikrini shakllantirishning eng zamonaviy, ta’sirchan usul-uslublaridan foydalangan holda ish olib borishni hayotning o‘zi talab qilmoqda. Shu sababli ham ma’rifat targ‘ibotchilari, ijtimoiy soha olimlari, mutaxassislar, ilg‘or fikrli ziyolilar milliy g‘oyaning asosiy maqsadlarini xalqqa sodda, haqqoniy, tushunarli tarzda ifodalab berishlari muhim ahamiyatga ega.

Buning uchun nima, qanday targ‘ib qilishni aniq va puxta tasavvur etmoq ma’naviy oziq nimadan iborat bo‘lishini, uni odamlar ongiga qay tariqa yetkazish usullarini ishlab chiqmoq darkor. Ma’naviy oziqning mezoni

haqiqat va faqat haqiqat bo'lishi zarur. Ya'ni, xalqqa bor haqiqatni ochiq aytib, shunga ko'ndirish, ishonchini qozonish va shu asosda uni yangi marralarga intilishga rag'batlantiriladi. Har qanday tarbiyada, hatto yuksak rivojlangan demokratik tarbiya tizimida ham ozmi-ko'pmi bajarilishi shart bo'lgan belgilar mavjud. Masalan, bola go'dakligidan biror ezgu fazilatga o'rgatilmasa, kerak bo'lsa, majbur qilinmasa, yuz-qo'lini yuvmaslik, kattalar gapini bo'lish singari qusurlar unga odat bo'lib qoladi.

Xalqimizga azaldan xos bo'lib kelgan andisha, ota-onaga hurmat, ilm-ma'rifatga intilish kabi olijanob fazilatlar ham o'z-o'zidan shakllanib qolmaydi.

Ma'naviy targ'ibot va tashviqot ishlarida har bir ixtisos, har bir yo'nalish bo'yicha mutaxassislardan foydalanish kerak. Shundagina har bir ko'rsatuv, eshittirish, ma'ruza, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mazmun-mohiyati bilan odamlar qalbiga va ongiga yetib boradi.

Ma'naviy targ'ibot va tashviqot ishlarining ta'sirchanligini ta'minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyat ma'naviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari hamda targ'ibotchi-tashviqotchilar uchun tegishli tavsiya va qo'llanmalarni tayyorlash bu boradagi muhim vazifalar tarkibiga kiradi.

Ma'naviy targ'ibot va tashviqotda keng qamrovlilik, uzluksizlik, bosqichma-bosqichlik, meyoriylik, shaxsiy ibrat singari tashkiliy tamoyillarga amal qilingan taqdirdagina ko'zlangan samaraga erishish mumkin.

G'oyaviy ta'lim-tarbiyaning obekti, subekti, usul-vositalari hamda inson va jamiyat hayotiga ta'sir yo'nalishlari. G'oyaviy ta'lim-tarbiya – jamiyatda uzviylik asosida olib boriladigan ta'lim va tarbiya jarayonlarining tarkibiy qismidir. Chunki ta'lim ham, tarbiya tarbiya – ong ma'suli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omillardir. Binobarin, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib ongni o'zgartirib bo'lmaydi. Ongni, tafakkuri o'zgartirmasdan turib esa biz ko'zlangan oliy maqsad – tom ma'nodagi milliy yuksalishga erishish qiyin. Bu jarayonda

shubhasiz g‘oyaviy ta’lim-tarbiyaga ehtiyoj seziladi. Har tomonlama yetuk shaxsni tarbiyalash – g‘oyaviy ta’lim-tarbiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Demak, hech ikkilanmay aytish mumkinki, g‘oyaviy tarbiyaning obekti ham, subekti ham shu jamiyat a’zolari, uning muayyan qismini tashkil etuvchi yoshlar.

“Nima uchun milliy g‘oyani inson ongi va qalbiga singdirish zarur va muhim? Milliy g‘oyaning targ‘iboti nimaga xizmat qiladi va bu jarayon qanday tashkil qilinishi kerak? Umuman milliy g‘oyaning targ‘iboti bilan kimlar va qanday tuzilmalar shug‘ullanishi kerak?”. Mazkur mavzuni o‘rganish shu kabi savollarga javob topish imkonini beradi.

Ma’lumki, XXI-asrni axborot asri, axborot texnologiyalari asri deb atash tobora rasm bo‘lmoqda. Chunki asrimizda keng qamrovda va jadal sur’atlarda tarqalayotgan informatsiya va turli axborotlar insonning istak va mayllari, his-tuyg‘ulari, didini o‘zgartirishi, fikriga ta’sir qilishi mumkin.

Tan olish kerak, bugun tomosha qilinayotgan seriallardan tortib bolakaylarga aytib beriladigan ertakkacha, iste’molimizda bo‘lgan mahsulotlardan tortib o‘qiyotgan kitoblarimizgacha barchasi qaysidir darajada mafkuraviy ta’sir samarasiga ega ularda muayyan g‘oyalar targ‘ib qilinadi. Bu holat “eng asosiy narsani ko‘z bilan ilg‘ab bo‘lmaydi” degan fikrni yana bir karra tasdiqlaydi. Bunday ko‘zga ko‘rinmas qudratli targ‘ibot kuchlari kishini hamma yerda va har kuni qurshab turadi. Bu kuchlarning maqsadi – insonni nimagadir ishontirish, nimagadir undash, nimagadir og‘dirish. Tarbirkorlar o‘z mahsulotini reklama qilib, uni sotib olishga undaydi. Diniy arboblari o‘z diniga e’tiqod qilishga chaqiradi. Xalqaro maydonda ba’zi davlatlar o‘zining “qudratli davlat” ekanini uqtirishga harakat qiladi. Bularning barchasi bugungi voqeliklar uchun tabiiy hol.

Lekin chuqurroq o‘ylab qaralsa, tanganing ikkinchi tomoni ham bor. Ya’ni, o‘sha molini maqtayotgan tadbirkor tamaki sotayotgan bo‘lsa-chi? Uning zarari haqida odamlarni kim ogohlantiradi? Agar o‘sha dindor, din chetda qolib, uning niqobi ostida davlat tuzimini ag‘darishga chaqirayotgan bo‘lsa-chi? Bunday buzg‘unchiliklardan xalqni kim qaytaradi yoki jahonda “qudratli davlat”larning qo‘lidan tutib emas, mustaqil odim tashlash

kerakligini kim tushuntiradi? Bu kabi targ‘ibotni yoki aksil targ‘ibotni kim tashkil qilishi kerak?

Buning uchun albatta kuchli targ‘ibot tizimi faoliyat olib borish kerak.

Shu o‘rinda yuqorida berilgan “Nima uchun milliy g‘oyani inson ongi va qalbiga singdirish zarur va muhim?” degan savolga javoban aytish mumkinki, yurt, xalq va davlatning ertangi kunining qanday bo‘lishi bugungi yoshlarga bog‘liq. Shuning uchun o‘sib kelayotgan yosh avlodning ta‘lim-tarbiyasi, xususan, yoshlar o‘rtasida olib boriladigan g‘oyaviy tarbiyaga har tomonlama, jiddiy e‘tibor qaratish zarur. Jumladan, milliy g‘oyamizni yoshlar qalbi va ongiga singdirishda jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olish, ta‘lim-tarbiya, targ‘ibot va tashviqotning samarali usul va vositalaridan oqilona foydalanish taqazo etiladi. Bunda quyidagi vazifalar ko‘zda tutiladi:

- ta‘lim muassasalarida bolalar va talabalarning yoshiga mos ravishda milliy g‘oyani singdirishga yo‘naltirilgan differentsial pedagogik-psixologik dasturni yaratish;

- Sharqona ta‘lim-tarbiya tamoyillari va bugungi kun talablarini uyg‘unlashtirish asosida o‘quvchi-talabalar ongida milliy g‘oyani singdirish ishlarini uzluksiz tarzda olib borish;

- o‘quv dasturlari, darslik va qo‘llanmalarda milliy g‘oyamizning mazmun-mohiyatini teran aks ettirish;

- maktabgacha ta‘lim va tarbiya, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim, professional va oliy ta‘lim bosqichlarida olib borilayotgan mafkuraviy tarbiyani bugungi kun talablari darajasiga olib chiqish;

- g‘oyaviy tarbiya beruvchi pedagog kadrlarning mafkura borasidagi bilimlarini chuqurlashtirish.

Ta‘lim-tarbiyaning har bir alohida bosqichi o‘z navbatida milliy g‘oyalarning yoshlar qalbi va ongiga singdirishning o‘ziga xos omillarini nazarda tutadi. Ta‘lim dargohlari (bog‘cha, maktab, akademik litsey, kasb-hunar maktablari va texnikumlar, oliy o‘quv yurtlari) mafkuraviy tarbiyaning asosiy o‘choqlaridir. Ularning barchasida amalga oshiriladigan mafkuraviy ta‘lim jarayonida:

- barcha o'quv qo'llanmalari va darsliklar, qo'shimcha adabiyotlarda Vatan tuyg'usini shakllantirish;
- ona tilimizga muhabbat uyg'otish;
- milliy qadriyatlarga hurmatni kuchaytirish;
- ezgulik timsoli bo'lgan ayolni ulug'lash;
- oilani vatanparvarlik hissini tarbiyalashdagi rolini ko'rsatish;
- mahallaning demokratiya darsxonasi va o'z-o'zini boshqarish maktabi ekanini tushuntirish, umuminsoniy qadriyatlarning millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish va ilg'or madaniyatni shakllantirish vositasi ekanini uqtirish, dinning dunyoviylik bilan qaramaqarshi emasligini anglatish, ma'rifatning shaxs intellektual salohiyatini oshirishdagi imkoniyatlari kengligini isbotlovchi tarixning, mafkuraning falsafiy asosini yaratishdagi ahamiyatini ochib berish kabi omillar ustivor ahamiyat kasb etishi lozim.

Davlat va jamiyat taraqqiyotida g'oyaviy ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqotning o'rni, roli va ahamiyati. Davlatning rivoji, jamiyatning takomili va taraqqiyotida g'oyaviy ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot alohida muhim o'rin tutadi.

Ayniqsa mafkura targ'iboti jarayonida quyidagi vazifalar bajariladi:

birinchidan, davlat rivojlanishning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy – ma'rifiy sohalaridagi vazifalarni o'zida mujassamlashtiradi;

ikkinchidan, bir davlat, bir mamlakat miqiyosida barcha fuqarolarni, turli millat, elat, sinflar va ijtimoiy guruhlarni bir g'oya va maqsad sari birlashtirishga xizmat qiladi;

uchinchidan, davlat olib boradigan ichki va tashqi siyosat g'oyalarini o'zida mujassamlashtirib, uni fuqarolarga targ'ib etadi;

to'rtinchidan, davlat doirasida yashayotgan fuqarolarni yaratuvchilik, bunyodkorlik, ijodkorlik faoliyatini faollashtiradi va ularni jamiyat maqsadlariga yo'naltiradi;

beshinchidan, xalqning orzu-umidlarini o'zida ifoda ettiradi, jamiyatda mavjud bo'lgan muammolarni hal qilish uchun butun jamiyat va fuqarolarni harakatga keltiradi;

oltinchidan, mafkura jamiyatda ma'lum siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy – ma'rifiy qarashlarni shakllantiradi.

Ma'lumki, mafkura – umummillatga, umumxalqqa, butun jamiyatga taalluqli ulkan g'oyalar majmui. Ammo uning ildizlari har bir insonning qalbida, vijdonida, iymonida, aql – idroki va tafakkurida. Shu bois, haqiqiy, hayotiy, chuqur insoniy mafkurasi bor xalq, mamlakat va jamiyat qudratlidir.

Mafkura xalqning azaliy qadriyatlaridan oziqlanadi. Qadriyatlar ham ma'naviyatning tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadi. Ular ijtimoiy xususiyatga ega bo'lib, kishilarning amaliy faoliyati jarayonida shakllanadi va rivojlanib boradi. Qadriyatlar kishilarning turli sohalardagi, avvalo, ishlab chiqarishi, mehnat sohasidagi faoliyati uchun foyda keltiradigan narsa va hodisalar majmui bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Tabiat va jamiyat hodisalari insonning moddiy va ma'naviy boyliklar ishlab chiqarish, yaratuvchanlik faoliyati tufayli, uning ehtiyojlarini qondirish natijasida qadriyatlilik ahamiyatiga ega bo'ladi.

Odamlarning manfaatlari, ehtiyojlarini qondira olmagan, ularning orzu-istaklari, intilishlariga mos kelmaydigan, tabiat va jamiyat hodisalarini qadriyatlar sirasiga kiritish noo'rindir. Ma'naviy qadriyatlar va ularning inson kamolotidagi ahamiyatiga to'xtashdan avval, qadriyatlarning turlari va ko'rinishlarini bilib olish lozim. Qadriyatlar o'z mohiyati, xususiyatlari va amal qilish doirasiga ko'ra bir necha turlariga va shakliy ko'rinishlarga bo'linadi. Avvalo, barcha qadriyatlar orasida inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Inson yo'q joyda biron narsaning qadr-qimmatini, ahamiyati haqida so'zlash bema'nilikdir. Insonsiz borliqdagi mavjud barcha narsa va xodisalar o'zining qadriyatlilik ahamiyatini yo'qotadi. Shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridanoq inson qadr-qimmatini e'zozlash, uning manfaatlarini har tomonlama himoya qilish, turmushini yaxshilash, bilimi va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etib kelmoqda.

O'zbekistonda va dunyodagi boshqa mamlakatlarda amalga oshirilayotgan g'oyaviy-mafkuraviy ishlar, ularning tashkiliy-uslubiy

asoslari va yo‘nalishlari. Dunyoning o‘ziga xos siyosiy, iqtisodiy, madaniy qiyofasi bo‘lganidek, uning ham o‘ziga xos mafkuraviy surati bor. Zamonaviy dunyoning mafkuraviy manzarasida “mafkuraviy tayyorgarlik maydonchalari” faoliyati tobora hayratlanarli bo‘lib, insonning ruhi va ongiga ta’sir qiluvchi turli vositalar yordamida kurash olib boradi. Bunday mafkuraviy sinov maydonlari odamlarning ongi va ruhiyatini egallash uchun kurashning kuchayishi natijasida vujudga keladi va bu kurash harbiy emas, eng avvalo, mafkuraviy, qurollar bilan olib boriladi.

Dunyo siyosiy xaritasi, mintaq va qit’alarga bo‘lingan. Bu hududlar aniq chegaralarga ega. Biroq, insoniyat yigirmanchi asrning oxiriga kelib chegara bilmaydigan qiyinchiliklarga duch keldi. Jumladan, mintaqaviy nizolar, tajovuzkor millatchilik va shovinizmga asoslangan diniy-etnik mojarolar, ma’naviy inqiroz, giyohvandlik, terrorizm va boshqalar kabi muammolar shular jumlasidandir.

Bundan tashqari, globallashuv jarayonlari va axborot oqimining tezlashishi bilan bog‘liq bir qator muammolar paydo bo‘ladi. Eng yomoni shundaki, turli mafkuraviy vositalar bilan o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga, odamlarning ruhi va ongini egallashga urinayotgan, shu tariqa butun bir millat va davlatlarni ularga ergashishga majburlaydigan turli kuchlar paydo bo‘lmoqda. Dunyoning mafkuraviy manzarasini belgilab beruvchi asosiy tamoyil aynan shu narsadadir.

“Ko‘pburchak” atamasi yunoncha so‘l zdan olingan bo‘lib, “ko‘l p qirrali” degan ma’noni anglatadi. Odatda poligon deganda qurol va texnika sinovdan o‘tkaziladigan, qo‘shinlar o‘qitiladigan, harbiy tayyorgarlik va mashg‘ulotlar o‘tkaziladigan muayyan maydon tushuniladi.

Tarix tajribasidan ma’lumki, begona hududlarni egallab olish yoki o‘zinikini himoya qilish uchun harbiy qurollarning turlari doimiy ravishda takomillashtirib borildi. Ularning barchasi haqiqiy yoki taxmin qilingan dushmanning ishchi kuchi va vositalarini yo‘q qilish uchun yuborilgan. Endilikda butun insoniyat va har bir xalqning dunyoqarashi mafkuraviy sinov maydonchasiga aylandi. Chunki ruhi va ongi zabt etilgan

xalq dushmandan yengiladi. Shu bois Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ilk bor “Mafkuraviy sinov maydonchasi” tushunchasini ishlatgan edi.

Mamlakatga qurolli hujum yoki unga iqtisodiy zarar yetkazilishini osongina ko‘rish va sezish mumkin. Biroq, mafkuraviy ta’sirni ko‘rish va his qilish oson emas. Uning ta’siri radio, televidenie, gazeta va jurnallar, internet, umuman, barcha ommaviy axborot vositalari orqali keladi. Bu odamlarni hamma joyda – uyda ham, ko‘chada ham, ish joyida ham ta’qib qiladi. Mafkuraviy sinov maydonlaridan tarqatilgan, ko‘rinishidan zararsiz bo‘lgan filmlar, san’at asarlari, o‘yinchoqlar, kundalik buyumlar va boshqalar. odamlarning ruhi va ongini egallashga qaratilgan his-tuyg‘ulariga ta’sir qiladi. Masalan, “diniy adabiyot” niqobi ostida xorijdan keltirilgan ayrim kitoblar dinga siyosiy maqom berilib, aslida muayyan kuchlarning o‘z yashirin maqsadlarini targ‘ib qilishga yo‘naltiriladi. Ulardagi uydirmalar tufayli dinning asl ma’nosini bilmaydigan yoshlar bu kabi manbalardagi axborotlarga ishonib, noto‘g‘ri yo‘lga kirishlari mumkin. Yoki uyatsizlik, vahshiylik va zo‘ravonlikni targ‘ib qiluvchi filmlar ham mafkuraviy poligonlardan tarqalgan zararli ta’sir tashuvchisi hisoblanadi.

Zamonaviy dunyoning mafkuraviy suratida ikki qarama-qarshi kuchlarning kurashi ko‘rinadi. Bulardan birinchisi, xalqlarning taraqqiyotga intilishini ta’minlovchi ilg‘or mafkuralar bo‘lsa, ikkinchisi esa, taraqqiyot yo‘lidagi xalqlarga to‘sqinlik qilishga uringan zararli va buzg‘unchi mafkuralardir.

Erkin va farovon hayot poydevorini qo‘yayotgan, yanada yuksak taraqqiyot sari intilayotgan ilg‘or mamlakatlar o‘z mafkuralarini umuminsoniy qadriyatlar va demokratik tamoyillar asosida rivojlantirmoqda. Chunki bunday mafkura insonga o‘z iste’dodini erkin namoyon etish imkonini beradi. Chunonchi, Vatanimizning bor kuch va qudrati, bunyodkorlik iste’dodi yurtimizni yanada ravnaq toptirish, tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash, shu muqaddas zaminda istiqomat qilayotgan barcha insonlarning farovon hayot poydevorini yaratishga qaratilgan.

Shu bilan birga, tajovuzkor millatchilik, shovinizm, neofashizm, irqchilik va diniy ekstremizm kabi zararli mafkuralar zamonaviy taraqqiyotga moslashib, yangi ko‘rinishlarda namoyon bo‘lmoqda. Sobiq Yugoslaviya hududidagi agressiv millatchilik va separatizmga asoslangan to‘qnashuvlar, bir qator Sharqiy va Yevropa davlatlari hududida mustahkam o‘rnashib olgan diniy ekstremistik kuchlarning harakatlari bunga misol bo‘la oladi.

Shu o‘rinda bugungi kunda rivojlangan davlatlar qudratli targ‘ibot tizimiga ega bo‘lishga intilayotganini ham alohida ta‘kidlash lozim. Masalan, o‘z faoliyatining targ‘ibotiga AQSH hukumati yiliga milliardlab mablag‘ sarflashi bejiz bo‘lmasa kerak. Fransiya ham o‘z siyosatini aholiga tushuntirish ishlariga yiliga millionlab mablag‘ni bekorga sarflamayotgandir? Bu ma‘lumotlar targ‘ibot nafaqat dinda, biznesda muhimligini balki siyosatda ham, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarda ham muhim ahamiyat kasb etishni ko‘rsatadi.

Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, rivojlangan demokratik davlatlar ham mafkuraviy faoliyatdan sira voz kechmagan.

Demak, bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlardan ko‘zlanayotgan maqsad ham el-yurt, xalq va davlatning ertangi kuni, ravnaqi va taraqqiyoti, O‘zbekistonning jahondagi o‘rni va nufuzini belgilab beradigan tom ma‘nodagi islohotlarni amalga oshirishdan iboratdir.

Hozirgi davrda inson ongi va qalbini zabt etish uchun kurash borayotgani hech kimga sir emas. Shuning uchun yot g‘oyaviy ta’sirlarga qarshi kurashda uzilishlarga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Bunday sharoitda begona g‘oyalarning qo‘poruvchi ta’siriga qarshi doimiy va uzluksiz aksiltarg‘ibotni tashkil etish muhim sanaladi. Chunki bunday mafkuraviy kurashni nafaqat mamlakatimiz ichkarisida, balki xalqaro maydonda ham olib borish talab etiladi.

Milliy g‘oyani singdirishning usullari, texnologiyalari, ustuvor yo‘nalishlari XXI-asrda insoniyat o‘z taraqqiyotining sifat jihatidan yangi pallasiga qadam qo‘yganligi bilan baholanishi lozim. XXI-asrda ishlab chiqarishda joriy etilgan yangi texnologiyalar mehnat samaradorligini misli

ko‘rilmagan darajada o‘stirib yubordi. Biroq, yangi texnologiyalar faqat sanoat va qishloq xo‘jaligida qo‘llanilmayapti, balki ma‘naviy-mafkuraviy jarayonlarda ham shu nuqtai-nazardan yondashish milliy g‘oyani targ‘ib qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zaruratini ko‘rsatadi.

O‘zbekistondagi g‘oyaviy ta‘lim-tarbiya va targ‘ibot-tashviqot institusional tizimi, uning demokratik xususiyatlari. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tub o‘zgarishlarning taqdiri, so‘zsiz, har bir fuqaro, aniqrog‘i, insonning faolligiga bog‘liq. Bu esa islohotlarning mohiyatini xalqqa tushuntirishni talab qiladi. Shuning uchun rivojlangan mamlakatlarda mafkuraning targ‘iboti “hukumat siyosatining tashviqoti” ko‘rinishida amalga oshiriladi. Davlatning bosh islohotchi ekanligi ham O‘zbekiston hukumatining siyosatini maxsus targ‘ib qilishni talab etadi. Bunday targ‘ibot islohotlarini mafkuraviy asosda ta‘minlashga xizmat qiladi.

Bu ishlar milliy ma‘naviyatimiz va jamiyatimizda ilgari surilayotgan milliy yuksalish g‘oyasining ma‘no-mazmuni va ularni o‘qitish texnologiyalarini takomillashtirishni, yoshlarni mustaqil fikrli bo‘lishga, ijobiy o‘zgarishlarga befarq bo‘lmagan, chuqur bilimlarga intilib yashashga o‘rgatishni taqazo etadi.

Ta‘lim jarayonida ijtimoiy trening mashg‘ulotlarining milliy mentalitetga mos shakllaridan samarali foydalanish tarixiy va madaniy merosni chuqur o‘rganish bilan bir qatorda ilg‘or, zamonaviy bilimlar egasi bo‘lishga intilishning oshishiga turtki bo‘ladi. Ta‘lim muasasalarida yaratilgan o‘quv qo‘llanmalaridan tortib, sinflar va auditoriyalargacha barchasini mafkuraviy ta‘lim beruvchi ijtimoiy reklamalar bilan qurollantirish maqsadga muvofiqdir. Yoshlardagi sog‘lom dunyoqarash va ilmga ishtiyoqni har tomonlama qo‘llab-quvvatlashda homiylik va vasiylik tashkilotlari imkoniyatlaridan to‘la foydalanish va shu orqali jamiyat keng qatlamlari vakillarini ta‘lim-tarbiyani takomillashtirish ishiga safarbar etish zarur. Zotan “Mafkura faqat bugun emas, balki hamma zamonlarda ham eng dolzarb siyosiy – ijtimoiy masala, har qanday jamiyatni sog‘lom, ezgu maqsadlar sari

birlashtirib, uning o‘z muddaolariga erishishi uchun ma‘naviy-ruhiy kuch – quvvat beradigan poydevor bo‘lib kelgan”¹¹².

Bugun barkamol avlodni tarbiyalash bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan ekan, bunda g‘oyaviy ta‘lim-tarbiya va targ‘ibot-tashviqotning institusional tizimini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tizim tarkibida oila, mahalla, ta‘lim-tarbiya maskanlari, davlat va nodavlat tashkilotlari, siyosiy partiyalar, ommaviy axborot vositalari turli tuzilmalar bir-biri bilan uyg‘un ravishda faoliyat olib borishi kutilgan samarani beradi.

Jumladan, mahalla – o‘zini o‘zi boshqarishning milliy modeli bo‘lib, u xalqimizning azaliy udumlari, an‘analariga tayangan holda, ulkan tarbiyaviy vazifani bajaradi. Keksalarning pand-nasihati, kattalarning shaxsiy ibrati, jamoaning hamjihatligi misolida odamlar ongida ezgulik g‘oyalari singdirilib boriladi.

Mahalla, avvalo, sog‘lom ijtimoiy muhitdir. Bu yerda kuchli ta‘siriga ega bo‘lgan jamoatchilik fikri mahalla ahlining xulq-atvori, o‘zaro munosabatlarini adolat va ma‘naviy mezonlar asosida tartibga solib turadi. Shu ma‘noda, mahalla I.Karimov ta‘kidlaganidek, haqiqiy demokratiya darsxonasidir.

Ta‘lim-tarbiya sohalari milliy istiqlol g‘oyalarini yoshlar qalbi va ongiga singdirishning ustuvor yo‘nalishlaridir. Ta‘lim tarbiyaning har bir alohida bosqichi o‘z navbatida g‘oyalarni yoshlar qalbi va ongiga singdirishning o‘ziga xos omillarini nazarda tutadi.

Ommaviy axborot vositalari – eng asosiy, qudratli va ta‘sirchan mafkura vositasidir. Chunki ommaviy axborot vositalari ommani o‘ziga xos tarbiyachisi bo‘lib, dolzarb muammolarni hal qilishning ta‘sirchan quroli bo‘lib xizmat qiladi. Aynan ommaviy axborot vositalari orqali milliy qadriyatlar, milliy g‘oya va demokratik tamoyillar targ‘ib-tashviq qilinadi. Totalitar tuzumda ommaviy axborot vositalari axborot uzatish vositasi va yakkahukmron g‘oyani singdirish quroli bo‘lib xizmat qilganligini ham yaxshi bilamiz.

¹¹² Махмудов Т. Мустақиллик ва маънавият. – Тошкент: Шарқ, 2001 йил, 123-бет.

Adabiyot va san'at sohalarida ham odamlar ongiga kuchli ta'sir etgan va real voqelik tamoyiliga asoslanadigan, bunyodkor g'oyalar zamirida shakllangan milliy va umuminsoniy qadriyatlar kabi g'oyalarni o'zida aks ettiradigan asarlar ham shular qatoriga kiradi.

Oxirgi paytlarda informatsion xurujlarning tez-tez uyushtiralayotgani aslida urushga munosabatning o'zgarganidan, qurolning yangi turi kashf qilinganidan darak beradi. Bu qurol – axborotdir. Shu ma'noda aksiltarg'ibot "g'oyaga qarshi g'oya bilan kurashish" tamoyiliga mos ravishda olib borilishi kerak. Bunda davlatimiz siyosatiga qarshi kuchlarning g'oyaviy hujumlarini qaytarish talab etiladi. Bunda ommaviy axborot vositalarining roli beqiyosdir.

O'zbekistonda mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishni ustuvor yo'nalishlari qo'yidagilardan iborat:

- belgilangan tadbirlarning yuqori darajada uyushqoqlik bilan o'tkazilishini ta'minlash;
- milliy istiqlol g'oyasining targ'iboti sifatini muntazam oshirib borish;
- davr talabidan kelib chiqqan holda mafkuraviy ishlarni tashkil etishning yangi, samarali yo'llarini izlash;
- bu sohada eski uslublarni mutlaqlashtirishga, andozalashtirishga yo'l qo'ymaslik;
- mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishda ijtimoiy muhitni hisobga olish;
- mafkuraviy jarayonlarni tashkil etishda uchraydigan rasmiyatchilik, majlisbozlik ko'rinishlariga barham berish;
- mafkuraviy faoliyatning qanchalik samarali olib borilayotganligini bilish maqsadida uning monitoringini tashkil etish.

G'oyaviy mafkuraviy ishlarda ta'lim muassasalarining o'rni. Yuqorida juda ko'p maroba qayd etilganidek, XXI-asr globallasuv, axborot asri bo'lishi bilan bir qatorda ma'naviyat va ma'rifat asridir. Bu asrda ma'naviy-ma'rifiy tamoyillar asosida g'oyaviy tarbiyani olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa bugun o'sib kelayotgan yosh avlodda "halollik", "insonparvarlik", "adolat", "sadoqat", "xalqqa xizmat qilish", "ma'naviy jasorat" kabi ma'naviy kompetensiyalarni shakllantirish va bu

orqali ularni turli g‘oyaviy-ma‘naviy tahdidlar, “ommaviy madaniyat” kabi illatlarning ta‘siridan asrash – ta‘lim-tarbiya muassasalari oldidagi eng muhim va dolzarb vazifaga aylangan. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek: “ommaviy madaniyat” ko‘rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrashga, ularning ta‘lim-tarbiyasiga har birimiz mas‘ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak”¹¹³.

Shu o‘rinda qayd etish zarurki, maktabgacha ta‘lim muassasalari, bevosita ta‘lim beruvchi muassasalar (maktablar, litsey, kasb-hunar kollejlari, oliy o‘quv yurtlari) mafkuraviy tarbiyaning asosiy o‘choqlaridir.

Mafkuraviy tarbiyaning ma‘naviy-ma‘rifiy vazifalari haqida gap borganda, ommaviy axborot vositalari, fan, adabiyot, san‘atning bunyodkor g‘oyalarni amalga oshirishdagi o‘rni, barkamol avlodni tarbiyalash va Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishning g‘oyaviy omillari nazarda tutiladi.

Ijtimoiy fanlar alohida o‘rin tutadi. Bu o‘rinda ijtimoiy fanlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar ezgu va bunyodkor g‘oyalar, jahon sivilizatsiyasining ilg‘or ilmiy namunalari aks etgan bilimlarni yoshlar tarbiyasida unumli qo‘llashlari kerak.

Barcha turdagi ta‘lim muassasalari olib boriladigan g‘oyaviy-tarbiyaviy ishlarga quyidagilar kiradi:

- mafkuraviy tarbiya;
- g‘oyaviy-siyosiy tarbiya;
- fuqarolik-vatanparvarlik tarbiyasi;
- g‘oyaviy-axloqiy tarbiya;
- milliy va xalqaro ta‘lim.

Yosh avlodni mafkuraviy tarbiyalash quyidagilarga qaratilishi kerak:

- shaxsning davlat mafkurasi asoslarini bilishi va qabul qilishi;
- milliy g‘oyani qabul qilish; fan, texnika, ishlab chiqarish, axborot

¹¹³ Мирзиёев Ш.М. Демократик ислохотларни изчил давом эттириш, халқимиз учун тинч ва осойишта, муносиб ҳаёт даражасини яратиш – барқарор тараққиёт кафолатидир // Халқ сўзи, 2016 йил. 20 октябрь

texnologiyalari yutuqlariga asoslangan dunyoqarashni shakllantirish;

- jamiyatda sifatli o'zgarishlarga intilish; davlatning iqtisodiyot, huquq, ijtimoiy himoya, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat, sport sohalaridagi strategiyasi va mafkurasidan xabardor bo'lish;
- inson ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish uchun ijtimoiy standartlarning rolini tushunish.

Ma'rifatparvar mutafakkir Abdulla Avloniy "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratli bo'lishiga sabab bo'latur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so'ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog'lidir"¹¹⁴ degan edi. Shu sababli ham harbiy ta'lim muassalarida bilim olayotgan yoshlarimizni mustaqillik tafakkuri asosida fikrlashga o'rgatish biz professor-o'qituvchilar zimmamizdagi vazifalardandir. Darhaqiqat, o'z fikriga ega, mafkuraviy immuniteti shakllangan shaxs turli yot g'oyalar ta'siriga tushmaydi.

Bizningcha, ta'lim muassalarida bilim olayotgan yoshlar o'rtasida olib borilayotgan g'oyaviy tarbiya jarayonlarida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- eng avvalo yoshlarni milliy g'oya bilan qurollantirish;
- hayot hodisalarini dunyoviylik, ilmiylik qoidalari asosida tahlil qilish va baholashga odatlantirish;
- o'z qarashlarini himoya qilishga o'rgatish;
- buzg'unchi mafkuralarga har doim, hamma joyda murosasiz bo'lishga tayyorlash zarur.

Bu borada oila, ta'lim muassasalari, mahalla va boshqa davlat va nodavlat tashkilotlari hamkorligi o'zining ijobiy natijasini beradi.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ichki ishlar organlari xodimlari ham yosh avlodning tarbiyasiga befarq bo'lmasliklari kerak. Ayniqsa, bugungi kunda tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmalari (bo'limlari) boshlig'ining

¹¹⁴ Авлоний Абдулла. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992 йил, 15-бет.

yoshlar masalalari bo'yicha o'rinbosari – huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'limi (bo'linmasi) boshlig'i, avvalambor, voyaga yetmaganlar hamda yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishni samarali tashkil etishi va muvofiqlashtirishi lozim bo'ladi.

Ta'lim dargohlarida bilim olayotgan yoshlarimiz yot mafkuralarning ortida nimalar yotganini anglay olishlari lozim. Ya'ni yoshlarni yot mafkuralar zamirida taktikasini muntazam o'zgartirib turuvchi jonsarak aqidaparastlar targ'iboti turganini tushunishga o'rgatib borish kerak.

Mavzuga oid tayanch tushuncha va atamalar:

Globalashuv, g'oyaviy fanlar, yoshlar ongi, g'oyaviy tarbiya, inson, jamiyat dunyoqarashi, g'oyalar ta'siri, tahdid, axborot xavfsizligi, targ'ibot, targ'ibot-tashviqot, ma'naviy targ'ibot va tashviqot, ma'naviy tarbiya, g'oyaviy tarbiya, sharqona ta'lim-taroiya tamoyillari

Mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Mafkuraviy profilaktika nima va u qanday amalga oshiriladi?
2. Immunitet va mafkuraviy immunitet tushunchalari qanday ma'noni anglatadi?
3. Yurtimizda barkamol avlodni voyaga yetkazish borasida qanday ishlar amalga oshirilmoqda?
4. Mafkuraviy immunitet tushunchasi kim tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan?
5. Mafkuraviy immunitetni shakllantiruvchi omillarga nimalar kiradi?
6. Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ma'naviyatning roli qanday?
7. Shaxs erkinligining mohiyatini izohlang...
8. Mafkurasizlikning salbiy oqibatlarini izohlang...

IZOHLI LUG‘AT – GLOSSARIY

AN’ANA – jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma’naviy faoliyat shakllarining, kishilar o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddan-avlodga o‘tishi, ajdodlar hayoti, belgilari va xususiyatlarining takrorlanish tarzi.

ANIMIZM (lot. anima – ruh, jon) – kishilar, hayvonlar, predmetlar va hodisalarni go‘yo ruh, jon boshqarib turishiga ishonish. Animizm ibtidoiy diniy tasavvurlarning oliy shaklidir. Animizmda moddiy obektlar ruhiy mavjudotlar dunyosi bilan to‘ldirilgan bo‘ladi. Animizm atamasini birinchi marta nemis olimi Shtal (1708) tomonidan muomalaga kiritilgan. 1871 yilda animizm atamasi I.Teylor tomonidan etnografiya fanida qo‘llaniladi. G.Shtal animizmni jon hayotining boshlanishi haqidagi ta’limot deb tushungan, Teylor bo‘lsa uni nafaqat jon va ruhlarga ishonish, balki dinning kelib chiqishi haqidagi ta’limot, tandan jonning ajralib chiqishi, dinning “minimum” asosi deb hisoblagan. R.Maretg, Frezer, L.Shternberg kabi faylasuflar animistik tasavvurlarning o‘tmishdoshi jodutarlik, afsungarlik hamda barcha tabiatni jonlantirish (animatizm) haqidagi tasavvurlar deb hisoblaganlar.

ATEIZM (yun.a- inkor qo‘shimchasi, theos - xudo; xudoni, dinni inkor etish).

- 1) umumfalsafiy ma’noda ilohiy kuchlarga e’tiqod qilishni inkor etish;
- 2) xudoni inkor qilish tamoyiliga asoslangan oqim;
- 3) sobiq ittifoqda mutlaqlashtirilgan va aqidaga aylantirishga harakat qilingan dunyoqarash shakli.

Bizda u qadimdan “daxriylik”, “xudosizlik” kabi atamalar bilan yuritilib kelingan. Jamiyatda Xudo, ilohiy kuchlarga ishonch paydo bo‘la boshlagan davrlardayoq, ular bilan barobar holda bunday haqiqatlarga ishonchsizlik ham shakllangan. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ateistik qarashlar ham, teistik qarashlar kabi tafakkur rivojida o‘z o‘rniga ega.

AQIDAPARASTLIK – muayyan sharoitda, biron-bir g‘oya yoki tamoyilga qat’iy ishonch va uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni, boshqa sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko‘r-ko‘rona qo‘llashga urinish. Bu atama faqat salbiy ma’noda qo‘llanib,

muayyan olim yoxud oqim tomonidan bayon etilgan qonun va qoidalar ta'sir doirasini sun'iy ravishda kengaytirishga urinishni anglatadi.

BUNYODKOR G'OYA – jamiyatni taraqqiyot sari yetaklovchi, turli guruh va qatlamlarni, millatlarni ezgu maqsad yo'lida birgalikda harakat qilishga undovchi, amalga oshirishning real asoslari bo'lgan g'oY.

BUDDIZM (*Budda* nomidan olingan) – diniy -falsafiy ta'limot, vujudga kelishi jihatvdan bi-rinchi jahon dini. Buddizm asoschisi – shahzoda Siddxart-xa Gautama (mil.av. 567—488 y.) vafotidan so'ng “haqiqat najotkori” – Budda deb atala boshlagan. Yagona ta'limot sifatida shakllangan buddizm dastlabki asrdayoq 18 maktabga bo'linib ketgan. Bir necha soborlarda uni birlashtirishga urinish natijasiz yakunlangan. Mil. 1- asrda buddizm xinayana (kichik aravacha yoki najot topishning tor yo'li) va maxayana (katta aravacha yoki najot topishning keng yo'li) oqimlariga bo'linib ketgan. Hindistonning shimoli-sharqida vujudga kelgan buddizm keyinchalik Xitoy, Tibet, Janubiy-Sharqiy Osiyo, Yaponiya, Mo'g'uliston va boshqa hududlarga keng tarqalgan. Kushoniylar davrida buddizm Turkistonda ham davlat dini maqomiga ega bo'lgan. Hozirgi davrda buddizmga 400 mln.dan ziyod e'tiqod qiluvchilar va 1 mln. rohiblar mavjud.

VATANPARVARLIK – Vatanga nisbatan sadoqat, unga xizmat qilish, yurt tinchligini asrash, Vatan ravnaqi uchun faol bo'lishga undaydigan ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy fazilat.

VAYRONKOR G'OYA – bunyodkor g'oyalarga zid bo'lgan, yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan g'oyalar majmuini ifodalaydigan tushuncha.

VOLYUNTARIZM (*lot.* “voluntas” - iroda) – falsafa va psixologiyadagi oqim. Bu atama 1883-yilda F.Tenniyes tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Volyuntarizm irodani birlamchi, deb e'tirof qiladi. Uni mavjudotning bosh asosi, deb uqgiradi. Volyuntarizmning yetuk vakili Shopengauer ning hodisalar (tasavvurlar) asosida yotgan “narsa o'zida”ni birlamchi, hech nimaga bog'liq bo'lmagan “olamiy iroda”dir deb da'vo qiladi. Uning fikricha, barcha tirik vujudlarning harakatlantiruvchi kuchi-stixiyali instinktiv xarakterga ega bo'lgan “yashashga intilish irodasi”dan iborat. Ongli

iroda ko‘r-ko‘rona, instinktiv individual irodaga nisbatan hosiladir. Volyuntarizmga xos qarashlar uzoq o‘tmishda Avgustin, Duns Skotg ta’limotlarida ham yaqqol ifodalangan. Keyinchalik aql ustunligi haqvdagi ta’limot yaratildi. Fixtning fikricha, iroda dunyoning mutlaq ijodiy aqidasi. Gartman nuqtai nazaricha esa, iroda barcha narsada mavjud va har yerda ongsiz ta’sir qiladi. U atamalarni irodaning birligi deb qaraydi. Falsafadagi irodani borliqning oliy tamoyili deb qarovchi Volyuntarizm atamasi tarixiy jarayonning obektiv qonuni bilan hisoblashmaydigan va amalga oshiruvchi shaxslarning subektiv xoxishlari va erkin qarorlarga moslashuvchi ijtimoiy-siyosiy amaliyotni tavsiflash uchun ham ishlatiladi.

GEGEMONIZM – hamma sohada ustunlik va o‘z hukmiga bo‘ysundirishni anglatuvchi tushuncha. Gegemonizm mohiyatan dunyo barqarorligiga yo‘naltirilgan yoki bunga xizmat qilishi kerak bo‘lgan jahon siyosatiga zid hodisa bo‘lib, ijtimoiy taraqqiyot, jamiyat bar-qarorligi va xavfsizligini izdan chiqaradi. Ba’zi davlatlarning gegemonlikka, hamma sohada ustunlikka va o‘z hukmiga buysundirishga da’vo bilan chiqishi insoniyat tarixining barcha bosqichlarida har doim o‘ta salbiy oqibatlarni keltirib chiqargan. Gegemonlik hech qachon umumbashariy rivojlanish ishiga xizmat qilmagan. Lekin hozirgi nozik davrda uning salbiy ta’siri yanada yaqqolroq sezilmoqda. Bugun butun dunyodagi davlatlarning siyosiy doiralari, jumladan, O‘zbekiston Respublikasining ham gegemonizm dunyo taraqqiyoti uchun jiddiy xavf-xatar solayotganiga e’tiborni qaratishining sababi ham shunda. Zero, gegemonizm aloxida olingan biron-bir qudratli siyosiy kuchning manfaatlarini ustuvor darajada bir tomonlama ta’minlash maqsadiga qaratilgandir.

GUMANIZM (*lot.* Humanus – insoniylik) –1) Yevropa madaniyati taraqqiyotidagi muayyan tarixiy bosqich (Uyg‘onish davri)ga xos falsafiy-amaliy tafakkur tarzi; 2) borliqqa munosabat va uni idrok etish tizimi. 14-16-asrlardagi Yevropa Renessansi cherkov aqidalarining inson ruhi ustidan mutlaq hukmronligiga qarshi vujudga kelgan harakat bo‘lib, tafakkurda gumanizm shaklida namoyon bo‘ldi. Gumanizm Avgustin rad etgan “insoniy o‘lchamlarga binoan yashash”ni himoya qildi, uni Tangri irodasiga zid emas, balki muvofiq

deb baholadi. Aksariyat Yevropa olimlari gumanizmning “antropotsentrizm” (borliq mohiyatining asosiga inson irodasini qo‘yish) g‘oyasiga tayanishini e‘tirof etadilar. Gumanizm rivojini tadqiqotchilar turli bosqichlarga ajratadilar:

- 1) ilk gumanizm - 14-asrning 30-90-yillari;
- 2) Gumanizmning yuksalishi - 14 asrning 1-yarmi;
- 3) bevosita gumanistik talqindagi neoplatonizmning tarkib togshishi –15-asrning II yarmidan 16-asr boshlarigacha;
- 4) Gumanizm goyalari mazmunidan chekinishlar va gumanizm harakatining so‘nishi - 16-asrning 2-yarmi.

Ilk gumanistlar insonning hayotiy ehtiyojlariga e‘tiborni qaratib, insonni borliq markaziga qo‘ydilar. Bu davrda inson haqidagi ilmlarga, ayniqsa, she‘riyat va axloq ilmiga qiziqish kuchaydi. Qadimgi Yunoniston va Rim allomalari yaratgan merosni jiddiy o‘rganish keng tus oldi.

DAOTSIZM – qadimgi Xitoyda vujudga kelgan diniy-falsafiy ta‘limot. Unga Lao Szi asos solgan. Lao Szi “Dao”, “Si” ta‘limotini ishlab chiqqan. Keyinchalik bu ta‘limotni daotsizm deb atashgan. “Dao” – bu tabiiy qonun. Jamiyatning barcha a‘zolari tabiiy qonun (“dao”)ga qat’iy bo‘ysunishlari kerak. Kimki “dao” qonunini buzsa, tabiat undan albatta o‘ch oladi. “Si” bu – jismlarning ildizi, ya‘ni, borliq. U beshta unsur: yer, suv, olov, yog‘och va metallardan tashkil topgan. Dunyodagi barcha jismlar beshta unurning turlicha birikishidan yuzaga kelgan.

DINIY BAG‘RIKENGLIK – xilma-xil diniy e‘tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda, olijanob g‘oya va niyatlari yo‘lida hamkor va hamjihat bo‘lib yashashi.

DINIY G‘OYALAR – deb, har bir diniy ta‘limot va oqimning asosini, diniy iymon-e‘tiqodning negizini tashkil etuvchi aqidalarga aytiladi.

DOGMATIZM – aqidaparastlik (*yun.* Dogma- fikr, ta‘limot) – biror-bir fikr, ta‘limotga, muayyan oqim tarafdorlariga, aqidalarga ko‘r-ko‘rona ishonish, unga yopishib olish, har qanday sharoitda ham uning o‘zgarishiga yo‘l qo‘ymaslikka harakat qilish. Muayyan aqidani isbotsiz ko‘r-ko‘rona qabul qilish.

DUALIZM (*lot.* Duo-ikki yoq-pama) – monizmga qarama-qarshi o‘laroq, moddiy va ruhiy substansiyalarni teng huquqli asoslar deb hisoblaydigan falsafiy ta’limot. Falsafa tarixida dualizmning eng yirik vakillaridan biri Dekart edi. Dekart ikki xil substansiya: materiya va ruh yonma-yon ravishda mavjud bo‘lib, ular xudoga bo‘ysunadilar, deb tushuntirdi. U cheksiz va abadiy bo‘lgan tabiat inson tafakkuriga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘ladi va rivojlanadi, deb hisobladi.

IDEOLOGIYA (Idea - g‘oya, tushuncha, logos - ta’limot) – atamasi esa g‘oyalarni to‘g‘risidagi ta’limotni anglatadi va ikki xil ma’noda ishlatiladi:

- g‘oyalarning mohiyat-mazmuni, shakllanishi, ahamiyati to‘g‘risidagi bilimlarni ifodalaydi va ilmiy soha bo‘lib hisoblanadi.

- muayyan g‘oyani amalga oshirish, maqsadga yetish usullari, vositalari, omillari tizimini anglatadi.

ISLOM FUNDAMENTALIZMI Qur’on va hadislarni o‘z manfaatlarini yo‘lida noto‘g‘ri talqin etuvchi, zamonga mos ijtimoiy qabul qilmagan ilk islomga noto‘g‘ri tushuncha bilan qaytishga qaratilgan o‘z aqidalarini keng targ‘ib qiluvchi, diniy konservativ ruhdagi yo‘nalishga nisbatan ishlatiladigan (shartli ibora, chunki fundamentalizm islom aqidalariga zid tushuncha) atama. Aslida, “fundamentalizm” so‘zi 20-asr boshida amerikalik protestantlarning bir guruhiga berilgan nom bo‘lsada, oxirgi paytlarda jahon matbuotlarida mutaassib islom jangarilarini ham fundamentalistlar deb atash odat tusiga kirdi.

IJTIMOIIY-SIYOSIIY G‘OYALAR – har bir xalq va umuman bashariyatning orzu-umidlarini, maqsad-muddaolarini ifodalaydi, erkin hayot va adolatli tuzumni tarannum etadi. Ozodlik va mustaqillik, adolat va haqiqat, tinchliksevarlik va insonparvarlik g‘oyalari shular jumlasidandir.

ILMIY G‘OYALAR – fan taraqqiyotining samarasi, ilmiy kashfiyotlarning natijasi sifatida paydo bo‘ladigan, turli fan sohalarining asosiy tamoyillari (prinsiplari), ustuvor qoidalarini (postulatlarini) tashkil qiladigan ilmiy fikrlardir.

IUDAIZM (yahudiylik) – yahudiylar orasida tar-qalgan din. Miloddan avvalgi 2-ming yillikda Shimoliy Arabistonda yashagan ko‘chmanchi yahudiy qabilalarining politeistik e‘tiqodlari va marosimlari asosida vujudga kelgan.

Miloddan avvalgi 13-asrda yahudiylar Falastinni bosib olganlaridan so'ng, dexdonchilik bilan shug'ullanuvchi mahalliy xalqlarning diniy tasavvurlari yahudiylar davlatining shakllanishida asosiy rol o'ynaydigan va dastlabki podshohlar sulolasiga asos solingan. Iuda qabilasining (shundan iudaizm termini olingan) xudosi Yahvega sig'inish oqibatida butun olamni boshqarishga da'vo qiluvchi yagona davlat diniga aylangan. Monoteistik tasavvurlarda faqat milodiy 1-asrda to'la shakllangan iudaizm ilk davrlaridanoq isroilliklar "xudo tomonidan tanlab olingan" xalq, degan g'oyani olg'a surdi.

ICHKI TAHDIDLAR – o'z Vataniga, vatandoshiga, vatandoshlariga zarar yetkazishga qaratilgan g'oya, xatti-harakatlar.

KOSMOPOLITIZM (*yun.* kosmopolites-jahon fuqarosi) – Qadimgi Yunoniston shahar-polislarga bo'linib ketgan davrlarda ularning barchasini yagona davlat uyushmasiga birlashtirishga va o'ziga xos "jahon davlati" barpo etib, odamlarni "jahon fuqaroligi" maqomida yashash ruhida qovushtirishga intilish goyasi sifatida shakllana boshlagan. Keyinchalik, Rim imperiyasi tashkil topgandan keyin bu g'oya yanada kengroq targ'ib etila boshlandi, uning bag'rida fuqarolik maqomi yuksak darajaga ko'tarildi, "jahon fuqaroligi" qadri ortdi.

LIBERALIZM (*lot.* liberalis – erkinlik) – ijtimoiy hayotning barcha sohalarida erkinlik ustuvor bo'lishini, jamiyatning evolyusion rivojlanish yo'lini e'tirof etuvchi va asoslovchi nazariya, amaliyot, ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy oqim. Liberalizm g'oyasi, o'zining ma'no-mohiyatiga ko'ra, murosa falsafasi bo'lib, volyuntarizm, subektivizm, dogmatizm, radikalizm va absolyutizmning har qanday ko'rinishlarini rad qiladi. Shaxs manfaatlari, huquq va erkinliklarining ustuvorligi, umuminsoniy axloqiy qadriyatlar va milliy ma'naviy asoslarga tayanish, g'oyalar erkinligi tamoyillarining tarixiy taraqqiyotga mos o'zgarish – ijtimoiy-siyosiy tizimda keskin ziddiyatga bormaslik liberalizmga xos xususiyatlardir.

MA'NAVIYAT – (*arab.* – ma'nolar majmui) – kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui.

MA'NAVIY TARG'IBOT VA TASHVIQOT – muayyan guruh, millat, jamiyat, irq, etnik guruh, hudud xalqlariga ma'naviy tarbiya va

tamoyillarni singdirishga qaratilgan tizimli va maqsadli ma'rifiy faoliyatni ifodalaydigan jarayon.

MA'RIFAT – Ma'rifatning lug'aviy ma'nosi bilish, tonish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda ma'rifat bilmoq, kishilarning ong-bilimini, madaniyatini sliirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonidir. Ma'rifat so'zining ko'pchilikdagi ma'nosi maorifdir. Ma'rifat atama sifatida – tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi.

MATERIALIZM (*lot. materiactos-moddiy*) – yagona borliqning ikki qutblari-ruhiy (g'oyaviy) va moddiy qutblaridan birini, aynan, modsiy borliqni asosiy (birlamchi) deb qarab, boshqasini (ruhiy, g'oyaviy, borliqni) moddiy borliqdan kelib chiqqan borliq deb hisoblaydigan falsafiy konsepsiY.

MAFKURA (arab. - fikrlar majmui) - muayyan ijtimoiy guruh yo qatlamning, millat, jamiyat yoki davlatning manfaatlari, orzu-istak, maqsad va intilishlarini, ijtimoiy-ma'naviy tamoyillarini ifoda etadigan g'oyaviy-nazariy qarashlar hamda ularni amalga oshirish usul va vositalari tizimi.

MAFKURAVIY IMMUNITET - lotincha Immunitatis so'zidan olingan bo'lib –biror narsadan ozod etish ma'nosini anglatadi. Shaxs, ijtimoiy gurux, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan ximoyalashga xizmat qiluvchi tizim. U mafkuraviy e'tiqod bilan uzviy bog'liq bo'lib, “ma'naviy barkamol, irodasi baquvvat, iymoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksiyon, buzg'unchi xarakterdagi g'oyaviy tasirlarga bardosh bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda qo'l keladi”.

MAFKURAVIY PLYURALIZM (*lot. pluralis - xilma-xillik, rang-baranglik*) - ijtimoiy-siyosiy hayotda turli qatlam, guruhlar manfaatlarini ifoda etuvchi g'oyaviy rang-baranglikni, qarashlar va fikrlar xilma-xilligini ifodalaydi. Inson va jamiyat hayotida g'oyalar va mafkuralar xilma-xilligining namoyon bo'lishi ijtimoiy-ma'naviy ehtiyoj ifodasidir.

MAFKURAVIY PROFILAKTIKA – mafkuraviy immunitet tizimini shakllantiruvchi bosh omildir. U o'z mohiyatiga ko'ra yot g'oyalarning kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuini o'z ichiga oladi. Demak, mafkuraviy profilaktika xilma-xil shakllar

ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy ishlar majmuini, bu sohada to'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya tizimini qamrab oladi.

MAFKURAVIY TARBIYA – inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shaqllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayon.

MAFKURAVIY JARAYONLARNING GLOBALLASHUVI – mafkuraviy kurash umumbashariy miqyos kasb etganini ifodalovchi tushuncha.

MAFKURAVIY POLIGON – odamlar va xalqlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan turli g'oyalarning sinov maydoni.

MAFKURAVIY PROFILAKTIKA – mafkuraviy parokanda-likning oldini olish, mafkuraviy bo'shliqni tugatish, biror-bir hudud, qatlam, ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy, ma'naviy-mafkuraviy ishlar majmui.

MAFKURAVIY SIYOSAT – Muayyan mafkuraviy qarashlarni odamlar ongiga singdirish, ularni ma'lum maqsad atrofida uyushtirish, boshqarish uchun uslub va vositalar, ularni ishlab chiqish, tartibga solish bilan bog'liq faoliyatlar majmui.

MAFKURAVIY TAJOVUZ - muayyan millat, jamiyat, davlatning tanlagan istiqbol yo'lidan og'ishga yo'naltirilgan, g'arazli maqsadlarga erishish uchun fuqaro va jamiyat xavfsizligiga, tinchlik va barqarorligigga tahdid soluvchi g'oyaviy-nazariy qarashlar va unga asoslangan amaliyot majmui.

MILLIY MINTALITET – har bir millatning ayrim vakiliga yoki butun boshli ijtimoiy guruhga xos bo'lgan aqliy qobiliyat darajasi ma'naviy salohiyatidir.

MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH – har bir millat va elatning o'zini real mavjud subyekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarini ifodalovchi etnik birlik, til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlarga mansubligini, manfaatlar va ehtiyojlar umumiyligini tushunib yetishni anglatuvchi falsafiy tushuncha

MILLIYLIK – muayyan xalqqa xos bo‘lgan, uni boshqalardan farqini ko‘rsatuvchi xususiyatlar majmui. Milliylik millatning tarixi, qadriyatlari, an‘analari, madaniyati, yashash tarzida yaqqol namoyon bo‘ladi.

MILLIY G‘OYA – millatning o‘tmishi, buguni va istiqbolini o‘zida mujassamlashtirgan, uning tub manfaatlari va maqsadlarini ifodalab, taraqqiyotga xizmat qiladigan ijtimoiy g‘oya shakli.

MILLIY MAFKURA – millatning o‘z oldiga qo‘ygan oliy maqsad va orzu-ideallarini hamda ularni ro‘yobga chiqarish yo‘llarini ifodalovchi g‘oyalar, nazariya va qarashlar tizimi.

MILLAT – til, ma‘naviyat, milliy o‘zlikning anglash, ruhiyati, urf – odatlar, an‘analar va qadriyatlar yagonaligi asosida muayan hududda yashovchi ijtimoiy aloqalar bilan bog‘langan mustaqil subyekt sifatida o‘ziga xos moddiy va ma‘naviy boyliklarni yaratuvchi kishilarning etnik birligi.

MILLIY G‘URUR – shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o‘z-o‘zini anglashi asosida shakllanadigan, ajdodlari qoldirgan moddiy, ma‘naviy merosdan, o‘z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi, o‘sha millatlar oldidagi qadr-qimmatini, obro‘-e‘tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha.

MENTALITET – (lotincha “mens” - aql, idrok) – jamiyat, millat, jamoa yoki alohida shaxsning tarixiy tarkib topgan tafakkur darajasi, ma‘naviy salohiyati, ularning hayot qonunlarini tahlil etish kuchi, muayyan ijtimoiy sharoitlarda shakllangan aqliy qobiliyati, ruhiy quvvati.

MILLIY QADRIYAT – millat uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan etnik jihat va xususiyatlar bilan bog‘liq qadriyat shakli.

NEOFASHIZM (fashizmning yangi shakli) – ashaddiy jaholatparast, buzg‘unchi, vayronkor siyosiy oqim. Neofashizm ashaddiy bosqinchilik, irqchilik, millatchilik kayfiyatidagi guruhlarining qarashlarini ifoda etadi. U o‘zining g‘oyaviy yo‘nalishini belgilashda 20-asrning 20-yillaridagi Italiya fashizmi va 30-40-yillardagi Germaniya natsizmi g‘oyalariga tayanadi. Neofashistik partiyalar va guruhlar moliyaviy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydigan

va o‘zaro manfaatlari mos tushadigan turli markazlar bilan yaqin aloqada faoliyat yurgizadi.

PLYURALIZM -(lotincha - pluralus - ko‘plik, ko‘pxillik, ko‘psonlik) - monizmga butunlay zid bo‘lgan falsafiy ta’limot. Plyuralizm atamasi birinchi bo‘lib nemis faylasufi X.Volf tomonidan 1712-yili ilmiy muomalaga kiritilgan. Plyuralizm ijtimoiy-siyosiy hayotda turli ijtimoiy guruhlar va ular manfaatlarini himoya etuvchi siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalar, diniy va boshqa tashkilotlar erkinligini, o‘zaro raqobatini ifodalaydi. Hozirgi zamon reformizmining asosiy g‘oyalaridan biridir.

PRAGMATIZM (yun. pragma-ish, amal) – 19-asrda AQShda vujudga kelgan falsafiy oqim. Pragmatizmning asosiy g‘oyalari Ch.Pirs tomonidan ishlab chiqildi. U 20-asrda G‘arb mamlakatlarida keng yoyildi, ma’naviy hayotta kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Pragmatizm asosida I.Kantning “Sofokl tanqidi” asarida ilgari surilgan “pragmatik ishonch” g‘oyasi yotadi.

PROTESTANTIZM – xristianlikdagi uch asosiy yo‘nalishdan biri (katolitsizm va pravoslaviye bilan birga). 16-asrda Yevropada katoliklarga qarshi qaratilgan Reformatsiya davrida vujudga kelgan, mustaqil cherkov va sektalarni o‘z ichiga oladi. 1526 yilda Shpeyer reyxsstagi nemis lyuterchi-knyazlari talabi bilan har bir nemis knyazi o‘zi va fuqarosi uchun xoxlagan dinni qabul qilish huquqiga ega ekanligi to‘g‘risida qaror qabul qilgan. Ammo, 1529 yila 2-Shpeyer reyxsstagi bu qarorni bekor qilgan.

RADIKALIZM (lot. Radix-ildiz) – siyosiy tuzum va ijtimoiy institutlarni tubdan o‘zgartirishga qaratilgan g‘oya va harakatlar. Radikalizm e’tirof etilgan an’analarga butunlay zid munosabatni bildiradi. Tarixda bu atama mo‘tadil islohotlar tarafdorlariga nisbatan ham qo‘llangan. Masalan, Buyuk Britaniyada (1832 y.) “Islohotlar to‘g‘risidagi Bill”ning muxoliflariga nisbatan birinchi marta radikalizm atamasi qo‘llangan. Keyinroq esa utilitarizm asoschilaridan I.Bentam va uning izdoshlari “falsafiy radikallar”, deb ataldi.

TAFAKKUR – (arab. - fikrlash, aqliy bilish) – predmet va hodisalarning umumiy, muhim xususiyatlari aniqlaydigan, ular o‘rtasidagi ichki, zaruriy aloqalar, ya’ni qonuniy bog‘lanishlarni aks etadigan bilishning ratsional bosqichi.

TERRORIZM – zoʻrlik va jaholat mafkurasi; terror bilan amalga oshiriladigan siyosiy harakat. Terrorizm bir necha asrlar oldin shakllangan, geografik jihatdan barcha mintaq va mamlakatlarda uchrashi mumkin boʻlgan murakkab fenomendir. Shu bois uning ijtimoiy ildizlari, maʼnaviy-psixologik turtkilari va boshqa parametrlari boʻyicha fikru munosabatlar turlicha va bahslidir.

EKSTREMIZM – oʻz maqsadi yoʻlida har qanday keskin tadbir-choralar koʻrishga tarafdorlik.

FALSAFIY GʻOYALAR – har bir falsafiy taʼlimotning asosini tashkil etadigan, olam va odam toʻgʻrisidagi eng umumiy tushuncha va qarashlardir.

FANATIZM – biron gʻoyaga, shaxsga uning mazmunini, mohiyatini chuqur anglamasdan johillarga ishonish va unga ergashishdir va u hayotda turli sohalarda uchraydi.

FETISHIZM (frans. Fetishisme -tilsim, but) – tabiatdagi narsa va hodisalarga eʼtiqod qiluvchi diniy tasavvurlar majmui. Etnografiyada fetishizmning tavsifi xilma-xildir. Dj.Lebbok ibtidoiy dinda inson xoxishini Xudo bajara olish imkoniyati, deb fetishizmni asoslagan boʻlsa, Teylor, Spenser F. animizmning bir shakli, deb qayd qilgan.

UMUMINSONIY QADRIYAT – barcha xalqlar uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, moddiy va maʼnaviy manfaat, mezonlar majmui.

SHOVINIZM (frans. Chauvinisme, Napoleon I bosqinchlik siyosatining muxlisi, fransuz askari N.Shoven (Chauvion) nomidan olingan) – boshqa millatlarni mensimaslikni va oʻz millatining ularga nisbatan ustunligini asoslashga qaratilgan gʻoyaviy-nazariy qarashlar tizimi va amaliyoti. Tarixi uzoq boʻlsada, bu atama 19-asrning 30-yillarida Fransiyada paydo boʻldi. Mohiyatan shovinizm millatchilikning oʻziga xos shakli boʻlib, boshqa millatlarning jahon tarixida tutgan oʻrni, bugungi kunda kishilik jamiyati rivojini taʼminlashdagi mavqei, maʼnaviy-madaniy hayotining oʻziga xos tomonlarini mensimaslikka intilishda yaqqol koʻrinadi.


GʻOYA – inson tafakkuri mahsulidir, milliy gʻoya esa millat tafakkurining mahsulidir. Oddiy fikr ham inson tafakkuri mahsulidir. Biroq har qanday fikr ham gʻoya boʻla olmaydi. Gʻoya ham fikr ifodasi yoki fikrlar

majmuasidir, ammo o'zining ijtimoiy xarakteri bilan oddiy fikrlardan farqlanadi.


G'OYANING TURLI KO'RINISHLARI – mazmun-mohiyati va namoyon bo'lish shakllariga ko'ra ilmiy, falsafiy, diniy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy va umuminsoniy g'oyalarga bo'linadi.

G'OYAVIY TARBIYA – inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g'oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo'naltirilgan jarayon. G'oyaviy tarbiya axloqiy, siyosiy, huquqiy tarbiyaning asosini tashkil etadi. G'oyalar adolatli va haqqoniy bo'lsa, ko'pchilikning talab-ehtiyojlariga mos kelsa, bu sohadagi tarbiya vositalari ta'sirchan, tarbiyachilar esa faol va fidoyi bo'lsa, g'oyaviy tarbiyadan ko'zlangan maqsadga erishiladi. Jamiyat, xalq hali o'z manfaatlarini anglab yetmagan, o'z mafkurasini shakllantirib, maqsadlari sari safarbar bo'lmagan hollarda begona va zararli g'oyalar ta'siriga tushish ehtimoli ortib boradi. Bu esa g'oyaviy tarbiyani yo'lga qo'yish, sog'lom mafkura tamoyillarini aholi qalbi va ongiga muttasil singdirishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

KONSUL'TATIV MATERIALLAR




G'oya – bu voqelikni aks ettirish va ilmiy bilishning o'ziga xos shakllaridan biri bo'lib, inson tafakkurining mahsuli hamda, inson va jamiyatni ma'lum bir maqsad sari yetaklovchi umumiy fikrlar yig'indisidir.



G'oyaning falsafiy talqini


G'oya voqelik va hayot ta'sirida vujudga keladigan, uni aks ettirish asosida shakllanadigan dunyoni bilishning o'ziga xos shakllaridan biridir. U shaxs, jamiyat, ijtimoiy guruh, partiya va boshqalarning muayyan maqsadlarini ifodalaydi, ularni bu yo'lda birlashtiradi, uyushtiradi, faoliyatga undaydi, safarbar qiladi.



G'oya – ijtimoiy fikr sifatida shakllanadi.
G'oya– muayyan tarzda namoyon bo'ladi.
G'oya– biror-bir maqsadni ifodalaydi.
G'oya – amaliy harakatga undaydi.
G'oya – muayyan mafkuraning asosi bo'ladi.



G'oya va milliy go'ya tushunchalari:


G'oya	Milliy g'oya
inson tafakkurining mahsuli, inson va jamiyatni ma'lum maqsad sari yetaklaydigan fikrlar majmuyi.	inson va jamiyat hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan, uni ezgu maqsad sari etaklaydigan fikrlar majmuyidir.






Bunyodkor g'oyalar

Jamiyat va davlat taraqqiyotiga xizmat qiladigan, insonlarni
ezgulikka chorlaydigan g'oyalar



VAYRONKOR G'OYALAR



Jamiyat, xalq va davlatlarning tanazzuliga sabab
bo'ladigan, g'ayriinsoniy g'oyalar


Mafkura va milliy mafkura tushunchalari:



Mafkura

Mafkura-jamiyatning maqsadi, manfaatlari, orzu-intilishlarini mujassam etuvchi g'oyalar tizimi.

Milliy mafkura

Milliy mafkura xalqning ma'naviy ehtiyoji, maqsadi, manfaatlari, orzu-intilishlarini mujassam etuvchi g'oyalar tizimi.





Strategiya va demokratiya tushunchalari:

STRATEGIYA

“STRATEGIYA” soʻzi “strategos” grek soʻzidan kelib chiqqan boʻlib, “generalning sanʼati” maʼnosini anglatadi. U hozir ham oʻz maʼnosida harbiy boshliq tarkibining harbiy operatsiyalarini rejalashtirish sanʼatini bildiradi. Strategiya - istiqbol, yaʼni intilish lozim boʻlgan holatni koʻra olish demakdir.

DEMOKRATIYA

“DEMOKRATIYA” yunoncha soʻz boʻlib, tarjimada “xalq hokimiyati” (demos – xalq, krotos - hokimiyat) maʼnosini bildiradi. Demokratiya deb oliy hokimiyat bevosita xalqqa tegishli boʻlgan va xalqning hohish-irodasi bilan amalga oshadigan davlat va jamiyatga aytiladi.

Bilish

Tarbiyaviy

Regulyativ (tartibga solish)

Kommunikativ (birlashtirish)



Milliy gʻoyaning funksiyasi

Normativ, qadriyatli

Safarbar etish, yoʻnaltirish

Himoya

Gʻoyaviy bandlik



**FANGA OID BILIM VA KO'NIKMALARNI
MUSTAHKAMLASHGA YO'NALTIRILGAN
TEST SAVOLLARI**

1. G'oya – bu...
inson tafakkurining mahsuli,
odamning ichki dunyosigacha kirib borib uni harakatga keltiruvchi kuch.
muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, orzu intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan tizim
inson va jamiyatni ma'lum bir maqsad sari yetaklovchi umumiy fikr.
2. “Mening nazarimda “Ma’naviyat” tushunchasi jamiyat hayotidagi g’oyaviy, mafkuraviy, ma’rifiy, madaniy, diniy va axloqiy qarashlarni o’zida to’la mujassam etadi” degan iborasi I.Karimovning qaysi asarida aytilgan?
Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch
Istiqlol va ma’naviyat
O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat
Tarixiy xotasiz kelajak yo‘q
3. Mustaqillik deklaratsiyasi qachon qabul qilingan?
1990 yil 20 iyuda
1991 yil 18 noyabrda
1990 yil 18 martda
1991 yil 31 avgustda
4. G'oya, bu...
inson tafakkurining mahsuli hamda, inson va jamiyatni ma'lum bir maqsad sari yetaklovchi umumiy fikrlar yig'indisidir.
Inson tafakkuri mahsuli
umumiy fikrlar yig'indisi
qarashlar yig'indisi
5. Mafkura, bu...
muayyan ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, millat, davlat, xalq va jamiyatning ehtiyojlari, maqsad-muddaolari, manfaatlari, orzu intilishlari hamda ularni amalga oshirish tamoyillarini o'zida mujassam etadigan g'oyalar tizimidir.
inson tafakkurining mahsuli hamda, inson va jamiyatni ma'lum bir maqsad sari yetaklovchi umumiy fikrlar yig'indisidir.
Inson tafakkuri mahsuli
umumiy fikrlar yig'indisi
6. Ma’naviyat, bu ...

Insonning ruhiy poklanishi, ichki dunyosini baquvvat qiladigan qarashlari mezoni
Qotib qolgan aqidalar yig'indisi va ommaviy madaniyatga ko'r-ko'rona ergashish
Odam irodasini baquvvat, iymon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan o'lchov
b va v javoblar
7. Milliy g'oyani amalga oshirivshi subiektlar, bu...
oila, mahalla,OAV
tarixiy obidalar,yozma manbalar
milliy liboslar va raqslar
xalq og'zaki ijodi
milliy liboslar va raqslar
8. Respublikamizda ta'lim-tarbiya soxasidagi islohotlarni bosqichma-bosqich o'tkazish davri va vazifalarini aniqlang...
1-bosqich o'tish davri, u 1997-2001 yillar bo'lib, bu bosqichda kadrlar tayyorlashni rivojlantirish uchun huquqiy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish lozim. 2-bosqich-2001-2005 yillar;milliy dasturni to'liq ro'yobga chiqarish; 3 -bosqich 2005 va keyingi yillarda to'plangan tajribalar asosida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishni ko'zda tutadi.
1-bosqich-o'tish davri, u 1998-2000;2 bosqich-2000-2004; 3-bosqich-2006 va keyingi yillarga mo'ljallangan.
1-bosqich-o'tish davri, u 1997-2000; 2-bosqich-2000-2004; 3-bosqich-2004 va keyingi yillarga mo'ljallangan
2004 va 2005 yillar.
9. G'oya 1) Ijtimoiy fikr sifatida shakllanadi 2) Siyosiy guruhlar tamonidan ishlab chiqiladi 3) Amaliy xarakterga undaydi 4) Muayyan mafkuraning asosi bo'ladi 5) Ziyolilar tamonidan ishlab chiqiladi 6) Biron-bir maqsadni ifodalaydi 7) Mavjud yuridik normalar asosida shakllanadi?
1,3,4,6
2,3,4,6
3,5,6
1.3,6,5
10. "Mafkura" atamasi dastlab qaysi mutafakkirning asarlarida tahlil qilingan?
Desyut de Trasi
Didro
J. Russo
Kabanis

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “2017-2021 yillarga mo‘ljallangan Harakat strategiyasi” haqidagi farmoni qachon e‘lon qilindi?
2017 yil 7 fevral
2017 yil 17 fevral
2017 yil 15 fevral
2017 yil 9 fevral
12. Xalq ma‘naviyatining munosib vorislari kimlar?
Yangi avlod yoshlari
Xizmatchilar
Ziyolilar
Ishchilar
13. Millatning ruhi nimada?
Ona tili va milliy merosga sodiqlikda
Inson xotirasida
Avlodlar munosabatida
Ezgu fazilatlarda
14. Milliy qadriyatlarning o‘ziga xosligi?
Jamoaviylik, sabr, asta-sekinlik kabi holatlarning ijtimoiy hodisa ekanligida
Ko‘pchilikka tayanishda
Haqiqatni anglashda
Milliy, diniy bag‘rikenglikda
15. G‘oyaviy tarbiyaning mohiyati nimadan iborat?
Inson onggi va tushunchalari tizimida hayot xaqidagi falsafiy, siyosiy xuquqiy, diniy, estetik, axloqiy , badiiy, kasbiy qarashlarini maqsadli shakllantirish jarayondir
Murosa falsafasi bo‘lib, xilma xil fikrlar va qarashlarga ega bo‘lgan, turli millat, irq va dinga mansub shaxs va guruxlarning umumiy maqsad yo‘lidagi xamjixatligini ta‘minlaydi
Xilma-xil diniy e‘tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir zamin ,bir vatanda, oliyjanob g‘oya va niyatlar yo‘lida hamkor va xamjixat bo‘lib yashashni anglatadi
Turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotning belgilaydi, tinchlik va barqarorlikning kafolati bo‘lib xizmat qiladi
16. “Milliy istiqolol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar” fani bo‘yicha ta‘lim dasturlarini yaratish va respublika ta‘lim tizimiga joriy etish to‘g‘risida”ub farmon qachon e‘lon qilindi?
2001 yil 18 yanvar
2006 yil 26 aprel

1996 yil 23 aprel
2004 yil 18 yanvar
17. Mafkuraviy kurashdan ko‘zlangan bosh maqsad?
Inson onggi va qalbini egallash
Ozod va obod Vatan erkin va farovon xayot barpo etish
Muayyan g‘oyasi ishontirish
G‘oyaviy immunitetni shakllantirish
18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi № PQ-3160 sonli qarori qachon qabul qilingan?
1,3,4,6,7
1,2,3,4,6
1,3,4,5,6
1,2,4,5,7
19. Mafkuraning asosiy vazifalari nimalardan iborat?1) Dunyoqarashni shakllantirish 2) Bilish usulublarini tahlil qilish 3) Safarbar etish 4) Uyushtirish 5) Xuquqiy madaniyatni oshirish 6) G‘oyaviy tarbiyalash 7) E’tiqodni shakllantirish
1,3,4,6,7
1,2,3,4,6
1,3,4,5,6
1,2,4,5,7
20. O‘zbekiston Respublikasida Prezidentlik boshqaruvi qachon ta’sis etilgan?
1990 yil 24 mart
1989 yil, 21 oktabr
1992 yil, 2 mart
1992 yil 12 iyun
21. “Mafkura sohasida bo‘shliq degan narsaning o‘zi hech qachon bo‘lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta’sirlanishdan to‘xtamaydi”- Ushbu fikr Sh.Mirziyoyevning qaysi nutqidan keltirilgan?
Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik.
Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak
Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi
Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz

22. ... – inson, ijtimoiy guruh, millat, jamiyat dunyoqarashini shakllantirishga, ularni muayyan maqsadlarni ifoda etadigan g‘oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo‘naltirilgan jarayon?
Mafkuraviy tarbiya
Mafkuraviy profilaktika
Mafkuraviy tizim
Mafkura
23. Mamlakat taraqqiyoti o‘zbek modelining asosini nima tashkil etadi.
Besh tamoyil
Konstitusiyaviy qonun
Hokimiyat tarmoqlari faoliyati
Ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik
24. ... - milliy bag‘rikenglikni, millat hayotining ahloqiy asoslarini, uning milliy o‘ziga xosligini rad etuvchi mondializm g‘oyalarini tantana qilishini tahminlashga asoslanadi
Ma’naviy - mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi
Hokimiyatning globallashuvi
Siyosiy globallashuv
Iqtisodiy globallashuv
25. Insonlar qalbi va ongini egallashga qaratilgan turli g‘oyalarning o‘ziga xos sinov maydoni qaysi atama bilan ifodalanadi?
Mafkuraviy poligon
Dezinformatsiya
Mafkuraviy profilaktika
Mafkuraviy tarbiya
26. “Avesto”da inson axloq-odobi, ma’naviyati qaysi uchlikda ifodalangan?
yaxshi fikr, yaxshi so‘z, yaxshi ish
yaxshi so‘z, iymon, halollik
yaxshi fikr, mehnat, poklik
insoniylik, yaxshi amal, iymon
27. ... deganda, ajdodlardan avlodlarga o‘tib, asrlar davomida e‘zozlab kelinayotgan, shu yurtda yashayotgan har bir inson va butun xalqning qalbida chuqur ildiz otib, uning ma’naviy ehtiyoji va hayot talabiga aylanib ketgan, ta’bir joiz bo‘lsa, har qaysi millatning eng ezgu orzu-intilish va umid-maqsadlarini o‘zimizga tasavvur qiladigan bo‘lsak, o‘ylaymanki, bunday keng ma’noli tushunchaning mazmun-mohiyatini ifoda qilgan bo‘lamiz.
Milliy g‘oya

Ma'naviyat
Milliy meros
Ma'naviy yuksalish
28. Milliy istiqlol g'oyasi qanday umumbashariy tamoyillariga tayanadi?
O'zga xalqlarning ilg'or tajribalari va ma'daniyatini o'rganish
Oila, mahalla el-yurt muqaddasligi
Xalqimiz xayotida jamoa bo'lib yashash ruhining ustuvorligi
Urush olovini yoqish
29. "Mafkuraviy plyuralizm" tushunchasi va uning mohiyati
Ijtimoiy qatlam, siyosiy partiya, guruhlar manfaatlarini ifoda etadigan qarashlar xilma-xilligi va fikrlar rang-barangligini ifoda etuvchi tushuncha
ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi hoyaviy rang-baranglik
turli xalqlar, elatlar, millatlar va siyosiy, diniy guruhlar manfaatlarining umumiy ifodasi
mamlakatdagi g'oyalar va mafkuralarning ko'pligi
30. Kerakli jumlaning toping. ... - insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.
Ma'naviyat
Milliy uyg'onish
Milliy o'zlikni anglash
Tarixiy xotira
31. Yoshlarning ilmiy va badiiy kitoblar, jumladan, elektron asarlarni o'qishga bo'lgan qiziqishini yanada oshirish, huquqiy, ekologik, tibbiy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish orqali ularda turli mafkuraviy tahdidlarga, xususan, diniy ekstremizm, terrorizm, "ommaviy madaniyat" va boshqa yot g'oyalarga qarshi mustahkam immunitetni shakllantirish masalasi ... da ustuvor vazifa sifatida ilgari surilgan.
"Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va o'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" gi Prezident farmonida
SH.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida
SH.Mirziyoyevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumandagi nutqida

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi № PQ-3160 sonli qarorida
32. ... – mafkuraviy ishlarni boshqarish, jamiyatning turli ijtimoiy institutlari: oila, maktabgacha tarbiya muassasalari, umumiy ta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlari, mehnat jamoalari, mahalla kengashlari, jamoat tashkilotlari, madaniy- ma'rifiy uyushmalar tarbiyaviy imkoniyatlarini muvofiqlashtirish, tartibga solish, ularni yagona maqsad tomon yo'naltirish omillari (ish vaqti va ishdan keyingi bo'sh vaqt) va vositalari (fan, adabiyot, san'at, matbuot, radio, TV, kino, muzey va h.k), uslublari (tushuntirish, ishontirish, majbur qilish) va usullarining (alohida, jamoaviy, ommaviy) yaxlit bir butun uyushmasi.
Mafkuraviy tizim
Mafkuraviy profilaktika
Mafkuraviy tarbiya
G'oyaviy manipulyatsiya
33. Dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va g'oyaviy-mafkuraviy jarayonlarning mazmun-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib borish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, "ommaviy madaniyat", narkobiznes va boshqa tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish masalalari ... da ustuvor vazifa sifatida ilgari surilgan.
Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi № PQ-3160 sonli qarorida
SH.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida
SH.Mirziyoyevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumandagi nutqida
"Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va o'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" gi Prezident farmonida
34. ... – ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan turli shakllardagi g'oyaviy –tarbiyaviy, ma'naviy-mafkuraviy ishlar majmui bo'lib, u butun g'oyaviy tarbiya tizimini qamrab oladi.
Mafkuraviy profilaktika
Dezinformatsiya
Mafkuraviy profilaktika
Mafkuraviy tarbiya

35. “O‘z o‘zingni angla” ushbu fikr kimga tegishli?
Suqrot
Gandi
Makiavelli
Farobiy
36. Ulug‘ ajdodlarimiz yaratgan ulkan va qutlug‘ ma’naviy (ilmiy, badiiy, falsafiy) meros, ularning ibratli hayotlari, muqaddas dinimiz, qadriyatlarimizda ifodalangan yuksak tuyg‘ularni yosh avlod ongiga singdirishning uch tabarruk makonini aniqlang?
Oila, mahalla, ta’lim-tarbiya tizimi
Oila, maktab, OAV
Oila, mahalla, OAV
Oila, ta’lim-tarbiya tizimi, mehnat jamoasi
37. Dars jarayonida ma’naviyatga doir bo‘lgan adabiyotdan foydalanishning asosiy maqsadi...
Ta’lim va tarbiyani bog‘lab olib borish
Yoshlarni hayotga tayyorlash
Qo‘shimcha o‘quv materialidan unumli foydalanish
Asosiy manba vazifasini o‘tash vositasi
38. Har qanday g‘oya mafkura bo‘la oladimi?
Bo‘la olmaydi
Bo‘la oladi
Ta’sir qiladi
Ta’sir qilmaydi
39. Ma’naviy boylik nima?
Ilm, farosat, insoniy hislar va ongning uyg‘unlashganligi, milliy qadriyatlar, an’analar, milliy tafakkur
Kuch qudrat va go‘zallikning birligi
Lavozim, mansab, minbar
Qalb go‘zalligi
40. Din so‘zining lug‘aviy ma’nosi:
Ishonch, ishonmoq
Gunohdan forig‘ bo‘lish
Vijdon, iymon
Mo‘jiza
41. Sharqda qaysi alloma “Burhoniddin va milla”, ya’ni “Din va millat hujjati” degan yuksak unvonga sazovor bo‘lgan?
Burhoniddin Marg‘inoniy
Alisher Navoiy
Naqshbandiy

At -Termiziy
42. Marg‘inoniyning “Hidoya” asari ma’nosi nima?
“Haqqa eltuvchi yo‘l”
“To‘g‘ri yo‘l”
“ Kerakli o‘git ”
“Ma’nolar xazinasi ”
43. 2007 yili Toshkent shahriga qaysi tashkilot tomonidan “Islom madaniyati poytaxti” nomi berildi?
AYSESKO
BMT
YUNESKO
Qizil yarim oy jamiyati
44. Ma’rifat bu . . .
Arabcha “arafa” – “bilmoq” so‘zidan olingan, o‘qish, ta’lim-tarbiya, iqtisodiy va siyosiy bilim
Falsafiy, diniy g‘oyalar asosida madaniyatni o‘stirish
Kishilar ongi-bilimini, tafakkurini shakllantirish
Bilimli bo‘lish
45. “Prezident” so‘zining ma’nosi nima?
Oldinda o‘tiruvchi
Boshliq
Davlat va jamoat boshqaruvchisi
Ortidan ergashtiruvchi, rahnamo
46. G‘oyaviy bo‘shliq nima?
Eski mafkura inkor etilib, kelajakka daxldor qadriyatlar, tushuncha va tasavvurlarni to‘liq anglab yetmaslik oqibatida odamlarning qalbi va ongida vujudga keladigan bo‘shliq
Eski hukmron mafkura halokatga uchrab, u bilan bog‘liq tushunchalarning qadsizlanishi
Yangi tuzumga tegishli g‘oyaning yo‘qligi
Boshqa mafkurani tan olmaslik, yakka hokimlik, “yo‘lboshchi sinf” mafkurasining hukmronligi
47. Hozirda O‘zbekistonda nechta diniy konfessiya mavjud?
17
14
12
11
48. O‘zbekiston BMTga qachon a’zo bo‘lgan?
1992 yil 2 mart
1993 yil 3 mart

1992 y il 3 mart
1993 yil yil 2 mart
49. O‘zbekistonni yangilash va rivojlantirishning to‘rtta asosiy negizlari to‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorni aniqlang:
Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, xalqimizning ma‘naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, insonning o‘z imkoniyatlarining erkin namoyon qilishi, vatanparvarlik
Tinchlikni saqlash, mustaqillikni qo‘ldan bermaslik, millatlararo do‘stlikni mustahkamlash, farovon hayot kechirish
Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, ayol zotiga ehtirom, mustaqillikni mustahkamlash, vatanparvarlik
Xalqimizning ma‘naviy merosini mustahkamlash va rivojlantirish, vatanparvarlik, tinchliksevarlik, ayol zotiga ehtirom
50. O‘zbekistonda Davlat tili to‘g‘risidagi qonun qachon qabul qilingan?
1989 yil 21 oktabr
1990 yil 21 oktabr
1991 yil 21 oktabr
1990 yil 20 oktabr
51. Mustaqillik ma‘naviyatining bosh mezoni, asos-poydevori?
mas‘uliyat tuyg‘usidir.
vatan tuyg‘usi
millat qayg‘usi
vatanparvarlik tuyg‘usidir
52 O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi yig‘ilishida Prezident I.A. Karimov sobiq sovet tuzumi haqida shunday fikr bildiradi: “Bu tuzum o‘z xalqining tarixini, uning ruhi va urf-odatlarini, o‘z avlod-ajdodini bilmaydigantayanar edi.”
manqurtlarga
ziyolilarga
tarixchilarga
rahbarlarga
53. Birinchi Prezident I.Karimovning ilk risolasi qanday nomlanadi?
“O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li”
“Istiqlol va ma‘naviyat”
“O‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li”
“O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda”
54. Prezident I.A.Karimov quyidagi qaysi nutqida mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya tizimini tubdan o‘zgartirish, uni yangi zamon

talablari darajasiga ko‘tarish, shu bilan o‘sib kelayotgan avlodning kelajak hayotiga mustahkam poydevor yaratish masalasini bayon qilib bergan edi?
“Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”
“Barkamol avlod orzusi”
“O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda”
“Ilm fan yutuqlaridan to‘laroq foydalanaylik”
55. I.Karimov “xalqni, millatni birlashtiruvchi, yo‘lga boshlovchi bamisoli bir bayroq” deb nimaga ta’rif bergan edi?
Milliy g‘oyaga
Ma’naviyatga
Oilaga
vatanga
56. Konstitutsiyamizga binoan O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot nima asosida rivojlanadi?
siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida
qonun asosida
o‘zaro yordam asosida
fikrlarning yagonaligi asosida
57. Mustaqilligimizning uch asosiy jihatini aniqlang?
Ijtimoiy mustaqillik, iqtisodiy mustaqillik, siyosiy mustaqillik
Siyosiy mustaqillik, iqtisodiy mustaqillik, ma’naviy mustaqillik.
Moddiy mustaqillik va ma’naviy mustaqillik
Siyosiy mustaqillik, harbiy mustaqillik, ma’naviy mustaqillik
58. Milliy ma’naviyat nazariyasining shakllanishiga O‘zbekistonni birinchi Prezidenti I.Karimovning qo‘shgan eng muhim xissasi?
ma’naviyatning iqtisod va siyosat bilan bir qatorda inson va jamiyat hayotidagi alohida mustaqil o‘rni va ahamiyatini ajratib ko‘rsatgani
ma’naviyatga oid asarlar yozgani
Milliy ma’naviy merosimizni tiklashga e’tibor qaratgani
Taraqqiyotning “O‘zbek modeli”ni asoslab bergani
59. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida “Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas”, deb yozib qo‘yilgan?
12-moddasida
11-moddasida
10-moddasida
9-moddasida
60. Dunyoqarash bu...
Inson ongida shakllangan, muayyan tartibga solingan, yaxlit tizimga

aylangan bilim, tasavvur va g'oyalar majmuidir
Inson hayotini tartibga solib turuvchi turli bilim va ko'nikmalar
insondagi sog'lom fikr va g'oyalar majmui
Muayyan ma'nodagi bilim va ko'nikmalar
61. Dunyodagi eng buyuk jasorat bu?
A) ma'naviy jasorat
B) jismoniy jasorat
C) jamiyatda faqat o'zi uchun kurashish
D) o'zgalarga yordam ko'rsatish
62. Barcha xalqlar uchun ijobiy ahamiyat kasb etuvchi, insoniyatning umumiy manfaatlariga mos keluvchi moddiy va madaniy hodisalar, mezonlar, jarayonlar, munosabatlar, predmetlar?
umuminsoniy qadriyatlar hisoblanadi
milliy qadriyatlar hisoblanadi
mintaqaviy qadriyatlar
oilaviy qadriyatlar
63. Jamiyatning eng oliy qadriyati bu...
Xalq
Inson omili
Tabiiy, moddiy va qadri hech narsa bilan o'lchanmas ma'naviy boyliklar
Moddiy va ma'naviy qadriyatlar
64. Jamiyatning eng oliy qadriyati bu...
Xalq
Inson omili
Tabiiy, moddiy va qadri hech narsa bilan o'lchanmas ma'naviy boyliklar
Moddiy va ma'naviy qadriyatlar
65. Milliy istiqlol mafkurasining umumbashariy tamoyillari quyidagilar:
Inson haq-huquqlari, hurfikrlilik, turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, kattaga hurmat-kichikka izzat, diniy bag'rikenglik
Qonun ustuvorligi, inson haq-huquqlari, ayol zotiga ehtirom, el-yurt tushunchalarining muqaddasligi
Qonun ustuvorligi , inson haq-huquqlari, hurfikrlilik, turli millat vakillariga hurmat, ular bilan bahamjihat yashash, diniy bag'rikenglik
Qonun ustuvorligi, kattaga hurmat, kichikka izzat, ayol zotiga ehtirom, diniy bag'rikenglik, inson haq-huquqlari
66. Quyidagi fikrlar kimga tegishli: "Qayerda qonun hukm sursa o'sha yerda baxt, ozodlik bor"?

Abu Nosir Forobiyga
Abu Ali ibn Sinoga
Alisher Navoiyga
Amir Temurga
67. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining qaysi moddasida “O‘zbekiston xalqini, millatidan qat’iy nazar, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi” deb belgilab qo‘yilgan?
8-moddasida
7-moddasida
9-moddasida
10-moddasida
68. Yurtimizdagi bizga ma’lum ilk shakllangan yaxlit ma’naviyat tizimi qaysi kitobda o‘z aksini topgan?
“Avesto” kitobida
“Behustun bitiklarida”
A.Navoiyning “Hamsa” asarida
A.Yassaviyning “Hikmat” asarida
69. Ijtimoiy hayot nimalar asosida rivojlanadi?
siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligi asosida
mafkuralar asosida
siyosiy institutlar asosida
g‘oyalar asosida
70. Konstitutsiyaning nechanchi moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Konstitutsiyaga va qonunlarga asoslanib hamda ularni ijro etish yuzasidan mamlakatning butun hududida majburiy kuchga ega bo‘lgan farmonlar, qarorlar va farmoyishlar chiqaradi?
94-moddasiga
93-moddasiga
95-moddasiga
96-moddasiga
71. "Prezident" tushunchasi konstitutsiyaviy-huquqiy ma’noda qanday ma’noni anglatadi?
davlat boshlig‘i
oldinda o‘tiruvchi
rahbar
boshliq
72. Farmon, bu...
aniq bo‘lmagan jismoniy va yuridik shaxslarga taalluqli bo‘lib, uzoq muddatga amal qiluvchi hujjat

davlat organi yoki mansabdor shaxsning o‘z vakolati doirasida muayyan maqsadga erishish yo‘lida qabul qiladigan va biror oqibat keltirib chiqaradigan hujjati.
individual tashkiliy xususiyatdagi hujjat.
inson, jamiyat va davlat manfaatlari nuqtai nazaridan eng muhim hisoblanadigan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solish vositasi.
73. Qonun, bu...
inson, jamiyat va davlat manfaatlari nuqtai nazaridan eng muhim hisoblanadigan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solish vositasi.
aniq bo‘lmagan jismoniy va yuridik shaxslarga taalluqli bo‘lib, uzoq muddatga amal qiluvchi hujjat
davlat organi yoki mansabdor shaxsning o‘z vakolati doirasida muayyan maqsadga erishish yo‘lida qabul qiladigan va biror oqibat keltirib chiqaradigan hujjati.
individual tashkiliy xususiyatdagi hujjat.
74. Farmoyish, bu...
individual tashkiliy xususiyatdagi hujjat.
inson, jamiyat va davlat manfaatlari nuqtai nazaridan eng muhim hisoblanadigan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solish vositasi.
aniq bo‘lmagan jismoniy va yuridik shaxslarga taalluqli bo‘lib, uzoq muddatga amal qiluvchi hujjat
davlat organi yoki mansabdor shaxsning o‘z vakolati doirasida muayyan maqsadga erishish yo‘lida qabul qiladigan va biror oqibat keltirib chiqaradigan hujjati.
75. Qaror, bu...
davlat organi yoki mansabdor shaxsning o‘z vakolati doirasida muayyan maqsadga erishish yo‘lida qabul qiladigan va biror oqibat keltirib chiqaradigan hujjati.
individual tashkiliy xususiyatdagi hujjat.
inson, jamiyat va davlat manfaatlari nuqtai nazaridan eng muhim hisoblanadigan ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash, rivojlantirish va tartibga solish vositasi.
aniq bo‘lmagan jismoniy va yuridik shaxslarga taalluqli bo‘lib, uzoq muddatga amal qiluvchi hujjat
76. Estetik tarbiya...
o‘quvchilarda estetik his-tuyg‘u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go‘zallikni sevish, go‘zallikka

intilish tuyg'ularini rivojlantirish,estetik madaniyatni shakllantirish
o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish asosida ularda mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, ichki bozorni to'ldirish, kichik va o'rta biznesni yaratish borasidagi faoliyat jarayonida ishtirok etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish
o'quvchilarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari faoliyati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosati mazmunini o'rganishni ta'minlash asosida o'quvchilarda siyosiy faoliyat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish
o'quvchilarga shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o'quvchilarga tushuntirish, ularda ekotizimning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalarni qaror toptirish
77. Iqtisodiy tarbiya..
o'quvchilarda mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, ichki bozorni to'ldirish, kichik va o'rta biznesni yaratish borasidagi faoliyat jarayonida ishtirok etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish
o'quvchilarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari faoliyati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosati mazmunini o'rganishni ta'minlash asosida o'quvchilarda siyosiy faoliyat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish
o'quvchilarda shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o'quvchilarga tushuntirish, ularda ekotizimning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalarni qaror toptirish
o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantirish, estetik madaniyatni shakllantirish
78. Siyosiy tarbiya...
o'quvchilarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari faoliyati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosati mazmunini o'rganishni ta'minlash asosida o'quvchilarda siyosiy faoliyat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish
o'quvchilarga shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o'quvchilarga tushuntirish, ularda ekotizimning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalarni qaror toptirish

toptirish
o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantirish, estetik madaniyatni shakllantirish
o'quvchilarda mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, ichki bozorni to'ldirish, kichik va o'rta biznesni yaratish borasidagi faoliyat jarayonida ishtirok etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish
79. Ekologik tarbiya...
o'quvchilarga shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o'quvchilarga tushuntirish, ularda ekotizimning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalarni qaror toptirish
o'quvchilarda estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantirish, estetik madaniyatni shakllantirish
o'quvchilarda mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlash, bozor infrastrukturasi qoidalariga amal qilish, ichki bozorni to'ldirish, kichik va o'rta biznesni yaratish borasidagi faoliyat jarayonida ishtirok etish ko'nikma va malakalarini hosil qilish
o'quvchilarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fuqarolik jamiyati asoslari, milliy davlat tuzilishi, davlat organlari faoliyati, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosati mazmunini o'rganishni ta'minlash asosida o'quvchilarda siyosiy faoliyat ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish
80. Axloq tuzilmasi necha omildan iborat va ular qaysilar?
Axloq tuzilmasi uch omil – asosdan iborat bo'lib, bular: axloqiy ong, axloqiy hissiyot va axloqiy hatti-harakatlardir.
Axloq tuzilmasi ikki omil – asosdan iborat bo'lib, bular: axloqiy hissiyot va axloqiy hatti-harakatlardir.
Axloq tuzilmasi uch omil – asosdan iborat bo'lib, bular: vijdon, iroda va axloqiy hatti-harakatlardir.
Axloq tuzilmasi to'rt omil – asosdan iborat bo'lib, bular: axloqiy ong, axloqiy hissiyot, axloqiy yetuklik va axloqiy hatti-harakatlardir.
81. Toshkent shahri qaysi yil Islom madaniyatining poytaxti deb e'lon qilingan?
2007 yil
2009 yil
2010 yil
2002 yil

82. Yvropa ilmida birinchi bo‘lib, siyosat va ma’naviyatning (uning o‘z talqiniga ko‘ra axloqning) butkul boshqa-boshqa sohalar ekanligiga e’tibor qaratgan faylasuf?
Gegel
Nikkolo Makiavelli
I.Kant
Y.V.Gyote
83. Yevropa ilmida ilk bora “Ruhshunoslik” va “Axloqshunoslik” fanlari tadqiq doiralarining o‘zaro farqini aniq ajratib bergan faylasuf?
I.Kant
Gegel
Nikkolo Makiavelli
Y.V.Gyote
84. Badiiy tafakkurning eng qudratli va imkoniyatlari cheksiz vositasi qaysi san’at?
so‘z san’atidir
kino san’ati
rassomchilik
musiqa san’ati
85. Poklik islom axloqining asosiy unsurlaridan bo‘lib, u ikki xil bo‘ladi:
zohiriy va botiniy
ko‘ngil pokligi va tana pokligi
makon pokligi va tana pokligi
badan pokligi va libos pokligi
86. Zohiriy poklikning shakllari?
badan pokligi, libos pokligi, makon pokligi
ko‘ngil pokligi, badan pokligi
ruh pokligi, vijdon pokligi
tashqi go‘zallik
87. Qanday inson ma’naviy etuk shaxs hisoblanadi?
o‘zligini anglab etgan inson
ko‘p o‘qigan odam
kuchli bilimli inson
irodasi kuchli odam
88. O‘zbek tilida etib kelgan ma’naviy merosimizning necha foizini she’riyat tashkil etadi?
80 foizini
60 foizini

90 foizini
50 foizini
89. Birinchi Prezident I. Karimovning “Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch” kitobida qaysi tarixiy shaxs “tengsiz azmu shijoat, mardlik va donishmandlik” siymosida bayon qilingan?
Sohibqiron Amir Temur
Jaloliddin Manguberdi
Temur Malik
Spitamen
90. Insoniyat tarixiy takomili hozirgi Yevropa ilmida nechta asosiy davrga ajratiladi?
Ibtidoiy jamoa, Qadimgi dunyo, O’rta asrlar, Yangi davr
Tosh davri, bronza davri, temir davri
Ibtidoiy jamoa, Qadimgi dunyo, O’rta asrlar, Yangi davr, Eng yangi davr
Qadimgi dunyo, O’rta asrlar, Yangi davr
91. Ibtidoiy inson ongida Borliq haqiqatining xayoliy timsollar vositasida ifodalanishi nima deyiladi?
asotir
ertak
masal
doston
92. Ajdodlarimiz merosida “ma’no” va “haqiqat” tushunchalari nimani ifodalash uchun ishlatiladi?
boqiy dunyoni
nafsni
ma’rifatni
insonni
93. Evropada “Avesto” kitobini o’rganish nechanchi asrdan boshlandi?
XYIII asrdan
XV asrdan
XVII asrdan
XX asrdan
94. “Avesto” tilini o’rganib, “Avesto”ning mavjud kitoblarini frantsuz tiliga tarjima qilib, 1771 yilda nashr qilgan tadqiqotchini aniqlang?
frantsuz tadqiqotchisi Anketil Dyuperron
ingliz tarixchisi Meri Boys
nemis tarixchisi G. Ritter

rus tarixchisi S.P. Tolstov
95. “Avesto”ning bugungacha saqlanib qolgan qaysi qismida Axura Mazda yaratgan o‘lkalar sanaladi?
“Vendidad” qismida
“Yasht” qismida
“Goh” qismida
“Yasna” qismida
96. Ilk Uyg‘onish davrining buyuk faylasufi, “ikkinchi muallim” unvonini olgan mutafakkir...
Abu Nasr Forobiy
Ibn Sino
Beruniy
Xorazmiy
97. Qur’oni karimda “ilm” so‘zi asosidagi “alima” (bilmoq) fe’l negiziga tayangan kalimalar necha marta uchraydi?
750 marta
700 marta
400 marta
70 marta
98. Islom mintaqa madaniyati – asosan nechanchi asrlarda shakllangan?
X-XII asrlarda
VIII – IX asrlarda
IX-XI asrlarda
XI-XIV asrlarda
99. Nechanchi asr hadis ilmining «oltin asri» deb shuhrat qozongan?
IX asr
XI asr
XIV asr
X asr
100. “Metod” atamasi yunoncha “metodos” so‘zidan bo‘lib, “yo‘l”, “haqiqatni anglab etish yo‘li” ma’nolarini ifodalaydi. Arab tilida bu so‘zning muqobili qanday ataladi?
“tariq” yoki “tariqa”
ma’rifat
usul
shariat

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2021 йил.
2. Ўзбекистон Республикасининг “Сиёсий партиялар тўғрисида”ги Қонуни.// Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 25-сон, 287-модда; 2007 й., 15-сон, 153-модда; 2008 й., 52-сон, 510, 513-модда; 2014 й., 4-сон, 45-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.04.2018 й., 03/18/476/1087-сон.
3. Виждон эркинлиги ва диний ташкилотлар тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни.//Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 5-6-сон, 99-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 й., 52-сон, 513-модда; Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 19.04.2018 й., 03/18/476/1087-сон).
4. Жисмоний ва юридик шахсларнинг муурожаатлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг қонуни.// Халқ сўзи, 2014 йил 4 декабр,235 (6165)-сон.
5. Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasi.// Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 16.11.2019-y., 06/19/5876/4029-son.
6. Таълим тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг қонуни. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 24.09.2020 й., 03/20/637/1313-сон.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Миллий ғоя ва маънавий-маърифий ишларнинг самарадорлигини ошириш тўғрисида”ги Қарори. //“Маърифат” газетаси. 68-сон, 2006-йил.
8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-sonli “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi qarori. //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-apreldagi “O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g‘oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5465-son Farmoyishi. //www.lex.uz.

11. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони.2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида// Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон.
12. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамыз. //Халқ сўзи, 2016 йил, 14 декабрь.
13. Мирзиёев Ш.М. Демократик ислохотларни изчил давом эттириш, халқимиз учун тинч ва осойишта, муносиб ҳаёт даражасини яратиш – барқарор тараққиёт кафолатидир // Халқ сўзи, 2016 йил. 20 октябрь
14. Президент Шавкат Мирзиёевнинг “Камолот” ёшлар ижтимоий ҳаракатининг ИВ қурултойидаги нутқи. //Халқ сўзи, 2017 йил, 30 июнь.
15. Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 25 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. //Халқ сўзи, 7 декабрь. 2017 йил.
16. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзлаган нутқи. //Халқ сўзи, 2017 йил, 5 июнь.
17. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси//Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь.
18. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга йўллаган мурожаатномаси.//Халқ сўзи, 2018 йил, 29 декабрь.
19. Мирзиёев Ш.М.Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд . – Тошкент: Ўзбекистон, 2019 йил.
20. Мирзиёев Ш.М.Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир.2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019 йил.
21. Мирзиёев Ш.М.Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019 йил.
22. Мирзиёев Ш.М.Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари. 4-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020 йил.
23. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 1-октябрь Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи// Халқ сўзи, 2020 йил, 1 октябрь.

24. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. //Халқ сўзи, 2020 йил 25 январь.
25. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. //Халқ сўзи, 2020 йил 30 декабрь.
26. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “O‘zbekiston” нашриёти, 2021 йил.
27. Агар жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир/ в Ўзбекистон президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 2021 йил 19 январь куни бўлиб ўтган маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштиришга бағишланган видеоселектор йиғилиши материаллари//Халқ сўзи. 2021 йил, 20 январь.
28. Каримов И.А. Истиқлол йўли: муаммолар ва режалар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1992 йил.
29. Каримов И. Ўзбекистоннинг сиёсий-ижтимоий ва иқтисодий истиқболининг асосий тамойиллари. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир. -Тошкент: Ўзбекистон, 1995 йил.
30. Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. – Тошкент: Ўзбекистон, 1996 йил.
31. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997 йил.
32. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни-халқ, миллатни-миллат қилсин. //Адолатли жамият сари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1998 йил.
33. Каримов И.А. Оила фаровонлиги – миллат фаровонлиги Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлидан. 6-жилд -Тошкент: Ўзбекистон, 1998 йил.
34. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ.– Тошкент: Шарқ, 1998 йил.
35. Каримов И. А. Ўз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурмоқдамиз. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Т.7. Тошкент: Ўзбекистон, 1999 йил.
36. Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. /Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Т.7. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999 йил.
37. Каримов И. Ўзбекистон ХХІ аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Ўзбекистон буюк келажак сари. –Тошкент:Ўзбекистон, 1999 йил.
38. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни - халқ, миллатни-миллат қилишга хизмат этсин./Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. Т.7. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999 йил

39. Каримов И.А. Оллоҳ қалбимизда, юрагимизда. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999 йил.
40. Каримов И. А. Жамият мафкураси халқни халқ, миллатни миллат қилишга хизмат этсин. Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан кураимиз. Т.7. –Тошкент:Ўзбекистон, 1999 йил
41. Каримов И.А.Миллий мафкура – давлатимиз ва жамиятимиз курилишида биз учун руҳий-маънавий куч-қувват манбаи/Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. Т. 8. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000 йил.
42. Каримов И.А. Миллий истиқлол мафкураси-халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. – Тошкент:Ўзбекистон, 2000 йил.
43. Каримов И.А. Ҳушёрликка даъват/Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт-пировард мақсадимиз. Т. 8. – Тошкент:Ўзбекистон, 2000 йил.
44. Каримов И.А. Биз танлаган йўл-демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. 11-жилд.-Тошкент: Ўзбекистон, 2003 йил.
45. Каримов И.А. Ўзбекистонда демократик ўзгаришларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамияти асосларини шакллантиришнинг асосий йўналишлари. Биз танлаган йўл – демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. –Тошкент: Ўзбекистон, 2003 йил.
46. Каримов И.А. Бизнинг бош мақсадимиз – жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишдир. Ўзбек халқи ҳеч қачон, ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т. 13. – Тошкент: Ўзбекистон, 2005 йил.
47. Каримов И.А. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда манфаатлари – энг олий қадрият. Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари – олий қадрият. Т.14. –Тошкент: Ўзбекистон, 2006 йил.
48. Каримов И. А. Демократик ҳуқуқий давлат, эркин иқтисодиёт талабларини тўлиқ жорий этиш , фуқаролик жамияти асосларини куриш-фаровон ҳаётимиз гаровидир. Жаиятимизни эркинлаштириш, ислоҳотларни чуқурлаштириш, маънавиятимизни юксалтириш ва халқимизнинг ҳаёт даражасини ошириш – барча ишларимизнинг мезони ва мақсадидир. Т.15. –Тошкент: Ўзбекистон, 2007 йил.
49. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008 йил.
50. Алишер Навоий Маҳбуб ул қулуб. -Тошкент: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983 йил.

51. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 14-жилд. – Тошкент: 1998 йил.
52. Амир Темур ўғитлари. – Тошкент: Навруз, 1992 йил.
53. Абу Наср Форобий Фозил одамлар шахри. – Тошкент: Навруз, 1993 йил.
54. Abdurauf Fitrat. Oila yokki boshqarish tartiblari – Toshkent: Cho‘lpon, 2013-yil.
55. Авлоний Абдулла. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992 йил.
56. Абилов Ў. Миллий ғоя, маънавий омиллар. -Тошкент: “Маънавият”, 1999 йил.
57. Bell D. The Two Culture and the Scientific Revolution. Cambridge, 1969.
58. Бердяев Н. Духовный кризис интеллигенции. – Москва: Канон, 1998, С.92.
59. Бекпўлатов Х, Мамадалиев Р. Глобаллашув шароитида ахборот хуружларига қарши курашнинг айрим масалалари. Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. –Тошкент: 2016 йил.
60. Василенко И.А. Геополитика современного мира: учеб. пособие. Москва: Издательство Юрайт, 2010, С.233.
61. Гриненко Г.В. Хрестоматия по истории мировой культуры. – Москва: Высшее образование, 2005, С 98.
62. Гаспаров М. Л. Историзм, массовая культура и наш завтрашний день. Вестник истории, литературы, искусства. Отд-ние ист.-филол. наук РАН. – Москва: Собрание; Наука. Т. 1, 2005.
63. Дюверже М. Политические партии. Пер. с франц. изд. 3-е. – Москва: “Академический Проект”, 2005.
64. Жалолов А., Хоназаров Қ. умумий таҳририда. Мустақиллик: изоҳли илмий оммабоп луғат. –Тошкент: Шарқ, 1998 йил.
65. Жўраев Н. Тафаккурдаги эвристик: Истикбол изтироблари ва қувончлари ҳақида мулоҳазалар. –Тошкент: Шарқ, 2001 йил.
66. Жўраев Н. Мафкуравий иммунитет. -Тошкент: “Маънавият”, 2001 йил.
67. Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. – Тошкент: Маънавият, 2008 йил
68. Иброҳимов А., Султонов Х., Жўраев Н. Ватан туйғуси. –Тошкент: Ўзбекистон, 1996 йил.
69. Йўлдошева С.М. Соғлом турмуш тарзи – таҳдидларга қарши кураш омили сифатида. Соғлом турмуш тарзини шакллантиришда ахлоқий кадрларнинг ўрни. // Тошкент: 2009 йил.

70. Отамуратов С. Миллий ривожланиш фалсафаси. – Тошкент: Академия, 2005 йил.
71. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2000 йил.
72. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. Изоҳли кўргазмалар воситалар тўплами. –
73. Тошкент: Янги аср авлоди, 2001 йил.
74. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунчалар, тамойиллар ва атамалар (қисқа изоҳли тажрибавий луғат) –Тошкент: 2002 йил.
75. Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалар луғати. – Тошкент: Академия, 2007 йил.
76. Миллий ғоя ва раҳбар маъсулияти./ Қ.Назаров, И.Эргашев ва бошқалар: Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши академияси. – Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2007 йил.
77. Миллий ғоя: назарий манбалар (Хрестоматия). – Тошкент: “Академия”, 2007 йил.
78. Маънавий асосий тушунчалар изоҳли луғати. –Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2013 йил.
79. Маматқулов Д.М. Мафкура тушунчаси, унда ғоя ва категорияларнинг тутган ўрни. //Замонавий таълим, 2015 йил, №11.
80. Мусаев М. Миссионерлик ва прозелитизмнинг жамият барқарорлигига таъдиди. – Тошкент: “MUMTOZ SO‘Z” Оилавий корхонаси нашриёти, 2020 йил.
81. Nazarov Q., Ergashev I. Milliy g‘oya va rahbar mas’uliyati. –Toshkent: Akademiya, 2007 yil.
82. Назаров Қ. Ғоялар фалсафаси. – Тошкент: Академия, 2011 йил.
83. Нискевич Ю. Институт выборов как механизм легитимации публичной власти// Мировая экономика и международные отношения. 2018. – №2.
84. Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий–маънавий хавфсизлик. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2013 йил.
85. Пахрутдинов.Ш. “Таҳдид” тушунчаси: назария ва амалиёт. – Тошкент: Абу Али ибн Сино номидаги тиббиёт нашриёти, 1998 йил.
86. Пахрутдинов Ш. Дунёвий демократик давлатчилик қурилиши амалиётида диний экстремизм таъдиди. с.ф.д. илмий даражаси учун ёзилган дис. 23.00.02. – Тошкент:2001.

87. Савкина И. Ф. Массовая культура: историография и проблема влияния на общество / Культура: управление, экономика, право. 2005. № 3.
88. Sobirova M.A. Tog‘ayqulov T. “Milliy g‘oya va ma‘naviyat asoslari” fanining nazariy asoslari va metodik masalalari” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – Toshkent: 2017.
89. Sobirova M.A., Zamonov Z.T., Niyozmatov A.B., Xo‘jayev M.O. Milliy g‘oya, ma‘naviyatning pedagogik asoslari. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Nodirabegim, 2021 yil.
90. Тугаринов В.П. О ценностях жизни и культуры – Ленинград: ЛГУ, 1960, стр. 3.
91. Темур Тузуклари. – Тошкент: 1996 йил.
92. Тоҳир Карим. Муқаддас “Авесто” изидан.-Тошкент: Чўлпон, 2000 йил.
93. Тўраев Б., Раматов Ж. Миллий истиқлол ғояси: асосий хусусиятлари, фалсафий ва тарихий илдизлари. –Тошкент: Ижод дунёси, 2002 йил.
94. Тўраев Ш. Демократик жараёнлар ва миллий ғоя. – Тошкент: Маънавият, 2008 йил.
95. Тўраев Ш. Маънавий таҳдидларни мониторинг қилиб боришнинг ижтимоий аҳамияти. // Маънавий ахлоқий иммунитет: таҳдидлар ва уларнинг манбалари.- Т.:”Мухаррир нашриёти”.2011
96. Тўраев Ш., Мухаммадиева О. Миллий ғоя тарихи ва назарияси. Ўқув-услубий қўлланма. – Тошкент: “Sano-standart” нашриёти, 2016 йил.
97. Тўраев Ш. ва б. Миллий ғоянинг инновацион тарғибот технологиялари ва ёшларнинг ахборот-психологик хуружларидан ҳимоя қилишнинг замонавий усуллари. – Тошкент: “Turon zamin ziyo”, 2016 йил.
98. Тоҳир Малик. Одамийлик мулки. –Тошкент:Sharq, 2016 йил.
99. Tohiriyon A., Sobirova M., Zamonov Z. Milliy g‘oya turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitishda interfaol ta‘lim metodlaridan foydalanish bo‘yicha uslubiy tavsiyalar. –Т.: RTM, 2017 yil.
100. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. З.М. Маъруфов таҳрири остида. – Москва, Рус тили нашриёти, 1981 йил.
101. Ўзбекистонда сиёсий партиялар. –Тошкент:“Академия” нашриёти, 2007 йил, 201-бет.
102. Фитрат А. Танланган асарлар. –Тошкент:Маънавият, 2000 йил.
103. Фалсафа. Қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2004 йил.

104. Форобий Абу Наср. Фазилат, бахт-саодат ва камолот ҳақида. – Тошкент: “Ёзувчи”, 2002 йил.
105. Эркаев А. Учинчи ренессанс – миллий ғоя сифатида// “Янги Ўзбекистон”, №172, 2020 йил, 9 сентябрь.
106. Эргашев И. Миллий ғоя ва фуқаролик жамияти. (Ҳаммуаллифликда). –Тошкент: Академия, 2005 йил.
107. Эргашев И., Мухаммадиева О., Бердиқулова С., Сафаров М. Миллий ғоя тарғиботи технологиялари. Ўқув қўлланма. – Тошкент: “Mashur-Press” нашриёти 2019 йил.
108. Umarova N. Milliy istiqlol g‘oyasini umumiy ta’lim tizimida singdirish texnologiyasi. –Toshkent: 2003 yil.
109. Yusubov D.A., Saitxodjayev X.B., Mavlyanov A.A. Falsafa. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 2012 yil.
110. Quronov M. Betakrorimsan, yagonasan, ona vatanim, O'zbekistonim. –Toshkent: “Ma'naviyat”, 2015 yil.
111. Ғойибназаров Ш. Оммавий маданият. –Тошкент: Ўзбекистон, 2012 йил.
112. Harakatlar strategiyasi asosida jadal taraqqiyot va yangilanish sari./ Nashrga tayyorlovchilar: M.Bekmurodov, Q.Quronboyev, L.Tangriyev. –Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017 yil.
113. Туркистон газетаси, 1999 йил, 2 февраль.
114. Халқ сўзи, 2006 йил, 26 август.
115. ЮНИСЕФ. Ижтимоий мониторинг. 2003 йил.
116. Жаҳон адабиёти, 2003 йил, ноябр.

№	MUNDARIJA	
1.	Kirish	3
I-bob. “MILLIY G‘OYA TARIXI VA NAZARIYASI” FANINING MAQSADI, VAZIFALARI VA NAZARIY ASOSLARI		
2.	“Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi” fanining obekti, predmeti, maqsadi va vazifalari	5
3.	Milliy g‘oyaning shakllanish tarixi, uning namoyon bo‘lish xususiyatlari	16
4.	Mustaqillik va milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar konsepsiyasining ishlab chiqilishi	32
5.	Milliy g‘oya tipologiyasi	44
II-bob. MILLIY G‘OYANING JAMIYAT HAYOTIDAGI TUTGAN O‘RNI		
6.	O‘zbekiston mustaqil demokratik taraqqiyotining milliy g‘oya konsepsiyasi bilan bog‘liqligi	55
7.	Milliy g‘oyaning jamiyat hayoti sohalari bilan bog‘liqligi	74
8.	Milliy g‘oyada inson – eng oliy qadriyat	85
9.	Inson erkinligi, huquq va manfaatlarining milliy g‘oyada aks etishi	96
10.	Milliy g‘oyada siyosiy institutlar va mafkuralar xilma xilligi tamoyili	105
III-bob. MILLIY G‘OYANING ASOSIY TAMOYILLARI VA UNING JAMIYAT HAYOTIDA NAMOYON BO‘LISHI		
12.	Milliy g‘oya negizlarini asrab-avaylash, uni himoya qilish shart-sharoitlari va omillari	116
13.	Milliy g‘oyaning umummafkuraviy jarayonlar bilan bog‘liqligi	130
14.	Milliy g‘oyaning o‘ziga xos xususiyatlari, rivojlanish mexanizmlari va vositalari	138
15.	Milliy g‘oyada ma’naviy va moddiy hayot uyg‘unligi	150
16.	Milliy g‘oya - millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta’minlash omili	161
17.	Milliy g‘oyada milliy va diniy bag‘rikenglik tamoyili	171
18.	Komil insonni shakllanishida milliy g‘oyaning o‘rni	182
19.	Ma’naviyatga tahdidlarning oldini olishda milliy g‘oyaga tayanish zarurati	191
20.	“Ommaviy madaniyat” ning milliy g‘oyaga zidligi, uning oldini olish shart-sharoitlari, omillari	206
21.	Yoshlarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashda milliy	224

	gʻoyaning ahamiyati	
22.	Oʻzbekistonda gʻoyaviy taʼlim-tarbiya va targʻibot-tashviqot institusional tizimi	233
23.	Izohli lugʻat – glossariy	251
24.	Konsulʼtativ materiallar	263
25.	Fanga oid bilim va koʻnikmalarni mustahkamlashga yoʻnaltirilgan test savollari	272
	Foydalanilgan adabiyotlar	291